

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

NURIDIN YUSUPOVICH JO'RAYEV

MOLIYAVIY HISOBOT

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-
metodik birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan
5340800 «Soliqlar va soliqqa tortish» ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv
qo'llanma sifatida tavsiya etilgan**

TOSHKENT- 2007

© N.Yu.Jo'rayev. Moliyaviy hisobot. O'quv qo'llanma. TDIU. T.: 2007.

O'quv qo'llanma Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq tayyorlangan bo'lib, unda buxgalteriya balansi va uning tuzilishi, moliyaviy natijalar to'grisida hisobot, asosiy vositalar harakati to'grisida hisobot, pul okimlari to'grisida hisobot, xususiy kapital harakati to'grisidagi hisobotlarni tuzish va taqdim etish hamda moliyaviy hisobot shakllariga izoh va tushuntirish xatlarini rasmiylashtirishning tartibi nazariy va amaliy jihatdan keng yoritib berilgan.

Ushbu qo'llanma oliy o'quv yurtlarining bakalavriat va magistratura talabalari uchun qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. Shuningdek, buxgalterlar, auditorlar, menedjerlar va soliq nazoratchilari ham qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir: O'.T. Eshboyev - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent. TDIU "Buxgalteriya hisobi va audit" fakul'teti dekani.

Taqrizchilar:

1. A.K. Ibragimov - iqtisod fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi "Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit" kafedراسi mudiri.
2. A.Babajanov – iqtisod fanlari nomzodi, TDIU "Buxgalteriya xisobi" kafedrasining professori

© Н.Ю. Жураев. Финансовая отчетность. Учебное пособие. Ташкентский Государственный Экономический Университет. Т.: 2006 г.

Учебное пособие подготовлен в соответствии с Государственным стандартом образования, и в нем раскрыты теоритические и практические вопросы бухгалтерского баланса и его структура, отчет о финансовых результатах, отчет о движении основных средств, отчет о денежных потоках, отчет о собственном капитале и порядок оформления пояснений, примечаний, и расчётов.

Данное учебное пособие рекомендовано в качестве учебного пособия для студентов бакалавриата и магистратуры высших учебных заведений. Также рекомендуется в качестве учебное пособие бухгалтерам, аудиторам, менеджерам и налоговым инспекторам.

Ответственные редакторы:

1. У.Т. Эшбоев – кандидат экономических наук, доцент. ТГЭУ, декан факультета «Бухгалтерского учета и аудита».
2. М.Ю. Рахимов - кандидат экономических наук, доцент. ТФИ, декан факультета «Бухгалтерского учета и аудита».

Рецензенты:

1. А.К. Ибрагимов – доктор экономических наук, заведующий кафедрой «Бухгалтерского учета, анализа и аудита» Банковско-финансовой академии Республики Узбекистан.
2. А. Бабажанов – кандидат экономических наук, профессор кафедры «Бухгалтерского учета» ТГЭУ

© N. Yu. Juraev. Financial statement. The nextbook. T.; TSEU. 2007 y.-233 p

The textbook is prepared in according to State standard of education, and in it is opened theoretical and practical questions of accounting balance and its structure, report on financial results, report on movement of the basic estates, report on money flows, report on the own capital and order of registration of the comments and explanatory letters to the financial reporting.

The given textbook is recommended as the textbook for the students bachelor and mastership degree of higher educational institutions. Also to bookkeepers, auditors, managers and tax inspectors will be recommended as the textbook.

Responsible editor: U.T. Eshboyev - candidate of economic sciences, senior lecturer. TSEU, dean of faculty " Accounting and audit ".

The reviewers:

1. А.К. Ибрагимов - doctor of economic sciences, manager by faculty " of book Keeping, analysis and audit " of Banking-financial academy of Republic of Uzbekistan.
2. А. Бабажанов - candidate of economic sciences, professor of faculty of "book keeping" TSEU.

KIRISH

Fanni o'rganishning dolzarbligi. Iqtisodiyotni tizimli va tarkibiy jihatdan izchil yangilash davrida iqtisodiyotda makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishda yetakchi o'rin tutishi lozim bo'lgan ishlab chiqarish, soha va tarmoqlarni jadal rivojlantirish O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari muammolarini hal etishga qaratildi.¹ Ushbu vazifalarni bajarishda, xo'jalik yurituvchi su'yektlarda buxgalteriya hisobi va hisobotlarni xalqaro standartlar talablariga muvofiq mukammalltirish masalalari bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Buning uchun xo'jalik yurituvchi su'yektlarda buxgalteriya hisobining dastlabki hisob ma'lumotlarining tuzilishi va ularning rasmiylashtirilishini, shuningdek, tuziladigan hisobotlarning shakli va mazmunini takomillashtirishni taqazo etadi.

«Moliyaviy hisobot» kursini o'rganishdan maqsad-xo'jalik yurituvchi su'yektlarda buxgalteriya hisobotlarining nazariy va uslubiy asoslarini, shuningdek, usul va tamoyillarini chuqur o'rgatishdan iboratdir. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

-bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy hisobotning mazmuni, o'rne va ahamiyati;

-moliyaviy hisobotning ichki va tashqi foydalanuvchilarni korxonada faoliyatiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlashdagi vazifalari;

-moliyaviy hisobotning tuzilishi va tarkibi;

-buxgalteriya balansi va uni tuzish uslubi;

-moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlari va uni tuzish tartibi;

-asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobotning mazmuni va uni tuzish qoidalari;

-xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning korxonada faoliyatining samaradorligini oshirishdagi o'rne va uni tuzish usullarini qo'llash;

-pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning korxonada moliya resurslarini boshqarishdagi ahamiyati va uni tuzishda milliy va xalqaro standartlarda qo'llaniladigan usullarni va ularni amaliyotga qo'llash;

-moliyaviy hisobotlarga izoh xatini tayyorlash;

-moliyaviy hisobotlarni taqdim qilish va topshirish tartiblarini o'rganishdan iboratdir.

«Moliyaviy hisobot» kursi «Buxgalteriya hisobi nazariyasi», «Moliyaviy hisob», «Boshqaruv hisobi», «Moliyaviy tahlil», «Moliya va kredit», «Soliq va soliqqa tortish», «Menejment», «Marketing», «Statistika» kabi fanlar uzviy bog'liqlikda o'rganiladi.

«Moliyaviy hisobot» fanini o'qitishda quyidagi ilg'or pedagogik va axborot texnologiyasidan: aqliy hujum, bumerang, insert, veer, prezentatsiya, slaydlar tayyorlash va ulardan samarali foydalanish; testlar tayyorlash, Internet tizimidan keng foydalaniladi.

¹ Каримов И.А. Эришилган ютуларни мустацкамлаб, янги марралар сари изчил щаракат =илишимиз лозим. «Хал= сызи» газетаси. 29 (3828)-сон.11.02.2006.

Fan bo'yicha o'quv adabiyotlarining qiyosiy tahlili. Mazkur qo'llanmani tayyorlash jarayonida "Buxgalteriya hisobi» fani bo'yicha tayyorlangan o'quv adabiyotlari tahlil qilindi. Bular jumlasiga, «Moliyaviy hisob» (O.Bobojonov va K.Jumaniyozov. Darslik, 2002y), «Учет, ситуации и примеры.» (Энтони Р., Дж. Рис. Учебник, 2000 г), «Принципы бухгалтерского учета.» (Нидлз Б. Учебник, 2000г) «Buxgalteriya hisobi» (A.Karimov, F.Islomov. A.Avloqulov. Darslik, 2004y), «Zamonaviy buxgalteriya hisobi» (A.Sotvoldiyev. Darslik, 3-tom, 2004y), «Buxgalteriya hisobi nazariyasi» (B.Xoshimov. Darslik, 2004y), Бухгалтерский учет (Н.Г.Кондраков. Учебник, 2004 г), kabi o'quv adabiyotlari yaratilgan. Ushbu adabiyotlarning Xorijda chop etilganlari bizda amal qilinayotgan buxgalteriya hisobi schyotlar rejasiga ko'ra va ular namunaviy o'quv dasturimizdan ham farq qiladi. Respublikamizda chop etilganlari esa, dastur asosida yozilgan bo'lib, «Buxgalteriya hisobi va audit» yo'nalishlariga mo'ljallanganligidir. Biroq, namunaviy o'quv rejasiga binoan, boshqa iqtisodiyot yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalarga «Moliyaviy hisobot» kursini fan sifatida o'qitilishi, ushbu fan bo'yicha darslik tayyorlashni taqozo qilmoqda. Shu boisdan, yuqorida keltirilgan adabiyotlar mazkur fan bo'yicha tuzilgan namunaviy o'quv rejasiga mos kelmasligidir. Albatta yuqorida sanab o'tilgan darslik va o'quv qo'llanmalar yuqori saviyada yozilgan o'quv adabiyotlari hisoblanadi hamda ular nazariy-amaliy ahamiyatga egadir. Biroq, 2004 yildan boshlab xo'jalik yurituvchi su'yektlar faoliyatiga 21-sonli BHMSni tatbiq etilishi, ushbu adabiyotlarni ham qayta ishlashni taqozo qilmoqda. Bu standartga muvofiq, barcha su'yektlarda xo'jalik jarayonlarini Yangi schyotlar rejasiga binoan, hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari yaratildi. Shu boisdan, "Moliyaviy hisobot" fanidan qo'llanmani yaratishga ehtiyoj sezilganligi bois, mualliflar tomonidan o'quv rejasiga ko'ra, namunaviy dastur asosida mazkur o'uv qo'llanma tayyorlandi.

Kitob Oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun darslik sifatida tavsiya qilinadi. Shuningdek, darslikdan buxgalterlar, auditorlar, tadbirkorlar, menejerlar, iqtisodchilar va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari hamda talabalari ham qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

1-Bob. O'zbekistonda va xalqaro amaliyotda moliyaviy hisobotning mazmuni va ahamiyati

1.1. Moliyaviy hisobot to'g'risida tushuncha, uning mohiyati va ahamiyati

Bozor munosabatlari sharoitida korxonani samarali boshqarish uning xo'jalik faoliyati, mablag'laridan foydalanish, ularni tashkil etish manbalari to'g'risidagi iqtisodiy axborotlarni tezkorlik bilan olish va foydalanishni talab qiladi.

Bu boshqaruv xodimlaridan moliyaviy hisobotni o'qiy olish, ya'ni hisobot har bir moddasining iqtisodiy mohiyatini tushunish, uning korxonada faoliyatidagi rolini baholash usullarini, balans va hisobotning boshqa shakllari moddalari bilan aloqasini, u yoki bu modda bo'yicha summalar o'zgarishi tavsifini va ushbu o'zgarishlar ahamiyatini baholash mahoratini bilishni talab etadi.

Moliyaviy hisobot moddalaridan foydalanib, korxonada to'g'risida ma'lumot olish, uning moliyaviy ahvoli va bozor faolligini tahlil qilish mumkin.

Moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi ma'lumotlari, aniqrog'i moliyaviy hisob ma'lumotlari asosida tuziladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi axborotlar tashqi foydalanuvchilar uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki ularni xo'jalik yurituvchi su'yektga o'z mablag'larini sarflash maqsadga muvofiqligini aniqlash o'ta ahamiyatli hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy holatini (xarajatini qoplay olishini) yaqqol ko'rsatadi.

Xo'jalik yurituvchi su'yektlarda buxgalteriya hisobini yuritishdan ko'zlangan asosiy maqsad uning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish asosida uning rahbariyati hamda manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar uchun zarur ma'lumotlar to'plamini vujudga keltirishdan iboratdir.

Xo'jalik yurituvchi su'yekt rahbariyati uchun zarur ma'lumotlar uning hisob yuritish siyosatida belgilangan ichki hisobot shakllari, boshqaruv apparati talablaridan kelib chiqib o'rnatilgan boshqa hisobot shakllari, shuningdek, tezkor va statistik hisobot shakllari orqali uzatiladi.

Xo'jalik yurituvchi su'yekt faoliyatidan manfaatdor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning ma'lumotlarga bo'lgan talab va ehtiyojlari moliyaviy hisobot orqali qondiriladi. Agar xo'jalik yurituvchi su'yekt rahbariyati uchun zarur ma'lumotlar ular belgilagan va talab qilgan sanaga tayyorlansa hamda uzatilsa, moliyaviy hisobot moliya vazirligi belgilagan sanalarga tuziladi hamda taqdim qilinadi. Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlaridan xo'jalik yurituvchi su'yekt rahbariyati ham o'z faoliyatida keng foydalanadi. Ammo uning ma'lumotlari asosan tashqi foydalanuvchilarning talab va ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan. Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari qat'iy belgilangan va unga o'zgartirishlar kiritish mumkin emas.

Moliyaviy hisobotda xo'jalik yurituvchi su'yekt faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari umumiy qabul qilingan va qat'iy qabul qilingan qoidalar hamda tartiblar asosida tuziladi. Moliyaviy hisobot xalqaro talablar asosida tuzilganda umumiy qabul qilingan qoidalar va tartiblar qo'llaniladi. Har bir mamlakatda

moliyaviy hisobotni tuzish tartib va qoidalari belgilanadi. Agar mamlakatda moliyaviy hisobotni tuzish moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida amalga oshirilishi belgilansa, unda ushbu standartlar talablari va uning qoidalariga muvofiq tuziladi.

Umuman moliyaviy hisobot su'yekt faoliyatining oynasi hisoblanadi. Uning ma'lumotlari asosida su'yekt faoliyatiga baho beriladi va xulosa qilinadi. Moliyaviy hisobotda su'yektning aktivlari, majburiyati, kapitali, daromadlari, xarajatlari, foydasi (zarari) va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlari o'z aksini topadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda 1990 yilgacha moliyaviy hisobot tushunchasi emas, balki hisobot tushunchasi keng qo'llanilgan. Moliyaviy hisobot tushunchasi hisobot tushunchasidan farq qiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, moliyaviy hisobot moliyaviy buxgalteriya hisobi, aniqrog'i moliyaviy hisob ma'lumotlari asosida tuziladi. Hisobot esa buxgalteriya hisobi va boshqa hisob (statistik, tezkor) ma'lumotlari asosida tuziladi.

1.1.1-jadval

Hisobot va moliyaviy hisobotni ayrim belgilari bo'yicha taqqoslash

Taqqoslash belgilari	Hisobot	Moliyaviy hisobot
Foydalanuvchilarga mo'ljallanganligiga qarab	Ichki va yuqori organlar	Tashqi foydalanuvchilar
Tijorat sirini fosh qilish bo'yicha	Fosh qiladi	Fosh qilmaydi
Reja ko'rsatkichlariga bog'liq	Reja ko'rsatkichlariga bog'liq	Bog'liq emas.
Hisobotni tuzishda foydalaniladigan manbalari bo'yicha	Buxgalteriya hisobi, statistik va tezkor hisob ma'lumotlari	Moliyaviy hisob ma'lumotlari
Shakli bo'yicha	Xalq xo'jaligi tarmoqlari va mulkchilik shakli bo'yicha har xil	Barcha xo'jalik yurituvchi su'yektlar uchun bir xil

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, hisobot va moliyaviy hisobot shaklan va mazmunan, foydalanuvchilar, tijorat sirini mujassam qilishi, foydalaniladigan manbalari va reja ko'rsatkichlariga bog'liqligi nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi. Buning sababi markazlashtirilgan rejali iqtisodiyot sharoitida uning talablari asosida tuzilgan bo'lsa, moliyaviy hisobot bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan sharoitda vujudga kelgan.

Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish «hisobot» va «moliyaviy hisobot» tushunchalariga berilgan ta'riflarda ham tub farqlarning mavjuddigini ko'rsatdi, hamda ushbu ta'riflar ularning iqtisodiy mazmunini ochib beradi.

1.1.2-jadval

«Hisobot» va «Moliyaviy hisobot» tushunchalariga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflarning qiyosiy tahlili

Tartib raqami	«Hisobot» tushunchasiga berilgan ta'riflar va ular keltirilgan manbalar	Tartib raqami	«Moliyaviy hisobot» tushunchasiga berilgan ta'riflar va ular keltirilgan manbalar
1	«Hisobot-bu asosiy fondlar, me'yorlashtiriladigan va me'yorlashtirilmaydigan aylanma mablag'lar hamda ushbu mablag'larning tashkil topish manbalari holati, shuningdek ularni tavsiflovchi ko'rsatkichlari, moliyaviy natijalar va foydadan foydalanishi yo'nalishlarining o'zaro bog'langan va umumlashtirilgan tizimidir.» (Бухгалтерский учет. И.Е. Тишкев и др.- Минск: Вышш. школа.,1991.стр.508-509)	1	Moliyaviy hisobot alohida mustaqil xo'jalik yurituvchi su'yekt bo'lishi yoki xo'jalik yurituvchi su'yektlarning uyushgan guruhiga kirishidan qat'iy nazar bajaradigan, xo'jalik yurituvchi su'yektga ta'sir ko'rsatuvchi moliyaviy hodisalarni va muomalalarni qayd qilish usuli hisoblanadi. (1-BXMS «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» 5-modda)
2	«Buxgalteriya hisoboti xo'jalik rejalarini bajarilishi ustidan nazorat qilib turish uchun kerakli umumlashtirilgan ko'rsatkichlar sistemasidan iborat» (Sotivoldiyev A.S. Buxgalteriya hisobi. T.: Mehnat, 1991 y. 452-bet)	2	Moliyaviy hisobotlarda su'yektning o'z majburiyatlarini bajarishi va sarmoyalarni qaytarishi uchun daromad kelgusida pul tushumlarini olish qobiliyatini istiqbol qilishga yordam beradigan axborot aks ettirilishi kerak. (Moliyaviy hisob. T.: «Korana» 2000 y. 8-bet)
3	«Sanoat korxonalarining hisobot umumlashgan ko'rsatkichlar sistemasidan iborat bo'lib, unda korxonada moliya xo'jalik faoliyatining natijasi va ma'lum davrga reja ko'rsatkichlarining bajarilishi buxgalteriya, statistika va operativ-texnika hisobi ma'lumotlariga asoslanib xarakterlanadi.» (Umarova M. Buxgalteriya hisobi. T.: O'qituvchi, 1992 y. 242-243-betlar)	3	«Moliyaviy hisobot alohida mustaqil korxonada bo'lishi yoki xo'jalik yurituvchi korxonalarining uyushgan guruhiga kirishidan qat'iy nazar, bajaradigan va su'yektga ta'sir ko'rsatuvchi moliyaviy voqealarni va muomalalarni ko'rsatish usuli hisoblanadi.» (Karimov A.A. va boshqalar. Buxgalteriya hisobi. T.: Sharq, 410-bet)
4	«Ma'lum davrga bo'lgan hisob ko'rsatkichlarini umumlashtirish hisobot deb ataladi» (Qodirxonov S.B. Sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi. T.: «O'qituvchi», 1993 y. 325-bet.)	4	«Moliyaviy hisobot korxonaning moliyaviy holati, mablag'lari va ularning manbalarini ma'lum sanaga aks ettirilishi tushuniladi.» (Палий В.Ф. Современный бухгалтерский учет. Инфра-М, 2003 г. стр.48.)

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, «hisobot» tushunchasiga berilgan ta'rifda asosan buxgalteriya hisobi va uning natijaviy ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi

hisobotning markazlashtirilgan rejali iqtisodiyot sharoitidagi vazifalaridan kelib chiqqan holda yondoshilgan. Ushbu ta'riflarda buxgalteriya hisobi va hisobotiga qo'yilgan talablar va ularning o'ziga xos tamoyillariga asoslanilgan.

«Moliyaviy hisobot» tushunchasi bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, shuningdek uning asosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda yoritilgan.

«Hisobot» va «Moliyaviy hisobot» tushunchalariga ta'rif berishda har bir muallif uning qaysidir jihati va tomonlarini asos qilib olgan va unga tayangan holda ta'rifni shakllantirgan. Ammo «Hisobot» tushunchasi yoritilganda asosan rejani bajarilishiga e'tibor qaratilgan bo'lsa, «moliyaviy hisobot» tushunchasiga ta'rif berishda esa bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ahamiyati asos qilib olingan.

Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy hisobotga berilgan ta'riflar uning mazmunini to'la ochib bera olmagan. Fikrimizcha moliyaviy hisobotga quyidagicha ta'rif berish mumkin: «Moliyaviy hisobot har bir mamlakatda qabul qilingan tartib-qoidalar asosida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish natijasida su'yektning mol-mulki, mablag'lari, majburiyatlari, kapital, daromaddari, xarajatlari, foydasi (zarari)ning umumiy qiymati hamda ularning tarkibi to'g'risidagi, shuningdek, foydalanuvchilar uchun zarur boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'zida mujassam qilgan maxsus hisobot shakllarining yig'indisidir». Chunki, har bir mamlakatda xo'jalik yurituvchi su'yektlarning moliyaviy hisobot shakllari va ularning ko'rsatkichlari belgilab qo'yiladi.

Bizning mamlakatimizda «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunga muvofiq moliyaviy hisobotda quyidagi axborotlar bo'lishi lozim:

-investitsiya qarorlari va kreditlar berish to'g'risida qarorlar qabul qilishda kerak bo'ladigan axborot;

-su'yektning bo'lajak pul oqimlarini baholashda foydali axborot;

-su'yektga berilgan resurslar, majburiyatlar va ulardagi o'zgarishlar to'g'risida axborot.

Yuqoridagi axborotlardan tashqari, moliyaviy hisobotda batafsilroq ma'lumotlar ham beriladi. 1-BHMA «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot»ga asosan, moliyaviy hisobot foydalanuvchilarga pul mablag'lari harakati oqimini taxmin qilishga yordam beradigan, korxonaning mulki va ixtiyoridagi resurslari to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi zarur:

-korxonaning nazorati ostida bo'lgan aktivlar haqida;

-korxonaning passivlari haqida;

-korxonaning taqsimlanmagan daromadi, korxonaning bir davrdan boshqa davrga o'tishdagi iqtisodiy imkoniyatlari va majburiyatlaridagi o'zgarishlar haqida;

-pul mablag'larining harakati haqida.

Ushbu ma'lumotlar moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun xo'jalik yurituvchi su'yekt faoliyati to'g'risida batafsilroq va to'la axborot olish imkonini beradi. Moliyaviy hisobot ma'lumotlari hisobot davri tugagandan keyingi sanaga shakllantiriladi va unga qo'shimcha ma'lumotlar, izohlar va tushuntirishlar berilishini talab qilinadi.

Shunday qilib, moliyaviy hisobot xo'jalik yurituvchi su'yektning faoliyati to'g'risidagi asosiy ko'rsatkichlarni o'zida mujassamlashtiradi. Uning ko'rsatkichlari

unda su'yektning tijorat sirini fosh qiluvchi ma'lumotlar mavjud emas. Shu bilan birgalikda moliyaviy hisobot uning ko'rsatkichlarini o'rganuvchilarning axborotlarga bo'lgan barcha talab va ehtiyojlarini to'la qondirish imkoniyatiga ham ega emas.

1.2. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar va ularni qiziqtiruvchi ma'lumotlar

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilar ikki asosiy guruhga ajratiladi: ichki foydalanuvchilar va tashqi foydalanuvchilar.

Ichki foydalanuvchilarga, ma'muriyat, ya'ni boshqaruv xodimlari, menedjerlar, rahbarlar va bo'linmalar mutaxassislari, hamda ta'sischi va mulkdorlar kiradi.

Boshqaruv apparati xodimlari va mutaxassislari buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan keng foydalanuvchilar qatoriga kiradi. Ularga beriladigan ma'lumotlar tarkibi, egallab turgan lavozimi va bajaradigan ishiga bevosita bog'liqdir.

Boshqaruv xodimlari va mutaxassislari bu asosida turli ishlab chiqarish va moliyaviy xarakterdagi qarorlarni qabul qildi. Shuning uchun ham bunday qarorlarni qabul qilishda to'liq, aniq va o'z vaqtidagi ma'lumotlar alohida ahamiyatga ega, aks holda korxonada katta zararlar ko'rishi va tanazzulga uchrashgacha yetib borishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy hisobot bilan qiziquvchi tashqi foydalanuvchilar o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi: korxonada faoliyati bilan bevosita manfaatdor bo'lganlar va bilvosita manfaatdor bo'lganlar.

Buxgalteriya ma'lumotlaridan bevosita manfaatdor bo'lgan tashqi foydalanuvchilarga mavjud yoki kelajakdagi investorlar, banklar, moliyaviy yetkazib beruvchilar va boshqa kreditorlar kiradi. Ular asosan buxgalteriya hisobotlarida mavjud ma'lumotlardan foydalanadilar. Shu ma'lumotlar asosida ular korxonaning istiqboldagi moliyaviy imkoniyatlari va barqaror rivojlanishi haqida xulosalar chiqaradilar.

Buxgalteriya ma'lumotlaridan bilvosita manfaatdor bo'lgan tashqi foydalanuvchilarga, davlat va mahalliy hokimiyat organlari; soliq va moliya organlari, davlat statistika organlari, auditorlik firmalari va boshqa foydalanuvchilar (fond birjalari, ilmiy maslahatchilar, xaridorlar va shunga o'xshash foydalanuvchilar) kiradi.

Soliq va moliya organlari, boshqa tashqi foydalanuvchilardan farqli o'laroq faqat hisobot ma'lumotlarinigina olishdan tashqari, respublika va mahalliy soliqlar, foydadan olinadigan soliqlarni, qo'shilgan qiymatdan to'lanadigan soliq, jismoniy shaxslardan ushlanadigan daromad solig'i, aksiz va shunga o'xshash boshqa soliqlarni to'g'ri to'lanishini nazorat qilish maqsadida korxonaning boshqa hisob ma'lumotlarini ham talab qilish huquqiga egadirlar. Hisob ma'lumotlari, nazorat qiluvchi tashkilotlar va yuqori turuvchi boshqaruv

organlariga, ularning talabiga asosan, hamda shartnoma asosida tekshiruvni amalga oshirayotgan auditorlarga taqdim etiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, korxonalar ma'lumotlaridan foydalanuvchilar orasida, tashqi foydalanuvchilarning, investor, kreditor hamda mol yetkazib beruvchilar, kelajakdagi aksioner va xaridorlarning ahamiyati katta. Chunki, ularning korxonalar faoliyati haqida noto'g'ri ma'lumotga ega bo'lishi, ular orasidagi hamkorlikka putur yetishi va qiyin iqtisodiy sharoitning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Investor va kreditorlar korxonalar sarmoyalarning oqib kelishiga sabab bo'lsalar, mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar, korxonalar xom-ashyo bilan ta'minlashda va tayyor mahsulotlarni sotib olishda muhim o'rinni egallaydilar.

Demak, tashqi muhit bilan korxonalar bog'lab turuvchi bo'g'im bo'lib, moliyaviy hisobot hisoblanadi. Shu bilan birga, moliyaviy hisobotda taqdim etilgan ma'lumotlar, tashqi foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qoniqtirgan holda, korxonalar tijorat siriga va raqobatbardoshligiga zarar yetkazmasligi zarur.

Tashqi foydalanuvchilarni asosan quyidagi ko'rsatkichlar qiziqtiradi:

- korxonalar aktiv va passivlarining tarkibi;
- aktiv va passivlarning likvidligi;
- xususiy va qarzga olingan kapitalning ulushi;
- aktivlarning aylanish tezligi;
- barcha aktivlar va sotilgan mahsulotlarning rentabelligi;
- mulkdorlar ixtiyorida qoladigan sof foyda;
- hissadorlik jamiyatlarida to'langan dividendlar ulushi va hokazo.

1.3. Moliyaviy hisobotning tarkibi va tuzilishi

Korxonalar moliyaviy hisoboti belgilangan talablar va qoidalarga rioya qilgan holda tuzilsa undagi ma'lumotlar hisobot davri mobaynida uning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida yetarlicha axborot beradi.

Bugungi kunda moliyaviy hisobot shakllari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi 2002-yil 27- dekabrda 140-son buyrug'iga muvofiq tuzilmoqda.

Hisobotning asosiy shakllari korxonalar balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan, «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi» to'g'risidagi Nizom, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 1997-yil 15-yanvardagi «Korxonalar (tashkilot)larning yillik va choraklik moliyaviy hisobotlarini shakl va hajmlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 5-son buyrug'iga, hamda O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunining 16-«Moliyaviy hisobot» moddasiga asosan, yangidan quyidagi hisobot shakllari tasdiqlandi:

Yillik hisobot bo'yicha:

- 1-son shakl — «Buxgalteriya balansi»;
- 2-son shakl - «Moliyaviy faoliyat to'g'risida hisobot»;
- 2a-son shakl-«Debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha ma'lumotnoma»;
- 3-son shakl - «Asosiy vositalarning harakati to'g'risida hisobot»;
- 4-son shakl - «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»;
- 5-son shakl - «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot».

2. Yarim yillik hisobot bo'yicha,

- 1-son shakl - «Buxgalteriya balansi»;
- 2-son shakl - «Moliyaviy faoliyat to'g'risida hisobot»;
- 2a-son shakl-«Debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha ma'lumotnoma»;
- 4-son shakl-«Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot».

3. Choraklik hisobot bo'yicha:

- 1-son shakl - «Buxgalteriya balansi»;
- 2-son shakl - «Moliyaviy faoliyat to'g'risida hisobot»;
- 2a-son shakl - «Debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha ma'lumotnoma».

Ushbu yangi hisobot shakllariga 1999-yil 21-oktabrida, Moliya vazirligining 266-son buyrug'iga asosan o'zgartirish kiritildi. Uning ma'nosi, yuqorida tasdiqlangan buyruqdagi 2-son hisobot nomlanishini, «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot», degan nomlanishga o'zgartirishdan iborat edi.

Bundan tashqari, Moliya vazirligi 1998-yil 26-iyunida 79-son «Moliya Vazirligining 1997-yil 15-yanvardagi 5-son buyrug'iga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi buyruq» chiqarib, unda korxonalar va tashkilotlar yuqorida ko'rsatib o'tilgan shakllar bilan birga yana 2b-son «Moliyaviy-iqtisodiy ahvol to'g'risidagi ma'lumotnoma»ni ham taqdim etishi shartligi qayd etildi. Aynan shu buyruqning o'zi bilan ushbu shaklni to'ldirish to'g'risidagi yo'riqnoma ham tasdiqlangan.

Endilikda esa moliyaviy hisobot shakllari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi 2002-yil 27-dekabrda 140-son buyrug'iga muvofiq tuzilmoqda. Bu buyrug'iga 12.11.2003-yil va 20.12.2004-yilda Moliya vazirligining mos ravishda 1209-1 va 1209-2 son buyrug'lari bilan o'zgartirishlar kiritilgan, hamda ular moliyaviy tahlil maqsadlari uchun asosiy manbalar hisoblanmoqda.

Tasdiqlangan moliyaviy hisobot shakllari faqat shaklan o'zgaribgina qolmay, balki ma'nosi ham sezilarli darajada o'zgargan: moliyaviy tahlil maqsadlari uchun ular axborotlarga yanada boyigan. Barcha qilingan o'zgartirishlar hisobotlarni xalqaro andozalar darajasiga yetkazish maqsadida amalga oshirilgan. Jumladan, buxgalteriya balansining aktiv va passiv tomonlarini ikki bo'limli holatga keltirish.

Korxonalar balansi, buxgalteriya hisobotining asosiy shakli hisoblanadi, qolgan shakllar esa undagi ma'lumotlarni batafsilroq ochib berish va to'ldirish uchun xizmat qiladi.

Korxonalar balansi, korxonaning barcha mablag'larining holati va xo'jalik faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. Buxgalteriya hisobotining boshqa shakllarida aks etgan ko'rsatkichlar esa, korxonalar faoliyatining u yoki bu tomonini ifodalaydi.

Hisobotning keyingi shakli moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdir. 3-son buxgalteriya hisobi milliy standarti ham moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot bo'lib, unda shu hisobotga tegishli barcha masalalar yoritilgan.

Moliyaviy hisobotning 2-son shaklida, xo'jalik faoliyati natijasida olingan daromad va xarajatlar aks ettiriladi. Aniqroq qilib aytganda, unda quyidagi ma'lumotlar yoritilishi kerak:

- sotishdan olingan sof tushum;
- sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija;
- asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa operatsion daromad va xarajatlar;
- asosiy xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi;
- moliyaviy faoliyatning boshqa daromad va xarajatlari;
- umumxo'jalik faoliyatning moliyaviy natijasi;
- favqulodda foyda va zararlar;
- daromad solig'i to'langungacha bo'lgan umumiy moliyaviy natija;
- hisobot davrning sof foydasi (zarari).

Umuman, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, avvalgi va hozirgi balans hisobotlarini bog'lab turuvchi bo'g'in hisoblanadi, ya'ni u hozirgi balansdagi o'zgarishlar, avvalgisiga nisbatan, qanday daromad va xarajatlar hisobiga o'zgarganligini ifodalaydi.

Bundan tashqari, ushbu shaklga «Byudjetga to'langan to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotnoma» ham ilova qilinib, unda to'lanadigan barcha to'lovlar hamda soliq qonunchiligini buzganligi uchun qo'llanilgan iqtisodiy jazolar ko'rsatmalarga binoan belgilangan tartibda hisoblangan va haqiqatda byudjetga to'langan summasi aks ettiriladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumotnomada, (2a-shakl) debitorlik va kreditorlik qarzlarning respublikamiz ichidagi hamda uning tashqarisidagi holati bo'yicha axborot berilgan. Ularda har bir korxonalar va tashkilot bo'yicha qarzlari alohida-alohida berilib, muddati o'tganlari ham ko'rsatiladi.

Moliyaviy hisobotlarning 3-son shakli, «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»dir. Unda korxonadagi mavjud asosiy vositalar va ularning harakati to'g'risidagi ma'lumotlar turlari bo'yicha amaldagi asosiy fondlar tasniflanishiga ko'ra keltiriladi.

«Pul oqimi to'g'risidagi hisobot» (4-son shakl)da pul mablag'lari oqimi nuqtai nazaridan korxonaning moliyaviy zaxiralaridagi barcha o'zgarishlar aks ettiriladi. Jumladan, xo'jalik faoliyati bo'yicha pul mablag'larining oqimi; to'langan va olingan dividend va foizlar; to'langan soliqlar; jalb qilingan va qo'yilgan sarmoyalar; aksiya va zaymlar hamda ijara majburiyatlari bo'yicha tushum va to'lovlar hamda boshqalar kiradi. Bu hisobot turi bo'yicha 9-son buxgalteriya hisobi milliy standarti ham qabul qilingan.

Ushbu hisobotga «Valuta mablag'lari harakati to'g'risidagi ma'lumotnoma» ham ilova qilinadi va unda hisobot davri boshi va oxiriga bo'lgan valuta qoldiqlari hamda ularning kiritim va chiqimi to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda xususiy mablag'larning har bir turi harakati bo'yicha, ya'ni hisobot davri boshi va oxiriga bo'lgan qoldiqlari to'g'risida

ma'lumotlar aks ettiriladi. Bu 5-son shakl hisobotda chiqarilgan aksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar ham aks ettiriladi.

Yuqorida keltirilgan moliyaviy hisobot shakllariga qo'shimcha ravishda tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda buxgalteriya vakolatli organlar boshqa hisobot shakllarini ishlab chiqishi va ularni taqdim qilishni belgilashi mumkin.

1.4. Moliyaviy hisobotni tuzish tamoyillari

Moliyaviy hisobotni tuzish jaryonida xo'jalik yurituvchi su'yektlar iqtisodiyotning qaysi tarmog'iga tegishligidan qat'iy nazar buxgalteriya hisobining milliy standartlarida belgilangan quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim:

hisoblash tamoyili; ikki yoqlama qayd etish usuli bilan hisob yuritish; uzluksizlik; xo'jalik muomalalari, aktivlar va passivlarni baholash, ishonchlik, ehtiyotkorlik, mazmunning shakldan ustunligi, ko'rsatkichlarning qiyosiyliigi, moliyaviy hisobotning betarafligi, aktiv va majburiyatlarining haqiqiy bahosi, hisobot davri daromaddari va xarajatlarining mosligi, tushunarlilik, ahamiyatlilik, muhimlik, haqiqiy xolis taqdim etish, tugatilganlik, izchillik, o'z vaqtidalik, ofsetting (moddalarning o'zaro qoplanishi), xolislik.

Hisoblash tamoyiliga asosan aktivlar, passivlar o'z kapitali, daromadlar, xarajatlar, xo'jalik muomalalari va hodisalar sodir etilgan (yoki naqd olingan) paytda buxgalteriya hisobida ko'rsatiladi, ular bo'yicha pul mablag'lari yoki ularning ekvivalenti olingan va to'langan vaqt bundan mustasno.

Ikki yoqlama qayd etish usuli bilan hisob yuritish tamoyili xo'jalik yurituvchi su'yekt buxgalteriya muomalalarini ikki yoqlama yozish tizimi asosida yuritishi kerakligini bildiradi. Ikki yoqlama yozish tizimi sodir bo'lgan xo'jalik muomalasi bo'yicha tegishli summani bitta schyotning debet tomoniga va aynan shu summani ikkinchi schyotning kredit tomoniga qayd qilishdan iborat bo'ladi.

Uzluksizlik tamoyili moliyaviy hisobot xo'jalik yurituvchi su'yekt doimiy faoliyatni noma'lum uzoq muddatgacha davom ettiradi degan qoida bo'yicha tayyorlanadi, ya'ni xo'jalik yurituvchi su'yektga o'z muomalalari bo'yicha faoliyatini jiddiy qisqartirish yoki tugatish ehtimoli yo'q degan ma'noni bildiradi.

Uzluksizlik qoidasi buxgalteriya hisobotini yuritish muddati xo'jalik yurituvchi su'yektning faoliyat ko'rsatish muddatiga mos kelishi kerakligini, ya'ni buxgalteriya hisobi su'yektning tugatish yoki bankrot bo'lguniga qadar olib borilishi kerakligini bildiradi. O'z faoliyatini tugatgan kundan boshlab ushbu su'yekt buxgalteriya hisobi yuritishni to'xtatadi.

Xo'jalik muomalalari, aktivlar va passivlarni baholash tamoyili barcha xo'jalik muomalalari, voqealar, aktivlar va passivlar yagona bir turdagi pul bahosida o'lchanishini bildiradi.

Ishonchlilik tamoyili moliyaviy hisobot axborotlarida jiddiy yoki g'ayirli xatolar bo'lmasa, foydalanuvchilar uchun ishonchli hisoblanadi. Muomalalar va voqealarning ishonchliliigi birlamchi hisob hujjatlari bilan tasdiqlanishi kerak.

Ehtiyotkorlik tamoyili moliyaviy hisobotda aktivlar va daromadlarning bahosi oshirilgan va majburiyatlar yoki xarajatlarning bahosi pasaytirilgan holda ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

Mazmunning shakldan ustunligi tamoyili agar hisob hujjatlari va moliyaviy hisobotlarda muomalalar va hodisalarning mazmuni ishonchli aks ettirilsa, ushbu axborot moliyaviy hisobotda hisobga olinishi va ko'rsatilishi lozimligini belgilaydi.

Ko'rsatkichlarning qiyosiyli tamoyili moliyaviy axborot foydali va mazmunli bo'lishi uchun har xil hisobot davrlariga qiyoslanishini talab qiladi. Foydalanuvchilar su'yektning moliyaviy hisobotni tayyorlashda foydalanadigan hisob siyosatidan, ushbu siyosatdagi barcha o'zgarishlar va ularning natijalaridan boxabar bo'lishlari lozim va moliyaviy hisobotda barcha qiyosiy axborotni avvalgi davrdagi ma'lumotlar bilan ham yoritish zarur. Moliyaviy hisobotda o'tgan davr sharhlangan yozma axborot joriy hisobot davri uchun taqdim etilgan hamda yangilangan bo'lishi kerak. Chunki joriy hisobot davri moliyaviy hisobotlarning ob'yektiv taqdim etilishi uchun zarur bo'lsagina amalga oshiriladi.

Moliyaviy hisobotning betarafligi tamoyili moliyaviy hisobotning ishonchli bo'lishi uchun unda keltirilgan ma'lumotlar avvaldan g'ayirli xatolardan xolis bo'lishini anglatadi.

Aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy bahosi tamoyili aktivlar va majburiyatlarni haqiqiy baholash sharti ularning tannarxi yoki sotib olingan narxi baholash uchun asos bo'lishini nazarda tutadi.

Hisobot davri daromadlari va xarajatlarining mosligi tamoyili ushbu hisobot davrida daromad olishni ta'minlagan xarajatlar aks ettirilishini bildiradi. Agar ayrim ko'rinishdagi xarajatlar va daromadlarning bevosita bog'liqligini aniqlash qiyin bo'lsa, xarajatlar bir nechta hisobot davrlari orasida taqsimotning biron-bir tizimi asosida taqsimlanadi. Bu masalan, amortizatsiya xarajatlariga taalluqli bo'lib, bir necha yilga taqsim qilinadi.

Tushunarlilik tamoyili moliyaviy hisobotlarda berilayotgan axborotlar foydalanuvchilar uchun oddiy va tushunarli bo'lishini anglatadi.

Ahamiyatlilik tamoyiliga muvofiq moliyaviy axborotlarning ahamiyati shundaki, foydalanuvchilarning qaror qabul qilish va muomala jarayonida moliyaviy va xo'jalik faoliyatini baholash, ehtiyojlarini tezkorlik bilan qondirish kerak. Axborotning mohiyati va qiymati uning ahamiyati darajasiga ta'sir etishi mumkin.

Muhimlik tamoyiliga muvofiq axborot agar tushirib qoldirilganda yoki noto'g'ri tasavvur qilinganda, moliyaviy hisobotlar asosida axborotdan foydalanuvchilarning iqtisodiy qarorlar qabul qilishlariga ta'sir etsa muhim hisoblanadi. Ushbu tamoyilga muvofiq moliyaviy hisobotlarning bitta moddasida aks ettirilgan summalar bir xil xususiyatli yoki bir xil yo'nalishli umumlashtirilgan summalar bo'lib, ular alohida - alohida aks ettirilishi mumkin emas.

Haqqoniy xolis takdim etish tamoyili moliyaviy hisobotlar foydalanuvchilarda su'yektning moliyaviy holati, muomalalar natijalari, pul mablag'lari harakati haqida haqqoniy va xolis tasavvur hosil qilishi kerakligini bildiradi.

Tugatilganlik tamoyili ishonchlilikni ta'minlash maqsadida moliyaviy hisobotdagi axborot to'liq va tugatilgan bo'lishi kerakligini anglatadi.

Izchillik tamoyili foydalanuvchilar xo'jalik yurituvchi su'yektning moliyaviy ahvolidagi o'zgarish yo'nalishlarini aniqlash uchun turli davrlardagi hisobotlarni qiyoslash imkoniyatiga ega bo'lishlarini belgilab beradi. Ushbu tamoyilga asosan

xo'jalik yurituvchi su'yektning muomalalari xususiyatidagi jiddiy o'zgarishlar yoki hisobotni taqdim etish turlarini o'zgartirish lozimligini taqozo etmasa, moliyaviy hisobot bandlarini guruhlashtirish va taqdim qilish tartibi davrdan davrga saqlanib qolishi lozim.

O'z vaqtidalik tamoyili axborot o'z vaqtida taqdim etilsagina foydali hisoblanishini bildiradi. Moliyaviy hisobot tuzilgandan keyin foydalanuvchilar ixtiyoriga belgilangan muddatda yetkazib berilmasa, moliyaviy hisobotlarning foydalilik darajasi pasayib ketadi. Hisobot axboroti asossiz kechiktirilsa, u o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin.

Ofsetting (moddalarning o'zaro qoplanishi) tamoyili aktivlar va passivlar o'rtasida o'zaro hisob-kitob qilinishi mumkin emasligini nazarda tutadi.

Xolislik (ob'yektivlik) tamoyili moliyaviy hisobot su'yektning moliyaviy ahvoli, faoliyatining moliyaviy natijalari va pul mablag'lari harakati to'g'risida xolis axborot berishi kerakligini belgilaydi. Xolislik tamoyiliga erishish uchun har bir xo'jalik yurituvchi su'yekt buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzishda BHMA va hisob yuritishning asosiy tamoyillarini qo'llashi lozim.

Shunday qilib, moliyaviy hisobotni tuzish tamoyillari undan foydalanuvchilarning ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlarini maksimal darajada sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash imkoniyatini beradi.

1.5. Moliyaviy hisobotni tuzish oldidan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar

Moliyaviy hisobotni tuzishdan oldin uning ko'rsatkichlari aniqligini ta'minlash maqsadida maxsus hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Shunday hisob-kitoblarning eng asosiysi xo'jalik yurituvchi su'yekt mol-mulki, mablag'lari, debitorlik va kreditorlik qarzlari va boshqa buxgalteriya hisobi ob'yektlarini inventarizatsiya qilish hisoblanadi.

Inventarizatsiya-korxonalar mol-mulkini ro'yxat qilish va ma'lumotlarni buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtirishdir. Inventarizatsiya buxgalteriya hisobi usullaridan biri bo'lib, uning yordamida xo'jalik mablag'larining, korxonalar boshqa tashkilotlar bilan olib boradigan hisob-kitob munosabatlarining haqiqiy miqdori va summasi hisob ma'lumotlariga solishtiriladi va ular o'rtasidagi farq topiladi.

Balans va hisobotda aks ettiriladigan ko'rsatkichlarning aniqligini ta'minlash, o'g'irlik va nobudgarlikchiliklarga qarshi kurash olib borish uchun material, pul mablag'larining hammasi va hisob-kitoblar yilda kamida bir marta inventarizatsiya qilinadi.

Inventarizatsiyaning to'la va qisman turlari mavjud. Korxonaga tegishli mol-mulkning hammasini inventarizatsiya qilish to'la inventarizatsiya, mol-mulkning bir qismini inventarizatsiya qilish esa qisman inventarizatsiya deyiladi.

Inventarizatsiya yana rejali va to'satdan qilinadigan inventarizatsiya turlariga ham bo'linadi. Rejali inventarizatsiya yillik hisobot tuzishdan avval o'tkaziladigan, oylik va choraklik tugallanmagan ishlab chiqarish inventarizatsiyasi va boshqa inventarizatsiyalardir. To'satdan qilinadigan inventarizatsiyalar korxonalar rahbarlariga

yoki yuqori tashkilot va organlarga tegishli ob'yektdagi javobgar shaxsning nojo'ya harakatlari haqida biror xabar tushganda, korxonada faoliyati taftish qilinishi davrida, o't olish, suv toshishi va boshqa sabablarga ko'ra amalga oshiriladi.

Inventarizatsiya o'tkazish bo'yicha javobgarlik xo'jalik yurituvchi su'yekt rahbari va bosh buxgalteri zimmasiga yuklatiladi. Inventarizatsiya o'tkazish xo'jalik yurituvchi su'yekt rahbarining buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Buyruqda inventarizatsiya o'tkazish komissiyasining a'zolari ro'yxati, uni o'tkazish muddati, nimalarni inventarizatsiya qilish ko'rsatiladi. Inventarizatsiya o'tkazish komissiyasiga rahbar yoki uning o'rinbosari raislik qiladi. Komissiya a'zolari ichida bosh buxgalter bo'lishi shart.

Inventarizatsiya ro'yxati hamma komissiya a'zolari hamda moddiy javobgar shaxs tomonidan imzolanishi shart. Yana moddiy javobgar shaxs «Ushbu inventarizatsiya ro'yxatida ko'rsatilgan moddiy boyliklar mening ko'z oldimda hisoblab chiqilgan va shu moddiy boyliklarni o'z shaxsiy javobgarligimga qabul qildim hamda inventarizatsiya komissiyasiga mening hech qanday da'vom yo'q» degan mazmunda tilxat beradi.

Inventarizatsiya qaydnomasi shakli inventarizatsiya qilinayotgan mablag'lar xususiyatlariga ko'p jihatdan bog'liqdir. Lekin qaydnomada mablag'ning nomi, o'lchov birligi, bahosi, hisob va inventarizatsiya ma'lumotlariga ko'ra qoldig'i, inventarizatsiya natijasi-kamomad va ortiqchalik son va pul ko'rinishida aks ettirilishi lozim. Amalda ko'pchilik hollarda inventarizatsiya ro'yxatiga farqi aniqlangan mablag'lar nomigina kiritiladi. Bu esa ishni birmuncha qisqartiradi. Aniqlangan hamma kamomad va ortiqchalik yuzasidan moddiy javobgar shaxs yozma tushuntirish beradi. Shundan keyin inventarizatsiya komissiyasi inventarizatsiya natijalari bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi va bu qaror korxonada rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Qarorga muvofiq, ortiqcha chiqqan boyliklar qabul qilinadi. Kamomadlar esa «Boyliklarning buzilishidan keladigan nobudgarchilik va kamomad» nomli schyotda hisob qilinadi. So'ngra bu schyotdan me'yor chegarasidagi tabiiy kamayish, ishlab chiqarish xarajatlari schyotlariga, me'yordan ortiqcha kamomad aybdor shaxs hisobiga yoziladi.

Xo'jalik yurituvchi su'yektlar inventarizatsiya o'tkazishda O'zR Adliya vazirligining 833-sonli buyrug'i bilan 1999-yil 2-noyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan 19-sonli buxgalteriya hisobi milliy standarti «Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish»ga to'liq amal qiladilar.

Quyidagi hollarda inventarizatsiya o'tkazilishi shart:

- mulk ijaraga berilganda, sotib olinganda, sotilganda, shuningdek davlat korxonasi qayta tashkil etilganda (davlat tasarrufidan chiqarilganda):

-moliyaviy hisobot tuzishdan oldin, lekin hisobot yilining 1-oktabridan keyin inventarizatsiya qilingan mulk bundan mustasnodir.

Buxgalteriya hisobi milliy standartining 4-sonli «Tovar-moddiy zaxiralari»ga binoan tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi kamida bir yilda kamida bir marta o'tkaziladi. Buxgalteriya hisobi milliy standartining 5-soni «Asosiy vositalar»ga binoan asosiy vositalar inventarizatsiyasi kamida ikki yilda bir marta o'tkaziladi, kutubxona fondi esa besh yilda bir marta inventarizatsiya qilinadi.

Pul mablag'lari, pullik hujjatlar, qimmatliklar va qat'iy hisobot blankalari bir oyda bir marta, yonilg'i va moylash materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari har chorakda inventarizatsiya qilinadi. Qimmatli metallar tarmoq yo'riqnomalarida ko'rsatilgan muddatlarda inventarizatsiya qilinadi.

Bundan tashqari, quyidagi hollarda ham moddiy qimmatliklar inventarizatsiya qilinadi:

- asosiy vositalar va tovar moddiy qimmatliklarni qaytadan baholash;

- moddiy javobgar shaxslar almashganda (ishlarni qabul qilish-topshirish kuniga);

- o'g'irlik va boshqa nopok voqealar, shuningdek qimmatliklarning buzilishi sodir bo'lgan;

- tabiiy ofat, yong'in, avariya yoki hodisalar bilan bog'liq bo'lgan boshqa favqulodda holatlarda;

- xo'jalik yurtuvchi su'yektlari tugatilgan (qayta tashkil etilgan)da tugatish (bo'lish) balansini tuzishdan oldin va qonunchilik bilan nazarda tutilgan boshqa hollar.

Inventarizatsiya o'tkazish uchun xo'jalik yurituchi su'yektlarda quyidagi tartibda doimiy harakatdagi inventarizatsiya komissiyasi tashkil etiladi:

Korxonra rahbari yoki uning yordamchisi (komissiya raisi).

Bosh buxgalter.

Boshqa mutaxassislar (muhandis, iqtisodchi va sh .k.).

Ichki audit vakili.

Agar ish hajmi ko'p bo'lsa, mulklar va moliyaviy majburiyatlar inventarizatsiyasini bir vaqtning o'zida o'tkazish uchun korxonra rahbarlarining buyrug'i bilan quyidagi tartibda ishchi inventarizatsiya komissiyasi tashkil etiladi:

Inventarizatsiya o'tkazishni tayinlangan xo'jalik yurituvchi su'yektning vakili (komissiya raisi);

Mutaxassislar; tovarshunos, muhandis, texnolog, mexanik, ish yurituvchi, iqtisodchi, buxgalteriya xodimi va boshqalar.

Doimiy harakatdagi komissiya quyidagi vazifalarni bajaradi:

- qimmatliklar butligini ta'minlash bo'yicha profilaktika ishlarini olib boradi;

- inventarizatsiya o'tkazishni tashkil etadi, ishchi inventarizatsiya komissiya a'zolariga maslahatlar beradi;

- inventarizatsiya natijalarining to'g'riligini tekshiradi;

- kamomad va nobudgarchilikka, shuningdek boshqa kamchiliklarga yo'l qo'ygan shaxslardan olingan tushintirish xatlarini ko'rib chiqadi va aniqlangan kamomad va nobudgarchiliklari to'g'risida takliflar beradi.

O'z navbatida ishchi inventarizatsiya komissiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- qimmatliklar va pul mablag'larini saqlash va ishlatish joylarida inventarizatsiya o'tkazadi;

- xo'jalik yurituvchi su'yektning buxgalteriyasi bilan inventarizatsiya natijasini aniqlashda qatnashadi va kamomadni ortiqchasi bilan qoplash, shuningdek tabiiy kamayish normasi doirasidagi kamomadni hisobdan chiqarish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

-tovar-moddiy qimmatliklarni qabul qilish, saqlash va jo'natish, ularning butliligi hisobi va nazoratini yaxshilash, shuningdek normadan ortiq va foydalanilmaydigan material qimmatliklarni sotish to'g'risida takliflar kiritadi.

Ichki inventarizatsiya komissiyasiga quyidagi mas'uliyatlar yuklatiladi:

a) xo'jalik yurituvchi su'yekt rahbarlarining buyrug'iga binoan inventarizatsiyani o'z vaqtida va belgilangan tartibda o'tkazish;

b) tekshirilgan asosiy vositalar, tovar-moddiy qimmatliklar, pul mablag'lari va hisob-kitoblardagi mablag'larni haqiqiy qoldiq ro'yxatiga to'liq va aniq yozish;

v) tovar-moddiy qimmatliklar narxini aniqlaydigan belgilari (tur, nav, marka, razmer, preyskurant bo'yicha tartib nomeri, artikul va shu kabilar)ni ro'yxatda to'g'ri ko'rsatish;

g) belgilangan tartibga binoan inventarizatsiya materiallarini to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirish.

Inventarizatsiya komissiyasi inventarizatsiya boshlanish vaqtiga bo'lgan oxirgi kirim va chiqim hujjatlari yoki material va pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotlarni olishi lozim.

Inventarizatsiya komissiyasining raisi inventarizatsiyagacha____(sana) belgisini qo'yib, hisobotga ilova qilingan barcha kirim va chiqim hujjatlarini imzolaydi. Bu o'z navbatida, hisob ma'lumotlari bo'yicha inventarizatsiya boshlanish vaqtiga qolgan mulklar qoldig'ini aniqlash uchun asos bo'ladi.

Inventarizatsiya boshlanish vaqtiga mulklar bo'yicha barcha kirim va chiqim hujjatlari buxgalteriyaga topshirilganligi yoki komissiyaga berilganligi to'g'risida moddiy javobgar shaxslar tilxat beradilar.

Inventarizatsiya boshlanishdan oldin komissiya a'zolariga inventarizatsiyani qachon boshlab qachon tugatish to'g'risidagi buyruq topshiriladi, komissiya raisiga esa nazorat plombiri (muhri) topshiriladi.

Basharti mulk inventarizatsiyasi bir necha kun davom etadigan bo'lsa, ish kuni tugashi bilan qimmatliklar saqlanayotgan xonaning eshigi muhrlanishi kerak.

Inventarizatsiya qilingan qimmatliklar va ob'yektlar, ularning miqdori ro'yxatda nomenklaturasi bo'yicha va hisobda qabul qilingan o'lchov birligida ko'rsatiladi. Bu ro'yxat ishchi inventarizatsiya komissiyasining barcha a'zolari va moddiy javobgar shaxs tomonidan imzolanadi.

Inventarizatsiya ro'yxatining oxirida komissiya tomonidan tekshirish moddiy javobgar shaxslar ishtirokida o'tkazilganligi, komissiya a'zolariga hech qanday da'vo yo'qligi va ro'yxatda keltirilgan qimmatliklarni mas'ul saqlashga qabul qilganligi to'g'risida moddiy javobgar shaxslar tilxat yozib beradilar.

Inventarizatsiya o'tkazishda inventarizatsiya bo'yicha tasdiqlangan dastlabki hisobot hujjatlari qo'llaniladi.

Ishchi inventarizatsiya komissiyasi har bir soha (qimmatliklar)ni inventarizatsiyasi tugagach inventarizatsiya dalolatnomasini tuzadi. Masalan, «Yuklangan tovarlar inventarizatsiya dalolatnomasi», «Yo'ldagi materiallar va tovarlar inventarizatsiya dalolatnomasi», «Asosiy vositalarni tugallanmagan ta'mirini inventarizatsiya dalolatnomasi» va sh. k.

Tovar-moddiy qimmatliklari, pul mablag'larining inventarizatsiyasini to'g'ri, o'z vaqtida o'tkazish va tekshirishni to'satdan o'tkazilishini ta'minlash bo'yicha mas'uliyat xo'jalik yurituvchi su'yektning rahbarlariga yuklatiladi. Ular inventarizatsiyani to'liq va qisqa muddat ichida o'tkazish uchun sharoit yaratib berishlari kerak.

Inventarizatsiya tugagach o'tkazilgan inventarizatsiya to'g'riligini tekshirish uchun nazorat tekshiruvi o'tkazilishi mumkin. Bunday tekshirish inventarizatsiya o'tkazilgan ombor (yoki boshqa joy) ochilmasdan turib inventarizatsiya komissiyasi va moddiy javobgar shaxslar ishtirokida o'tkaziladi. Inventarizatsiyalarni nazorat tekshirishdan o'tkazish natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi va o'tkazilgan inventarizatsiyani to'g'riligini tekshirishni hisobga olish daftarida ro'yxatga olinadi.

Inventarizatsiya va boshqa tekshirishlar natijasida aniqlangan mulklarning buxgalteriya ma'lumotlari bilan mavjud haqiqiy orasidagi farqi quyidagicha tartibga solinadi:

Ortiqcha chiqqan asosiy vositalar, material qimmatliklari, pul mablag'lari va boshqa mulklar kiringa olinib, asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (9390-schyot) ko'paytiriladi. Aybdor shaxslardan qimmatliklarning ortiqcha chiqqanlik sabablari to'g'risida tushintirish xati olinadi;

Qimmatliklarning qonunchilik bilan belgilangan norma doirasidagi kamomadi korxonalar rahbarining buyrug'i bilan ishlab chiqarish, muomala xarajatlariga yoki moliyalashtirish (fondlar)ni kamaytirishga o'tkaziladi. Tabiiy kamayish normalari faqat haqiqiy kamomad aniqlansagina qo'llaniladi. Tabiiy kamayish normalari belgilanmagan bo'lsa, sodir bo'lgan kamomad normadan ortiq kamomad deb hisoblanadi;

Moddiy qimmatliklar, pul mablag'lari va boshqa mulklar kamomadi, shuningdek tabiiy kamayish normalasidan ortiqcha nobudgarchiliklar aybdor shaxslardan undirib olinadi. Basharti aybdorlar shaxslar aniqlanmasa yoki aybdor shaxslardan undirib olish sud orqali rad etilgan bo'lsa, kamomad va tovar-moddiy qimmatliklari va pul mablag'larining inventarizatsiyasini to'g'ri va o'z vaqtida o'tkazish va tekshirishni to'satdan o'tkazilishini ta'minlash bo'yicha mas'uliyat xo'jalik yurituvchi su'yektning rahbarlariga yuklatiladi. Ular inventarizatsiyani to'liq va qisqa muddat ichida o'tkazish uchun sharoit yaratib berishlari kerak.

Inventarizatsiya tugagach o'tkazilgan inventarizatsiya to'g'riligini tekshirish uchun nazorat tekshiruvi o'tkazilishi mumkin. Bunday tekshirish inventarizatsiya o'tkazilgan ombor (yoki boshqa joy) ochilmasdan turib inventarizatsiya komissiyasi va moddiy javobgar shaxslar ishtirokida o'tkaziladi. Inventarizatsiyalarni nazorat tekshirishdan o'tkazish natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi va o'tkazilgan inventarizatsiyani to'g'riligini nazorat tekshirishni hisobga olish daftarida ro'yxatga olinadi.

1.6. Moliyaviy hisobotni taqdim qilish tartibi

Moliyaviy hisobotlar ma'lum bir hisobot davri yoki ma'lum bir hisobot sanasi bo'yicha tuziladi. Bunda buxgalteriya balansi va hisobvaraqlardagi qoldiqlar bo'yicha

ma'lumotlar ma'lum bir sanaga yakunlanadi, moliyaviy hisobot shakllarining qolganlari esa ma'lum bir davr uchun tuziladi.

Moliyaviy hisobotning hisobot davri 1-yanvardan 31-dekabrigacha bo'lgan davr kalendar yil hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hollarda kalendar yilidan farqli ravishda davrlar bo'yicha (oy, chorak uchun) ham taqdim etilishi mumkin.

Moliyaviy hisobotlar uchun hisobot kuni hisobot davrining oxirgi kalendar kuni hisoblanadi. Su'yektning buxgalteriya balansi uchun hisobot kuni 31-dekabr hisoblanadi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi yillik hisobot uchun hisobot davri 1-yanvardan 31-dekabrigacha bo'lgan davr hisoblanadi.

Korxonaning yillik moliyaviy hisoboti mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, to'liq nusxalarda quyidagi foydalanuvchilarga hisobot yilidan keyingi yilning 15-fevraligacha bo'lgan muddatda taqdim etilishi shart:

korxonaning mulkdori hisoblangan (davlat mulkini boshqarishga vakolatli bo'lgan organlarga, qatnashchilarga, ta'sischi'larga) ta'sis etish to'g'risidagi hujjatlar asosida;

davlat soliq idoralariga;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa organlarga.

Moliyaviy hisobotni boshqa foydalanuvchilarga taqdim etish tartibi mustaqil ravishda korxonaning rahbariyati (unig mulkdorlari va ta'sischi'lari) tomonidan tartibga solinadi va korxonaning hisob siyosatida ko'zda tutiladi.

Moliyaviy hisobot tuzilganda quyidagilar ta'minlanishi kerak:

-hisobot davri ichida amalga oshirilgan hamma xo'jalik operatsiyalari va pul mablag'lari, asosiy vositalar, moddiy qimmatliklar va hisob-kitoblarning to'la aks ettirilishi;

-analitik hisob ma'lumotlarining har oyning birinchi sanasida bo'lgan tegishli sintetik schyotning oborot va qoldiq summalari bilan bir xilligi;

-buxgalteriya hisoboti va balanslari ko'rsatkichlarining sintetik va analitik hisob ma'lumotlari bilan bir xilligi.

Yuqorida keltirilgan asosiy shartlarni bajarmasdan tuzilgan buxgalteriya hisoboti va balanslari noto'g'ri tuzilgan deb hisoblanadi. Buxgalteriya hisobotini tuzishdan oldin hisobotning to'g'ri va real tuzilishini to'la ta'minlay oladigan zarur ishlar qilinishi shart. Joriy buxgalteriya hisobot ma'lumotlarini umumlashtirish, sintetik va analitik schyotlarda hamma xo'jalik operatsiyalarini aks ettirish, sintetik hamda analitik schyotlar bo'yicha oborot qaydnomalarini tuzish va ular bo'yicha qoldiq summalarini aniqlash va boshqa ishlar buxgalteriya hisoboti tuzishdan avval bajarilgan bo'lishi kerak.

Xo'jalik yurituvchi su'yektlarning yillik moliyaviy hisobotlari manfaatdor su'yektlar: banklar, birjalar, investorlar, kreditorlar va shu kabilar uchun oshkora hisoblanadi. Manfaatdor shaxslar yillik moliyaviy hisobot bilan tanishish va nusxa ko'chirish xarajatlarini qoplab, uning nusxasini olish huquqiga egadirlar.

Ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlari, sug'urta kompaniyalari, banklar, fond va tovar birjalari, investitsiya fondlari va boshqa moliya muassasalari har yili moliyaviy hisobotni undagi ma'lumotlarning to'g'riligi auditor tomonidan tasdiqlangandan so'ng hisobot tugagandan keyin 1-maydan kechiktirmay e'lon qiladilar.

Bundan tashqari, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlari gazetalar, jurnallar va bulletinlarda yoki qonunchilikda ko'zda tutilgan muddatlarda alohida e'lon qilinishi kerak.

1.6.1-jadval

Moliyaviy hisobotni taqdim etish davriyligi

Moliyaviy hisobot shakli	Taqdim etishning davriyligi
Buxgalteriya balansi-1-shakl	har chorakda
Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot-2-shakl	har chorakda
Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot-3-shakl	yillik
Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot	har chorakda
Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot	yillik
Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotnoma	har chorakda

1.7. Xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan moliyaviy hisobotlar tarkibi va tuzilishi

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlariga alohida ahamiyat beradi. Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari tashqi foydalanuvchilar uchun asosiy axborot manbai hisoblanadi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda moliyaviy hisobot buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, taqsimlanmagan foyda to'g'risidagi hisobot va xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni o'z ichiga oladi. Bizning mamlakatimizda alohida hisobot shakli sifatida kiritilgan «Asosiy vositalarning harakati to'g'risida»gi hisobot alohida e'tirof etilmagan.

Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari o'zaro bog'liq bo'lib, faqat bundan «Pul oqimlari to'g'risida»gi hisobot mustasnodir.

Moliyaviy hisobot shakllarining asosiy yakuniy ko'rsatkichlari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning sof foyda summasi, taqsimlanmagan foyda va xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning xuddi shunday nomdagi ko'rsatkichiga teng bo'lishi lozim. Aks holda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining mosligi va haqqoniyligiga putur yetadi. Shuningdek, xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning yakuniy o'zlik kapitali summasi buxgalteriya balansining yakuniy xususiy kapital summasiga teng kelishi lozim.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar amaliyotida qo'llanilayotgan moliyaviy hisobot shakllarining tuzilishi bizning mamlakatimizda qo'llanilayotgan moliyaviy hisobot shakllaridan farq qiladi.

Bizning mamlakatimizda qo'llanilayotgan buxgalteriya balansida aktivlar ularning ishlab chiqarish jarayonida ishtirokidan kelib chiqqan holda, eng avvalo, uzoq muddatli aktivlar va keyin joriy aktivlar joylashtirilgan bo'lsa, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan buxgalteriya balansida aktivlar likvidlilik

darajasiga qarab joylashtirilgan. Shuningdek, balansning passiv qismida majburiyatlar muddatlarini hisobga olgan holda joylashtirilgan.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning xorijiy mamlakatlar amaliyotida qo'llanilayotgan shakli ko'rsatkichlari bizning mamlakatimizdagidan farq qiladi. Ushbu hisobot shaklida moliyaviy natijalar faoliyat turlari—asosiy, moliyaviy va investitsion faoliyat bo'yicha aniqlanadi. Mamlakatimizda esa moliyaviy natija asosiy va moliyaviy faoliyat bo'yicha aniqlanadi. Shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ushbu hisobot shakli turli nomlar bilan ataladi.

Jumladan, «Foyda va zararlar to'g'risida»gi hisobot deb ham nomlanadi. Ammo ular mazmun jihatdan bir-biriga juda ham yaqin.

Taqsimlanmagan foyda to'g'risidagi hisobot mamlakatimida qo'llanilmaydi. Ushbu hisobot shaklini tuzish juda oddiy, shu bilan birgalikda uning ko'rsatkichlari xo'jalik yurituvchi su'yektning moliyaviy mustahkamligini belgilab beradi. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida qaysi xo'jalik yurituvchi su'yektda taqsimlanmagan foyda mavjud bo'lsa va uning summasi uzluksiz ravishda o'sib borsa, bu har xil moliyaviy xarakterdagi risklar uchun mustahkam zaxira jamg'armasining mavjudligini ko'rsatadi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot shaklida mamlakatimizdan farqli o'laroq uzoq muddatli moddiy aktivlar to'g'risida ham ma'lumotlar mavjud bo'ladi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot shakli bizning mamlakatimizdagidan unchalik katta farq qilmaydi. Ammo xo'jalik yurituvchi su'yekt faoliyati uchun o'ta muhim hisoblanadi. Uni tuzishda bevosita va bilvosita usullar qo'llaniladi.

1.8. Moliyaviy va statistik hisobotlarning umumiy jihatlari va tub farqlari

Xo'jalik yurituvchi su'yektlar o'z faoliyatlari to'g'risida moliyaviy hisobot tuzish bilan birgalikda davlat statistika qo'mitasining joylardagi organlariga belgilangan tartibda statistik hisobotlarni ham taqdim qiladilar. Statistika hisobotlarini tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad davlat boshqaruvi organlari uchun mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun zarur axborotlarni yig'ishdan iborat. Shuningdek, statistik hisobot ma'lumotlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha jihatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi. Bu ma'lumotlar asosida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga baho beriladi va uni asosiy yo'nalishlarini belgilashda asos bo'ladi.

Statistik hisobot va moliyaviy hisobotning ancha o'xshash va umumiy jihatlari mavjud. Eng avvalo har bir xo'jalik yurituvchi su'yektda zarurat bo'lganda statistik hisob va hisobot bilan shug'ullanuvchi bo'lim yoki shtatlar joriy qilinadi. Agar xo'jalik yurituvchi su'yekt kichik bo'lsa va bunga imkoniyat bo'lmasa, bu ishlar bilan buxgalterlar shug'ullanishadi. Shundan kelib chiqqan holda statistik va moliyaviy hisobotning birinchi umumiy jihati ularning boshlang'ich nuqtasi xo'jalik yurituvchi su'yektning hisob-kitob bo'limlarida ekanligidir.

Statistik va moliyaviy hisobotning umumiy jihati ikkala hisobotni tuzish jarayonida buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan keng foydalanilishi, shuningdek ularning ayrim ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligidir.

Ushbu hisobot turlarining navbatdagi jihati ularni tuzish va taqdim qilishning davlat organlari tomonidan qat'iy belgilab qo'yilganligidir.

Navbatdagi umumiy jihat ularni tuzishga qo'yiladigan talablarning bir xilligi, ya'ni aniqlik, haqqoniylik, ob'yektivlik va boshqa umumiy talablar qo'yilgan.

Shu bilan birgalikda statistik va moliyaviy hisobotning bir-biridan tub farqlari ham mavjud.

1.8.1-jadval.

Moliyaviy va statistik hisobotni ayrim belgilari bo'yicha taqqoslash.

/r	Taqqoslash belgilari	Moliyaviy hisobot	Statistik hisobot
.	Huquqiy asosi	Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun	Statistika to'g'risidagi qonun
.	Tayinlanishiga ko'ra	Tashqi va ichki foydalanuvchilar	Davlat organlari uchun
.	Axborot manbai	Moliyaviy hisob ma'lumotlari	Buxgalteriya hisobi, statistik va operativ hisob
.	Qo'laniladigan o'lchov birliklari	Pul o'lchovi	Pul, natura va mehnat o'lchov birliklari
.	Hisobotni tuzish	BXMSga muvofiq	Statistik hisobotlarni tuzish bo'yicha me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalar
.	Ma'lumotlarni shakllantirish jarayonida qo'llaniladigan alternativ variantlarning mavjudligi	Bir necha variant va usullardan birini tanlash huquqi mavjud	Tanlash huquqi mavjud emas

Eng avvalo moliyaviy va statistik hisobotlar huquqiy asoslari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Moliyaviy hisobot O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq tartibga solinsa, statistik hisobot O'zbekiston Respublikasining «Statistika to'g'risida»gi Qonuniga binoan tartibga solinadi.

Tayinlanishiga ko'ra moliyaviy hisobotlar asosan tashqi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, undan ichki foydalanuvchilar ham foydalanadi. Statistik hisobot esa faqat davlat organlari uchun tayinlangan.

Moliyaviy hisobotning asosiy axborot manbai moliyaviy hisob ma'lumotlari bo'lsa, statistik hisobotni tuzishda buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan birgalikda, statistik va operativ hisob ma'lumotlaridan ham foydalaniladi.

Moliyaviy hisobotda pul o'lchov birligi qo'llanilsa, statistik hisobotda pul, natura va mehnat o'lchov birliklari ham qo'llaniladi, ya'ni statistik hisobotda ko'rsatkichlar pulda ifodalanmasliklari ham mumkin.

Moliyaviy hisobot BHMAda belgilangan qoidalar asosida tuzilsa, statistik hisobotlarni tuzish bo'yicha me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalarga muvofiq tuziladi.

Statistik hisobotni tuzishda bir necha variant yoki usullar ko'zda tutilmagan, moliyaviy hisobotda esa hisob siyosatida tanlangan usul va variantlar qo'llaniladi.

Shunday qilib, moliyaviy va statistik hisobotlarning umumiy jihatlari bilan birgalikda ularning tub farqlari ham mavjuddir.

Xulosa

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar amaliyotida qo'llanilayotgan moliyaviy hisobot shakllarining tuzilishi bizning mamlakatimizda qo'llanilayotgan moliyaviy hisobot shakllaridan farq qiladi.

Mamlakatimizda qo'llanilayotgan buxgalteriya balansida aktivlar ularning ishlab chiqarish jarayonida ishtirokidan kelib chiqqan holda, avvalo, uzoq muddatli aktivlar va keyin joriy aktivlar joylashtirilgan bo'lsa, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan buxgalteriya balansida aktivlar likvidlilik darajasiga qarab joylashtirilgan. Shuningdek, balansning passiv qismida majburiyatlar muddatlarini hisobga olgan holda joylashtirilgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Moliyaviy hisobot deganda nimani tushunasiz?
2. Moliyaviy hisobotning huquqiy asoslari sifatida qaysi me'yoriy hujjatlardan foydalaniladi?
3. Moliyaviy yil yoki hisobot yili deganda qaysi davr tushuniladi?
4. Kimlar moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar hisoblanadi?
5. Moliyaviy hisobotning tarkibi va tuzilishini izohlab bering.
6. Moliyaviy hisobotni tuzish tamoyillarini sanab bering.
7. Moliyaviy hisobotni tuzish oldidan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar qanday tartibda amalga oshiriladi?
8. Moliyaviy hisobotni taqdim qilish tartibini tushuntirib bering.
9. Xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan moliyaviy hisobotlar tarkibi va tuzilishini izohlab bering.
10. Moliyaviy va statistik hisobotlarning umumiy jihatlari va tub farqlari nimalardan iborat?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Абдуллаев А., Қаюмов И. Бухгалтерия ҳисоби. 2-Қисм. -Т.: Минхож, 2002.
2. Астахов В.П. Теория бухгалтерского учёта Учеб. пос. -М.: ИКЦ Март Ростов н/Д, 2004
3. Байда Т.П. Теория бухгалтерского учёта задачи и ситуации. Учеб. пос. -М.:Ф и С, 2004
4. Гусева Т.М.,Шейна Г.Н Бух. учёт : 2000 тестов и ответов. Учеб. пос. - М.:ТК Велби, Проспект, 2004
5. [http:// www. accounting. rut gars. Edu](http://www.accounting.rutgars.edu)

2-bob. Buxgalteriya balansi

2.1. Buxgalteriya balansining mazmuni va mohiyati

Buxgalteriya balansi moliyaviy hisobotning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Unda xo'jalik yurituvchi su'yektning aktivlari, kapital va majburiyatlar hamda ularning tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar ma'lum bir davrga aks ettiriladi. "Balans" atamasi lotincha bis – "ikki marta", banx – "tarozi pallas" so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, tom ma'noda "ikki palla" degan ma'noni anglatadi va tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi.²

Buxgalteriya balansiga iqtisodiy adabiyotlarda turlicha ta'riflar berilgan. Masalan, A.S. Sotivoldiyev "Balans xo'jalikning hisobot davri oxiriga bo'lgan mablag'lari va ularning manbalari holatini ko'rsatadi. Uning aktiv va passividagi majburiyatlariga asosan alohida bo'lim va guruhlar bo'yicha o'z va unga tenglashtirilgan mablag'lar miqdorini aniqlash, hisob-kitob intizomi ustidan nazorat qilish, bank kreditlaridan foydalanish holatini tahlil qilish, xo'jalikning umumiy moliyaviy holatiga baho berish va shunga o'xshagan muhim xulosalar qilish mumkin" deb yozadi. M. Ostanaqulov esa "Balans hisoboti korxonaning ma'lum sanaga bo'lgan moliyaviy holatini ko'rsatadi. Balans hisoboti korxonaning aktivlari, korxonaning boshqa xuquqiy shaxslar va fuqarolarga bo'lgan majburiyatlari aksionerlik jamiyat shaklida faoliyat yuritadigan korxonaning aksiyali kapitalining tavsiloti bilan berilgan ro'yxatini ko'rsatadi. Buxgalteriya balansini balans hisoboti deb atashiga sabab, bu balansda korxonaning aktivlarining qiymatini, korxonaning boshqa yuridik shaxslar va fuqarolarga bo'lgan majburiyatlarining umumiy qiymati bilan korxonaning kapitalini umumiy qiymatiga teng kelishiligidir." deb tushuntiradi. S. B. Qodirxonov buxgalteriya balansi to'g'risida quyidagilarni yozadi: "Balansda korxonaning barcha mavjud mablag'lari, boshqa tashkilot va shaxslar bilan olib boradigan hisob-kitob muomalalari, moliya va kredit organlari bilan aloqasi hamda xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari umumlashtirilgan ko'rsatkichlarda aks ettiriladi".³

O. Bobojonov, K. Jumaniyozovlar buxgalteriya balansini quyidagicha ifodalaydi: "Buxgalteriya balansi hisobot davrining boshi va oxirida su'yektga tegishli bo'lgan mulkning haqiqiy holati va mavjudligini o'zida aks ettiradi."⁴

Shuningdek A.A. Karimov, F. Islomov, A. Avloqulovlar buxgalteriya balansi va uning mazmuni to'g'risida quyidagilarni yozadi: Buxgalteriya balansi moliyaviy hisobotning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. U korxonaning mablag'larini guruhlash va tarkibini pul bahosida aks ettirish hamda pul mablag'larini, ularni hosil etish manbalarini muayyan sanaga joylashtirish usulidan iborat."⁵

Yuqorida keltirilgan ta'riflarning barchasida buxgalteriya balansi korxonaning ma'lum bir sanaga bo'lgan moliyaviy holatini ifodalashi to'g'risidagi fikrlar mavjud. Shu bilan birgalikda har bir muallif buxgalteriya balansining alohida jihatlari ochib beradi. Masalan, A.S. Sotivoldiyev uning ma'lumotlari asosida nazorat hamda

² Каримов А.А. ва бошқалар. Бухгалтерия ҳисоби.-Т.: Шарқ 2004,-45 б.

³ Қодирхонов С.Б. Саноат корхоналарида бухгалтерия ҳисоби.-Т.: Ўзбекистон, 193.-334 б.

⁴ Бобоҷонов О., Жуманиёзов К. Молиявий ҳисоб. Т.: Молия, 2000. -608 б.

⁵ Каримов А.А. ва бошқалар Бухгалтерия ҳисоби. Т.: Шарқ 2004. -45 б.

moliyaviy holatiga baho berish bo'yicha muhim xulosalar qilishadi degan mulohazani bildiradi. M. Ostanaqulov esa korxonada aktivlari summasi bilan kapital va majburiyatlar summasi teng kelishi lozimligini uqtiradi. Albatta bu tenglik buxgalteriya balansiga xos bo'lgan fundamental tenglik hisoblanadi.

S.B. Qodirxonov buxgalteriya balansida korxonaning xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari umumlashtirilgan ko'rsatkichlarda aks ettiriladi deb hisoblaydi. A.A. Karimov, F. Islomov, A. Avloqulovlar buxgalteriya balansini xo'jalik mablag'lari va ularning manbalarini ma'lum sanaga umumlashtirish usuli ekanligini alohida ta'riflaydi.

Fikrimizcha bu ta'riflarning barchasini o'rganish va tahlil qilish buxgalteriya balansini mazmunini, uning mohiyatini to'laroq tushunib yetish uchun zamin yaratadi.

Buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy asos hisoblangan 1-BHMA "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" da buxgalteriya balansini ta'riflovchi maxsus band bo'lmasarda 6.6-bandida buxgalteriya balansining maqsadi quyidagicha yoritiladi: "Xo'jalik yurituvchi su'yektning buxgalteriya balansini uning hisobot kunigacha bo'lgan moliyaviy holatini aks ettirishi lozim, bu esa uning imkoniyatlari va moliyaviy tuzilmasini tushunish imkoniyatini beradi". Albatta, bu tushuntirishning mazmuni iqtisodiy adabiyotlarda berilgan ta'riflarga mazmunan juda yaqindir.

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda buxgalteriya balansiga berilgan ta'riflarning mazmuni va mohiyati jihatidan mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan berilgan ta'riflarga juda yaqindir. Masalan, R. Entoni, Dj. Ris buxgalteriya balansiga quyidagicha ta'rif beradi: "Buxgalteriya balansini mustaqil hisob yurituvchi har qanday xo'jalik birligining ma'lum vaqtga bo'lgan moliyaviy holatini aks ettiradi".⁶ Xuddi shunga yaqin fikrni B. Nidlz, X. Anderson, D. Kolduel ham bildiradi: "Balans firmaning ma'lum vaqtga bo'lgan moliyaviy holatini tavsiflaydi. U aktiv, passivlar va kapitalni hisobga oluvchi schyotlarning qoldig'ini o'z ichiga oladi".⁷

Buxgalteriya balansini to'g'risidagi xuddi shunga yaqin ta'riflarni Rossiyalik iqtisodchi olimlarning darslik va o'quv qo'llanmalarida uchratish mumkin.

Shunday qilib, buxgalteriya balansining mazmuni va mohiyatini ochib berish maqsadida iqtisodiy adabiyotlarni tahlil qilish ularning barchasida bir-biriga o'xshash, umumiy va mazmuniy jihatidan yaqin bo'lgan ta'riflar, tushuntirishlar, fikr va mulohazalarning mavjudligini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida mamlakatimizda nashr qilinayotgan iqtisodiy adabiyotlarda buxgalteriya balansining mazmuni va mohiyatini ochib berishda ancha salmoqli ishlar amalga oshirilayotganligini tasdiqlaydi.

2.2. Buxgalteriya balansining turlari va ularga qo'yiladigan talablar

Buxgalteriya balansining har xil turlari mavjud bo'lib, ular quyidagi belgilari bo'yicha tasniflanadi: tuzilish vaqti, axborot hajmi, mulkchilik shakli, aks ettirish ob'yekti, tozalash usuli.

Tuzilish vaqtiga ko'ra buxgalteriya balanslari kirish, joriy, tugatish, bo'lish va birlashtirish balanslari bo'lishi mumkin.

⁶ Энтони Р., Дж. Рис Учёт, ситуации и примеры. -М.: Финансы и статистика 1993, 29 стр.

⁷ Нидлз Б. и другие Принципы бухгалтерского учёта. -М.: Финансы и статистика, 2003, 119 стр.

Kirish balansi korxonaning paydo bo'lish vaqtiga tuziladi. U korxonaga o'z faoliyatini boshlayotgan bo'liklar summasini belgilaydi.

Joriy balanslar korxonaga qonunchilik bilan belgilangan muddatda mavjud bo'lgan vaqt mobaynida vaqti-vaqti bilan tuzib turiladi.

Tugatish balanslari korxonaga tugatilganda tuziladi.

Bo'lish balanslari yirik korxonaga bir necha mayda korxonalariga bo'linish vaqtiga yoki shu korxonaning bir yoki bir necha tarkibiy bo'linmasini boshqa korxonaga berish vaqtiga tuziladi. Ba'zida bu balans berish balansi ham deyiladi.

Birlashtirish balansi bir necha korxonalar bor korxonaga birlashganda (qo'shilganda) tuziladi.

Axborot hajmi bo'yicha balanslar bir martalik va yig'ma balanslarga bo'linadi. Bir martalik balans faqat bitta korxonaga bo'yicha joriy hisob asosida tuziladi.

Yig'ma balans bir martalik balanslar asosida tuziladi va birlashmalar (vazirliklar, firmalar, aksiyadorlik jamiyatlari va shu kabilar)ning xo'jalik mablag'larini aks ettiradi.

Mulkchilik shakllariga ko'ra davlat, kooperativ, o'z, aralash va qo'shma korxonalar, shuningdek, jamoat tashkilotlari balanslari farqlanadi.

Aks ettirish ob'yektiga ko'ra balanslar mustaqil va alohida balansga ajratiladi. Mustaqil balansni yuridik shaxs bo'lgan korxonalar tuzadi. Alohida balansni korxonaning tarkibiy bo'linmalari (filiallar, sexlar, korxonaning avtotransport va turar joy-kommunal xo'jaliklari va shu kabilar) tuzadi.

Tozalash usuliga ko'ra balanslar balans-brutto va balans-nettoga ajratiladi.

Balans-brutto-tartibga soluvchi moddalarni o'z ichiga oluvchi balansdir. Vositalarning haqiqiy qiymatini (tannarxi yoki qoldiq qiymatini) aniqlashda summalar boshqa moddalar summalaridan chegiriladigan moddalar tartibga soluvchi moddalar deyiladi. Masalan, asosiy vositalar qoldiq qiymatini hisob-kitob qilish uchun "Asosiy vositalar" summasidan "Asosiy vositalarning eskirishi" tartibga soluvchi modda summasi chegiriladi. Balans-bruttoda tartibga soluvchi moddalar summasi balans yakuni qiymatiga kiritiladi.

Balans-netto-qiymatidan tartibga soluvchi moddalar summasi chegirilgan balans bo'lib, buni "tozalash" deyiladi. O'zbekistondagi barcha korxonalar balans-netto tuzadi, ya'ni balans yakuniga asosiy vositalar, qayta sotiladigan tovarlar esa tannarxi bo'yicha kiritiladi.

Buxgalteriya balansiga qo'yiladigan asosiy talablar uning to'g'riligi, realligi, yaxlitligi, izchilligi va tushunarligidir.

Balansning to'g'riligi balansni tuzishda asoslanadigan hujjatlarning to'laligi va sifati bilan ta'minlanadi. Agar hisobot davrida xo'jalik faoliyatining barcha faktlari o'z vaqtida hujjatli rasmiylashtirilmagan yoki noto'g'ri rasmiylashtirilgan bo'lsa, unda balans korxonaga ishining haqiqiy yakunini aks ettirmaydi. Buxgalteriya balansining har bir moddasi hujjatlar, buxgalteriya hisobraqamlaridagi yozuvlar, buxgalteriya hisob-kitoblari va inventarlash bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Buxgalteriya balansi ma'lumotlarini qasddan buzish – niqoblash deyiladi. Balansni niqoblash qoida buzishlarni yashirish maqsadida yoki korxonaga faoliyatining ayrim tomonlarini bo'rttirib ko'rsatish maqsadida atayin va balansni tuzish bo'yicha ayrim qoidalardan bexabarlik oqibatida bilmasdan qilingan bo'lishi mumkin.

Balansning realligi moddalar bahosining ob'yektiv voqelikka muvofiq kelishini anglatadi. Balansning “to'g'riligi” va “realligi” tushunchalarini bir-biriga aralashtirmaslik kerak. Balans to'g'ri, ammo noreal bo'lishi mumkin, ya'ni balans ma'lumotlari hujjatlar asosida tuzilgan bo'ladi va haqiqiy mavjud mablag'larni ko'rsatadi, ammo uning ayrim moddalari real holatni, masalan, asosiy vositalar – ma'naviy eskirganligi, debitorlik qarzni talab qilib olib bo'lmasligi va shu kabilarni ko'rsatmaydi.

Balansning birligi balansni yagona hisobga olish va baholash tamoyillari bo'yicha tuzilishini, ya'ni korxonaning barcha tarkibiy bo'linmalarida va tarmoqlarida buxgalteriya hisobi hisobraqamlari (schyot)ning yagona nomenklaturasi, hisobraqamlarning bir xildagi mazmuni, ularning korrespondensiyasi va shu kabilar qo'llanilishini anglatadi.

O'zbekistonda balanslar birligiga erishilgan, chunki O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi 1997-yil 15-yanvarda tasdiqlangan buxgalteriya balansining yagona shakli qabul qilingan, hisobraqamlarning yagona rejasi qo'llaniladi. Moliyaviy hisobotning barcha shakllari O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi huzuridagi Buxgalteriya hisobi va hisoboti uslubiyati va ularni tashkil etish boshqarmasi ishlab chiqqan “Korxonalar chorak va yillik moliyaviy hisoboti shakllarini to'ldirish bo'yicha ko'rsatmalar” asosida tuziladi.

Balansning davomiyligi har bir keyingi balans oldingi balansdan kelib chiqishi lozimligida ifodalanadi. Masalan, oldingi yil yakuniy balans (yil oxiriga bo'lgan ma'lumotlar) hisobot yili (yil boshiga bo'lgan ma'lumotlar) boshlang'ich balans bo'lishi kerak, chunki hisobot yili oldingi yilning davomi hisoblanadi.

Balansning aniqligi – uning balansni tuzuvchilar va uni o'qiydigan hamda tahlil qiladiganlar tushunishi uchun qulayligidir. Balansni aniq va tushunarli qilish uchun moddalar rekvizitlari va nomlari ikki tilda (o'zbek va rus tilida) bayon qilingan, uning shakli ancha soddalashtirilgan.

Shunday qilib, buxgalteriya balansining har bir turi o'ziga xos mazmunga ega bo'lib, ma'lum vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan.

2.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya balansining rivojlantirilishi

Markazlashtirilgan rejali iqtisodiyot o'ziga xos xususiyatlari buxgalteriya balansining tuzilishi va uning ko'rsatkichlarida ham bevosita o'z aksini topgan. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarining buxgalteriya balanslari xalq xo'jaligi tarmoqlari va mulkchilik shaklidan kelib chiqib belgilangan. Shuningdek, ularda markazlashtirilgan rejali iqtisodiyot o'ziga xos xususiyatlari o'z aksini topgan edi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotining amal qila boshlashi, buxgalteriya hisobi va uning natijaviy ko'rsatkichlarini o'zida ifoda etuvchi buxgalteriya balansini ham tubdan qayta ishlashni hamda yangi iqtisodiy munosabatlarga moslashtirishni talab qila boshladi. Korxonalar faoliyatiga 1991-yildan yangi buxgalteriya balans joriy qilindi. Ushbu buxgalteriya balans tuzilishi va shakl jihatidan oldingi buxgalteriya balansidan tubdan farq qiladi. Yangi buxgalteriya balans umuman olganda bozor iqtisodiyoti talablariga moslashgan bo'lib, aktiv tomonida hisobot

kunigacha bo'lgan korxonada mulki qiymati va qarzi munosabatlari bo'yicha olishga tegishli summa aks ettiriladi. Passivda korxonaning qarzi olgan mablag'lari va kreditor qarzlari bo'yicha majburiyatnomalari ko'rsatiladi. Bu qarzlarni qaytarish korxonada mulki qiymatini yoki tushadigan daromadini kamaytiradi. Passivdagi summadan aktivdagi summani ortiqchasi korxonaning o'z aktiv mablag'ini ko'rsatadi va u hisobot balansining passivida o'z mablag'lar manbai bo'limida aks ettiriladi.

Yangi balans jadvali aktivda ham, passivda ham uch bo'limdan iborat bo'lib, uning shakli 1-jadvalda ko'rsatilgan.

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining yangi bosqichga ko'tarilishi buxgalteriya balansini doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda 1991-yildan amal qila boshlagan buxgalteriya balansini takomillashtirish zaruriyati vujudga keldi va bu 1997-yil amaliyotga joriy qilingan buxgalteriya balansida o'z aksini topdi.

1997-yil 1-yanvardan korxonada balansiga, balansning aktiv va passiv bo'limlarini nomlanishiga o'zgartirish kiritishdan tashqari, korxonada mablag'larini uzoq muddatli va joriy aktivlarga, korxonada mablag'larini manbalarini esa xususiy mablag'lar manbalari va majburiyatlarga bo'lish ham amalga oshirildi.

2.3.1-jadval

Korxonaning 1991-yil 1-oktabrga balansini

Aktiv			Passiv		
Bo'limlari	Yil boshi	Yil oxiri	Bo'limlari	Yil boshi	Yil oxiri
1. Asosiy vositalar va qo'yilmalar			1. O'z mablag'larini manbalari		
2. Zaxiralar va xarajatlar			2. Kreditlar va boshqa qarzi olingan mablag'lar		
3. Pul mablag'larini, hisob-kitoblar va boshqa aktivlar			3. Hisob-kitoblar va boshqa passivlar		
Balans			Balans		

Hozir amaliyotda qo'llanilayotgan buxgalteriya balansini qator ijobiy xususiyatlarga ega bo'lib, ular quyidagilarda o'z aksini topgan.

Birinchi, balansning aktiv va passiv tomonlari bo'limlarining sonini o'zgarishi hamda korxonada mablag'larini va ularni qoplash manbalarining tegishli turlari bo'yicha jamlashni amalga oshirish imkoniyatini vujudga keltirdi.

Ikkinchi, korxonada balansida ko'rsatilayotgan mablag'lar va ular manbalarining ma'nosini yanada aniqroq ifodalash maqsadida, ayrim bo'limlarining talqini o'zgartirildi.

Uchinchi, xalq xo'jaligini rivojlantirishning markazlashtirilgan rejali iqtisodiyot tizimining mazmuni, korxonada balansini ko'rsatkichlarida ham o'z aksini topgan edi va yangi balansda ularga to'la barham berildi.

To'rtinchi, balans ko'rsatkichlarida iqtisodiyotni davlat rahbarlari uchun zarur ma'lumotlardan xolos qilindi va unda erkin iqtisodiyot sharoitida tashqi foydalanuvchilar uchun kerakli ko'rsatkichlar bilan to'ldirildi.

Beshinchidan, mamlakatimiz iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o'tishi va respublikamizning jahon integratsiyalashuvi munosabati bilan xo'jalik yurituvchi su'yektlarning hisob va hisobot tizimining xalqaro andozalariga ancha yaqinlashtirildi.

Shu bilan birga hozir korxonalar amaliyotida qo'llanilayotgan buxgalteriya balansining mazmunan va shaklan xorijiy rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan buxgalteriya balansiga ancha yaqinlashtirilgan bo'lsa-da, ulardan farqli jihatlari ham mavjud. Bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar ko'lami bilan bevosita bog'liq bo'lib, barcha sohalarda shu jumladan buxgalteriya hisobidagi islohotlarning ham evolyutsion tarzda davlat rahbarligida amalga oshirish bilan bog'liqdir.

Shunday qilib, buxgalteriya balansining bugungi kundagi rivojlanish darajasini hozir iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar talabiga javob berishini e'tirof etgan holda, kelgusida uni yangi bosqichda rivojlantirish zarurligini alohida ta'kidlash mumkin.

2.4. Buxgalteriya balansini bo'limlari va moddalarining tavsifi

Hozir amaliyotda qo'llanilayotgan buxgalteriya balansining aktiv va passiv tomonlari ham ikki bo'limdan iborat. Buxgalteriya balansini aktivida mablag'lar quyidagi bo'limlar bo'yicha guruhlangan.

1-bo'lim. Uzoq muddatli aktivlar;

2-bo'lim. Aylanma aktivlar.

Balans passivida mablag'lar manbalari quyidagi bo'limlar bo'yicha guruhlangan:

1-bo'lim. O'z mablag'lari manbalari;

2-bo'lim. Majburiyatlar.

Balans aktivining 1-bo'limi "Uzoq muddatli aktivlar"da uzoq foydalaniladigan tusdagi aktivlar (moddiy-ashyoviy vositalar, qimmatli qog'ozlar, uzoq muddatli investitsiyalar) aks ettiriladi. Balansda ular quyidagi moddalar bo'yicha guruhlangan:

Asosiy vositalar - uzoq vaqt mobaynida (bir yildan ortiq) o'zgarimas shaklda ishlaydigan, qiymati birlik uchun belgilangan limitdan yuqori, o'z qiymatini qismlab yo'qotadigan moddiy-ashyoviy boyliklar. Balansda ular dastlabki qiymati bo'yicha, eskirishi qoldiq qiymat bo'yicha ham ko'rsatiladi.

Nomoddiy aktivlar - yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan, binolar, inshootlar, aqliy mulk, tovar zaxiralari, ixtirolar, "nou-xau" va boshqalardan foydalanishga doir mulkiy huquqlar. Balansda ular dastlabki va qoldiq qiymat bo'yicha, shuningdek ularning eskirishi bo'yicha aks ettiriladi.

Sarmoya qo'yilmalari - xo'jalik yoki pudrat usulida amalga oshirilayotgan tugallanmagan qurilish qiymati, shuningdek, asosiy podani tashkil etish, geologiya-qidiruv ishlariga sarflar va korxonalariga bo'nak ko'rinishida mana shu maqsadda berilgan bo'naklar va mablag'lar summasi.

Uzoq muddatli investitsiyalar-korxonaning boshqa korxonalar ustav fondiga bir yildan ortiq muddatga qo'yilgan omonatlari. Bundan tashqari bu bo'limda sotib

olingan aksiyalar, boshqa korxonalariga berilgan qarzlilar alohida moddalar bilan ko'rsatiladi.

Balans aktivining 2-bo'limi "Joriy aktivlar" deb ataladi, bu aylanma mablag'larning 3 guruhga ajratish mumkin bo'lgan barcha summasidir.

1. Zaxiralar va sarflar - ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, qayta sotiladigan tovarlar, bo'lajak davrlar xarajatlari;

2. Pul mablag'lari – kassadagi, valuta mablag'lari, qisqa muddatli qo'yilmalar, qayta sotib olingan o'z aksiyalari;

3. Debitorlar – xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar, bo'nak to'lovlari, xodimlar bilan hisob-kitoblar, shuba korxonalar bilan hisob-kitoblar, uyushgan korxonalar bilan hisob-kitoblar, ta'sischi va boshqa debitorlar bilan hisob-kitoblar.

Balans passivi ham ikki bo'limdan iborat bo'ladi:

1. O'z mablag'lari manbalari;

2. Majburiyatlar.

Balans passivining birinchi bo'limida o'z mablag'lari aks ettirilib, ular quyidagi moddalar bo'yicha guruhlangan:

ustav sarmoyasi; qo'shilgan kapital; zaxira sarmoya; taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar); maqsadli tushumlar va fondlar; bo'lajak xarajatlar va to'lovlar zaxiralari; bo'lajak xarajatlar va to'lovlar zaxiralari; bo'lajak davrlar daromadlari.

Oxirgi ikkita modda oldingi yillar balansida qisqa muddatli majburiyatlar sifatida 3-bo'limda ko'rsatiladi. Aslida esa bu mablag'lar o'z mablag'lariga kiritilishi kerak.

Balans passivining ikkinchi bo'limida yuridik va jismoniy shaxslardan olingan, vaqti kelganda qaytarilishi lozim bo'lgan barcha mablag'lar ko'rsatilgan.

Bu majburiyatlar uzoq muddatli va qisqa muddatli qarzlilar, olingan kreditlar, shuningdek, turli kreditorlik qarzlilari bo'lishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, buxgalteriya balansida muayyan sanaga (yil boshi va oxiriga) bo'lgan xo'jalik mablag'lari va ularning manbalari aks ettirilgan. Balansning ayrim moddalarini izoh berish (rasshifrovka qilish) uchun moliyaviy hisobotda buxgalteriya balansi bilan birga o'zaro bog'langan hamda bir-birini to'ldiradigan bir qator hisobot shakllari nazarda tutiladi.

2.5. Buxgalteriya balansi moddalari bilan moliyaviy hisobotning boshqa shakllari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik

Aytib o'tilganidek, buxgalteriya balansida korxonalar mablag'lari va ularning manbalari muayyan sanaga (chorak va yil boshi hamda oxiriga) ko'rsatiladi. Bu aktiv ma'lumotlari passiv ma'lumotlari bilan bevosita bog'liqligini va o'zaro teng bo'lishi kerakligini anglatadi.

Buxgalteriya balansi moddalarining umumiy ichki o'zaro bog'liqligini ko'rib chiqamiz:

1. Balans aktivini barcha bo'limlari summasi uning passivi barcha bo'limlari summasiga teng:

$$1BA+2BA = 1BP + 2BP$$

Korxonalar mablag'ining bir xil summasi ikki ko'rinishda: tarkibiga va joylashuviga ko'ra, shuningdek yuzaga kelish manbalari bo'yicha ko'rsatiladi.

Tarkibiga ko'ra - korxonalar mablag'larini tashkil etgan qismlar, ya'ni asosiy vositalar, tovar zaxiralari, pul mablag'lari va sh.k.larning jamuljamini anglatadi.

Mablag'larning joylashuviga ko'ra - mablag'larning qayerda asosiy vositalar, aylanma vositalar, kassa, hisob-kitob schyotida va sh.k.da joylashganligini ko'rsatadi.

Mablag'larning har bir summasi (asosiy vositalar, tovar zaxiralari, naqd pullar) o'z yuzaga keladigan manbalariga (mazkur korxonalar muassislarning o'z mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslardan (banklardan) olingan qarzlardan) ega.

2. O'z mablag'lari summasi, odatda, uzoq muddatli aktivlar summasidan ortiq bo'lishi kerak:

$$1BP > 1BA$$

Korxonaning o'z mablag'laridan asosiy vositalar sotib olish va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar joylash maqsadida, qolgan qismidan esa - aylanma mablag'larni (ishlab chiqarish zaxiralari, sarf-xarajatlar, pul mablag'lari va sh.k.) qoplash uchun foydalaniladi. O'z mablag'larining uzoq muddatli aktivlardan kam ekanligi korxonalar aylanmadan tashqari aktivlarni qoplash uchun qarz olingan mablag' summasidan foydalanilganidan dalolat beradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu g'ayritabiiy holat deb qaralib, odatda, korxonalar to'lovga qodir emas deb topiladi.

3. Aylanma aktivlarning umumiy summasi, ya'ni tovar zaxiralari, sarf-xarajatlar, pul mablag'lari, hisob-kitoblarga qo'shilgan mablag'i majburiyatlarning umumiy summasidan ortiq bo'lishi lozim: $2BA > 2BP$. Aylanma vositalarning katta qismi, odatda, qarz olingan mablag'lar emas, balki o'z mablag'lari hisobiga qoplanishi shart.

Agar majburiyatlar summasi ($2BP$) aylanma aktivlar summasidan ortsa, bu aylanma mablag'larning barcha summasi qarz olingan mablag'lar hisobiga shakllanganligini ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday korxonalar to'lovga qodir emas va iqtisodiy jihatdan nochor deb hisoblanadi.

4. Uzoq muddatli majburiyatlar uzoq muddatli aktivlardan ortmasligi kerak:

$$UMM < 1BA$$

Buni uzoq muddatli aktivlarning birinchi navbatda o'z mablag'lari hisobiga shakllanish bilan izohlash mumkin. Uzoq muddatli kredit va qarzlardan asosiy vositalar, kapital va uzoq muddatli qo'yilmalarni investitsiyalash uchun foydalaniladi. Ular shuningdek, aylanma aktivlarda (tovar zaxiralari xarid qilish, pul mablag'larni yaratish va h.k.) ishlatiladi.

5. O'z aylanma mablag'lari o'z mablag'lari manbalaridan kichik bo'lishi shart, chunki o'z aylanma mablag'lar korxonalar o'z mablag'ining bir qismidir.

6. Aylanma aktivlar aylanmadagi o'z mablag'lari va qisqa muddatli kredit va qarzlardan, shuningdek aylanma vositalarni to'ldirishga yo'llangan uzoq muddatli kredit va qarzlardan yig'indisiga teng bo'lishi shart. Bu hol aylanma aktivlar (aylanma mablag'lar) korxonaning o'z mablag'laridan, aylanma vositaga yo'nalgan qisqa muddatli qarzlardan iborat ekanligi bilan izohlanadi.

Moddalarning ushbu bog'liqligi ham buxgalteriya balansiy yakunlari summasining o'zgarishlarini belgilaydi.

Amaliyotda buxgalteriya balansini moddalari o'zgarishining to'rt turini kuzatish mumkin.

1. Faqat balans aktiv moddalari yakunining o'zgarishi. Masalan, hisob-kitob schyotidan kassaga pul olingan, bunda kassadagi pul ko'paydi va hisob-kitob schyotidagi pul miqdori ozaydi, biroq o'zgarishlar o'zaro teng bo'lgani sababli balans aktiv yakuni o'zgarmaydi.

2. Balans passivi moddalari summasining o'zgarishi. Daromad muayyan qismining biron-bir fondga qo'shib yuborilishini misol bo'lib xizmat qilishi mumkin: foydalanilmay qolgan daromad hajmi kamayadi, biroq buning hisobiga tegishli fond ortadi.

3. Balans aktiv va passiv moddalari summalarining teng ravishda o'sib borish tomoniga o'zgarishi. Masalan, yetkazib beruvchidan materiallar kelib tushdi. Buning natijasida 1000 schyotning aktiv moddasi ko'payadi va yetkazib beruvchilardan qarzi (passiv moddasi) xuddi ana shu summaga ko'payadi, ya'ni balansning har ikkala - aktiv va passiv qismlari teng ravishda o'sadi. Balans aktiv va passiv yakunlarining muvozanati buzilmaydi.

4. Balans aktiv va passiv moddalari summasining teng ravishda kamayib borish tomoniga o'zgarishi. Masalan, yetkazib beruvchiga hisob-kitob schyotidan material uchun haq to'lanadi. Buning natijasida 5100 schyotning aktiv moddasi kamayadi va yetkazib beruvchilardai qarzdorlik (passiv moddasi) bir xil summaga kamayadi, ya'ni balansning har ikkala qismi teng ravishda kamayadi. Balans aktiv va passiv yakunlarining muvozanati buzilmaydi.

Aytib o'tilganidek, buxgalteriya balansida korxonalar mablag'lari va ularning manbalari muayyan sanaga (chorak va yil boshi hamda oxiriga) ko'rsatiladi. Bu aktiv ma'lumotlari passiv ma'lumotlari bilan bevosita bog'liqligini va teng bo'lishi kerakligini anglatadi.

2.6. Buxgalteriya balansini tuzishdan oldin amalga oshiriladigan hisob ishlari

Buxgalteriya balansini moliyaviy hisobot elementlarining uchtasini, ya'ni aktiv, xususiy kapital va majburiyatlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun buxgalteriya hisobining aktivlar, xususiy kapital va majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlarning qoldiqlari asosida buxgalteriya balansini tuziladi. Ushbu schyotlarni buxgalteriya balansini schyotlari yoki doimiy schyotlari deb atashadi. Chunki bu schyotlar doimiy qoldiqqa ega bo'ladi va hisobot davri oxiriga yopilib ketmaydi. Buxgalteriya balansini tuzish ushbu schyotlarning dastlabki qoldig'i, hisobot davridagi aylanmasi va hisobot davri oxiriga bo'lgan qoldiq summasini to'g'ri aniqlashga bevosita bog'liqdir.

Balans aktivining "Uzoq muddatli aktivlar" bo'limini to'ldirish uchun zarur ma'lumotlarni aks ettiruvchi schyotlarning hisobot davri yakuniga bo'lgan summasini aniqlashda asosiy e'tibor ularning kirimi va chiqimi, eskirish summasini to'g'ri aniqlash hamda ularni schyotlarda aks ettirish bilan bog'liq ishlarini to'g'ri amalga oshirishni talab qiladi. Korxonalar amaliyotida uzoq muddatli aktivlarning kirimi va chiqimi bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik muomalari ancha kam sodir bo'ladi. Ammo

ularga eskirish hisoblash bilan bog'liq xo'jalik muomalari doimiy va uzluksiz amalga oshiriladi hamda ular sezilarli salmoqqa ega.

Balans aktivining "Joriy aktivlar" bo'limi moddalarini hisobga olish ancha murakkab jarayon bo'lib, buxgalteriya balansini tuzish uchun zarur ma'lumotlarni aniqlashga bir necha bosqichdan iborat hisob-kitob ishlarini amalga oshirishni talab qiladi.

Birinchi bosqichda joriy aktivlarning kirimi bilan bog'liq xo'jalik muomalalarining buxgalteriya hisobi schyotlarida to'g'ri hisobga olinganligini tekshirish bilan bog'liq hisob-kitoblar, ya'ni ular kirimining summasini aniq hisobga olish.

Ikkinchi bosqichda joriy aktivlarning chiqimi, ya'ni ichki ehtiyojlar va zarurat bo'lganda tashqi ehtiyojlar uchun sarflanishi bilan bog'liq xo'jalik muomalalarining to'g'ri hisobga olinganligini tekshirish bilan bog'liq hisob-kitoblar, ya'ni ular chiqimi summasini aniqlash.

Uchinchi bosqichda ishlab chiqarish xarajatlari summasini olingan mahsulot (ish, xizmat)lar va tugallanmagan ishlab chiqarish o'rtasida taqsimlash bilan bog'liq hisob-kitoblar. Bu bosqichda hisobot davriga tegishli xarajatlar summasi to'g'ri aniqlanganligiga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, taqsimlanadigan xarajatlar 2510-"Umumishlab chiqarish xarajatlari" va 3110-"Kelgusi davr sarflari" schyotlarida hisobga olinadigan xarajatlarning xarajat ob'yektlariga to'g'ri olib borilganligiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

To'rtinchi bosqichda "Tayyor mahsulot" va tovarlarning kiringa olinishi va ularning sotilgan qismiga tegishli xarajatlar summasini aniqlash bilan bog'liq hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Beshinchi bosqichda debitorlik qarzlarning harakati bilan bog'liq xo'jalik muomalalarining aniqligini ta'minlashga oid hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Balans passivining "O'z mablag'larining manbalari" bo'limi uchun zarur ma'lumotlarni shakllantiruvchi schyotlar unchalik katta hajmga ega emas. Bu bo'limni to'ldirishda asosiy e'tiborni taqsimlanmagan foyda, maqsadli moliyalashtirish va tushumlar, kelgusi davr sarflari uchun zaxiralar, kelgusi davr daromadlari kabi moddalarni hisobga oluvchi schyotlarning dastlabki qoldig'i, aylanmasi va oxirgi qoldig'iga qaratish lozim. Bu bo'limdagi "Ustav kapitali" moddasi faqat korxonaning ustav kapitali summasi o'zgarganda o'zgartiriladi.

Majburiyatlar bo'limidagi moddalar korxonaning majburiyatlarini hisobga oluvchi schyotlarning qoldig'i asosida tuziladi. Majburiyatlar ikki guruhga bo'lib aks ettiriladi: uzoq muddatli majburiyatlar va joriy majburiyatlar. Balans tuzishdan oldin joriy va uzoq muddatli majburiyatlarga tuzatish kiritilishi lozim. Tuzatish kiritish ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda joriy va uzoq muddatli majburiyatlarni bajarilish muddatlariga qarab muddati o'tgan bo'lsa ular alohida muddati o'tgan majburiyatlar sifatida hisobga olinishi lozim. Ikkinchi bosqichda uzoq muddatli majburiyatlarning joriy yilda to'lanishi lozim bo'lgan qismiga tegishli buxgalteriya o'tkazmalari orqali tuzatishlar qilinishi lozim. Balans tuzishdan oldin ushbu jaryonlarning to'g'ri amalga oshirilganligi tekshirilishi zarur. Shundan so'nggina balansni tuzishga kirishish mumkin.

Shunday qilib, buxgalteriya balansini tuzishdan oldingi hisob ishlarini to'g'ri amalga oshirish buxgalteriya balansini tuzish jarayonini yengillashtiradi va uning muvaffaqiyatli tugallanishini ta'minlaydi.

2.7. Buxgalteriya balansining uzoq muddatli aktivlar bo'limini tuzish qoidalari

Balans tuzishga qadar joriy yil oxiriga analitik schyotlarning oborot (aylanma)lari va qoldiqlari bilan Bosh daftardagi schyotlarning oborot (aylanma)lari va qoldiqlari yana bir bor taqqoslanishi zarur.

Joriy yil oxiriga bo'lgan balans ma'lumotlari su'yektning tashkiliy qayta qurilishi, tovar-moddiy zaxiralarining qayta baholanishi va boshqa shunga o'xshashlarni hisobga olgan holda, 3-ustunda, ya'ni kirish balansining ma'lumotlari yil boshiga ko'rsatiladi.

Balans moddalarining va umumiy summasining yil boshiga va yil oxiriga ma'lumotlarining bir-biriga mos bo'lishi uchun tasdiqlangan balans moddalari yil oxiriga bo'lgan balans moddalari va guruhlangan bo'limlariga mos keltirilishi shart.

010. "Asosiy vositalar" moddasida ham harakatdagi, ham konservatsiya yoki zaxiradagi asosiy vositalar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Shuningdek, bu moddada yer unumdorligini oshirishga (melioratsiyalash, ularning zahini yuvish, irrigatsion va boshqa ishlar) qilingan kapital qo'yilmalar, ijaraga olingan binolar, inshootlar, jihozlar va asosiy vositalarga kiruvchi boshqa ob'yektlar ham aks ettirilib, bu moddada su'yekt, tomonidan amaldagi qonunchilikka binoan, yer uchastkalarini sotib olishga haqiqatda sarflangan xarajatlar ham ko'rsatiladi.

Ijarachi va ijaraga beruvchi o'rtasida tuzilgan ijara shartnomasi (yoki boshqa ahdlashuv)ga binoan ijaraga olingan asosiy vosita ijara muddatining tugashi bilan yoki shartnomaga muvofiq sotib olish bahosiga 0310-"Lizing shartnoma bo'yicha olingan asosiy vositalar" schyotida hisobga olinuvchi uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalar ham ko'rsatiladi.

Korxonaning 0100-"Asosiy vositalar" va 0310-"Lizing shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar" schyotlarida hisobga olingan asosiy vositalar bo'yicha hisoblangan eskirish summalari ushbu moddada alohida ko'rsatiladi. Asosiy vositalarga eskirish hisoblashda, asosiy fondlarni to'liq qayta tiklashda belgilangan yagona amortizatsiya ajratmalarining me'yorlaridan foydalanish kerak.

020. "Nomoddiy aktivlar" moddasida su'yekt o'z xo'jalik faoliyati davomida uzoq davr mobaynida foydalanadigan va unga daromad keltiradigan nomoddiy ob'yektlarga sarflangan xarajatlarini ko'rsatadi. Bularga tabiiy resurslardan, yer maydonlaridan foydalanish huquqlari, patentlar, litsenziyalar, aqliy mulk, tashkiliy xarajatlar va soliqlar kiradi. Nomoddiy aktivlarni ta'sischi (mulkdorlar) tomonidan su'yektning ustav kapitaliga hissa tarzida qo'ygan bo'lishi yoki su'yekt o'z faoliyati davomida sotib olgan bo'lishi mumkin.

Ushbu modda bo'yicha nomoddiy aktivlar ham boshlang'ich, ham qoldiq qiymatlarida alohida, shuningdek, hisoblangan eskirish miqdorlarida keltiriladi. Nomoddiy aktivlarning eskirish me'yori su'yekt tomonidan ularning boshlang'ich

qiymati va ulardan foydalanish muddatlaridan kelib chiqqan holda (lekin su'yektning faoliyat ko'rsatish muddatidan oshmagan holda) hisoblangan oylik me'yorlari bo'yicha hisoblanib, oyma-oy mahsulot (ish, xizmat)larning tannarxiga (davv xarajatlariga) olib boriladi. Xizmat qilish muddatlarini aniqlab bo'lmaydigan nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirish me'yori besh yilga (lekin su'yektning faoliyat ko'rsatish muddatidan oshmagan holda) belgilanadi.

030. "Kapital qo'yilmalar" moddasida xo'jalik va pudrat usullarida olib borilayotgan, tugallanmagan qurilishlarning qiymati ko'rsatiladi.

Asosiy podani tashkil etish, geologiya-qidiruv ishlari bo'yicha xarajatlar, shu maqsadlarda vaqtinchalik foydalanish uchun su'yektlar tomonidan bo'nak (avans) tarzida berilgan qo'yilmalar ham ushbu moddada aks ettiriladi.

"Avlod korxonalaridagi aksiyalar" (040-satr) moddasida 0600-"Uzoq muddatli investitsiyalar" 0620-"Avlod korxonalariga investitsiyalar" schyotining analitik qismida hisobga olinuvchi avlod korxonalarining aksiyasiga qo'yilgan mablag'larning miqdori bo'yicha ma'lumotlar ko'rsatiladi.

"Avlod korxonalariga berilgan qarzlilar" (050-satr) moddasida 4110-"Bo'linmalardan olinadigan schyotlar" 0620-"Avlod korxonalariga investitsiyalar" schyotida hisobga olinadigan avlod korxonalariga berilgan qarzlarning miqdori aks ettiriladi.

"Uyushma korxonalaridagi aksiyalar" (050-satr) moddasida analitik holda 0600-"Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar" 0640-"Uyushma korxonalariga investitsiyalar" schyotida hisobga olinuvchi uyushgan korxonalarining aksiyasiga ko'yilgan mablag'larning miqdori ko'rsatiladi.

"Uyushma korxonalariga berilgan qarzlilar" (070-satr) moddasida 4110-"Ayrim balansdagi bo'linmalardan olinadigan schyotlar" schyotida hisobga olinadigan uyushma korxonalariga berilgan qarzlarning miqdori aks ettiriladi.

"Uzoq muddatli investitsiyalar" (080-satr) moddasida davlatning daromad keltiruvchi aktivlariga (qimmatbaho qog'ozlar - aksiya, obligatsiyalar), O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida tashkil etilgan su'yektlarning ustav kapitaliga (uyushma va shuba korxonalarining ustav kapitali bularga kirmaydi) va boshqa shu kabilarga qo'yilgan (bir yildan kam bo'lmagan muddatga) investitsiyalarning miqdori ko'rsatiladi (boshqa su'yektlarga berilgan qarzlilar bunga kirmaydi).

Moliyaviy investitsiyalar belgilangan soliq tartibiga ko'ra sarflangan haqiqiy xarajatlar miqdorida hisobga olinadi.

Agar investor dividend olish huquqiga ega bo'lib, qo'yilma uchun mas'uliyatni o'ziga olganda, to'liq to'lanmagan aksiya va ulushlarning to'liq, sotib olish qiymati balansning aktivida, to'lanmagan qiymati esa, balans passivining kreditorlar moddasida ko'rsatiladi. Boshqa hollarda sotib olishga mo'ljallangan aksiya va ulushlar uchun o'tkazilgan summalar balans passivining debitorlar moddasida ko'rsatiladi.

"Boshqa qarzlilar" (090-satr) moddasi bo'yicha 0990-"Boshqa uzoq muddatli debitor qarzlari" schyotida hisobga olinadigan va yuqoridagi moddalarda hisobga olinmagan uzoq muddatli qarzlarning miqdori ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, balans aktivining "Boshqa debitorlar" moddasida mehnat haqi to'lovlari bo'yicha hisoblashishlar va sug'urtalarni aks ettiruvchi schyotlarning debet qoldig'i ko'rsatiladi.

"Boshqa aktivlar" (100-satr) moddasida yuqoridagi moddalarda keltirilmagan uzoq muddatli vositalar va qo'yilmalar ko'rsatiladi. Shu bilan birga, ijaraga beruvchi su'yekt 0920- "Olinadigan lizinglar" schyotida hisobga olinuvchi uzoq muddatga ijaraga berilgan asosiy vositalar bo'yicha ijara to'lovi majburiyatining qoldiq miqdorini ko'rsatadi.

"1-bo'lim bo'yicha Jami" (100-satr) moddasida 012, 022, 030, 040, 050, 060, 070, 080, 090 va 100 satrlarning yig'indisini ko'rsatiladi.

2.8. Balansning joriy aktivlar qismini tuzish tartibi

Balans aktivining "Joriy aktivlar" bo'limida xo'jalik yurituvchi su'yektning qisqa muddatli aktivlarining summasi ko'rsatiladi.

"Ishlab chiqarish zaxiralari" (120-satr) moddasida 1000-"Materiallar", 1080-"Xo'jalik anjomlari va jihozlar", 1100-"O'stirishda va boquvdagi hayvonlar" schyotlarida hisobga olinadigan xom-ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, chiqindilarning qaytimi, yoqilg'i, sotib olingan yarim fabrikatlar (yarim tayyor mahsulotlar) va butlovchi buyumlar, ehtiyot qismlar, bo'sh idishlar va boshqa moddiy qimmatliklarning haqiqiy tannarxi ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarish zaxiralarini hisobga olish uchun foydalanilgan 1510-"Materiallarni tayyorlash va sotib olish" va 1600-"Materiallarning qiymatidagi farqlar" schyotlaridagi ko'rsatilgan summalar "Ishlab chiqarish zaxiralari" moddasida aks ettiriladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish (130-satr) moddasida tugallanmagan ishlab chiqarish va ishlar (xizmatlar) bo'yicha sarflangan xarajatlar, ya'ni buxgalteriya hisobi schyotlar rejasining "Tovar-moddiy zaxiralari" nomli 2-bo'limning schyotlarida hisobga olinadigan xarajatlar ko'rsatiladi. Buning uchun tugallanmagan ishlab chiqarish, O'zbekiston Respublikasida «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999-yil 5-fevral kuni 54-son qarori bilan "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq daromaddan olinadigan soliqni hisoblashda e'tiborga olinadigan rejalashtirish, hisobga olish va mahsulot (ish, xizmat) tannarxini kalkulyatsiya qilish bo'yicha uslubiy tavsiyanomalarga muvofiq hisoblangan bahoda aks ettiriladi.

Su'yektlar (qurilish, ilmiy tekshirish va qidiruv bilan shug'ullanuvchi) joriy yilda buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnoma asosida alohida mohiyatga ega bo'lgan tugallangan ish bosqichlari uchun hisoblashishlarni amalga oshiradi va uni hisobga oladi. Ushbu usulda buyurtmachi balansga faqatgina to'liq tayyor bo'lgan mahsulotlarni qo'shadi.

Buxgalteriya hisobida tugallangan belgilangan tartibda qabul qilingan va to'langan bosqichlar yoki schyotlarning (bank tomonidan qo'yishga qabul qilingan) haqiqiy xarajatlarning miqdori 2010-"Asosiy ishlab chiqarish" schyotidan 9110-"Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi" yoki 9130-"Sotilgan ish va xizmatlarning tannarxi" schyotlarining debetiga chiqim qilinadi. Bir vaqtning o'zida to'langan yoki

to'lovga qabul qilingan schyotlardagi miqdorga 4010 «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar"ning debeti bilan 9010-"Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar" yoki 9030-"Ish va xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar" schyotlarining krediti korrespondensiyalanadi. Buyurtmachilardan bajarilgan ishlarning tugallangan va qabul qilingan schyotlardagi miqdorga 4010-"Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar"ning debeti bilan 9010-"Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar" yoki 9030-"Ish va xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar" schyotlarining krediti korrespondensiyalanadi. Buyurtmachilardan bajarilgan ishlarning to'langan va qabul qilingan bosqichlari uchun olingan mablag'lar 5110-"Hisoblashish schyoti"ning debetiga va 4010-"Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" schyotining kreditida aks ettiriladi.

Hamma ishlar tugatilishi bilan buyurtmachi tomonidan jami bosqichlar uchun to'langan qiymati 4010-"Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" schyotining kreditiga yoziladi.

4010 schyotda hisobga olingan to'liq tugatilgan ishlar qiymati olingan bo'nak (avans) hisobiga 6310 schyotning debeti va 4010 schyotning kreditlari bo'yicha yozuv qilinadi va buyurtmachilardan oxirgi hisoblashishga ko'ra olingan summa hisobiga (5110 schyotning debeti va 4010 schyotning krediti) yopiladi.

Shuningdek, ushbu moddada qishloq xo'jaligining tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari, tayyor mahsulotning ishlab chiqarish qiymati ayirilgan holda aks ettiriladi va hisobot davrining ohiriga nisbatan tugallanmagan asosiy vositalarni ta'mirlash ishlari bo'yicha xarajatlar ko'rsatiladi.

"Tayyor mahsulot" (140-satr) moddasida buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnoma asosida va tegishli texnik shartlarga hamda standartlarga muvofiq barcha qismlari bilan butlangan va qabul qilish uchun sinovdan o'tkazilgan, to'liq ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qoldig'i haqiqiy ishlab chiqarish tannarxida ko'rsatiladi. Ko'rsatilgan talablarga javob bermaydigan mahsulotlar, topshirilmagan ishlar tugallanmagan hisoblanadi va tugallanmagan ishlab chiqarishning tarkibida ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish uchun 2800-"Tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlar" foydalanganda, tayyor mahsulot ushbu moddada me'yoriy (reja) tannarxda aks ettiriladi.

"Olib sotiladigan tovarlar" (150-satr) moddasida o'z Nizomiga ko'ra savdo va umumiy ovqatlanish faoliyatini amalga oshiruvchi su'yektlar sotib olgan tovarlari qoldig'ining qiymatini ko'rsatadi. Bunda umumiy ovqatlanish su'yektlarining oshxona va omborlarida qolgan xom ashyolarni, shuningdek yemakxonalardagi tovarlarning qoldig'i ko'rsatiladi.

Bu moddada sanoat va boshqa ishlab chiqarish su'yektlari sotish uchun keltiriladigan mahsulotlarni, materiallarni, buyumlarni, shuningdek sanoat korxonalaridagi keltirilgan mahsulotlarni (lekin chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga qo'shilmaydigan), ya'ni xaridor tomonidan alohida haq to'lanadigan tayyor buyumlarning qiymatini ko'rsatadi.

Ushbu moddada tovarlarning qiymati sotib olish va sotish baholarida alohida, shuningdek mol yetkazib beruvchilar tomonidan beriladigan chegirmalar va tovarlarga qo'yilgan ustama baho summalari alohida keltiriladi.

"Kelgusi davr sarflari" (160-satr) moddasida hisobot davrida sarflangan, lekin kelgusi hisobot davrlarida ishlab chiqarish va muomala xarajatlariga olib boriladigan, ya'ni vaqt oralig'ida uzilishi lozim bo'lgan xarajatlarning miqdori ko'rsatiladi. Bunday xarajatlarga shu bilan birgalikda asosiy vositalarni o'z vaqtidan tashqari o'tkazilgan ta'mirlash (ta'mirlash jamg'armasi tashkil qilinmagan su'yektlar bo'yicha), davriy nashrlarga obuna, oldindan to'langan ijara haqi va boshqa xarajatlar ham kiradi.

"Milliy valutadagi pul mablag'lari" (170-satr) moddasida su'yektning 5100-"Hisoblashish schyoti", 5500-"Banklardagi maxsus schyotlar", 5600-"Pul ekvivalentlari va yo'ldagi pul mablag'lari", 5700-"Yo'ldagi pul o'tkazmalari" schyotlaridagi pul mablag'larining qoldiq miqdori ko'rsatiladi. Balansning bu moddasida aks ettirilgan mablag'lar miqdori bank ko'chirmalaridagi miqdorlarga mos kelishi shart. "Xorij valutasidagi mablag'lar" (180-satr) moddasida su'yektning bankdagi xorij valutasidagi schyotlardagi mablag'larni O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan hisobot davrining oxirgi kunida belgilangan kurs bo'yicha so'mga aylantirilgan xorij valutasidagi mablag'larining qoldig'i ko'rsatiladi.

"Kassadagi pul mablag'lari" (190-satr) moddasida balans tuzilgan kunga su'yektning kassasidagi milliy va xorij valutasidagi mablag'larining qoldig'i ko'rsatiladi. Ma'lumotlar 5010-"Milliy valutadagi pul mablag'lari" va 5020-"Xorij valutasidagi pul mablag'lari" schyotlaridan olinadi.

"Qisqa muddatli qo'yilmalar" (200-satr) moddasida boshqa su'yektlarning qimmatbaho qog'ozlariga, foizli davlat obligatsiyalariga mahalliy qarzlarga va shunga o'xshash boshqa qarzlarga qilingan qo'yilmalar (investitsiyalar) (bir yildan ortiq bo'lmagan muddatda) va shu bilan birga boshqa su'yektlarga berilgan qarzlarning miqdori ko'rsatiladi. Ushbu ma'lumotlar 5800-"Qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar" ning qoldig'idan olinadi.

Sotib olingan xususiy aksiyalar (210-satr) moddasida su'yektning o'zi chiqargan xususiy aksiyalarini qayta sotib olib, keyinchalik tarqatish uchun bir yil muddatgacha o'zida saqlangan aksiyalarning miqdori ko'rsatiladi. Sotib olingan xususiy aksiyalar 5810-"Qimmatli qog'ozlar" schyotida hisobga olinadi. Foydaning taqsimlanishida sotib olingan xususiy aksiyalar bo'yicha dividendlar hisoblanmaydi.

"Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" (220-satr) moddasida xaridorlarga jo'natilgan mahsulot va tovarlar, buyurtmachilarga (xaridorlarga) topshirilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar to'liq haqiqiy tannarxda, moliyaviy natijani aniqlashda esa jo'natish yoki smeta qiymatlarida subektning pul mablag'lari (yoki boshqa) schyotlariga to'lovlar kelib tushgunga qadar yoki o'zaro to'lov talabnomalarida hisobga olinguncha va olingan vasiqalar bilan ta'minlangunga qadar ko'rsatiladi. Ushbu ma'lumotlar 4010-"Xaridor va va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" va 4020-"Olingan vasiqalarning joriy qismi" schyotlarining qoldig'idan olinadi. "Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'nak (avans)lar" (230-satr) moddasida boshqa su'yektlarga keyinchalik hisoblashishlar uchun berilgan

bo'nak (avans) miqdorlari 4300-"Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'nak (avans)lar" schyotining ma'lumotlariga asosan ko'rsatiladi.

"Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha bo'naklar" (240-satr) moddasida soliq va moliya muassasalariga berilgan bo'naklar, shu bilan birgalikda soliqlar bo'yicha ko'p to'langanlik holatlari qo'shilgan holda, byudjetga bo'lgan yig'im va boshqa to'lovlar ko'rsatiladi.

"Xodimlarga berilgan bo'naklar va ularning boshqa qarzlari" (250-satr) moddasida su'yekt ishchi va xodimlarining bank yoki shu su'yektning mablag'lari hisobiga olingan kredit va qarzlari, su'yektga keltirilgan moddiy zararni qoplash va shu kabilar bo'yicha bo'lgan qarzlarni ko'rsatiladi. Shu bilan birgalikda bu moddada jamoa va shaxsiy uy-joy qurilishiga yoki dala-hovli sotib olish va bog' uchastkalarida yashash sharoitini yaxshilash uchun xodimlarga berilgan qarzlarni, yosh oilalarga yashash sharoitlarini yaxshilash va uy xo'jaligini tashkil etish uchun beriladigan foizsiz qarzlarni aks ettiriladi. Tegishli ma'lumotlar 4400-"Xodimlarga berilgan bo'naklar" va 4600-"Xodimlarning boshqa muomalalar bo'yicha qarzlari" schyotlaridan olinadi.

Su'yekt balansining aktivi va passividagi "Avlod korxonalaridan olinadigan schyotlar" (065-satr) moddasida, avlod korxonalarini bilan bo'lgan joriy hisoblashlar (balanslararo hisoblashuvlar) bo'yicha olinadigan mablag'larning summalarini aks ettiriladi. Bunda avlod korxonasi timsolida yuridik shaxs hisoblanuvchi hamda investitsion va moliyaviy faoliyatini belgilash huquqi asosiy su'yektga doimiy ravishda berilgan korxonalar tushuniladi. Asosiy su'yekt va uning avlod korxonasi bo'yicha ma'lumotlar jamlanishi lozim. Yig'ma hisobotda ushbu ko'rsatilgan moddalar jamlanadi.

"Ayrim balansga o'tkazilgan bo'linmalardan olinadigan schyotlar" (260 va 270-satr) moddasida filiallar va uyushma korxonalarini bilan bo'lgan joriy jarayonlar bo'yicha 4110-"Mustaqil balansdagi bo'linmalardan olinadigan schyotlar" schyotida yuritiladigan hisoblashish ma'lumotlarini aks ettiriladi.

"Ta'sischiylarning qarzi" (280-satr) moddasi bo'yicha 4710-"Ta'sischiylarning ustav kapitaliga qo'shadigan ulushlari bo'yicha qarzlarni" schyotida hisobga olinadigan su'yekt ta'sischiylarining ustav kapitaliga ulushi bo'yicha qarzlari ko'rsatiladi.

"Boshqa debitorlar" (290-satr) moddasida 4420, 4430 va 4490 schyotlarining ma'lumotlariga asosan hisobdor shaxslarning, tovar-moddiy qimmatliklarini qabul qilish paytida aniqlangan kamomadlar bo'yicha mol yetkazib beruvchilarning qarzlari (4210-schyotga asosan) ko'rsatiladi. Shuningdek, bu moddada xo'jalik faoliyati natijalariga olib boriladigan, ya'ni qarzidor tomonidan ularni undirish to'g'risidagi qarori bilan olingan jarimalar va beqarorlik to'lovlar aks ettiriladi.

Ushbu ma'lumotlar 4820 va 4890 schyotlaridan olinadi.

"2-bo'lim bo'yicha jami" (300-satr) moddasidan 120-290 satrlarning yig'indisi ko'rsatiladi.

"Balansning aktivi bo'yicha hammasi" (310-satr) moddasida 110 va 300 satrlarning yig'indisi yordamida topiluvchi balans aktivining umumiy summasi ko'rsatiladi.

2.9. O'z mablag'larining manbalari bo'limini tuzish qoidalari

Balansning passivi ikki bo'limdan: "O'z mablag'larining manbalari" va "Majburiyatlar" dan tarkib topgan.

"O'z mablag'larining manbalari" bo'limi quyidagi moddalardan tarkib topgan:

"Ustav kapitali" (320-satr) moddasida su'yekt ta'sischilarining Ustav kapitaliga qo'shgan hissalarining (qismlar, nominal qiymatdagi aksiyalar, ulush badallari) majmui, ya'ni ta'sis hujjatlarida ro'yxatga olingan miqdorlar ko'rsatiladi.

Balansda Ustav kapitali va ta'sischilarning ustav kapitaliga qo'shishi kerak bo'lgan haqiqiy qarzi alohida ko'rsatiladi.

"Qo'shilgan kapital" (330-satr) moddasida su'yekt o'z aksiyalarini nominal qiymatdan yuqori baholarda birlamchi sotishdan oldin olingan emissiya daromadlarining miqdori ko'rsatiladi. Ushbu ma'lumotlar 8521 "Emissiya daromdlari" schyotidan olinadi.

"Zaxira kapitali" (340-satr) moddasida su'yektning Nizomiga muvofiq foyda hisobidan tashkil qilingan zaxiralar mol-mulkini qayta baholashda tashkil etilgan zaxiralar, shuningdek beg'araz olingan mulklar va hissadorlik (o'rtoqchilik) jamiyatlarini mulklarini oshiradigan boshqa (pulli mablag'lardan tashqari) tushumlarning miqdori ko'rsatiladi. Bu moddalar uchun ma'lumotlar 8531-"Aktivlarni qayta baholash", 8523-"Tekinga olingan mulklar" schyotlarining ma'lumotlariga asosan to'ldiriladi.

Choraklik hisobotning "Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)" (350-satr) moddasida sof (netto) foyda, ya'ni tayyor mahsulot, yarim-fabrikat, sotib olingan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning sotilishidan aniqlangan moliyaviy natijalar, shuningdek muomalaviy daromadlar va tushumlar, 9430-"Boshqa muomalaviy sarflar" schyotidagi xarajatlar, su'yektning moliyaviy faoliyati bo'yicha daromad va xarajatlari, favquloddagi, ya'ni kutilmagan tasodifiy foyda va zararlarni aks ettiruvchi 9000, 9100, 9300, 9430, 9500, 9600, 9700 schyotlari bilan 9800 schyotda qayd qilinadigan hisobot yili mobaynida to'lanishi kerak bo'lgan soliqlar, shuningdek yakuniy hisoblanilgan foyda (daromad) solig'i va atrof-muhitni tozalash uchun mahalliy yig'implarni aks ettiruvchi 9800-"Soliq va yig'implarni to'lash uchun foydaning ishlatilishi" schyotlarining qoldiqlari o'rtasidagi farq ko'rsatiladi.

Hisobot yilining oxirida 9800-"Soliq va yig'implarni to'lash uchun foydaning ishlatilishi" schyotlarining debetida yig'ilgan miqdor 9900-"Yakuniy moliyaviy natija" schyotining debetiga olib borilib, ushbu 9800 schyot yopiladi va 1-yanvar sanasiga qoldiq qolmaydi.

Hisobot yilida 9900-"Yakuniy moliyaviy natija" schyotida qoladigan qoldiq foyda (zarar) 8710-"Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)" schyotining (zarar) debetiga yoki (sof foyda) kreditiga olib boriladi va ushbu 9900 schyot yopiladi.

Yillik hisobotda 8710 "Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)" schyotining kreditiga o'tkazilgan foyda ham ko'rsatiladi. Shu bilan birga agarda 8720-"Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)" schyotida o'tgan yillarning Taqsimlanmagan foyda qoldig'i bo'lsa, hisobot yilidagi taqsimlanmagan foydaning qoldig'i oldingi yilgisi bilan qo'shib ko'rsatiladi.

Agarda su'yekt zarar ko'rsa, u holda bu zarar shu satrda "manfiy" belgi bilan chorak oxirida ko'rsatiladi. Shu bilan birga 9800-"Soliq va yig'implarni to'lash uchun foydaning ishlatilishi" schyotlari qoldig'ining 9900-"Yakuniy moliyaviy natijalar" schyotining qoldig'idan ortiqcha miqdor ortiqcha "manfiy" belgi bilan ko'rsatiladi.

Hisobot yilidagi su'yektning ko'rgan zarari dekabr oyidagi "Yakuniy moliyaviy natijalar" schyotining yakuniy oborotlari 8700-"Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)" schyotining krediti bilan korrespondensiyalangandan keyin hisobotning "Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)" moddasida ko'rsatiladi. Hisobot davrida olingan zarar miqdori ham yil mobaynida shu satrda aks ettiriladi. "Maqsadli tushum va jamg'armalar" (360-satr) moddasida maqsadli tadbirlarni amalga oshirish uchun 7800 va 8800 "Grant va subsidiyalar" schyotida hisobga olingan byudjetdan, tarmoq va tarmoqdan tashqari maxsus maqsadlarga mo'ljallangan jamg'armalardan, yuridik va jismoniy shaxslardan kelgan pul mablag'larining qoldig'i ko'rsatiladi.

"Kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun zaxiralar" (370- satr) moddasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini 1994 yil 26 martdagi 164-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risida"gi Nizom va tegishli BHMS va "Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq ishchilar ta'tiliga xaq to'lash, har yilgi mukofot to'lovlari, xizmat ko'rsatishi, asosiy vositalarni ta'mirlash va shunga o'xshash maqsadlar uchun zaxiralangan mablag'larning qoldig'i ko'rsatiladi. Xarajatlarning zaxiralanishi, ularni ishlab chiqarish va muomala xarajatlariga bir tekisda taqsimlash imkonini beradi.

"Kelgusi davr daromadlari" (380-satr) moddasida hisobot davrida olingan, lekin keyingi hisobot davrlariga tegishli bo'lgan mablag'lar (ijara xaqlari va shu kabilar), shuningdek amaldagi tartibga binoan 9550-"Moliyalashtiriladigan lizing bo'yicha daromadlar" schyotida hisobga olinadigan mablag'larning miqdorlari ko'rsatiladi.

"1-bo'lim Jami" (390-satr) moddasida 320-380 satrlarning yigindisi ko'rsatiladi.

2.10. Balans passivining majburiyatlar bo'limini tuzish tartibi

"Uzoq muddatli qarzlari" (400-satr) moddasida boshqa korxonalar va muassasalardan (banklardan tashqari) olingan uzoq muddatli (to'lovni uzish muddati bir yildan kam bo'lmagan) qarz miqdorlari ko'rsatiladi.

Ijara beruvchidan uzoq muddatli ijara sharti bilan olingan asosiy vositalar bo'yicha qarzlarning holati 6910-"To'lanadigan tezkor lizing" schyotlarida hisobga olinuvchi kreditorlik qarzi ijarachi tomonidan 0310-"Uzoq muddatga ijaraga olingan asosiy vositalar" schyotida hisobga olinib, uning miqdori ham shu satrda ko'rsatiladi.

"Uzoq muddatli kreditlar" (410-satr) moddasida bank bilan kelishilgan holda ulardan olingan uzoq muddatli (to'lovni uzish muddati bir yildan kam bo'lmagan) kreditlar bo'yicha qarzlari miqdori ko'rsatiladi. Ushbu moddani to'ldirish uchun ma'lumotlar shu nomdagi 7510 schyotdan olinadi.

"Qisqa muddatli qarzlari" (420-satr) moddasida 6870- "Bankdan tashqari qarzlari" schyotida hisobga olinuvchi boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan (banklardan tashqari) olingan qisqa muddatli (to'lovni uzish muddati bir yildan ko'p

bo'lmagan) qarzlarni bo'yicha qarzlarning miqdorlari ko'rsatiladi.

Bundan tashqari ushbu moddada 6820, 6830 va 6890 schyotlarning ma'lumotlari ham keltiriladi.

"Qisqa muddatli kreditlar" (430-satr) moddasida bank bilan kelishilgan holda ulardan olingan (to'lovni uzish muddati bir yildan ko'p bo'lmagan) kreditlarning miqdori ko'rsatiladi. Shu bilan birga bu moddada yakka tartibdagi uy-joy, dala-hovli qurish, boshqa maqsadlar uchun xodimlarga berilgan bank ssudalari, shuningdek savdo korxonalariga ular tomonidan xodimlarga kreditga sotilgan tovarlar qiymatini qoplash bo'yicha olingan qarzlarning miqdori ham ko'rsatiladi. Ma'lumotlar 6810-"Bankning qisqa muddatli kreditlari" schyotidan olinadi.

"Xaridor va buyurtmachilardan (schyotlarga kelib tushgan) olingan bo'naklar" (440-satr) moddasida mahsulotlar yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun 6310-"Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar" schyotida hisobga olinuvchi xaridor va buyurtmachilardan keyingi hisoblashishlar bo'yicha olingan bo'naklarning miqdori ko'rsatiladi.

"Mol yetkazib beruvchilarga bo'lgan qarzlarni" (450-satr) moddasida kirim qilingan moddiy qimmatlik, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga, shuningdek fakturalanmagan TMZ uchun mol yetkazib beruvchilarga bo'lgan qarzlarning miqdori aks ettiriladi. Bundan tashqari, bu yerda 6010, 7010-"Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'langan schyotlar" 6020, 7020-berilgan vasiqalar schyotida hisobga olingan mol yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar bilan ta'minlash uchun su'yekt tomonidan berilgan vasiqalar bo'yicha qarzlarning miqdori ham ko'rsatiladi.

"Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni" (460-satr) moddasida su'yektning byudjetga bo'lgan to'lovlarning barcha turlari bo'yicha, shu bilan birga o'zining xodimlaridan ushlanadigan daromad solig'i bo'yicha qarzlarni 6410-"Byudjetga to'lov bo'yicha qarzlarni" schyotida ko'rsatiladigan summalar aks ettiriladi.

"Mehnatga xaq to'lash bo'yicha qarzlarni" (470-satr) moddasida hisoblangan, lekin hali to'lanmagan mehnat haqining miqdorlari 6710-"Mehnat haqi yuzasidan xodimlar bilan hisoblashishlar" va 6720-"Deponentlangan mehnat haqi" schyotlari bo'yicha qoldiq summalari ko'rsatiladi.

"Ijtimoiy sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha qarzlarni" (480-satr) moddasida su'yektning ijtimoiy sug'urta, nafaqa ta'minoti va tibbiy sug'urta ajratmalari bo'yicha qarzlarning miqdori aks ettiriladi.

Ushbu ma'lumotlar 6520-"Ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar" schyotidan olinadi.

"Mulk va shaxsiy sug'urtalar bo'yicha qarzlarni" (490-satr) moddasida su'yekt ishchilarining va mulkining majburiy va ixtiyoriy hamda su'yekt sug'urtachi vazifasini bajaradigan boshqa xil sug'urtalar bo'yicha qarzlarni ko'rsatiladi. Tegishli ma'lumotlar 6510-"Mulk va shaxsiy sug'urtalar bo'yicha to'lovlar" schyotidan olinadi.

"Budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzlarni" (500-satr) moddasida su'yektning byudjetdan tashqari ajratmalar bo'yicha davlat boshqaruv organlari va soliqchilikda belgilangan tartibga muvofiq, davlat organlariga o'tkaziladigan boshqa

maxsus jamg'armalarga ajratmalari bo'yicha qarzlari ko'rsatiladi va ma'lumotlar 6530-"Byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar" schyotidan olinadi.

"Avlod korxonalariga bo'lgan qarzlilar" (510-satr) moddasida avlod korxonalar bilan joriy qarzlilar (balanslararo hisoblashish) bo'yicha ma'lumotlar aks ettiriladi. Bunda avlod korxonasi timsolida yuridik shaxs hisoblanuvchi hamda strategik iqtisodiy siyosat masalalari bo'yicha joriy, investitsion va moliyaviy faoliyatini belgilash huquqi asosiy su'yektga doimiy ravishda berilgan bo'linmalar tushuniladi. Asosiy su'yekt va uning avlod korxonalari bo'yicha ma'lumotlar jamlanishi lozim. Yig'ma hisobotda ko'rsatilgan moddalar 6110-"Mustaqil balansga o'tkazilgan bo'linmalarga bo'lgan to'lovlar" schyoti yordamida jamlanadi.

"Uyushma korxonalariga qarzlilar" (520-satr) moddasida 6110-"Mustaqil balansga o'tkazilgan bo'limlarga bo'lgan to'lovlar" schyotida hisobi yuritiladigan uyushma korxonalariga bo'lgan qarzlilar miqdori aks ettiriladi.

"Boshqa kreditorlar" (530-satr) moddasida "Kreditorlar bilan hisoblashishlar" guruhining moddalarida o'z aksini topmagan boshqa hisoblashishlar bo'yicha qarzlilar ko'rsatiladi. "Kreditorlar" guruhi bo'yicha su'yektning mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga, budjetga, mehnat haqi bo'yicha su'yektning xodimlariga, ijtimoiy sug'urta va ta'minot muassasalaridan tashqari boshqa su'yektlarga bo'lgan kreditorlik qarzlilar aks ettiriladi. Tegishli ma'lumotlar 6800-"Har xil kreditorlarga bo'lgan qarzlilar va boshqa hisoblangan majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar"dan olinadi.

"2-bo'limning jami" (540-satr) moddasida 400-530 satrlar yig'indisining natijasi ko'rsatiladi.

"Balansning passivi bo'yicha hammasi" (550-satr) moddasida 390 va 540 satrlar yig'indisining natijasi yordamida topilgan balans passivining miqdori aks ettiriladi.

Xulosa

Balans hisoboti ma'lumotlari su'yektning tashkiliy qayta qurilishi, tovar-moddiy zaxiralarning qayta baholanishi va boshqa shunga o'xshashlarni hisobga olgan holda, 3-ustunda, ya'ni kirish balansining ma'lumotlari yil boshiga ko'rsatiladi.

Balans moddalarining va umumiy summasining yil boshiga va yil oxiriga ma'lumotlarining bir-biriga mos bo'lishi uchun tasdiqlangan balans moddalari yil oxiriga bo'lgan balans moddalari va guruhlangan bo'limlariga mos keltirilishi shart.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Buxgalteriya balansining mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering.
2. Buxgalteriya balansining turlarini sanab bering?
3. Buxgalteriya balansining rivojlantirilishi qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
4. Buxgalteriya balansi bo'limlari va moddalarini tavsiflab bering.
5. Buxgalteriya balansi moddalari bilan moliyaviy hisobotning boshqa shakllari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nimalardan iborat?
6. Buxgalteriya balansini tuzishdan oldin qanday hisob ishlari amalga oshiriladi?
7. Buxgalteriya balansining uzoq muddatli aktivlar bo'limini tuzish qoidalari tushuntirib bering.

8. Balansning joriy aktivlar qismini tuzish tartibini tushuntirib bering.
9. O'z mablag'larining manbalari bo'limini tuzish qoidalarini izohlang.
10. Balans passivining majburiyatlar bo'limini tuzish tartibini tushuntirib bering.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Бобожонов О., Жуманиёзов К. Молиявий ҳисоб.-Т.: Молия, 2000, 608-б.
2. Каримов А. А. ва бошқалар. Бухгалтерия ҳисоби. -Т.: Шарқ, 2004, 45-б.
3. Нидлз Б и другие. Принципы бухгалтерского учёта.-М.: Финансы и статистика. 2003, 119 стр.
4. Энтони Р., Дж. Рис. Учёт, ситуации и примеры.-М.: Финансы и статистика. 1993, 29 стр.
5. Қодирхонов С.Б. Саноат корхоналарида бухгалтерия ҳисоби.-Т.: Ўзбекистон, 1993, 334-б.
6. [http:// www. accounting. rut gars. Edu.](http://www.accounting.rutgars.edu)

3-bob. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot

3.1. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning mazmuni va mohiyati

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi su'yektlarning barqaror faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ularning ijobiy moliyaviy natijalarga erishishiga bog'liq.

Moliyaviy natijalar – xo'jalik yurituvchi su'yektning ma'lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o'ziga qarashli mablag'ning oshishi yoki kamayishidir.

Buxgalteriya hisobida bunday faoliyat natijasi hisobot davridagi barcha foydalar va zararlarni hisoblash yo'li bilan aniqlanadi.

Yuqoridagi ta'rifdan ko'rinib turibdiki, moliyaviy natijalarni aniqlash uchun ma'lum bir davrdagi olingan daromadlar bilan qilingan xarajatlarni taqqoslash, ya'ni olingan daromadlardan qilingan xarajatlarni ayirish lozim.

Moliyaviy natijalar ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Ijobiy moliyaviy natijada olingan daromad qilingan xarajat summadan yuqori bo'ladi va uni foyda sifatida tan olinadi. Moliyaviy natijada qilingan xarajat olingan daromad summasidan ortib ketsa, u zarar hisoblanadi. Ammo moliyaviy natijaning qator ko'rsatkichlari mavjud bo'lib, ularning barchasi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda o'z aksini topadi va ushbu hisobot davridagi daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi oraliq va yakuniy ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Daromad va xarajatlarni taqqoslash orqali quyidagi ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda (zarar); asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar); umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar); moliyaviy faoliyatdan olingan foyda (zarar); soliq to'laguncha bo'lgan foyda (zarar); soliqqa tortiladigan foyda (zarar); favqulodda foyda (zarar); sof foyda (zarar).

Ushbu moliyaviy natija ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega va turli xil maqsadlar uchun qo'llaniladi. Jumladan, ular hisobot davrida korxonada faoliyatining samaradorligini baholashda va tahlil qilishda mustaqil o'rinni egallaydi. Ayniqsa samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashda foydalaniladigan soliq to'laguncha bo'lgan foyda, mahsulot sotishdan olingan foyda va korxonaning sof foyda ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega.

Korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlarini to'g'ri aniqlash daromad va xarajatlarni to'g'ri tasniflash bilan bevosita bog'liq.

«Xarajatlar tarkibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq korxonalarning xo'jalik faoliyati natijasida oladigan daromadlari quyidagi asosiy bo'limlar bo'yicha guruhlanadi:

mahsulot sotishdan olingan sof tushum; asosiy faoliyatning boshqa (operatsion) daromadlari; moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar; favqulodda daromadlar.

Daromadlarning bunday guruhlanishi, korxonaning turli xil faoliyatidan olingan daromadlarini hisobotda alohida ko'rsatish zarurati bilan izohlanadi. Bu korxonada faoliyati bilan qiziquvchi tomonlar uchun zarur ma'lumotlarni shakllantirish imkonini beradi.

Korxonada faoliyatining sof moliyaviy natijasini aniqlash uchun hisobot davrida qilingan barcha sarf va xarajatlar to'g'ri taqsimlanishi lozim.

Barcha xarajatlar, ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga va tannarxga kiritilmaydigan, ammo davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlarga bo'linishi zarur.

Davr xarajatlari, soliq to'laguncha bo'lgan foydani hisoblashda inobatga olinadi. Bundan tashqari moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda moliyaviy faoliyat va favqulodda holat bo'yicha xarajatlar ham alohida ko'rsatiladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda daromadlar olish bilan bog'liq xarajatlarni quyidagi guruhlar bo'yicha ko'rsatish mumkin:

- 1-Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;
- 2-Davr xarajatlari;
- 3-Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar;
- 4-Favqulodda zararlar.

Yuqorida keltirilgan daromad va xarajat moddalari korxonada xo'jalik faoliyatining natijalarini aniqlashda juda muhim ahamiyatga ega. Chunki hisobot davridagi aynan shu daromad va xarajatlarning to'g'ri hisobga olish faoliyati natijalarini aniq hisoblash imkonini beradi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning mazmuni shundan iboratki, unda korxonada xo'jalik faoliyatining yakuniy va oraliq moliyaviy natijalarini ularning alohida daromad (foyda) xarajat (zarar) ko'rsatkichlarini taqqoslash va qo'shish orqali aniqlanadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning mohiyati shundan iboratki, u korxonada faoliyati to'g'risidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirish bilan birgalikda uning samaradorligi va moliyaviy barqarorligini tavsiflash uchun zarur ma'lumotlarini ham o'zida aks ettiradi. Agar buxgalteriya balansi korxonaning mablag'larini kapitali va majburiyatlari, ya'ni korxonaning ishlab chiqarish vositalari va mehnat predmetlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida mujassam qilsa, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga korxonaning mehnat vositalari predmetlari va ishchi kuchidan foydalanish natijasida olingan ko'rsatkichlarni beradi. Shuning uchun ham uning ma'suliyatlari tashqi va ichki foydalanuvchilar uchun birday ahamiyatlidir.

3.2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning huquqiy va me'yoriy asoslari

Moliyaviy natijalarni aniqlash va ular to'g'risidagi ma'lumotlar berish moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilar uchun o'ta ahamiyatlidir. Shuning uchun ham har qanday tuzumda faoliyat yuritayotgan xo'jalik su'yektlar o'z faoliyatlarining moliyaviy natijalarini aniqlaydilar. Albatta bunda mamlakatda amal qilayotgan moliyaviy natijalar hisobi va hisobotini tartibga soluvchi huquqiy va me'yoriy hujjatlar alohida ahamiyatga ega.

Respublikamizda korxonada moliyaviy natijasini aniqlashning uslubiyati ishlab chiqilgan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 15-fevraldagi 54-son Qarori (yangi tahriri 2003 yilda 444-sonli qaror bilan tasdiqlangan) bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi

Nizom»ga muvofiq xo'jalik yurituvchi su'yekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan tasniflanadi:

-mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tavofut sifatida aniqlanadi:

$$YaF = SST - IT$$

bunda, YaF - yalpi foyda;

SST - sotishdan olingan sof tushum;

MT - sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

-asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tavofut va plus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$AFF = YaF - DX + BD - BZ,$$

bunda,

AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX – davr xarajatlari;

BD - asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ – asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar;

-xo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zararlar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$UF = AFF + MD - MX$$

bunda,

UF - umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD - moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX - moliyaviy faoliyat xarajatlari;

-soliq to'lagungacha olingan foyda, u umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlarda ko'rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$STF = UF + FP - FZ$$

bunda,

STF - soliq to'lagungacha olingan foyda;

FP - favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ - favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan zarar;

- yilning sof foydasi, u soliq to'langandan keyin xo'jalik yurituvchi su'yekt ixtiyorida qoladi, o'zida daromad (foyda)dan, to'lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to'langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$SF = STF - DS - BS$$

bunda,

SF – sof foyda;

DS – daromad (foyda)dan to'lanadigan soliq;

BS – boshqa soliqlar va to'lovlar.

Respublikamizdagi barcha korxonalar mulkchilik shakllari va qaysi tarmoqqa tegishlilikidan qat'iy nazar moliyaviy natijalarni aniqlashda ushbu tartib qo'llaniladi.

«Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun buxgalteriya hisobini yuritish standartlariga nisbatan yangi, bozor munosabatlariga to'g'ri keladigan talablarni qaror toptirishni ta'minlaydi hamda O'zbekiston Respublikasidagi buxgalteriya hisobi tizimini tashkil etishda zamin bo'ladigan asosiy tamoyillarni ko'zda tutadi.

Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini amalga kiritish zarurati asosan buxgalteriya hisobining bazaviy qoidalari va tamoyillarini tushuntirish va umumlashtirish, asosiy tushunchalarni bayon qilish, u yoki bu buxgalteriya usullarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasida hisobning o'ziga xos xususiyatlarini qo'llashdan iboratdir.

Moliyaviy natijalarni shakllantirish hisobi va ular to'g'risidagi hisobot «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» nomli 1-son BHMA, «Asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar» nomli 2-son BHMA, «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» nomli 3-son BHMA, «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli 4-son BHMA, «Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish» nomli 19-son BHMA, «Xo'jalik yurituvchi su'yektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma» nomli 21-son BHMAlar me'yoriy asos sifatida qo'llanilishi mumkin.

3.3. Xalqaro amaliyotda moliyaviy natijalarni shakllantirish qoidalari

Moliyaviy natijalar hisobi va hisoboti bozor iqtisodiyoti sharoitida markaziy masala hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda moliyaviy natijalarni aniqlash Xalqaro Komitet hamda Yevropa hamkorligining to'rtinchi Direktivasi tomonidan tavsiya etilgan «Xarajatlar ishlab-chiqarish» usuli asosida aniqlanadi. Bu usulda moliyaviy natijalar moliyaviy buxgalteriyada ishlab chiqarishni taqqoslash orqali aniqlanadi. Moliyaviy buxgalteriyada xarajatlar elementlar bo'yicha hisobga olinadi va bu ikki xil usul bilan amalga oshiriladi:

1. Chiziqli usul - ishlab chiqarilgan mahsulotni o'tgan yilgi xarajatlar bilan solishtirish va qo'shimcha (yangi hosil qilingan) mahsulotni detallashtirilgan holda aks ettirish.

2. Buxgalteriya hisobi xarajatlar schyotlari debetda barcha xarajatlarni aks ettirib Birlashgan Millatlar Tashkiloti tavsiyalariga mos holda qo'shimcha mahsulot elementlari bo'yicha ko'rsatiladi. Bunda ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, amortizatsiya ajratmalari va boshqa ekspluatatsion xarajatlar element sifatida ajratib ko'rsatiladi.

Jahon amaliyoti buxgalteriya hisobining fransuz va inglizcha sakson tizimi xususiyatlarini mujassamlagan holda moliyaviy natijalarni aniqlashning ikki xil varianti qo'llaniladi. Fransuz variantida korxonada faoliyatining umumiy natijasi ekspluatatsion moliyaviy va favqulodda natijalarni qo'shish orqali aniqlanadi. (3.3.1-chizma).

Mazkur usulda favqulodda faoliyatga asosiy vositalar, «nou-xau», mualliflik huquqi kabilarni sotish bilan bog'liq faoliyat kiritiladi. Fransuz variantida har bir faoliyat turi bo'yicha xarajatlar ishlab chiqarish bilan taqqoslanadi.



3.3.1-chizma. Moliyaviy natijalarning Fransuz variantida aniqlanishi tartibi.

Ingliz sakson variantida esa moliyaviy natijalar korxonada funksiyalari bo'yicha aniqlanadi: ishlab chiqarish, realizatsiya va ma'muriy boshqarish, masalan, Kanada firmalari quyidagi tasniflashni ishlatadilar: ishlab chiqarish, transport, ta'minot, realizatsiya, moliya va buxgalteriya, personal, ma'muriy boshqarish. Lekin ikkala variantda ham moliyaviy natijalarni hisoblash moliyaviy buxgalteriyada xarajatlarni elementlari bo'yicha hisobga olishga asoslangan bo'ladi. Moliyaviy natijalarni «xarajatlar-ishlab chiqarish» asosida aniqlashning asosiy xususiyatlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

moliyaviy buxgalteriya ma'lumotlarga ko'ra yangi hosil qilingan qiymatni aniq hisoblash;

korxonada moliyaviy buxgalteriyasi ma'lumotlariga asoslanib «sotuvchilar-xaridorlar» va «xarajatlar-ishlab chiqarish» matritsalarini tuzish hamda ular yordamida BMT tavsiya qilgan uslubiyat bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlash;

korxonada moliyaviy natijalarini ishlab chiqilgan, jo'natilgan va sotilgan mahsulotlar tannarxini hisoblamasdan aniqlash. Natijada hisobning talabchanligi ancha kamayadi, uning tezkorligi ortadi va moliyaviy tahlil darajasiga ko'tariladi.

«Xarajatlar-ishlab chiqarish» usulidan foydalanish bir qatorli schyotlar tizimidan ikki qatorli schyotlar tizimiga o'tish ehtiyojini tug'diradi. Buxgalteriya standartlari bo'yicha Xalqaro Komitet tavsiya etgan ikki qatorli schyotlar tizimida schyotlar aniq qilib ikki qatorga bo'linadi: balans tuzishda qatnashadigan balans schyotlar va «xarajatlar-ishlab chiqarish» usuli bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlovchi hamda boshqaruv buxgalteriyasida ishlatiladigan operatsion schyotlar.

Buning natijasida, moliyaviy natijalarni minimum uch xil usul bilan aniqlash mumkin:

aktiv, passiv schyotlar qoldiqlarini taqqoslash yo'li bilan;

moliyaviy buxgalteriyada xarajat elementlari bo'yicha va «xarajatlar-ishlab chiqarish» usuli bilan;

xarajat moddalari bo'yicha boshqaruv buxgalteriyasida va «xarajatlar-ishlab chiqarish» usuli bilan.

Schyotlarning bunday uch guruhga bo'linishi hisob tizimining uchtasidan foydalanish imkoniyatini beradi: Soddalashtirilgan, asosiy va rivojlangan buxgalteriya hisobi tizimlari.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda mahsulot sotishdan olingan tushumni tan olish alohida ahamiyatga ega. Tushumni tan olish buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarida o'z aksini topgan.

«Tushum» nomli 18-sonli BHXAg muvofiq, mahsulot sotishdan tushgan tushum quyidagi mezonlar to'liq bajarilganda tan olinishi ko'rsatib o'tilgan;

-korxonaning mahsulotga egalik qilish bilan bog'liq manfaat va xavfning asosiy qismini xaridorga o'tkazib berganda;

-korxonada ushbu mahsulotni o'z mulki darajasida boshqarish va nazorat qilishda qatnashmasa;

-tushum miqdorini aniq belgilash mumkin bo'lganda;

-ushbu operatsiyalar bilan bog'liq iqtisodiy manbaning korxonaga kelib tushish imkoniyati mavjud bo'lsa;

-sarflangan va kutilayotgan xarajatlar miqdorini aniq belgilash mumkin bo'lganda.

Qayd qilish lozimki, ushbu mezonlar O'zbekiston Respublikasining "Asosiy xo'jalik faoliyati daromadlari" nomli 2-sonli BHMA da ko'rsatilgan mezonlar bilan aynan bir xildir. Boshqacha aytganda, mahsulotni sotishdan tushgan daromadni tan olish mezonlari aynan mana shu besh guruhda mujassamlashgan. Lekin ushbu jarayonlarning boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan sotuvchi va xaridor o'rtasida tuziladigan huquqiy hujjat - shartnomaning majudligi nazardan chetda qolmoqda.

3.4. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarining tavsifi

Iqtisodiyotning erkinlashuvi bilan sof foydaning tarkibi va shakllanish manba muhim ahamiyat kasb etmoqda. Korxonada xo'jalik faoliyati sof foydasini shakllantirishda uning manba moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibiga bog'liq bo'ladi. O'z navbatida moliyaviy natijalarni shakllantirish manbasi korxonada faoliyatida sodir etilgan xo'jalik jaryonlari va ularning moliyaviy natijalari hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning umumiy hajmidan kelib chiqqan holda, korxonada xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalarini quyidagi qismlarga ajratgan holda aniqlash maqsadga muvofiqdir:

-asosiy faoliyatning moliyaviy natijalari;

-moliyaviy faoliyatning natijalari;

-umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari;

-favqulodda foyda va zararlar;

-yakuniy moliyaviy natija ko'rsatkichlari.

Har qanday xo'jalik yurituvchi su'yektning asosiy daromad manbai va foyda hajmi ularning asosiy faoliyatidan olinadi. Asosiy faoliyatning daromadlari mahsulot sotishdan ko'rilgan daromad va operatsion daromaddan tashkil topadi. Asosiy faoliyat xarajatlari sotilgan mahsulot tannarxi va davr xarajatlarining yig'indisidan iboratdir. Asosiy faoliyatning moliyaviy natijasini aniqlash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda mahsulot sotishdan olingan daromad summasidan sotilgan mahsulot tannarxi ayiriladi va mahsulot sotishdan ko'rilgan yalpi foyda

aniqlanadi. Yalpi foyda summasiga asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar summasi qo'shiladi va davr xarajatlari summasi ayiriladi. Natijada asosiy faoliyat foydasi (zarari) aniqlanadi.

Asosiy faoliyatdan ko'rilgan moliyaviy natijani aniqlashda, ushbu faoliyat turi bo'yicha olingan boshqa daromad va qilingan boshqa xarajatlar alohida ahamiyatga ega.

Xo'jalik yurituvchi su'yektlarning asosiy faoliyatidan olingan boshqa daromadlarga quyidagilar kiradi:

boshqa korxonalar faoliyatida, ulushli ishtirokidan olingan daromadlar, aksiyalar bo'yicha dividendlar, obligatsiyalar va korxonaga tegishli boshqa qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha daromadlar;

mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

ishlab chiqarish zaxiralarini yuqori baholashdan olingan daromadlar;

korxonaning qo'shma faoliyatdan olgan foydasi;

hisobot davrida aniqlangan o'tgan yillar foydasi;

inventarizatsiya natijasida aniqlangan korxonalar mulkining hisobga olinmagan ob'yektlari;

mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olingan boshqa daromadlar.

Shu bilan birga, asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar ham mavjud. Ular quyidagi moddalardan iborat:

bekor qilingan ishlab chiqarish zaxiralari bo'yicha xarajatlar;

xo'jalik shartnoma shartlarini buzganlik uchun, belgilangan yoki e'tirof etilgan jarima, penya va vaqtida to'lanmagan to'lovlar hamda yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha xarajatlar;

boshqa korxonalar bilan hisob-kitoblar bo'yicha dargumon qarzlar summalari;

da'vo muddati o'tgan debitorlik qarzlarini hisobdan chiqarish bo'yicha ko'rilgan zararlar;

hisobot yilida aniqlangan, o'tgan yillarning operatsiyalari bo'yicha zararlar;

va boshqa xarajatlar.

Asosiy faoliyat foydasi korxonaning kelgusi rivojlanish istiqbollari belgilab beradi. Uning shakllanishi korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining barcha jabhalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar: ishlab chiqarish hajmi va xarajatlar tarkibi, asosiy vositalar va aylanma mablag'lardan foydalanish darajasi, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi kabilarga bog'liqdir.

Moliyaviy faoliyat natijasi. Bu ko'rsatkich korxonaning moliyaviy mablag'lari ishtirokidagi jarayonlardan olgan daromadlari va sarflagan xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar moliyaviy faoliyatining daromad moddalari ko'paydi. Yaqin yillargacha korxonalar moliyaviy daromadi asosan korxonalar mablag'laridan foydalanganlik uchun to'lanadigan foizlardan iborat edi. Endi qimmatli qog'ozlar emissiyasi, oldi-sotdi jarayonlari, boshqa korxonani tashkil qilishda ulushli qatnashiga, renta, lizing, dividend, diskont kabi daromad moddalari korxonalar yalpi daromadining salmoqli ulushini tashkil qilmoqda.

Korxonalarining moliyaviy faoliyat bo'yicha oladigan daromadlari asosan quyidagilardan tashkil topadi:

- respublikamiz hududida va uning tashqarisidagi boshqa korxonalar faoliyatiga ulush qo'shgan holda qatnashishdan olingan daromad, aksiya bo'yicha dividendlar va obligatsiyalar hamda korxonaga tegishli qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar;

- mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromadlar;

- valuta schyotlari, shuningdek chet el valutaridagi operatsiyalar bo'yicha ijobiy kurs tafovutlari;

- sarflangan mablag'larni qayta baholashdan olingan daromadlar;

- yuqorida sanab o'tilgan moddalarga kiritilmagan, moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

Moliyaviy faoliyat turi bo'yicha qilinadigan xarajatlarga quyidagi moddalar kiritiladi:

- chet el valutasini bilan operatsiyalar bo'yicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar; sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, shubha korxonalariga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar;

- o'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar;

- moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

Umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalarini aniqlash uchun asosiy va moliyaviy faoliyat natijalaridan tashkil topadi. Asosiy faoliyat foydasi (zarari)ga moliyaviy faoliyatdan olingan foyda (zarar) summasi qo'shiladi va moliyaviy faoliyatning xarajatlari ayirib tashlanadi.

Umumxo'jalik faoliyati bo'yicha ko'rilgan moliyaviy natija ma'lum bo'lganidan so'ng soliq to'langungacha olingan foyda (zarar) aniqlanadi.

Soliq to'langungacha olingan foyda, korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijasida ko'rilgan sof daromadining umumiy qiymatini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichni hisoblashda, favqulodda vaziyatlardan olingan foyda yoki ko'rilgan zarar, hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Ular soliq to'langunga qadar foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadi.

Favqulodda holatlar bo'yicha foyda va zararlar - korxonada xo'jalik faoliyatida juda ham kam sodir bo'ladigan, u uchun odatiy va korxonada qabul qilinadigan, boshqaruv qarorlari natijasiga bog'liq bo'lmaydigan, foyda va zarardir.

Ushbu bo'linga tegishli modda bir vaqtning o'zida, ham odatiy emaslik, ham ko'zda tutilmaganlik, ham takrorlanmaslik kabi talablarga javob berishi kerak. Shuningdek, korxonada xo'jalik faoliyati davomida, faqat odatiy bo'lmagan yoki faqat ko'zda tutilmagan moddalar ham yuzaga kelishi mumkin.

Xorij mamlakatlar tajribasida, favqulodda zararlarga jumladan quyidagilarni kiritishadi: tabiiy ofatlardan ko'rilgan yo'qotishlarni, urush, revolyutsiya kabi siyosiy o'zgarishlar tufayli ko'rilgan yo'qotishlarni, qaralayotgan davlat qonunchiligidagi o'zgarishlar natijasidagi yo'qotishlarni, masalan, milliyashtirish yoki o'sha faoliyat turini man etish bo'yicha qarorlar qabul qilinishi va hokazolar.

Yana shuni ta'kidlash joizki, tegishli moddalarni favqulodda foyda va zararlar, jumlasiga kiritish yoki kiritmaslik masalalarini hal etilishiga, korxonada joylashgan yerning tashqi muhiti katta ta'sir ko'rsatadi. Agar korxonada, tez-tez va qattiq sovuq bo'lib turadigan joyda joylashgan bo'lsa, unda hosilning sovuq urib ketishi

natijasidagi yo'qotishlar, favqulodda zararlar jumlasiga kiritilmaydi, chunki ushbu modda «bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak» degan mezonga javob bermaydi.

Keltirilgan asosiy foyda turlari aniqlangandan so'ng, yakuniy jarayon, sof foyda (zarar)ni aniqlash hisoblanadi. Korxonaning sof foydasi taqsimlab bo'lingandan so'ng, buxgalteriya balansida, korxonaning taqsimlanmagan foydasi ko'rinishida ifodalanadi hamda soliq to'langungacha bo'lgan foyda bilan to'langan soliq va to'lovlar orasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Bu ko'rsatkichni aniqlashda, daromaddan to'lanadigan soliq va boshqa to'lovlar haqida hamda soliqqa tortiladigan foyda haqida tushunchaga ega bo'lish kerak.

Foydadan to'lanadigan soliq va boshqa to'lovlar O'zbekiston Respublikasi «Soliq kodeksi» hamda boshqa shu kabi qonun va me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda aniqlanadi va to'lanadi.

Soliqqa tortiladigan foyda esa, soliq to'langungacha bo'lgan foydadan shunisi bilan farq qiladiki, uni aniqlash uchun soliq to'langungacha bo'lgan foydaga Nizomning 1-chi va 2-chi Ilovalarida keltirilgan tafovutlarni, mos ravishda qo'shish yoki ayirish va qonunchilikka muvofiq, soliq bo'yicha imtiyozlarni chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

3.5. Xalqaro amaliyotda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda daromad, xarajat, foyda va zararlarni kiritish usullari

Amaliyotda mahsulot sotishdan ko'rilgan va faoliyatning boshqa daromadlarini tan olish holatlarining bir necha ko'rinishlari mavjud:

1. Daromadni mahsulot yetkazib berilgandan so'ng tan olish usuli:

Korxonalar xo'jalik faoliyatida shunday hodisalar ham uchraydiki, ular daromadni tan olish tamoyilining mohiyatini yanada yaqqol ko'rsatishga yordam beradi.

Faraz qilaylik, korxonalar boshqa firmaga shartnoma shartlariga ko'ra mahsulotni ma'lum vaqtdan so'ng o'z holidan yoki qayta ishlangan holidan qayta sotib olish majburiyati bilan sotadi. Bundan shartnomalar mahsulotli moliyalashtirish shartnomalari deb ataladi. Ushbu holatda korxonalar o'ziga tegishli bo'lmagan, ya'ni firma tovar moddiy boyliklari (TMB)ni saqlash bo'yicha xarajatlar va xavfni o'z zimmasiga oladi. Mahsulotni ushbu xilda sotadigan korxonalar shartnoma bo'yicha kelib tushgan mablag'ni daromad sifatida aks ettirish va mahsulotni o'z TMB tarkibidan chiqarishi mumkin emas. Daromadni aks ettirish jarayoni o'sha mahsulot uchinchi bir firmaga sotilganda amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, amaliyotda, ulgurji savdo va ishlab chiqarish uskunalari tayyorlash korxonalar faoliyatida xaridor sotib olgan mahsulotni ma'lum shartlar asosida va ma'lum vaqtdan so'ng ham qaytarib berishga haqli holatlar ham uchraydi. Bunday holatlarda daromadni xaridorga yetkazib berilgan kuni hisobga olish usulida jiddiy chegaralanishlar vujudga keladi:

-mol yetkazib beruvchi tomonidan xaridorga taklif qilingan baho mahsulot sotilgan kun uchun belgilangan yoki aniqlangan bo'lsa;

-xaridor mol yetkazib beruvchiga mahsulot qiymatini to'lagan yoki to'lash majburiyatini olgan bo'lsa (bu majburiyat mahsulotni xaridor tomonidan sotilishiga bog'liq bo'lmasligi kerak);

-xaridorning mol yetkazib beruvchi oldidagi majburiyati mahsulotning yo'qolishi yoki sifatining buzilishi natijasida kamaymaydi;

-agar xaridor mahsulotni sotish maqsadida sotib olgan bo'lsa, ular xaridorning mulkidan iqtisodiy ma'noda alohida bo'lishi zarur;

-mol yetkazib beruvchi o'ziga mahsulotning xaridor tomonidan sotib yuborilishiga olib keluvchi (ta'sir ko'rsatuvchi) hech qanday majburiyatni olmaydi;

-kutilayotgan daromad hajmi oqilona baholanishi kerak.

Ushbu shartlardan birining bajarilmasligi daromadni tan olish usulining qo'llanishiga to'sqinlik qiluvchi noaniqliklar tug'diradi. Bunday choralarda daromadni tan olish uchun ushbu usulning daromadni qayd qilish xususiyatidan foydalaniladi va mahsulot sotishdan tushgan tushum xaridorning mahsulotni qaytarib berish huquqi muddatining tugashi yoki yuqoridagi shartlarning to'liq bajarilishiga qadar cho'ziladi.

Amaliyotda, sotilgan mahsulot uchun pul kelib tushishga ishonch (kafolat) yetarli bo'lmasa, daromadni tan olish daromad kelib tushishiga yoki kelib tushishiga biron-bir asos paydo bo'lgunga qadar kechiktiriladi.

Bunda asosan quyidagi ikkita usuldan foydalanish mumkin:

1. Sotilgan mahsulot uchun mablag'ni ma'lum qismlarda yig'ish sotilgan mahsulot uchun tushumning kelib tushishiga ishonch bo'lmagan va dargumon qarzar bo'yicha zaxira miqdorini baholash imkoni yo'q hollarda foydalaniladi. Bunda, sotilgan mahsulot xarajatlari va uni sotish o'sha kuni qayd qilinadi, yalpi foyda esa mablag'lar to'liq yig'ilguncha kechiktiriladi. Bu jarayon quyidagicha amalga oshiriladi:

-mahsulot tannarxi va uni sotish mahsulot sotilgan hisob davrida qayd qilinadi. Bunda sotilgan mahsulot uchun tushum kelib tushishi noaniq bo'lgan ko'rsatkichlar keyinchalik ular bo'yicha yalpi foydani hisoblash uchun boshqalardan alohida yuritiladi;

-yalpi foyda me'yori sotilgan mahsulot tannarxi va uni sotishdan tushgan tushum o'rtasidagi farqning sotishdan tushgan tushumga nisbati ko'rinishida aniqlanadi;

-hisobot davri yakunida sotilgan mahsulot uchun yig'ilgan to'lov miqdori yalpi foyda me'yoriga ko'paytirish orqali ushbu davrda olingan foyda miqdori aniqlanadi;

-foydaning qolgan qismi keyingi davrda kelib tushishi kutilayotgan mablag'lar yordamida hisoblanadi;

-o'tgan davr yalpi foyda me'yori joriy davrlarda kelib tushgan mablag'lar miqdoriga ko'paytiriladi. Xosil bo'lgan summa mahsulot sotilgan davr foydasi sifatida qayd qilinadi.

Mahsulot sotishning bunday turi uchun yalpi foyda, uning kechiktirilgan qismi va yig'ilgan mablag'lar uchun alohida schyotlar ishlatiladi. Ko'pincha bunday turdagi to'lovlar uchun xaridorlardan foizlar undiriladi. Agar xaridorning to'lov qobiliyati yetmasa, sud tomonidan unga sotilgan mahsulot sotuvchi foydasiga o'tkaziladi. Bunda sotilgan mahsulot uchun to'lovlar yig'ish schyotlari o'sha kun holatiga

keltiriladi. Sotuvchi foydasiga hal qilingan mahsulot uning TMB miqdoriga sotish qiymati (bahosi)da qabul qilinadi, to'lovlarning kelib tushmagan qismi va yalpi foyda schyotlari nolga tenglashtiriladi.

2. Xarajatlarni qoplash usuli. Uning mohiyati shundan iboratki, korxonada foydani qayd qilishdan avval, barcha xarajatlarni qoplashi zarur. Ushbu usul asosan yuqori darajada tijorat xavfi bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olishda, oldindan mahsulot sotish daromad hajmi biron-bir ma'lumotga ega bo'lmagan holatlarda ishlatiladi.

II. Daromadni xaridorga mahsulot yetkazib bergunga qadar tan olish.

Bu usul mahsulot sifatida qurilish muddati bir necha hisobot davriga cho'ziladigan bino, qurilma yoki texnika vositalarini sotishda qo'llaniladi. Bunday mahsulotlar uchun to'lov (tushum) ularni yaratish bo'yicha buyurtmachi va pudratchi o'rtasida kelishilgan ma'lum hajmdagi ishlar bajarilgandan so'ng amalga oshiriladi.

Fikrimizcha, moliyaviy hisob nuqtai nazaridan ushbu holatda barcha ishlar tugagandan so'ng daromad qayd qilinsa, bu ma'lumotlar bir jihatdan ishonchli bo'lsa-da, ikkinchidan o'z vaqtida emasdir, aniqrog'i, tashqi ma'lumot foydalanuvchilarining uzoq muddatli loyiha bo'yicha ish bajarayotgan korxonada faoliyatiga oid qarorlar qabul qilishini kechiktiradi.

Bunday loyihalarni qayd qilish uchun BHUKTga ko'ra daromadni hisoblashning ikkita usuli taklif qilingan:

1. Bajarilgan shartnoma usuli. Bunda daromad, xarajatlar va yalpi foyda shartnomada ko'rsatilgan ish hajmi bajarilgandan so'ng aks ettiriladi. Qurilish ishlari bo'yicha sarflangan xarajatlar tugallanmagan qurilish schyotida hisobga olinadi. Buyurtmachilar tomonidan bajarilgan ishlarga to'langan to'lovlar daromad deb emas, balki TMZ schyotlariga kontrschyot hisoblangan tugallanmagan qurilish uchun to'lovlar schyotida aks ettiriladi. Shartnomada ko'rsatilgan ishlar to'liq bajarilgandan so'ng barcha schyotlardagi summalar daromad va xarajatlar schyotiga o'tkaziladi va qurilish loyahasini amalga oshirishdan ko'rilgan yalpi foyda aniqlanadi.

Mamlakatimizda qo'llanilayotgan hisob tizimiga muvofiq, xaridor va buyurtmachilardan olingan bo'naklar passiv 6310-"Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo'naklar" schyotida hisobga olinadi. Ushbu avanslar va oraliq to'lovlar daromad hisoblanmaydi. Lekin buyurtma bo'yicha xaridorga yetkazib berilgan mahsulot uchun to'lov bo'nak shaklida amalga oshirilgan bo'lsa, daromad xaridorga mahsulot yetkazib berilganda tan olinadi;

2. Bajarilgan ish foizi usuli. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, bunda daromad, xarajatlar va foyda har bir joriy davrda umumiy ish hajmiga nisbatan bajarilgan ish miqdorining foizlardagi ifodasi ko'rinishida aniqlanadi. Ushbu miqdor baholash yo'li bilan o'rnatiladi.

Bajarilgan shartnoma va bajarilgan ish foizi usullaridan birini tanlash loyiha ishlariga sarflangan xarajatlarni loyihaning tayyorgarlik darajasiga bog'liqligi asosida amalga oshiriladi. Agar uzoq muddatli shartnoma xarajatlari darajasi bilan shartnomaning yakunlanganlik darajasi o'rtasida sezilarli bog'liqlik bo'lsa, bajarilgan ish foiz usulidan foydalanish qulayrokdir. Agar bunday prognozlar ishonchli baholash yo'qligi yoki loyihaga xos bo'lgan kutilmagan holatlar tufayli shubhali bo'lsa, u holda bajarilgan shartnoma usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Bunda ushbu usullarning afzalliklari quyidagi mezonlar orqali belgilanadi. Agar uzoq muddatli shartnoma ishlari bo'yicha rejalashtirilgan xarajatlar bilan shartnomaning bajarilganlik darajasi o'rtasida bog'liqlikni aniqlash imkoniyati bo'lsa, ikkinchi usuldan foydalanish qulaydir.

Agar bunday prognozlar aniq ma'lumotlar bilan tasdiqlanmasa yoki qurilish loyihasiga xos bo'lmagan tasodiflar tufayli ishonchli bo'lmasa, birinchi usuldan foydalanish mumkin.

Uzoq muddatli shartnoma bajarilishidan tashqari, BHUKTga muvofiq, ayrim hollarda mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni tugashi bilan, lekin mahsulot hali sotilmasdan daromadni tan olish mumkin. Bunday holat ishlab chiqarilgan mahsulotga talab darajasi yuqori bo'lgan va ushbu mahsulot bozorda uni ishlab chiqaruvchilar ta'sir ko'rsata olmaydigan bahoga ega bo'lgan hollarda kuzatiladi.

III. Xizmat ko'rsatish bo'yicha daromadni tan olish.

BXUKTga muvofiq xizmat ko'rsatish bo'yicha daromadni hisobga olishda quyidagi usullardan foydalaniladi.

Aniq ishning bajarilganligini hisoblash usuli-asosan alohida yoki yagona xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadni hisoblashda ishlatiladi. Bunga vositachining alohida mahsulot partiyasini sotganligi uchun olgan mukofot puli misol bo'ladi. Franchayzing huquqlarini sotishdan ko'rilgan daromad ham shu usulda hisobga olinadi.

Proporsional harakat usuli - xizmat ko'rsatish muddati bir necha hisobot davrigacha cho'ziladigan hollarda qo'llaniladi. Bunda, har bir hisobot davrida bajarilgan ishlar foizi bo'yicha daromad hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzish va muzokaralar olib borish xarajatlari ko'rsatilgan xizmat hajmiga muvofiq hisoblangan daromad olingan davrda aks ettiriladi. Masalan, bankning har oydagi mijozlar schyotlari bo'yicha xizmat ko'rsatishi; pullik ma'ruza sikllarini o'tkazish, belgilangan to'lov asosida uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish va h.k.

Tugallangan xizmat ko'rsatish usuli - bir necha xizmatlar bosqichidan iborat bo'lib, eng oxirgi bosqichning bajarilmaganligi barcha xizmat bosqichlarining bajarilmaganligiga sabab bo'luvchi xizmatlar tizimidan olingan daromadni aks ettirishda foydalaniladi.

Mablag' yig'ish usuli - xizmat ko'rsatishdan ko'rilgan daromadni mablag' kelib tushgandan so'ng tan olish. U xarajatlarni mahsulot sotishdan so'ng qoplash usuliga mos keladi va daromadning kelib tushishi haqda uning hajmi haqida hech bir ma'lumot mavjud bo'lmagan tijorat nuqtai nazaridan xavfli holatlarda qo'llaniladi.

IV. Xarajatlarni tan olish.

Xarajatlar - korxonada aktivlari (resurslari)ning biron-bir maqsad uchun sarflanishi yoki asosiy faoliyat bilan bog'liq majburiyatlarni qabul qilishni o'zida mujassamlashtiradi.

Xarajatlar ma'lum tamoyillarga muvofiq daromad tan olingandan so'ng hisoblanadi va xalqaro hisobning taalluqlilik tamoyiliga asosan ushbu daromad bilan solishtiriladi. Ularni hisoblash sof foydani aniqlashning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

BXUKTga ko'ra korxonada moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq xarajatlarni quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

- to'g'ri xarajatlar – sotilgan mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan va qayd qilinishi bevosita daromadni tan olish bilan chambarchas bog'liq xarajatlar.

-davr xarajatlari – korxonada faoliyati ma'lum davri mobaynida foydalanadigan mahsulot va xizmatlarga sarflangan hamda aynan o'sha davrda aks ettiriladigan xarajatlar.

- taqsimlangan xarajatlar – ma'lum vaqtlarda amalga oshiriladigan va daromad olish uchun xizmat qiladigan davrlarga muntazam taqsimlanadigan xarajatlar.

BHXAni milliy hisob tizimidan farqlovchi asosiy tamoyili – bu xarajatlarni aks ettirishdir. Bunda xalqaro standartlarga muvofiq, xarajatlarni daromad olinishi kutilayotgan davrda aks ettirish, ya'ni muvofiqlik tamoyiliga rioya qilish taklif qilinadi.

Respublikamiz hisob tizimida xarajatlar ma'lum hujjatlashtirish talablari bajarilgandan so'ng qayd qilinadi. Bu narsa korxonalarda ma'lum davrga taalluqli barcha operatsiyalarni hisobga olishga yordam bera olmaydi. Natijada vujudga kelgani farq bo'yicha xarajatlar summalari moliyaviy hisob ma'lumotlarining buzilishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, moliyaviy hisobotlarni audit tekshiruvlaridan o'tkazish xarajatlari keyingi yilda amalga oshiriladi. Bu jarayon xalqaro hisob andozalarining muvofiqlik tamoyilidan chetga chiqishlarga sabab bo'lmoqda.

V. Foyda va zararlarni tan olish.

BHXAning asosiy xususiyatlaridan biri – moliyaviy hisobotda favqulodda foyda va zararlarni aks ettirish. Xalqaro hisob tamoyillariga ko'ra ular ehtiyotkorlik (konservatizm) tamoyiliga asosan amalga oshiriladi. Natijada, zararlar haqiqatda vujudga kelmasdan avval tan olinsa, foyda esa faqatgina ularni tasdiqlovchi xo'jalik operatsiyalari mavjud hollarda aks ettiriladi.

5-sonli moliyaviy hisob konsepsiyalari to'g'risidagi Nizomga muvofiq, "...hali tugallanmagan xo'jalik operatsiyasini muvaffaqiyatli yakunlashda istiqbolni baholash uchun ma'lum usulda ehtiyotkorona yondoshish talab qilinadi. Qolaversa, noaniqlik omili ta'sirida vaqt o'tishi bilan xarajatlar va zararlarga nisbatan daromad va foydani aks ettirish uchun qat'iy talablar vujudga keldi. Bu ehtiyotkorlik daromad komponentlarini tan olish mezonlaridan foydalanish yo'nalishlarini aniqlab beradi".

BXUKTning daromad va foydani aks ettirishga bo'lgan qat'iy talablari korxonaning ma'lum darajada foyda va zararlar muddatini nazorat qilishda deb tushunish mumkin. Masalan, asosiy fondlarni hisobdan chikarish va qimmatli qog'ozlarni sotish vaqtlarini aniqlash va h.k.

Favqulodda foyda va zararlar korxonada ichki sabablariga ko'ra ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, korxonada hisob siyosati o'zgarishi natijasida vujudga kelgan foyda va zararlar o'sha davrda hisobga olinadi.

Qayd qilish joizki, iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tishi bilan mahsulot sotish jarayonida yangi to'lov shakllari vujudga keldi. Bunga mahsulotni tijorat krediti asosida, kreditga sotish, mahsulot qiymatini bo'nak yoki oldindan to'lash ko'rinishlari misol bo'ladi.

Shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimizda mahsulotni kredit yoki tijorat krediti shartlari bo'yicha sotish usullari ham yetarlicha rivojlanmagan. Shu sababli hisob-kitobning ushbu shakllari to'g'risida fikr yuritish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Ma'lumki, korxonada mahsulotni kreditga sotganda buyurtmachining (xaridor) mahsulot qiymatini to'lash ehtimoli unga noma'lum bo'ladi. Shu sababli, ushbu operatsiyalar summasi yangi schyotlar rejasiga muvofiq "Olinadigan mablag'lar" schyotining debeti va "Sotishdan tushgan daromad" schyotining kredit tomoniga yoziladi. Agar xaridorning mahsulot qiymatini to'liq to'lashga yetarlicha ishonch mavjud bo'lsa, tushum miqdorini balansning aktiv qismi foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda daromad sifatida aks ettirish mumkin. Lekin hamisha ham xaridor o'z vaqtida majburiyatini to'lay olmasligi mumkin va natijada ushbu summa sotuvchi korxonada uchun umidsiz qarzlarga bo'lib qoladi.

Shunday bo'lishiga qaramay, ushbu qarzlarning miqdorini taxminan aniqlash mumkin va hisobot davri yakunida daromad summasini to'g'rilash (korrektirovka) orqali ularni hisobdan chiqarish ko'zda tutilgan. Bunda umidsiz deb topilgan qarzlarning summasi "Olinadigan mablag'lar" schyotidan chiqarilib, xarajatlarning sifatida aks ettiriladi. Bu usul amaliyotda "hisobdan chiqarish usuli" deb nomlanadi.

Muqobil tadbir hisoblangan rezervlash usulidan foydalanishda umidsiz qarzlarning umumiy summasi baholanadi. Oldindan hisoblangan ushbu summa balansda debitorlik qarzini kamaytirish, foyda va zararlar to'g'risidagi Hisobotda xarajat sifatida aks ettiriladi.

Kontraktiv schyot hisoblangan "Olinadigan mablag'lar" schyoti balansi "Umidsiz qarzlarga bo'yicha rezervlar", foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda esa "Umidsiz qarzlarga bo'yicha xarajatlarga" nomi bilan ko'rsatiladi.

Agar xaridorlardan birining mahsulot qiymatini to'lamasligi aniq bo'lib qolsa, "Olinadigan mablag'lar" schyoti va "Umidsiz qarzlarga bo'yicha rezervlar" schyoti ham ushbu summaga kamayadi. Baxtli tasodif tufayli o'sha xaridor keyinchalik o'z qarzini to'lasa, "Pul mablag'lari" schyoti debetlanib, "Umidsiz qarzlarga bo'yicha rezervlar" schyoti kreditlanadi.

Xalqaro amaliyotda, ko'pincha, sotuvchi korxonaning xaridorga sotib olgan mahsulot qiymatini tezroq to'lashini rag'batlantirish maqsadida "pullik chegirmalar" berish holatlari ko'p uchraydi. Bunga AQSh korxonalarida faoliyatida qo'llaniladigan quyidagi usul misol bo'ladi. Aytaylik, korxonada xaridorga mahsulotni «Fifo, Nifo» shartlari bo'yicha sotdi. Bunda xaridorning mahsulot qiymatini to'lash muddati 30 kun deb belgilangan va u to'lovni 10 kun ichida amalga oshirsa, 2% li chegirma olish huquqiga ega bo'ladi».

Amerika olimlari R. Entoni va J. Rislarning fikricha, ushbu chegirmalarni hisobda quyidagi ko'rinishlarda aks ettirish mumkin:

- mahsulot sotish yalpi hajmini kamaytirish orqali,
- davrlar xarajatlari sifatida,
- daromad hajmini chegirma summalarisiz aks ettirish.

Bizning fikrimizcha, qayd qilish joizki, fan-texnika taraqqiyoti shubhasiz hisob-kitob operatsiyalarini soddalashtirishga katta yordam bermoqda. Ko'pchilik iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda foydalaniladigan kredit kartochkalari fikrimizning yaqqol dalilidir. Naqdsiz hisob-kitoblarning eng qulay ko'rinishi hisoblangan bunday kartochkalar korxonada naqd pul tushumi bilan bog'liq muammolarni oldini olish bilan birga debitorlik qarzini bartaraf qilishning asosiy

vositasidir. Ayni paytda bunday kartochkalar asosan chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohalari hisob-kitoblarida keng qo'llanilmoqda.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishdan oldin amalga oshiriladigan hisob ishlari.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishdan oldin buxgalteriya hisobining schyotlar rejasidagi daromadlar, xarajatlar, foyda va zararlarni hisobga oluvchi schyotlar yopilishi lozim.

Daromad schyotlari asosan ikki guruhga bo'linadi. Birinchisi 9000 "Asosiy faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar" va ikkinchisi 9500 "Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar". Ushbu schyotlarda ochiladigan subschyotlar har bir korxonaning ishchi schyotlar rejasida aniq belgilanishi lozim. Daromadlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopish uchun quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari tuziladi.

Debet 9000 "Asosiy faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar"

Debet 9500 "Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar"

Kredit 9900 "Yakuniy moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi schyotlar"

Ammo korxonalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda daromad schyotlarini yopish ikki bosqichda amalga oshirilishi mumkin. Birinchi bosqichda daromad schyotlari tarkibidagi 9040 "Sotilgan tovarlarning qaytishi" va 9050 "Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar" schyotlar yopiladi, ya'ni ushbu schyotlarning debetidagi summa 9000 schyotining debetiga olib boriladi hamda daromad summasini kamaytiradi. Shundan so'nggina ikkinchi bosqichga o'tiladi va yuqorida keltirilgan buxgalteriya o'tkazmasi orqali olingan daromad summasi 9900 schyotga o'tkaziladi. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga asosiy faoliyatning boshqa muomalalaridan olingan foyda summasini kiritish mumkin. Ikkinchi guruhga esa asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini olib borish mumkin. Asosiy faoliyatning boshqa muomalalaridan olingan foyda summasini aniqlash uchun dastlab 9200 "Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotlar"da olingan foyda summasining qoldig'i aniqlanadi. Shundangi ushbu qoldiq summa 9300 "Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar"ning foydani hisobga oluvchi schyotlariga o'tkaziladi.

Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlarni yopish uchun quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi tuziladi:

Debet 9300 "Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar"

Kredit 9900 "Yakuniy moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi schyotlar"

Korxonalar foydasi tarkibida favqulodda foydalar summasi ham hisobga olinadi va u 9710 "Favqulodda foydalar" schyotida hisobga olinadi. Ushbu schyotni yopish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:

Debet 9710 "Favqulodda foydalar"

Kredit 9900 "Yakuniy moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi schyotlar"

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladigan daromadlar va foyda summaları yuqoridagi hisob ishlarini bajarish orqali aniqlanadi.

Korxonalar faoliyatida sarflanadigan xarajatlarni moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga kiritish uchun ularni hisobga oluvchi schyotlarni yopish bilan bog'liq bo'lgan hisob ishlari amalga oshiriladi. Buning uchun quyidagi schyotlarni yopish talab qilinadi:

9100 "Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi schyotlar";

9400 "Davri xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar";

9600 "Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar";

9720 "Favqulodda zararlar" schyoti;

9800 "Soliqlar va yig'implarni to'lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schyotlar".

Xarajat schyotlarini yopish uchun 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schyoti debetlanadi va xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar kreditlanadi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishdan oldin yana bir bor daromad va xarajat schyotlaridagi summalar tekshirib chiqiladi va shundan so'ng hisobotni tuzishga kirishiladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzish tartibi.

Moliyaviy natijalarni aniqlash bilan bog'liq barcha hisob-kitoblar amalga oshirilgandan so'ng buxgalteriya hisobi schyotlari ma'lumotlari asosida hisobotni tuzishga kirishiladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning 010-satrida mahsulot, tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan olingan tushum ko'rsatiladi. Bu satrda soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i) hamda qaytarilgan tovarlar va tayyor mahsulotning qiymati, xaridorning sotish narxlaridan chegirmalari qo'rsatilmaydi. Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga berish hisoblangan korxonalar ushbu satrda joriy hisobot davriga tegishli bo'lgan daromad summasini ko'rsatadi. Shuningdek, vositachi korxonalar ham xuddi shu satrda komission haqlar summasini aks ettiradi.

"Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxi" moddasi bo'yicha (020-satr) sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar tannarxining summasi ko'rsatiladi. Ushbu satrda savdo korxonalari sotilgan tovarlarning xarid qiymatini aks ettiradi.

"Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan olingan yalpi foyda (zarar)" (030-satr) summasi sof tushum bilan sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi o'rtasidagi farq (010-satr-020-satr) summadan iborat bo'ladi.

"Davri xarajatlari, jami" moddasida (040-satr) "Realizatsiya xarajatlari" (050-satr), "Ma'muriy xarajatlar" (060-satr), "Boshqa operatsion xarajatlar" (070-satr), "Kelgusi soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari" (080-satr) o'z ichiga oladi va shu nomdagi schyotlar ma'lumotlari asosida tuziladi.

"Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar" moddasi (090-satr) asosiy faoliyatning boshqa daromadlari: asosiy vositalar va aktivlarning chiqib ketishidan foyda, undirilgan jarimalar, penya va neustoykalar, o'tgan yillar foydasi, qisqa muddatli ijaradan daromadlar, kreditorlik va debitorlik qarzni hisobdan chiqarishdan daromadlar, hizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarning daromadlari, tekin moliyaviy yordam va boshqa operatsion daromadlar ko'rsatiladi.

"Asosiy faoliyatdan foyda (zarar)" moddasida (100-satr) mahsulot (tovar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan olingan yalpi foyda (zara)dan (030-satr) davri

xarajatlari summasini (040-satr) ayirish hamda asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar summasini (090-satr) qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

“Moliyaviy faoliyatdan daromadlar jami” moddasida (110-satr) “Dividendlar ko'rinishida daromadlar” (120-satr), “Foizlar ko'rinishidagi daromadlar” (130-satr), “Uzoq muddatli ijaradan daromadlar (lizing)” (140-satr), “Valuta kurslaridagi farqlardan daromadlar” (150-satr) va “Moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar” (160-satr) daromadlarni o'z ichiga oladi.

“Moliyaviy faoliyatdan xarajatlar jami” moddasida (170-satr) “Foizlar ko'rinishida xarajatlar” (180-satr), “Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha foizlar ko'rinishidagi xarajatlar” (190-satr), “Valuta kurslaridagi farqlardan xarajatlar” (200-satr) va “Moliyaviy faoliyatdan boshqa xarajatlar” (210-satr) larni o'z ichiga oladi.

“Umumxo'jalik faoliyatidan foyda (zarar)” moddasi bo'yicha (220-satr) korxonaning umumxo'jalik faoliyatiga doir asosiy faoliyatdan foyda (zarar) summasiga (100-satr) moliyaviy faoliyatdan daromadlar summasini (110-satr) qo'shish va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar summasini (170-satr) ayirish yo'li bilan aniqlangan moliyaviy natijalar ko'rsatiladi.

“Favqulodda foyda va zararlar” moddasi bo'yicha (230-satr) favqulodda hodisalar natijalari ko'rsatiladi, “Daromadlar (foyda)” ustuni 9710-“Favqulodda foydalar” hisobvarag'ining ma'lumotlari, “Xarajatlar (zararlar)” ustuni esa 9720-“Favqulodda zararlar” hisobvarag'ining ma'lumotlari bo'yicha to'ldiriladi.

“Daromad (foyda) solig'ini to'lashga qadar foyda (zarar)” moddasi bo'yicha (240-satr) +/-belgisini hisobga olgan holda 220 va 230-satrlarni qo'shish natijalari aks ettiriladi. Ushbu satr natijasi daromad (foyda) solig'ini hisoblashda asos bo'ladi.

“Daromad (foyda) solig'i” moddasi bo'yicha (250-satr) hisobot davri boshidan hisoblangan 9810-“Daromad (foyda) solig'i bo'yicha xarajatlar” hisobvarag'idagi summalar ko'rsatiladi.

“Foydadan boshqa soliqlar va yig'implar” moddasi bo'yicha (260-satr) yil boshidan hisoblangan qonun hujjatlariga muvofiq korxonalar o'z foydasidan to'laydigan soliqlar va yig'implar summasi aks ettiriladi.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq solishning maxsus tartibi nazarda tutilgan korxonalar 260-satr bo'yicha hisoblab yozilgan yagona soliq, yalpi daromaddan soliq, yagona yer solig'i summasini aks ettiradi.

“Hisobot davrining sof foydasi (zarari)” moddasi bo'yicha (270-satr) hisobot davrining pirovard moliyaviy natijasi ko'rsatiladi, u 240-250-260-satrlar ayirmasi sifatida belgilangan.

“Budjetga to'lovlar bo'yicha ma'lumot”da (280-430 satrlar) korxonalar tomonidan soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab yozilgan va to'lanadigan solliqlar turlari bo'yicha budjetga to'lovlar ko'rsatiladi. Mazkur ma'lumotnomada 440-satr bo'yicha korxonalar tomonidan hisoblab yozilgan va to'lanadigan budjetga to'lovlarning yakuniy summasi ko'rsatiladi.

Izoh va tushuntirish xatlarida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning ochib berilishi.

Moliyaviy hisobotlar, shuningdek, korxonalar imkoniyatlarining rahbariyat tomonidan boshqarilishini amalga oshirish natijalarini ham ko'rsatadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda ma'lum bir davr uchun korxonaning daromadlari va hisobga olingan xarajatlari umumlashtiriladi. Buxgalteriya hisobining asosiy komponenti – moliyaviy hisobotlar foydalanuvchilarga muhim hisob ma'lumotlarini yetkazib beruvchi asosiy vosita hisoblanadi.

«Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»ni to'ldirish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 27-avgustda ro'yxatdan o'tgan «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» nomli 3-son BHMA asosida tartibga solinadi.

Ushbu standartning maqsadi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning moddalarini hamda barcha xo'jalik yurituvchi su'yektlar buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunda bayon qilingan umumiy qoidalarga muvofiq ravishda hisobotni tuzish va taqdim etishlari uchun bu moliyaviy natijalarni tasnif etishni bayon qilib berishdan iborat. Bu esa turli davrlarga doir hisobot ma'lumotlarini boshqa xo'jalik yurituvchi su'yektlarning shunga o'xshash hisoblari bilan qiyoslashni ta'minlaydi.

Shuningdek, standart xo'jalik odatdagi faoliyatidan olingan daromadlar va ko'rilgai zararlar moddalarini, favqulodda vaziyatlar, faoliyati to'xtatish, hisob bahosidagi o'zgarishlar, hisob siyosatidagi o'zgarishlar va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdagi muhim xatolarni tuzatish tartibini belgilab beradi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda quyidagilarni ochib berish zarur:

- mahsulot sotishdan sof tushum; yalpi moliyaviy natija;-asosiy faoliyatdan keladigan boshqa operatsion daromadlari va xarajatlari; asosiy xo'jalik faoliyati moliyaviy natijalari (foyda yoki zarar); moliyaviy faoliyatga doir boshqa daromadlar va xarajatlar; xo'jalik umumiy faoliyatining moliyaviy natijasi; favqulodda foyda va zarar; daromad solig'i to'langunga qadar umumiy moliyaviy natijalar (foydalar yoki zararlar); hisobot davridagi sof foyda (zarar).

«Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobotni tuzishda, avvalo, «Moliyaviy natijalar to'g'risida» hisobot nomli 3-son BHMA dan keng foydalanish lozim. Ushbu standart xo'jalik yurituvchi su'yektlar uchun moliyaviy hisobotning 2-shaklini tuzish hamda to'ldirish qoidalarini belgilab beradi. Standartga binoan to'xtatilgan faoliyatning natijalari odatda xo'jalik umumiy (oddiy) faoliyatining daromadi va zarariga kiritiladi. Xo'jalik umumiy (oddiy) faoliyatidan aniq farq qiladigan yoki bu faoliyatda sodir bo'lmaydigan voqealar natijasida bu faoliyatning to'xtatilishi daromad va zararlariga kiritilmaydi. Bunday hollarda faoliyati to'xtatishdan keladigan daromad yoki zarar favqulodda modda sifatida tasnif qilinishi mumkin. To'xtatilgan operatsiyalarning har biri tushuntirishlarda ochib beriladi hamda ularda quyidagilar aks ettiriladi:

faoliyatni to'xtatishning mohiyati; moliyaviy hisobotni tuzish chog'ida to'xtatilgan faoliyat tegishli bo'lgan tarmoq va uning geografik manzili; buxgalteriyada hisobga olish maqsadida faoliyatni to'xtatish kuchga kirgan kun; faoliyatni to'xtatish usuli (sotish, ajratish va shu kabilar); faoliyatni to'xtatishdan kelgan daromadlar va zararlar hamda bu daromad yoki zararni o'lchash uchun foydalaniladigan hisob turi; hisobot davridagi xo'jalik umumiy faoliyati operatsiyalaridan olingan daromadlar yoki zararlar hamda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotishdan tushgan mablag' taqdim etilgan har bir davr uchun miqdori bilan birgalikda.

«Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»ni tuzishda hisob baholardagi o'zgarishlarga muhim e'tibor qaratish lozim. Quyidagi hollarda hisob baholaridagi o'zgarishlarning natijalari sof daromad va zararni aniqlashga kiritiladi:

-hisobot davridagi sof daromad va zararni aniqlashga (agar bu o'zgarishlar faqat mazkur davrga ta'sir etgan bo'lsa);

-o'zgarishlar yuz bergan davr hisobotiga va bu o'zgarishlar ta'sir qilgan shundan keyingi hisobot davrlariga.

Hisob baholari o'zgartirilgan turli davrlardagi moliyaviy hisobotlarni bir-biriga qiyoslashni ta'minlash maqsadida ular moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning ilgari baholash uchun foydalanilgan tasniflash moddalariga kiritiladi.

Joriy davrga jiddiy ta'sir qiladigan hisob baholaridagi o'zgarishlarning mohiyati va qiymati yoki bu o'zgarishlar keyingi davrlarda muhim o'zgarishlarga olib keladigan bo'lsa, ularning mohiyati va qiymati ochib berilishi lozim.

Agar natijalarni va o'zgarishlarni qiymat jihatidan aniqlashning imkoni bo'lmasa, ularni ham ochib berish talab qilinadi.

Shuningdek, moliyaviy hisobotning 2-shaklini to'lg'azishda jiddiy xatolar mavjud bo'lishini ham inobatga olish kerak. Jiddiy xatolar - joriy davrda aniqlangan xatolar bo'lib, ular shu qadar muhim bo'ladiki, oldingi davrlar uchun tuzilgan moliyaviy hisobotlar ishonchli deb hisoblanmasligi mumkin. Oldingi davrlardagi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash chog'ida yo'l qo'yilgan xatolarga kiritilgan tuzatish miqdori (qiymati) hisobot davridagi sof daromad yoki zararga qo'shiladi. Oldingi davrda yo'l qo'yilgan muhim xatolarni to'g'rilash miqdori yil boshigacha taqsimlanmagan foyda saldosi o'zgartirish yo'li bilan hisobotda aks ettiriladi hamda o'tgan yilning shu davriga oid ma'lumotlar o'zgartiriladi, agar xatolar arzimaydigan darajada bo'lsa, ular istisno qilinadi.

Joriy davrdagi sof daromad yoki zararga qo'shish yo'li bilan oldingi davrlardagi xatolarni to'g'rilash chog'ida oldingi yillarga oid qiyosiy axborot oldingi davr uchun tuzilgan moliyaviy hisobda kam ko'rsatilishi kerak, lekin joriy davrdagi yoki oldingi har qanday davrdagi sof daromad yoki zararni ko'rsatish uchun (agar muhim xatolar shu davrlar davomida tuzatilgan bo'lsa) alohida ustunda qo'shimcha axborot keltirilishi lozim.

Xo'jalik yurituvchi su'yekt o'zgartirish kiritilayotganda bir vaqtning o'zida quyidagi axborotni ochib berishi lozim: muhim xatoning mohiyati; joriy davrdagi daromad yoki zarar deb e'tirof etilgan o'zgartirish miqdori;

3) Qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etilgan har bir davrga oid o'zgartirishlar miqdori hamda shu davrdan oldingi davrlarga oid qo'shimcha ma'lumotlarga kiritilgan davrlarga taalluqli o'zgarishlar miqdori. Agar amalda qo'shimcha ma'lumotlar keltirish qo'llanilmasa, u holda buning sabablari ochib berilishi kerak.

Ba'zi hollarda hisobot tuzilgandan keyin ham unga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Hisob siyosatidagi o'zgartirishlar belgilangan tartibda ko'zda tutilgan hollardagina yoki o'zgartirishlar xo'jalik yurituvchi su'yektning moliyaviy hisobotlarida axborotni yanada ishonchliroq taqdim etishga ko'maklashsagina ko'rsatilishi mumkin. Hisob siyosatidagi o'zgartirishlar natijasida yuz bergan o'zgarishlar miqdori yil boshidagi taqsimlanmagan foyda saldosi o'zgartirish yo'li

bilan buxgalteriya balansiga yozib qo'yilishi hamda hisobot davridagi sof daromad yoki zararni aniqlashga kiritilishi lozim.

Hisob siyosatidagi o'zgartishlar moliyaviy hisobotni taqdim etishning oldingi davriga nisbatan hisobot davriga muhim ta'sir o'tkazsa yoki kelgusi hisobot davrlariga ta'sir o'tkazadigan bo'lsa, xo'jalik yurituvchi su'yekt tushuntirishlarda quyidagi axborotni ochib berishi lozim.

- o'zgartirishlar sabablari;
- hisobot davridagi va taqdim etilgan oldingi davrlardagi tuzatishlar miqdori;
- joriy davrdagi sof daromad yoki zararda hisobga olingan tuzatish miqdori;
- qiyosiy ma'lumotlarga kiritilgan hisobot davridan oldingi davrlarga oid tuzatishlar miqdori;
- qo'shimcha ma'lumotlar keltirilgan har bir hisobot davriga kiritilgan tuzatishlar miqdori, moliyaviy hisobotlarga kiritilgan davrlardan oldingi davrlar bilan bog'liq tuzatishlar miqdori. Agar qiyosiy axborot kiritilgan bo'lsa yoki qo'shimcha ma'lumot taqdim etish mumkin bo'lmasa, bu holat ham ochib berilishi kerak;
- qayta hisoblangan qiyosiy ma'lumotlar yoki ularni qayta hisoblash maqsadga muvofiq emasligi sabablari.

Xulosa

Hozirgi kunda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni to'ldirishda ko'pgina kamchiliklar mavjud. Bizning fikrimizcha, hozirgi talablardan kelib chiqqan holda foyda va zararlar to'g'risida hisobotda kamida to'rtta ko'rsatkich keltirilishi lozim: yalpi foyda, boshqa muomalalardan ko'rilgan foyda, soliq chiqarib tashlangunga qadar bo'lgan foyda, soliq to'langandan keyingi sof foyda, bundan tashqari realizatsiya hajmi, realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi, foizlar bo'yicha tushumlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Daromad va xarajatlarni taqqoslash orqali qanday ko'rsatkichlar aniqlanadi?
2. «Xarajatlar tarkibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq korxonalarining xo'jalik faoliyati natijasida oladigan daromadlarining guruhlanishini izohlab bering.
3. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda daromadlar olish bilan bog'liq xarajatlarni guruhlab bering.
4. Moliyaviy natijalarni shakllantirishning xalqaro darajada qo'llaniladigan usullarini sanab bering.
5. Yalpi foyda qanday tartibda aniqlanadi?
6. Umumxo'jalik faoliyatini aniqlanishi tartibini tushuntirib bering.
7. Soliq to'langunga qadar foydani aniqlash tartibini tushuntirib bering.
8. Favqulodda foyda va zararlarni aniqlash tartibini izohlab bering.
9. Davr xarajatlariga qanday xarajatlar kiradi?
10. Asosiy faoliyat bilan bog'liq xarajatlarga qanday xarajatlar kiradi.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев А., Қаюмов И. Бухгалтерия ҳисоби. 2-қисм. -Т.: Минхож, 2002.
2. Астахов В.П. Теория бух. учёта Учебное пособие. -М.: ИКЦ МарТ Ростов н/Д, 2004.

3. Байда Т.П. Теория бухгалтерского учёта задачи и ситуации. Учебное пособие -М. Ф и С, 2004
4. [http:// www. accounting. rut gars. Edu](http://www.accounting.rutgers.edu)
5. [http:// www. accounting web. com/](http://www.accountingweb.com/)

4-bob. Asosiy vositalarning harakati to'g'risidagi hisobot

4.1. Asosiy vositalarning harakati to'g'risidagi hisobotning mazmuni va ahamiyati

Korxonalarining ishlab chiqarish jarayonini asosiy vositalarsiz tasavvur qilish qiyin. Chunki ular mehnat unumdorligini oshirishning asosiy manbai, mahsulot sifatining talab darajasida bo'lishini ta'minlovchi omil hisoblanadi.

Ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatchilar o'rtasidagi kurashda asosiy vositalarning tarkibiy qismi hisoblangan zamonaviy texnika va texnologiyalarsiz muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Shu bilan birgalikda zamonaviy takomillashgan asosiy vositalarni amaliyotga qo'llash ilmiy texnika progressining eng so'nggi yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilinishini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida ilm-fan yutuqlarini amaliyotga qo'llash va ular o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirishni ta'minlaydi.

Asosiy vositalar har bir sikldan so'ng ishlab chiqarish sohasini tark etmay, mehnat jarayonida o'z natura ashyoviy shaklini saqlab qolishi bilan tavsiflanadi. Ularning qiymati mahsulotga bir yo'la emas, balki qismlab o'tadi. Ammo shunday mehnat vositalari ham borki, ular o'z iqtisodiy mazmuniga ko'ra mehnat quroli hisoblanadi. Biroq asosiy vositalar tarkibiga kirmaydi, balki aylanma mablag'lar tarkibida hisobga olinadi. Asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga qarab ularni asosiy vositalarning aktiv va passiv qismlarga ajratiladi. Asosiy vositalarning aktiv qismiga mashina va uskunalar (kuch hamda ishchi mashina va uskunalar, o'lchov hamda to'g'rilash asboblari va qurilmalari, laboratoriya uskunalari, hisoblash texnikasi, boshqa mashina va uskunalar), shuningdek transport vositalari kiritiladi.

Asosiy vositalarning aktiv qismini aniqlashda ularning mahsulot hajmining o'sishiga, mehnat unumdorligining ortishiga bevosita ta'sir etishini ham e'tiborga olish lozim. Asosiy vositalarning passiv qismi ishlab chiqarish jarayoni uchun sharoit yaratuvchi ishlab chiqarishning infratuzilmasining binolari va inshootlarini o'z ichiga oladi.

Moliyaviy hisobotdan ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun korxonaning asosiy vositalarining tarkibi ularning ish holati va umumiy qiymati muhim ahamiyatga ega. Bu ma'lumotlar korxonaning moliyaviy hisobot tarkibiga kiritiladigan «Asosiy vositalarning harakati to'g'risidagi hisobot»da o'z aksini topadi. «Asosiy vositalarning harakati to'g'risidagi hisobot»ning asosiy vazifasi 1-sonli BHMA «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot»ning 86-bandida quyidagilar yozilgan: «Ushbu hisobot asosiy vositalarning harakati hamda ularning eskirishini hisoblash to'g'risida qo'shimcha axborot beradi. Shuningdek, unda ijaraga berilgan yoki olingan asosiy vositalar to'g'risida ham axborot beradi».

3-«Asosiy vositalarning harakati to'g'risida hisobot» asosida asosiy vositalarni yalpisiga emas, balki ularning turlari bo'yicha holatini, shuningdek, ta'minlangan va foydalanish samaradorligini mufassal tahlil qilish imkonini beradi. Hisobotning mazkur shaklida asosiy vositalarning har bir turi bo'yicha dastlabki qiymati, eskirishi va qoldiq qiymati, shuningdek ularning yil boshidagi qiymati, qancha kelib tushgani

va chiqib ketganligi, yil oxiriga qoldig'i ko'rsatiladi. Hisobot oxirida ular ishlab chiqarish va noishlab chiqarishdagi asosiy vositalarga bo'lingan. Ma'lumot tariqasida asosiy vositalar turlari bo'yicha qaysi mablag'lar hisobiga olinganligi, qancha asosiy vositalar ijaraga olingan va berilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ushbu hisobot ma'lumotlari asosida asosiy vositalar holatini ifodalovchi quyidagi ko'rsatkichlar aniqlanadi: eskirish, yaroqsizlik, yangilanish, chiqib ketish koeffitsiyentlari, asosiy vositalar tarkibi, ularning umumiy va asosiy vositalar turlari bo'yicha o'sish summasi kiritiladi. Asosiy vositalarning harakati to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari korxonaning asosiy vositalari bilan ta'minlanganligini mehnatning mexanizatsiyalashganlik darajasi, ishlab chiqarish jarayonining mexanizatsiyalashganlik darajasi kabi ko'rsatkichlarini hisoblashda ham foydalaniladi. Asosiy vositalarni foydalanish samaradorligining mezonlaridan ko'riladigan foyda (samara)dir. Buni tavsiflovchi ko'rsatkichlar qatoriga fondning rentabelligi; asbob-uskunalar unumdorligi kabi ko'rsatkichlar kiritiladi va ular ushbu hisobot ma'lumotlari asosida hisoblanadi.

4.2. Asosiy vositalarning harakati to'g'risidagi hisobotning me'yoriy asoslari

Asosiy vositalarning harakati to'g'risidagi hisobot ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan ko'rsatkichlarni o'zida mujassam qiladi. Ushbu hisobot ko'rsatkichlarining ahamiyatini e'tiborga olgan holda uni tartibga solish qator huquqiy va me'yoriy hujjatlar bilan amalga oshiriladi.

Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobotning sifatida O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni alohida ahamiyatga ega.

Ushbu qonunning 16-moddasida moliyaviy hisobot «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»ni ham o'z ichiga olishi belgilab qo'yilgan.

Ushbu hisobotning huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomni keltirish mumkin. Ushbu Nizom «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobotni» tartibga solish bevosita aloqador bo'lmasada, u asosiy vositalarni saqlash, ishlatish va ta'mirlash xarajatlarini ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga kiritish, shuningdek asosiy vositalarning chiqib ketishi bilan bog'liq muomalalarning moliyaviy natijalarda aks ettirish uslubiyati belgilab berilgan. Shu bilan birgalikda asosiy vositalarning eskirish xarajatlari, nizomga olingan asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiya xarajatlari talabi ham belgilangan.

Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobotning navbatdagi huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasining «Soliq Kodeksi», O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 23-moddasida asosiy vositalarning amortizatsiya normalari keltirilgan. Ushbu moddaga asosan barcha asosiy vositalar beshta guruhga bo'lingan va ularning har bir guruhi uchun alohida amortizatsiya normalari belgilangan. Shu bilan birgalikda ushbu moddada amortizatsiya hisoblash tartibi ham tushuntirib berilgan. Shuningdek, nizomga olingan asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash qoidalari

belgilab berilgan. Bularning barchasi korxonalarda «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»ni tuzish uchun zarur ma'lumotlarni shakllantirishni belgilab beradi. Ushbu hisobotning me'yori asosi sifatida O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan «Buxgalteriya hisobining milliy standartlari» hisoblanadi. Ular jumlasiga quyidagi «BHMA»larni kiritish mumkin:

1-BHMA «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot»;

5-BHMA «Asosiy vositalar»;

21-BHMA «Xo'jalik yurituvchi su'yektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma»;

22-BHMA «Chet el valutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi».

1-BHMA «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot»ning 12-bandida moliyaviy hisobotning tarkibi belgilangan bo'lib, unda «asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot» 3-shakl tuzilish belgilab berilgan. Shuningdek, uning 14-bandida moliyaviy hisobot shakllari ko'rsatkichlarining ochib berilishi belgilangan bo'lib, bu vosita moliyaviy hisobotning uchinchi shakli bo'lgan «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»ga ham belgilangandir. Shu bilan birgalikda ushbu «BHMA»ning 60, 61-bandlarida hisobotning davri va hisobot sanasi belgilab berilgan bo'lib, uni taqsim qilish 62-band bilan tartibga solindi.

«Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot» uchun zarur ma'lumotlarni buxgalteriya hisobi schyotlarida shakllantirishda 5-BHMA «Asosiy vositalar» alohida o'rin tutadi. Chunki asosiy vositalar hisobini yuritish asosan ushbu hisobot bilan tartibga solinadi. Unda «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot» uchun zarur bo'lgan ma'luotlarning yechimi berilgan:

-asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun qo'yiladigan mezonlar;

-asosiy vositalar dastlabki qiymatini shakllantiruvchi xarajatlar tarkibi;

-asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash usullari;

-asosiy vositalarni qayta baholash.

Ushbu masalalarining yechimlari korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni tartibga soladi va hisobot tuzish uchun kerakli ma'lumotlarni yig'ish imkonini beradi.

«Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»ni tuzishda 21-BHMA «Xo'jalik yurituvchi su'yektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma» alohida ahamiyatga ega. Chunki, 21-BHMA asosiy vositalar hisobida yo'naltirilgan schyotlar va ularning funksiyasi aniq belgilab berilgan. Hisobotda keltirilgan ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun alohida schyotlar tayinlangan. Ushbu standart asosida «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»ni tuzish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar shakllantiriladi:

boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati;

yig'ilgan amortizatsiya miqdori;

qoldiq qiymati.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar buxgalteriya hisobining alohida schyotlari ma'lumotlari asosida aniqlanadi. Shuningdek, har bir ko'rsatkich bo'yicha bir necha zarur ko'rsatkichlar ham alohida hisobga olinadi. Masalan, asosiy vositalarning

boshlang'ich qiymati yil boshiga va yil oxiriga alohida hisobga olish imkoniyati ta'minlanadi. Shu bilan birgalikda yil davomida kelib tushgan asosiy vositalarning dastlabki qiymati yoki yil davomida chiqib ketgan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati ham alohida hisobga olinadi. Ular hisobot tuzish uchun zarur ma'lumotlar hisoblanadi. Korxonalar o'zlari uchun zarur asosiy vositalarni xorijiy mamlakatlardan sotib oladilar. Bunday xo'jalik muomalalari asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki xarajatlar tarkibi turlicha bo'lishi bilan birgalikda ular chet el valutasiga sotib olinganligi, shuningdek asosiy vositalarni qabul qilish sanasi va ularning qiymatini xorijiy mol yetkazib beruvchiga to'lash sanasiga quyidagi farqlar vujudga keladi. Bularning barchasi «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»da o'z aksini topishi zarur. Bunday muomalalarning buxgalteriya hisobi 22-BHMA «Chet el valutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi»da belgilab berilgan.

«Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot» tuzishda O'zbekiston Moliya vazirligida 2002 yil 27 dekabrda tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2003 yil 24 yanvarda ro'yxatga olingan «Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidalar» alohida ahamiyatga ega. Ushbu qoidalarning 125, 137-bandlari «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»ni tuzish bo'yicha ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Unda hisobotni har bir moddasini tuzish uchun zarur majburiyatlarni aniqlash alohida qoidalari belgilab berilgan.

4.3. Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot agregatlari va ularning mazmuni

Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobotning 010-190 satrlarida ularning mazmunini ifodalovchi ko'rsatkichlar keltirilgan. Ushbu hisobotning 010-160 satrlaridagi ko'rsatkichlar 21-BHMAda keltirilgan asosiy vositalar tasnifiga mos keladi. Qolgan ko'rsatkichlarni buxgalteriya hisobi schyotlaridan jamlash yo'li bilan olinadi.

Hisobotning «yer» ko'rsatkichi korxonaga qonunchilikka muvofiq mulk sifatida berilgan yer maydonlarini bildiradi. O'zbekiston Respublikasi «Yer Kodeksi»ning 17-moddasiga binoan, «yuridik shaxslar yer kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lishlari mumkin».

«Yerni obodonlashtirish, yer maydonlari tuzilishini o'zgartirish, yo'llarni qurish, avtomobillar va boshqa transport vositalari uchun saqlash joylari, devorlar va boshqa inshootlarni qurish bilan bog'liq muomalalarning natijasi aks ettiriladi.

Yer maydonlari, o'rmonzor va suv havzalariga, ko'p yillik daraxtzorlarga sarflangan kapital qo'yilmalar barcha obodonlashtirish ishlari tugatilishidan qat'iy nazar foydalanishga qabul qilingan maydonlarga tegishli xarajatlar sifatida asosiy vositalar tarkibiga qabul qilinadi.

Respublikamizda hozirgi bozor munosabatlari sharoitida yerning asosiy vositalar tarkibiga kiritilishi uning muayyan qiymatiga ega ekanligidan dalolat beradi.

«Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish» ko'rsatkichiga uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha ijaraga olingan mulkni obodonlashtirish bilan bog'liq kapital xarajatlar, shuningdek, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish xarajatlari ham aks ettiriladi.

Hisobotning bino ko'rsatkichida ishlab chiqarish korpuslari, sexlar, ustaxonalar, boshqarma binolari, turar-joy binolari va boshqa ishlab chiqarish, ma'muriy-xo'jalik va ijtimoiy-maishiy maqsadlar ob'yektlari ko'rsatiladi. Inshootlar ko'rsatkichida ishlab chiqarish jarayonlarining texnikaviy yoki umumiy vazifalarini bajarishga xizmat qiladigan ob'yektlari-avtomobil yo'llari, ko'priklar, osma yo'llar, suv omborlari, neft va gaz quduqlari, shaxta quduqlari va boshqalarning qiymati ko'rsatiladi.

Uzatuvchi moslamalar tarkibiga mashina, dvigateldan ish mashinalariga elektr, issiqlik, mexanik energiyani uzatishga, shuningdek suyuq va gazsimon moddalarni bir ob'yektdan boshqa ob'yektga o'tkazib berishga xizmat qiladigan qurilmalar (elektr o'tkazish yo'llari, quvur yo'llari, issiqlik va gaz tarmog'i hamda boshqalar) kiradi.

Mashina va uskunalar tarkibi ancha murakkab bo'lib, ularni quyidagi guruhlariga ajratiladi:

-kuch mashina va jihozlari elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqaradigan yoki uni mexanik harakat energiyasiga aylantirib beradigan generator-mashinalar, dvigatel mashinalar (qozonxonalar, bug' dvigatellari, turbinalar, kuch transformatorlari va boshqalar)dir;

-ish mashinalari va jihozlari mehnat predmetlariga mexanik, termik, kimyoviy yoki boshqa yo'sinda texnologik ishlov berishga, ularni ishlab chiqarish jarayonida qo'zg'atish, qazib olish, eritish, tayyorlashga xizmat qiladigan qurilmalar (stanoklar, apparatlar, agregatlar)dir;

-o'lchash va boshqaruv asboblari hamda qurilmalari va laboratoriya jihozlari foydalaniladigan texnika ishida turli parametr (ko'rsatkich)larni o'lchash, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish, xom ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlar sifatini tekshirish, namlik darajasi, shovqin ta'siri va boshqalarni o'lchashda ishlatiladi. Ularga monometrlar, tarozilar, mikroskoplar, dispetcherlik nazorati asboblari va boshqalar kiradi;

Boshqa mashina va jihozlarga yuqoridagi guruhlariga kiritilmagan mashina va jihozlar hisobga olinadi. «Mebel va ofis jihozlari» tarkibida ishlab chiqarish va boshqaruv uchun mo'ljallangan mebel va jihozlar (stollar, shkaflar, mebel yig'implari, kreslo, temir seyflar va boshqalar). Shuningdek, ofis jihozlari (telefaks apparati, qog'oz qirqadigan va yo'q qiladigan mashinalar va boshqalar) aks ettiriladi.

«Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi» ko'rsatkichida kompyuterlar, printerlar, skanerlar, modem va boshqa kompyuter jihozlari hamda hisoblash texnikalari hisobga olinadi.

Transport vositalari ko'rsatkichida passajirlar maqsadlaridagi narsalarni tashishga mo'ljallangan harakat vositalari (temir yo'l, suv, avtomobil, kommunal transport iva muhim neft quvur yo'llari)ning qiymati o'z aksini topadi.

Hisobotning «Ishchi hayvonlar ko'rsatkichida ishchi kuchi sifatida foydalanadigan otlar, xo'rozlar, tuyalar, xachir va eshaklar va boshqa transport vositasi sifatida foydalaniladigan ishchi hayvonlarning qiymati ko'rsatiladi.

Mahsuldor hayvonlar tarkibida mahsulot beradigan qishloq xo'jaligi mollari-sigirlar, biyalar, tuyalar, qo'ylar, echkilar va boshqa hayvonlar hisobga olinadi.

Ko'p yillik o'simliklar ko'rsatkichi bog'lar, uzumzorlar va boshqa mevali bog'lar, shuningdek ko'kalamzorlashtirish, dekoratsiya yashil devorlar hamda boshqa ko'p yillik o'simliklarning qiymatini aks ettiradi.

«Boshqa asosiy vositalar» tarkibida yuqoridagi ko'rsatkichlarga kiritilmagan asosiy vositalar hisobga olinadi.

«Konservatsiya qilingan asosiy vositalar» ko'rsatkichida qonunchilikda o'rnatilgan tartibda konservatsiya qilingan asosiy vositalar hisobga olinadi.

Hisobotda «Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing)ga olingan asosiy vositalar» ko'rsatkichida korxonada uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalar qiymati aks ettiriladi.

Jami asosiy vositalar ko'rsatkichida 010-160 satrlardagi yoki yuqorida keltirilgan barcha ko'rsatkichlarning yig'indisi o'z aksini topadi.

Hisobotda korxonaning asosiy vositalari ishlab chiqarishga mansub va noishlab chiqarishga mansub va noishlab chiqarishga tegishli asosiy vositalarga guruhlangan holda ko'rsatilishi lozim. Buning uchun «Ishlab chiqarish» (171-satr) va «noishlab chiqarish» (172-satr) ko'rsatkichlari tayinlangan.

Shu bilan birgalikda hisobotda ma'lumot uchun «yil davomida sotib olingan asosiy vositalar» jami (180-satr) ko'rsatkichi mavjud bo'lib, u quyidagi ko'rsatkichlarning yig'indisi sifatida ko'rsatiladi:

- o'z mablag'lari hisobiga (181-satr);
- bank krediti hisobiga (182-satr);
- boshqa qarzga olingan mablag'lar hisobiga (183-satr).

Ushbu ko'rsatkichlarning yig'indisi yil davomida korxonada sotib olgan asosiy vositalarning qiymati to'g'risida ma'lumot beradi.

Hisobotda «Tugallanmagan qurilish» ko'rsatkichi ham mavjud bo'lib, unda yil davomida tugallanmagan kapital qurilish (pudrat yoki xo'jalik usulida amalga oshirilishidan qat'iy nazar) xarajatlari hisobga olinadi. Bu ko'rsatkich titulli, ya'ni kelgusida asosiy vositalar tarkibida hisobga olinadigan binolar, imoratlar, inshootlar va boshqalarni qurish bilan bog'liq kapital qo'yilmalar hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar to'g'risida ma'lumot beradi.

4.4. Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobotni tuzish olididan o'tkaziladigan hisob ishlari

Korxonalar yillik hisobotni tuzishdan oldin hisob-kitoblarni aniqlashtirish bilan bog'liq qator tadbirlarni amalga oshiradilar. Ushbu tadbirlarning ayrimlari «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»ni tuzishga bevosita aloqador hisoblanadi. Ushbu tadbirlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- korxonaning asosiy vositalarini inventarizatsiya qilish;
- asosiy vositalarni qayta baholash;

-hisobot davrida kelib tushgan asosiy vositalar boshlang'ich qiymatini shakllanishi bilan bog'liq muomalalarni aniqligini tekshirish;

-hisobot davrida chiqib ketgan asosiy vositalar boshlang'ich qiymati va eskirishining to'g'ri hisobdan chiqarilganligini tekshirish;

-tugallanmagan qurilish qiymatining to'g'riligini aniqlash.

Korxonaning asosiy vositalarini inventarizatsiya qilish 19-BHMA «Inventarizatsiyani tashkil qilish va o'tkazish»ga asosan amalga oshiriladi.

Ushbu standartga muvofiq asosiy vositalarning inventarizatsiyasi quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

asosiy vositalar-yilda 1 marta, 1 oktabrdan keyin;

imorat, muqim turgan ob'yektlar 2-3 yilda 1 marta;

kutubxona fondi-5 yilda 1 marta;

kapital qo'yilmalar yilda 1 marta, 1 dekabrda keyin.

Inventarizatsiya natijasining «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot» uchun muhimligini quyidagilar bilan bog'lash mumkin:

asosiy vositalarning haqiqatan mavjudligi tasdiqlanadi;

ishlatishga yaroqsiz va ta'mirga muhtoj asosiy vositalar aniqlanadi;

haqiqatda mavjud ammo asosiy vositalar tarkibida hisobga olinmagan ob'yektlar aniqlanadi va ularning kirimi ta'minlanadi.

«Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot» uchun muhim tadbirlardan biri asosiy vositalarni qayta baholash hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 31 dekabrda 490-sonli «Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining 2002 yilgi parametrlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq barcha xo'jalik yurituvchi su'yektlar mulkchilik shaklidan qat'iy nazar har yili 1 yanvar holatiga asosiy vositalar qiymatini joriy bahoga keltirish uchun qayta baholashni amalga oshiradilar.

Qayta baholash natijasida asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati o'zgaradi. Shu bilan birgalikda ularning eskirish summasi ham o'zgaradi.

Qayta baholash natijasida asosiy vositalar boshlang'ich qiymatining ko'payishi korxonaning «Rezerv kapitali» tarkibida 8510 «Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» schyotining kreditida hisobga olinadi va tuzatish summalariga asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar debetlanadi.

Shu bilan birgalikda eskirish summasiga ham o'zgartirishlar qilinadi. Qayta baholash natijasida eskirish summasining o'zgarishi «Rezerv kapitali» tarkibida hisobga olinadi.

Qayta baholash natijasida asosiy vositalar summasi o'ssa, eskirish summasi ham o'sadi. Aksincha kamaysa, u eskirish summasi ham kamayadi. Qayta baholash natijasida asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatlarining to'g'riligini aniqlashtirish jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda asosiy vositalarni qayta baholash natijalarini «Rezerv kapitali» va «Asosiy vositalar»ni hisobga oluvchi schyotlarda aks ettirilishi tekshiriladi.

Ikkinchi bosqichda qayta baholash natijasida asosiy vositalar eskirishining «Rezerv kapitali» va «Asosiy vositalar»ni hisobga oluvchi schyotlarda to'g'ri aks ettirilganligi tekshiriladi.

Hisobot davrida turli sabablarga ko'ra asosiy vositalar korxonadan (uning balansidan) chiqib ketadi. Natijada asosiy vositalar va ularning eskirishini hisobga oluvchi schyotlarning qoldiqlarida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu o'zgarishlar «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»da o'z aksini topadi. Shuning uchun ham bu o'zgarishlarning buxgalteriya hisobi schyotlarida to'g'ri aks ettirilganligi tekshirilishi lozim. Buning uchun asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati va eskirish summalarining hisobdan chiqarilishi ularning har biri bo'yicha alohida tekshirib ko'rilishi lozim.

Korxonalar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun asosiy vositalarni yangilashga alohida e'tibor qaratadilar. Yil davomida kelib tushgan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati va ularga hisoblangan eskirish summolari «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»da o'z aksini topadi. Bu ma'lumotlarning to'g'riligini aniqlashtirish uchun eng avvalo kelib tushgan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatining to'g'ri shakllantirilganligi aniqlashtirilishi lozim. Shuningdek, yangidan kelib tushgan asosiy vositalarga hisoblangan eskirish summalarining to'g'ri hisoblanganligi tekshirilishi zarur. Bunda eng avvalo amortizatsiya normalarining to'g'ri belgilanganligi hamda amortizatsiya hisoblash sanasining to'g'ri belgilanganligiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Korxonalar faoliyatini rivojlantirishda kapital qurilish alohida ahamiyatga ega. Kapital qurilish qaysi usulda olib borilishidan qat'iy nazar yil oxirida uning tugallanmagan qismi uchun sarflangan xarajat qiymati aniqlanishi zarur. Agar qurilish pudrat usulida olib borilsa, tugallanmagan qurilish qiymati korxonada tomonidan to'langan summada hisobga olinadi. Qurilish xo'jalik usulida olib borilganda yil davomida haqiqatda sarflangan xarajatlarning summasidan tashkil topadi.

«Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»ni oldin amalga oshiriladigan hisob-kitob ishlarining to'g'ri tashkil qilinishi va sifatli amalga oshirilishi hisobot ko'rsatkichlarining to'g'riligi, haqqoniyliigi va ob'yektivligini ta'minlab beradi.

4.5. Asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga kiritish tartibi

Asosiy vositalarning harakati to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarining haqiqiyliigi va aniqligi ko'p jihatdan boshlang'ich (qayta tiklash) qiymat va yig'ilgan amortizatsiya (eskirish) miqdori summalarining to'g'ri aniqlanishiga bog'liq. Ma'lumki, ushbu ma'lumotlarning manbai korxonada yuritiladigan buxgalteriya hisobi schyotlari hisoblanadi.

Hisobotda boshlang'ich (qayta tiklash) qiymat to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi to'rtta ko'rsatkichni o'z ichiga oladi:

- yil boshiga qoldiq;
- yil davomida kelib tushgan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati;
- yil davomida chiqib ketgan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati;
- yil oxiriga qoldiq.

Asosiy vositalarning yil boshiga boshlang'ich qoldiq qiymati hisobotining 3-xonasida o'z aksini topadi va uni to'ldirish uchun ma'lumotlar asosiy vositalarni hisobga oluvchi quyidagi schyotlardan olinadi:

0110-«Yer»;

0111-«Yerni obodonlashtirish»;

0112-«Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish»;

0120-«Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar»;

0130-«Mashina va asbob-uskunalar»;

0140-«Mebel va ofis jihozlari»;

0150-«Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi»;

0160-«Transport vositalari»;

0170-«Ishchi va mahsuldor hayvonlar»;

0180-«Ko'p yillik o'simliklar»;

0190-«Boshqa asosiy vositalar»;

0199-«Konservatsiya qilingan asosiy vositalar».

Asosiy vositalarning yil boshida boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati joriy yilda tuzilgan korxonalarda ko'rsatilmaydi. Oldingi yillardan faoliyat yuritib kelayotgan korxonalarda esa ushbu ko'rsatkich oldingi yilning hisobotidan, ya'ni asosiy vositalarning yilning oxirgi kuniga bo'lgan boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati ko'rsatiladi.

Ammo hisobotning 3-xonasini to'ldirishdan oldin asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlarning sintetik va analitik schyotlari ma'lumotlari sinchiklab tekshirilishi hamda ularning ma'lumotlarining bir-biriga mos kelishi aniqlanishi lozim. Shundan so'ng yuqoridagi keltirilgan 0110 – 0199 schyotlarining yil boshiga bo'lgan qoldig'i bilan oldingi yil hisobotining yil oxiriga bo'lgan ma'lumotlari mustahkamlanishi lozim. Ular bir-biriga mos kelsa va hech qanday farq aniqlanmasa, bu ma'lumotlarni joriy yil hisobotining 3-xonasiga o'tkazish mumkin. Umuman ushbu hisobot shaklining 3-xonasi to'ldirish uchun zarur ma'lumotlarni tayyorlash jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqichda asosiy vositalarning har biri uchun yuritiladigan hisob kartochkalari ma'lumotlari analitik hisob ma'lumotlariga mos kelishi tekshiriladi. Chunki korxonalarda hisob kartochkasi har bir asosiy vosita uchun alohida kiritilsa, analitik hisob asosiy vositalarning hisob kartochkalari ma'lumotlari bilan analitik hisob ma'lumotlarining bir-biriga mosligi tekshirilishi lozim.

2-bosqichda analitik hisob ma'lumotlari bilan asosiy vositalarning har bir guruhi uchun ochilgan su'yektlar ma'lumotlari tekshirilishi lozim. Uchinchi bosqichda esa su'yektlarning yil boshiga qoldiq summasi bilan o'tgan yil hisobotining yil oxiriga bo'lgan boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati taqqoslanadi. Ularning tengligi ta'minlansa, bu ma'lumotlarni hisobotga kiritish mumkin.

Joriy yilda kelib tushgan asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati hisobotning 4-xonasida ko'rsatiladi. Yil mobaynida kelib tushgan asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatini hisobotga kiritishdan oldin ushbu ma'lumotlarning haqiqiyliigi va aniqligi tekshirib ko'rilishi lozim. Ma'lumotlarni tekshirish jarayonida asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratilishi lozim.

Yil davomida kelib tushgan asosiy vositalarni aniqlash va ularning hisob kartochkalarini alohida guruhlash; asosiy vositalarning qaysi manbadan kelib tushayotganligi va ularning yangiligi yoki ilgari ishlatilganligini aniqlash mobaynida kelib tushgan asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatining to'g'ri aniqlanganligini tekshirish;

Yil davomida kelib tushgan asosiy vositalarni aniqlash uchun asosiy vositalarning hisob kartochkalari asosida ularning ro'yxati tuziladi. Shundan so'ng ro'yxat ma'lumotlari asosiy vositalarning analitik hisobi bilan taqqoslanadi. Ular bir-biriga mos kelsa yil davomida kelib tushgan asosiy vositalar to'liq kiringga olinganligini bildiradi.

Asosiy vositalarning qaysi manbadan kelib tushganligi va ularning yangiligi yoki ishlatilganligini ta'minlashda alohida ahamiyatga ega. Chunki korxonada asosiy vositalarning mol yuboruvchilardan sotib olishi (traktor, mashina va boshqalar) pudratchi korxonalariga buyurtma berish asosida yoki xo'jalik usulida barpo qilinishi (binolar, inshootlar va boshqalar) mumkin. Korxonada ta'mirlari ustav kapitaliga ulush sifatida qo'yishi, shuningdek boshqa tashkilotlardan qonunga belgilangan tartibda bepul olishi mumkin. Bu ma'lumotlar asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatining to'g'riligini tekshirishda alohida ahamiyatga ega. Asosiy vositalar mol yuboruvchilardan xarid qilinganida va pudratchilar tomonidan barpo qilinganda boshlang'ich qiymatni tashkil qiluvchi xarajatlar ularga to'langan va boshqa ishlatishga tayyorlash (olib kelish, o'rnatish, sinash va boshqalar) bilan bog'liq xarajatlardan tashkil topadi. Xo'jalik usulida qurilgan yoki barpo qilingan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini tashkil qiluvchi xarajatlar tarkibi pudrat usulidagidan farq qiladi. Chunki bunda asosiy xarajatlar ish haqi, materiallar sarfi, o'rnatiladigan asbob-uskunalar qiymati, asosiy vositalarning amortizatsiya kabi xarajatlardan tashkil topadi. Shuning uchun ham asosiy e'tiborni boshlang'ich qiymatni tashkil qiluvchi ushbu harajatlarning to'g'ri olib borilganligiga qaratish lozim. Shu bilan birgalikda asosiy vositalar tarkibiga o'tkazilayotgan ob'yektlarni topshirish va qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar ma'lumotlarini ularning hisobvaraqlari ma'lumotlariga mos kelishini tekshirish lozim. Shundan so'ng yil davomida kelib tushgan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini topshirish yuqorida qayd qilingan uchta bosqichda amalga oshiriladi.

Asosiy vositalar yil davomida ta'sischi tomonidan hissa tariqasida korxonaga berilganda, uning boshlang'ich qiymatini to'g'riligini tekshirishda ta'sis shartnomalari va asosiy vositalarning qaysi usulda baholanganligiga e'tibor qaratishi lozim. Ular huquqiy va me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartib va qoidalarga mos kelgan taqdirda ushbu ko'rsatkichlarni hisobga kiritish mumkin. Asosiy vositalar bepul olinganda ham ularning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatining to'g'riligini tekshirish boshlang'ich xujjatlar (dalolatnoma, buyruq, farmoyish, qaror va boshqalar) va ularni 1 kg baholanishini rasmiylashtiruvchi ma'lumotlar bilan taqqoslangan holda tekshiriladi. Ushbu ma'lumotlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilganidan so'ng hisobotning turishi holida aks ettiriladi.

Hisobotning 5-xonasida joriy yil davomida asosiy vositalarning hisobdan chiqarilgan umumiy summasi o'z aksini topadi. Asosiy vositalar korxonada balansidan turli sabablarga ko'ra, ya'ni ortiqcha va foydalanilayotgan su'yekt asosiy

vositalarining sotilishi, aylanma mablag'lar guruhiga o'tkazilishi, boshqa korxonalar, tashkilot va muassasalarga tekinga berishi, foydalanish uchun yaroqsiz holga kelib qolishi, to'la eskirishi, tabiiy ofat va halokatga uchrashi va boshqa sabablarga chiqib ketadi. Asosiy vositalar chiqib ketayotganlarga ular boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha hisobdan o'chiriladi. Ushbu ma'lumotlarning to'g'riligi dastlabki, analitik va sintetik schyotlar ma'lumotlarining o'zaro bog'liqligini tekshirish orqali aniqlanadi. Ularning to'g'riligiga ishonch hosil qilingach ushbu ma'lumotlar hisobga kiritiladi.

Hisobotning 6-xonasi asosiy vositalar boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatining yil oxiriga qoldiq summasini aniqlash uchun asosiy vositalarning yil boshi qoldig'iga yil davomida kelib tushgan asosiy vositalar boshlang'ich qiymati qo'shiladi va yil davomida chiqib ketgan asosiy vositalar qiymati ayirib tashlanadi.

Shunday qilib, asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarning haqiqiyliги va to'g'riligi aniqlanadi hamda xisobga kiritiladi.

4.6. Asosiy vositalarning yig'ilgan amortizatsiya (eskirish) miqdori va qoldiq qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarning hisobotga kiritish tartibi

Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobotni to'ldirish uchun yig'ilgan amortizatsiya (eskirish) miqdori va qoldiq qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar talab qilinadi. Bu to'g'risidagi ma'lumotlarni asosiy vositalarning har bir turi bo'yicha yig'ilishi va ularning to'g'riligiga ishonch hosil qilishgandan so'ng xisobotga kiritiladi.

Yig'ilgan amortizatsiya to'g'risidagi ma'lumotlar hisobotning 7, 8, 9 va 10-xonalarida quyidagi ko'rsatkichlarga bo'lingan holda ko'rsatiladi;

- yil boshiga qoldiq (7-xona);
- yil davomida kelib tushgan (8-xona);
- yil davomida chiqib ketgan (9-xona);
- yil oxiriga qoldiq (10-xona).

Qoldiq qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar esa hisobotning 11- va 12-xonalarida ko'rsatiladi. Hisobotning 11-xonasida korxonada mavjud asosiy vositalarning yil boshiga bo'lgan qoldig'i ko'rsatiladi. Asosiy vositalarning yil oxiriga bo'lgan qoldiq summasi 12-xonada aks ettiriladi.

Asosiy vositalarning yig'ilgan amortizatsiyasi (eskirishi)ning yil boshiga qoldiq summasini aniqlash uchun buxgalteriya hisobi va dastlabki hisob ma'lumotlarining o'zaro mos kelishi tekshirilishi lozim. Buning uchun tekshirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi dastlabki hisob ma'lumotlari bilan analitik hisob ma'lumotlarining mosligi, haqiqiyliги va to'g'riligi tekshiriladi. Buning uchun asosiy vositalarning hisob ko'rsatkichlarida eskirish to'g'risidagi ma'lumotlar buxgalteriya hisobining analitik hisobi ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

Ikkinchi bosqichda asosiy vositalar eskirishining analitik va subschyotlari ma'lumotlari taqqoslanadi. Asosiy vositalar eskirishini hisobga oluvchi subschyotlar

hisobotda keltirilgan asosiy vositalarning guruhlariga mos keladi. Har bir guruhga kiruvchi asosiy vositalarning alohida turlari bo'yicha analitik hisob yuritiladi. Shuning uchun ham har bir guruhga kiruvchi asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi analitik schyotlarning yig'indisi eskirishni hisobga oluvchi subschyotlarning summasiga teng bo'lishi lozim. Ularning mosligi ta'minlansa yig'ilgan amortizatsiya to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobotning 7-xonasiga kiritish mumkin.

Hisobotning 8-xonasida yil davomida har xil manbalardan kelib tushgan asosiy vositalarning yig'ilgan amortizatsiya summasi ko'rsatiladi. Bunda asosiy vositalar qiymatining ko'payishi tufayli qo'shimcha hisoblanadigan eskirish miqdori, ilgari hisobga olinmagan eskirish miqdorlari va ishlatishda bo'lgan asosiy vositalarning eskirish summalarining miqdorlari kiradi. Yil davomida kelib tushgan asosiy vositalarni hisoblangan eskirish summasi to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirishda 7-xonani to'ldirish uchun zarur ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirishdagi usullar qo'llaniladi. Ma'lumotlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilingandan so'ng ular hisobga kiritiladi.

Asosiy vositalarning harakati to'g'risidagi hisobotning 9-xonasidan tugatilgan, sotilgan va boshqa yo'llar bilan korxonadan chiqib ketgan asosiy vositalar eskirishi ko'rsatiladi. Bu ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirishi uchun korxonadan chiqib ketgan asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi dastlabki hujjatlar, shuningdek, ularning chiqib ketish xatida tuzilgan dastlabki hujjatlar (qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, asosiy vositalarning tugatish dalolatnomalari, sotish to'g'risidagi shartnomalar va hokazolar), chiqib ketgan asosiy vositalarning analitik va subschyotlari ma'lumotlari o'rganiladi. Chiqib ketayotgan asosiy vositalarning yig'ilgan amortizatsiya (eskirishi) summasi 0200-«Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlarning» debeti va 9240-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqa sabablarga ko'ra chiqib ketishi» schyotining kreditida aks ettiriladi. Asosiy e'tiborni ushbu schyotlarning bog'lanishiga qaratish lozim. Chunki asosiy vositalar korxonadan qanday sababga ko'ra chiqib ketishidan qat'iy nazar yuqoridagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi. Shuning uchun ham ushbu buxgalteriya o'tkazmasi bilan rasmiylashtirilgan eskirish summalarining yig'indisi 9-xonada aks ettirilishi lozim.

Hisobotning 10-xonasida yig'ilgan amortizatsiya (eskirish)ning yil oxiriga bo'lgan qoldig'ini aniqlash uchun asosiy vositalar har bir guruhi bo'yicha yig'ilgan amortizatsiyaning yil boshiga qoldiq summasiga yil davomida kelib tushgan asosiy vositalarga hisoblangan eskirish summasi qo'yiladi va yil davomida chiqib ketgan asosiy vositalarning yig'ilgan amortizatsiya summasi ayirib tashlanadi. Bu summa yig'ilgan amortizatsiya miqdorining yil oxiridagi qoldiq summasiga teng bo'ladi. Hisobotning 11-xonasidagi asosiy vositalarining yil boshiga qoldiq summasini aniqlash uchun 0100-«Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar»ning har bir subschyoti (ikkinchi tartibli schyoti)ning debetidagi summasidan 0200-«Asosiy vositalarning eskirishni hisobga oluvchi schyotlar»ning har bir subschyotining kreditidagi summalaridan ayiriladi. Bu summa har bir guruhdagi asosiy vositalarning qoldiq qiymatiga teng bo'ladi. Masalan, 0260-«Transport vositalari eskirishi» subschyotining debet qoldig'i summalaridan, 0260-«Transport vositalarining eskirishi subschyoti»ning kredit qoldig'i summasi o'rtasidagi farq transport vositalarining

qoldiq summasini bildiradi. 11-xona uchun zarur ma'lumotlar 0100 va 0200 schyotlarining yil boshiga bo'lgan qoldig'i summalarini ayirish orqali topiladi. Asosiy vositalarning yil oxiriga qoldig'ini aniqlash uchun esa 0100 va 0200 schyotlarining yil oxiriga bo'lgan qoldiq summolari o'rtasidagi farq summalarini aniqlash orqali topiladi. 0100 schyotining debet qoldig'i har doim 0200 schyotining kredit qoldig'idan katta bo'lishi lozim. Agar qoldiq qiymati 0 ga teng bo'lsa, ushbu korxonaning asosiy vositalari 100 % eskirgan hisoblanadi. Shu bilan birgalikda 11- va 12- xonalarining ma'lumotlarini to'g'riligini tekshirish uchun buxgalteriya balansi (1-shakl) ning «Asosiy vositalarning qoldiq qiymati» yil boshiga va yil oxiriga moddalari summasi bilan ham taqqoslash lozim. Xonalar 11-xonaning ham summasi buxgalteriya bosh balansining asosiy vositalarning yil boshiga qoldiq summasiga 12-xonaning jami summasi esa asosiy vositalarning yil oxiriga qoldiq summasi mos kelishi lozim. Ikkala hisobot shakllari ma'lumotlarning to'g'riligini bildiradi.

Xulosa

Asosiy vositalar harakati to'grisidagi hisobotda yil davomida ta'rischilar tomonidan hissa tariqasida korxonaga berilgan asosiy vositalar ularning qoldik qiymati bo'yicha ma'lumotlar ko'rsatiladi. Ular huquqiy va me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartib va qoidalarga mos kelgan taqdirida ushbu ko'rsatkichlarni hisobga kiritish mumkin.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Asosiy vositalarning harakati to'grisidagi hisobotning mazmuni va ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Asosiy vositalarning harakati to'grisidagi hisobotning me'yoriy asoslarini izohlab bering.
3. Asosiy vositalar harakati to'grisidagi hisobot agregatlari nimalardan tashkil topgan?
4. Asosiy vositalar harakati to'grisidagi hisobotni tuzish oldidan qanday hisob ishlari o'tkaziladi?
5. Asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati to'grisidagi ma'lumotlarni hisobga kiritish tartibini tushuntirib bering.
6. Asosiy vositalarning yig'ilgan amortizatsiya (eskirish)si to'grisidagi ma'lumotlarni hisobotga kiritish tartibini tushuntirib bering.
7. Asosiy vositalar dastlabki hisobi qaysi hujjatlarda aks ettiriladi?
8. Asosiy vositalar to'grisidagi ma'lumotlar qaysi schyotlardan olinadi?
9. Asosiy vositalarni qayta baholash tartibi qaysi organ tomonidan belgilab beriladi?
10. Asosiy vositalar inventarizatsiyasi qanday muddatlarda amalga oshiriladi?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев А., Қаюмов И. Бухгалтерия ҳисоби.: 2-қисм. -Т.: Минхож, 2002.
2. Астахов В.П. Теория бух. учёта Учебное пособие. -М.: ИКЦ МарТ Ростов н/Д, 2004.
3. Байда Т.П. Теория бухгалтерского учёта задачи и ситуации. Учебное пособие -М.:Ф и С, 2004.
4. [http:// www. accounting. rut gars. Edu](http://www.accounting.rutgers.edu)

5-bob. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot

5.1. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning mazmuni va ahamiyati

Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida korxonalar faoliyatini to'g'ri va optimal boshqarish birmuncha murakkab jarayondir. Jumladan, korxonaning pul mablag'lari va pulga tenglashtirilgan qimmatliklari oqimini ratsional boshqarish korxonalar faoliyatining davomiyligini hamda uzluksizligini ta'minlaydi. Ya'ni pul mablag'lari hisobini to'g'ri tashkil etish hamda ularni doimiy ravishda tahlil qilib turish korxonalar faoliyatining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini rivojlanishining xarakterli tomonlaridan biri unda moliyaviy bozorni va uning barcha jabhalarining tez sur'atlar bilan rivojlanayotganligi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotida boshqaruv su'yektlariga faqat axborotga ega bo'lishning o'zi kifoya qilmaydi. Bu axborot bilan ishlash, to'g'ri xulosalar chiqarish va ulardan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish zarur bo'ladi. Korxonalar xo'jalik faoliyatini samarali boshqarishda foydalaniladigan axborotlar manbalariga pul mablag'larining harakati to'g'risidagi ma'lumotlar ham kiradi.

Respublikamiz amaliyotida xo'jalik su'yektlarining pul mablag'lari harakatini aks ettiruvchi moliyaviy hisobot shakli sobiq ittifoq davrida ham, mustaqillikning dastlabki yillarida ham mavjud bo'lmagan. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1997-yil 15-yanvardagi 5-sonli buyrug'i bilan ilk marotaba respublikamiz amaliyotida «Pul oqimlari to'g'risida»gi hisobot shakli amal qila boshladi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot-korxonalar faoliyatining muayyan hisobot davridagi pul mablag'larining holatiga va joriy davrda pul mablag'larining o'zgarishini tavsiflovchi ma'lumotlar olish imkonini beradi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot shakli korxonani samarali boshqarish uchun zarur axborotlarni berish bilan birgalikda tashqi foydalanuvchilar uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni ham shakllantiradi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari investorlar va kreditorlar uchun quyidagi masalalarning yechimini topish uchun nasos bo'ladi:

- kelib tushgan va sarflangan pul mablag'larining tuzilmasi;
- pul mablag'larining kelib tushishi va sarflanishi summasi;
- kelib tushgan va sarflangan pul mablag'lari nisbat koeffitsiyenti (pul mablag'lari oqimi koeffitsiyenti).

«Pul oqimlari to'g'risida»gi hisobot boshqa hisobot shakllari bilan birgalikda korxonaning eng likvid aktivlaridagi o'zgarishlarni, uning moliyaviy tuzilmasini (jumladan, likvidlik va to'lovga layoqatliligini), korxonalarining qiyoslama baholash maqsadida kelgusi pul oqimlarining joriy qiymatini modellashtirish imkonini beradigan doimiy ravishda o'zgaruvchi tashqi va ichki omillar sharoitida pul oqimlari harakatini tartibga solish layoqatini baholash va tushunishga xizmat qiluvchi axborot taqdim etilishini ta'minlaydi.

Xalqaro buxgalterlar assotsiatsiyasi (FASV kengashi) taqdimotiga ko'ra, "Pul mablag'larining harakati to'g'risida"gi hisobotning asosiy maqsadi qilib

kompaniyaning barcha investorlari va kreditorlarini pul mablag'lari harakati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan yetarli darajada ta'minlash.

Xorijlik olimlar B.Nidlz va X.Andersonlarning fikriga ko'ra, pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzishning asosiy maqsadiga quyidagicha tavsif beriladi: «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning asosiy maqsadi bo'lib, hisobot davrida korxonaning pul va pul mablag'larini kirimi va chiqimi to'g'risidagi ma'lumotlarni batafsil aks ettirish" hisoblanadi.

5.2. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning me'yoriy asoslari

«Pul oqimlari to'g'risida»gi hisobotni tuzish va taqdim etish shakli O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni asosida ishlab chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» deb nomlanuvchi 9-sonli O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya Hisobining Milliy Standarti (BHMA) asosida olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasining 9-sonli BHMA ning 3-bandida shunday deyiladi: «Xo'jalik yurituvchi su'yekt ushbu standart talablariga muvofiq ravishda pul oqimi to'g'risidagi hisobot tayyorlaydi va uni har bir hisobot davri uchun tuziladigan moliyaviy hisobotning tarkibiy qismi sifatida taqdim etadi». Ammo hozir amaliyotda qo'llanilayotgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1997-yil 15-yanvardagi 5-sonli buyrug'i orqali tasdiqlangan «Pul oqimlari to'g'risida»gi hisobot shakli, shuningdek 2002-yil 27-dekabrda 140-sonli buyrug'i orqali tasdiqlangan hisobot shakli ham O'zbekiston Respublikasi «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» deb nomlangan 9-sonli BHMAning 2, 4, 14, 15, 26, 27, 28 bandlarida bildirilgan fikrlar bir-biriga mos tushmaydi. Ya'ni 9-sonli BHMAda hisobot 3 ta qismga operatsiya, investitsiya va moliyaviy faoliyatga bo'linishi ko'rsatilgani holda amaldagi hisobotda xo'jalik faoliyati, investitsiya foydasi va moliyaviy xizmat ko'rsatish faoliyati (1997 yilda tasdiqlangan hisobotda mavjud bo'lgan), soliqqa tortish, investitsiya faoliyati va moliyaviy faoliyatga bo'lingan. Bundan ko'rinadiki, «Pul oqimlari to'g'risida»gi hisobot Milliy standart talablariga, jumladan, Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talabiga ham javob bermaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27-dekabrda «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida»gi 140-son buyrug'iga binoan bugungi kunda amalda bo'lgan "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" shaklida hisobot shaklida xo'jalik su'yektlarining to'rt xil faoliyatidan bo'lgan pul oqimlarining tasnifi berilgan. Ya'ni, operatsion faoliyat, investitsiya faoliyati, moliyaviy faoliyat va soliqqa tortish faoliyati.

Biroq, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, respublikamizda amalda bo'lgan "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot"da hisobot davri davomidagi pul oqimlari quyidagi tartibda aks ettirilishi va ular quyidagi shakllarga tasniflanishini lozim deb hisoblaymiz:

- operatsion faoliyat;
- investitsion faoliyati;
- moliyaviy faoliyat.

Korxonalar amaliyotida pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzishda ayrim xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda va uning ko'rsatkichlariga alohida e'tibor

berilayotganligi yo'q. Buning asosiy sabablaridan biri hisobot shaklini mukammal darajada shakllanmaganligi bilan ham bog'liqdir. «Pul oqimlari to'g'risida»gi hisobot (4-shakl) shaklini takomillashtirish yuzasidan rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan «Pul mablag'lari harakati to'g'risida»gi hisobot shaklining tasniflanishi bilan respublikamizda amal qilib kelayotgan «Pul oqimi to'g'risida»gi hisobot shaklining tasniflanishi o'rtasida ma'lum farqlanishlar mavjud. Bunday farqlanishlardan biri respublikamizda qo'llanilayotgan hisobot shaklida «Soliqqa tortish»lar alohida bo'linma sifatida tasniflangan. Vaholanki, rivojlangan mamlakatlarda amal qilinayotgan hisobotda «Soliqqa tortish»lar birinchi bo'linmada, ya'ni xo'jalik faoliyatida pul mablag'larining harakati deb nomlangan bo'linmada aks ettirilgan. Bizning fikrimizcha ham to'langan soliqlar xo'jalik faoliyatida pul mablag'larining harakati deb nomlangan bo'linmada aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki soliqlanishlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra ham xo'jalik faoliyatida aks ettirilishi lozimdir.

O'zbekiston Respublikasining «Valutani tartibga solish to'g'risida»gi Qonunida ta'kidlanishicha, O'zbekiston Respublikasi hududida chet el valutasini sotib olish va sotish bo'yicha operatsiyalar milliy valutaning chet el valutasiga nisbatan chet el valutasiga bo'lgan talab hamda taklifning joriy nisbati asosida shakllanadigan almashuv kursi bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2004-yil 23-martdagi 51-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Chet el valutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi" deb nomlangan 22-son BHMAning 6-bandida esa chet el valutasidagi operatsiyalarga quyidagicha tushuncha berilgan: "Chet el valutasidagi operatsiyalar bo'lib, xo'jalik yurituvchi su'yekt:

- a) mol-mulkni (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy zaxiralar va boshqa aktivlarni) chet el valutasida xarid qiladigan yoki sotadigan;
- b) to'lanadigan yoki olinadigan summalari chet el valutasida belgilanadigan kredit yoki qarz oladigan yoxud taqdim etadigan;
- v) zimmasiga chet el valutasida majburiyat oladigan yoki uni so'ndiradigan hollarda chet el valutasida sodir etiladigan bitimlar hisoblanadi".

Bundan ko'rinadiki chet el valutasidagi operatsiyalarga turli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda turlicha ta'rif berilgan. Garchi keltirilgan ta'riflar bir-biriga yaqin bo'lsada, ular ma'lum darajada mazmunan farqlanadi. Valuta operatsiyalariga doir qonun hamda qonun osti hujjatlaridagi atama va tushunchalarning bir-biriga mosligini ta'minlash lozim bo'ladi. Chunki ular bevosita pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi.

Shunday qilib, hozir mamlakatimizda korxonalarini faoliyatida amal qilayotgan «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»ining me'yoriy asoslarini takomillashtirish talab qilinadi. Shu bilan birgalikda ushbu hisobotni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatli bandlarni tuzatish talab qilinadi.

5.3. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda korxonalar faoliyati turlarining aks ettirilishi

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot xo'jalik yurituvchi su'yektning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatining o'z pul mablag'lariga ma'lum hisobot davri ichida ta'sirini shu davr ichida pul mablag'larining o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlarni beradi. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini qo'llash quyidagilarni aniqlashga yordam beradi:

-korxonaning pul mablag'larini va ularning ekvivalentlarini topa olish qobiliyatini va tashkilotning shu kabi pul oqimlarini ishlatishga ehtiyojini aniqlash;

-korxonaning sof aktivlaridagi o'zgarishlar, uning moliyaviy tuzilishini (uning likvidligini va to'lov qobiliyati bilan birga) va uning o'zgarib turgan sharoit va imkoniyatlarga moslashish uchun o'z vaqtida pul miqdoriga va pul oqimlariga ta'sir etish qobiliyatini aniqlash;

-korxonalarining har xil operatsion faoliyatlarini taqqoslash, chunki bu ayni operatsion va xo'jalik faoliyatining hodisalari uchun har xil hisoblash usullarini qo'llanishni inkor etadi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda hisobot davri davomidagi pul oqimlari aks ettiriladi va ular quyidagi shakllarga tavsiflanadi:

-operatsion faoliyati;

-investitsion faoliyati;

-moliyaviy faoliyat.

Operatsion faoliyat pul oqimlarining hajmi korxonaning ssudalarni to'lash uchun yetarli pul mablag'larini yig'ish, ishlab chiqarish darajasini saqlash, dividendlarni to'lash va tashqi moliyalashtirish manbalarni jalb qilmay yangi kapital qo'yilmalarni amalga oshirish ishlarini qila olishining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Operatsion faoliyatining pul oqimlari birinchi navbatda, asosiy faoliyatdan daromad olishning natijasini ko'rsatadi.

5.3.1 –jadval.

Operatsion faoliyatda pul mablag'larining harakatiga quyidagilar misol bo'la oladi

Pul mablag'larining kirimi	Pul mablag'larining chiqimi
Mahsulot, tovar va xizmatni sotishdan tushum	Tovar va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'lovlar
Royaltlardan (patentni, mualliflik huquqi qo'llanilganligi va boshqalar uchun), har-xil xarakterdagi mukofotlardan, foiz daromadi, komission yig'imlar va boshqa daromadlardan tushum.	Korxonalar xodimlariga pul to'lovlari, operatsion xarajatlar
Tovar moddiy zaxiralarning qisqarishi	Tovar moddiy zaxiralarni ko'payishi
Savdo va vositachilik maqsadlarida tuziladigan bitimlar bo'yicha pullarning kelib tushishi	To'langan foizlar
Joriy majburiyatlarining ko'payishi, jumladan investitsion va moliyaviy faoliyatga kirmaydigan daromad solig'i bo'yicha.	Joriy ajburiyatlarning kamayishi, jumladan investitsion va moliyaviy faoliyatga kirmaydigan daromad solig'i bo'yicha

	xarajatlar
Pulsiz xarajatlar: a) asosiy mablag'larning va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi, tabiiy resurslarning kamayishi; b) qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha chegirmalarning amortizatsiyasi	Pulsiz muomalalar: qarz qimmatli qog'ozlar bo'yicha ustamaning amortizatsiyasi

Investitsion faoliyat - pul ekvivalentlariga kirmaydigan uzoq muddatli aktivlarni va boshqa investitsiyalarni sotib olish va sotish, to'lanadigan kreditlarning berilishi va olinishi. Investitsion faoliyat natijasida sodir bo'ladigan pul mablag'larining harakatlariga quyidagilar misol bo'lishi mumkin:

5.3.2-jadval

Investitsion faoliyat natijasida sodir bo'ladigan pul mablag'larining harakatlari

Pul mablag'larining kirimi	Pul mablag'larining chiqimi
Yer, binolar, jihozlarning nomoddiy va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotishdan tushumlar	Yerni, binolarni, jihozlarni, nomoddiy aktivlarni va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotib olish to'lovlari, tajriba konstruktorlik ishlari hamda yer bilan bog'liq kapital xarajatlarga to'lovlar, pudratchilarni jalb qilmasdan korxonada tomonidan yaratilgan bino va jihozlar
Boshqa tashkilotlarning aksiyalarini yoki boshqa qarz majburiyatlarini chiqib ketishidan/sotilishidan kirimlar (pul mablag'larining ekvivalentlari deb hisoblangan yoki sotuv uchun saqlangan majburiyatlar uchun bo'ladigan to'lovlardan tashqari)	Boshqa korxonalarining aksiyalariga yoki qarz majburiyatlariga qo'yilmalar. Kapitalda ishtirok etish ulushiga badallar (pul mablag'larining ekvivalentlari hisoblanadigan yoki sotish uchun saqlanayotgan to'lov hujjatlari bo'yicha to'lovlardan tashqari)
Boshqa korxonalarga berilgan bo'naklarning qaytarilishi va qarzlarning to'lanishidan kirimlar (operatsion faoliyat bo'lgan, foiz daromadidan boshqa)	Boshqa korxonalarga berilgan bo'nak to'lovlari va qarzlar

5.4. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish bosqichlari

«Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»ni tuzishga xo'jalik yurituvchi su'yektning qaysi tarmoqqa tegishliligi (sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, qurilish va h.k.) va ularda sodir bo'ladigan muomalalarning turlari bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun ham «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»ni tuzish bo'yicha ko'rsatmalar talabidan kelib chiqqan holda ularning muhim xususiyati sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin.

Hisobotni tuzishning uslubiy ko'rsatmalari talabidan kelib chiqqan holda bevosita korxonaning investitsion va moliyaviy faoliyatlariga bog'liq bo'lgan holatlardan tashqari barcha to'lanadigan soliqlar va ularning majburiy to'lovlari joriy faoliyat bo'yicha pul oqimlarida ko'rsatilishiga mos bo'lishi lozim.

Har xil faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi bosh korxonada albatta har bir faoliyat turlari bo'yicha alohida hisob olib borishi va shunga mos ravishda har bir faoliyat

turlari bo'yicha soliqlarni hisoblashga majburdir. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda «to'langan» soliqlarning har bir turi bo'yicha alohida hisob-kitob yuritilmaydi. Bunday holatda korxonaning to'lagan soliqlarini qancha qismi joriy xo'jalik faoliyati, investitsion yoki moliyaviy faoliyat bo'yicha ekanligini aniqlash birmuncha murakkab jarayondir.

Operatsion va moliyaviy faoliyat bo'yicha tushumlar mavjud korxonalarda to'langan soliqlar summalarini joriy faoliyatdagi pul mablag'larining chiqimi tariqasida aks ettirish maqsadga muvofiqdir. Chunki hozir to'langan dividendlar bo'yicha soliqlarni ushlanmasi alohida ko'rsatiladi.

Xorijiy valutilarni sotib olishga sarflangan pul mablag'larini joriy faoliyat bo'yicha aks ettirishda valutilarning ishlatilishi maqsadidan kelib chiqib alohida aks ettirilishi lozim. Masalan, agar xorijiy valuta tovarlar qiymatini to'lash uchun olinsa, u holda to'langan «so'm»lar «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» shaklining tegishli qatorlarida aks etadi. Sarflangan xorijiy valutar qiymati alohida qatorda yoki boshqa tushumlar qatorida hisobga olinishi mumkin. Hozir amaliyotda «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» shaklini tuzish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilmoqda.

Birinchi bosqich. Korxonaning 5010-"Kassa" schyoti bo'yicha, 5110-"Hisob-kitob schyoti" bo'yicha va 5510-"Bankdagi maxsus schyotlar" schyoti bo'yicha yuritiladigan aylanma vedomostlarini tuzish lozim. Chunki umumlashtirilgan aylanma vedomostlarda kirim va chiqim ko'rsatkichlari qoldig'i schyotlarini debet va kreditidagi aylanmalar summasi hisob-kitoblarni aniqlashtirish uchun tuziladign aylanma vedomostlarning summasiga mos kelishi lozim.

Ikkinchi bosqich. Xorijiy valutilardagi pul mablag'larining harakatini albatta aylanma (oborot) vedomostlarda ifodalash lozim. Buning uchun har bir valuta turlari bo'yicha alohida aylanma vedomost tuzilishi lozim. Alohida valuta turlari bo'yicha tuzilgan aylanma vedomostlar ma'lumotlari umumlashtiriladi.

Uchinchi bosqich. Ushbu aylanma vedomostlar ma'lumotlari hisobot shaklining mos qatorlari bo'yicha tarqatiladi. Agar zaruriyat bo'lsa bunda yordamchi jadvallardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchi bosqichda buxgalteriya yozuvlari asosida pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning belgilangan qatorlariga summalarni taqsimlash hamda ularni joriy, investitsion va moliyaviy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha alohida ustunlar bo'yicha aks ettirilishi lozim.

Moliyaviy faoliyat - bu faoliyat natijasida tashkilotning xususiy kapitalining va qarzlarning hajmida va tuzilishida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Quyidagilar moliyaviy faoliyatdagi pul oqimlariga misol bo'ladi:

Investitsion va moliyaviy faoliyat bilan bog'liq pulsiz muomalalar. Faqat asosiy vositalarga, uzoq muddatli kreditlarga yoki aksionerlik kapitaliga tegishli bo'lgan investitsion va moliyaviy xarakterdagi pulsiz-muomalalarga uzoq muddatli kreditlar hisobiga asosiy vositalarni sotib olish, kreditorlik qarzning kreditorlarga qo'shimcha aksiyalarni berish va chiqarish orqali to'lash va boshqalar kiradi. Masalan, kompaniya yer yoki binoni olish uchun uzoq muddatli garovni yozib berishi mumkin yoki uzoq muddatli obligatsiyalarni oddiy aksiyalarga aylantirishi mumkin. Bu muomalalar oddiy investitsion va moliyaviy faoliyatni aks ettiradi, ammo ular pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda aks ettirilmasligi mumkin, chunki ular

kompaniyaning pul mablag'lariga ta'sir qilmaydilar. Ammo, pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning maqsadlaridan biri - investitsion va moliyaviy faoliyatni aks ettirish bo'lganligi uchun va bu kabi muomalalar kompaniyaning pul mablag'larining holatiga kelgusida ta'sir ko'rsatgani uchun bu muomalalar pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladi.

5.5. Pul oqimlari harakatini to'g'ri va egri usullarda aniqlash uslubiyoti

1. Operatsion faoliyatdan pul oqimlari harakatini to'g'ri usulda aniqlash.

Sotishdan pul mablag'larining kelishi. Sotishdan kelgan pul mablag'larining tushumi quyidagi formula bilan aks ettirilishi mumkin.

Sotishdan pul mablag'larining tushumi	= Sotishdan tushum	+ Olinadigan schyotlarning kamayishi yoki ko'payishi
---------------------------------------	--------------------	--

2. Berilgan kreditlar uchun foiz va dividendlar ko'rinishidagi pul mablag'larining tushumi. BXXS foizlar va dividendlarning bir mazmundagi tasnifini bermaydi, ularni olingan va to'langanlarga ajratish zaruriyatini ta'kidlaydi. Amaliyotda ko'pincha olingan foizlar va dividendlarni investitsion faoliyatga, to'langan foizlar va dividendlarni esa moliyaviy faoliyatiga olib boradilar, garchan to'langan foizlar operatsion faoliyatga olib borilsa ham.

3. Olingan tovar yoki xizmat uchun pul mablag'larining to'lanishi. Olingan tovarlar uchun yoki xizmatlar uchun to'langan pul mablag'larining hajmi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

Olingan tovar uchun pullik to'lovlar	= Sotilgan tovarlarning tannarxi	+/- Tovar zaxiralarining ko'payishi yoki kamayishi	+/- To'lanadign schyotlarda ko'payishi yoki kamayishi
--------------------------------------	----------------------------------	--	---

4. Operatsion xarajatlar bo'yicha pullik to'lovlar. Operatsion xarajatlar bo'yicha to'lovlar operatsion xarajatlarni tuzatish yo'li bilan quyidagi formula bilan aniqlanadi

Operatsion xarajatlar bo'yicha pullik to'lovlar	= Operatsion xarajatlar	+/-Kelgusi davrlar xarajatlarning ko'payishi yoki kamayishi	+/-Hisoblangan majburiyatlarning kamayishi yoki ko'payishi	-Amortizatsiya va boshqa pulsiz xarajatlar
---	-------------------------	---	--	--

5. Olingan kredit uchun foizlar bo'yicha pul to'lovlari. 2-chi punktga asoslanib, kreditlar uchun foizlar bo'yicha pul mablag'larining to'lovini operatsion faoliyatga kiritish kerak, chunki kreditlar uchun foizlar uchun pul mablag'larining to'lanishi bu foizlar bo'yicha xarajat summasiga teng.

6. Foyda solig'i bo'yicha pul mablag'larining to'lanishi. Foydaga soliq to'langan pul mablag'larining hajmi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

Foyda solig'i bo'yicha pul mablag'larining to'lanishi	=Foyda solig'i	+/-Foyda solig'i bo'yicha qarzni kamayishi yoki ko'payishi
---	----------------	--

Operatsion faoliyatdan pul mablag'larining harakatini egri usulda aniqlash. Egri usul hisobida to'g'ri usuldagiday tuzatishlar ishlatiladi, farqi, egri usulda har bir modda emas, balkim sof foyda summasi tuzatiladi. Quyida operatsion faoliyatidan pul mablag'larining holatini hisoblash uchun zarur barcha tuzatishlar berilgan:

5.5.1.-jadval

Operatsion faoliyatdan pul mablag'larining holatini hisoblash uchun zarur barcha tuzatishlar

	Sof foydani operatsion faoliyatdan pul mablag'larining holatiga transformatsiyalash uchun zarur o'zgarishlar	
	Sof foydaga qo'shiladi	Sof foydadan ayiriladi
Joriy aktivlar:		
Olinadigan schyotlar	Kamayish	Ko'payish
Tovar zaxiralari	Kamayish	Ko'payish
Kelgusi davr xarajatlari	Kamayish	Ko'payish
Joriy majburiyatlar:		
To'lanadigan schyotlar	Kamayish	Ko'payish
Hisoblangan majburiyatlar	Kamayish	Ko'payish
Byudjet bo'yicha qarzlari	Kamayish	Ko'payish
Amortizatsiya bo'yicha xarajatlar:		
Asosiy vositalar	Qo'shiladi	
Nomoddiy aktivlar	Qo'shiladi	
Boshqa zararlar (as.faol-tdan emas)	Qo'shiladi	
Boshqa foyda (as.faol-tdan emas)	Ayiriladi	

Investitsion faoliyat odatda balansning uzoq muddatli aktivlar bo'limida aks ettiriladi, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalarga ta'sir etadigan muomalalar - joriy aktivlar bo'limida, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda qimmatli qog'ozlar, asosiy vositalarni sotishdan daromadlar va zararlar ko'rsatiladi. Investitsion

faoliyatdan pul oqimlarini aniqlash uchun kerak bo'lgan axborot, asosiy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan boshqa muomalalarning ro'yxatida bo'ladi.

Moliyaviy faoliyat natijasida pul mablag'lari harakatini aks ettirish. Pul oqimlari hisobotining ushbu bo'limida uzoq muddatli qarzning va aksionerlik kapitalining hisobvaraqlari hamda to'langan dividendlar haqida axborot ko'rib chiqiladi.

5.6. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish usullari

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish xalqaro standartlarga muvofiq ikkita uslub, ya'ni to'g'ri va egri uslublar keng qo'llaniladi. Jahon amaliyotida xo'jalik su'yektlari pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzishda asosan to'g'ri usulni ichki foydalanuvchilar qo'llashadi. Ya'ni korxonadagi boshlang'ich buxgalteriya manbalariga asoslangan holda pul oqimlari to'g'risidagi hisobot tuziladi.

To'g'ri usul qo'llanilganida, asosiy yalpi tushum va pul mablag'larining yalpi to'lovi to'g'risidagi ma'lumot quyidagilardan olinishi mumkin:

-hisob registrlaridan;

-sotishdan olingan daromadni, sotishning tannarxi va quyidagilar hisobga olingan holda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning boshqa moddalarini tuzatish orqali;

a) hisobot davri davomida TMZdagi, debitorlik va kreditorlik qarzlardagi o'zgarishlar;

b) pulsiz moddalar;

v) natijalari pul mablag'larining harakatiga ta'siri ko'proq investitsion va moliyaviy faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa moddalarni (berilgan yoki olingan kreditlar bo'yicha foizlar va boshqalar).

Egri usulda moliyaviy natijalar (foyda) bilan pul mablag'lari hajmining mutlaq o'zgarishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkoniyati mavjud bo'ladi. Uning ijobiy jihatlari ham ana shunda.

Egri usul qo'llanilganda, operatsion faoliyat natijasida pul mablag'larining harakati, quyidagilarni hisobga olgan holda sof foyda yoki zararni tuzatish orqali aniqlanadi:

hisobot davrida sodir bo'lgan operatsion faoliyatdan debitorlik va kreditorlik qarzlarda tovar moddiy boyliklarda o'zgarishlarni;

eskirish, zaxiralar, muddati uzaytirilgan soliqlar, chet el valutasining milliy valutaga almashtirishdagi sotilmay qolgan tushumlar va zararlar, uyushgan kompaniyalarda taqsimlanmagan foyda va aksiyalarning ba'zi paketlari kabi pulsiz moddalarni;

natijalari pul oqimlariga ta'sir etadigan investitsion va moliyaviy faoliyatga tegishli boshqa barcha moddalarni (asosiy vositalarning sotishdan tushumlar zararlar va boshqalar).

Egri usul orqali pul oqimlarini hisoblash sof foyda ko'rsatkichi bilan uning ko'rsatkichlarni korrektirovkasiga mosligidan, real pul mablag'lari harakatiga bog'liq bo'lmagan mos hisoblar (qatorlar) bo'yicha olib boriladi. Jumladan, pul oqimlarini tahlil etishning egri uslubi faoliyat turlari bo'yicha pul mablag'lari harakatining

tahliliga asosan tashkil etilgan bo'lib, ya'ni, korxonada foydasi aniq qayerda vujudga kelayotgani yoki «tirik pullar» qayerga sarflanayotganligini ko'rsatadi. U «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»ni quyidan (sof foydadan) yuqoriga qarab o'rganishga moslashtirilgan. Shu sababli ushbu usulni aksariyat iqtisodchi olimlar «quyi» usul deb ham atashadi.

Egri usul yordamida korxonada faoliyatidagi eng muammoli jihatlarni aniqlash hamda murakkab holatdan chiqish yo'lini topish mumkin. Ushbu usulning ijobiy tomonlari bilan birgalikda kamchiliklardan ham holi emas. Uning kamchiliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzishda egri usulni esa korxonaning pul oqimlari to'g'risidagi boshlang'ich buxgalteriya ma'lumotlari mavjud bo'lmagan, korxonaning xo'jalik faoliyati bilan qiziquvchi tashqi foydalanuvchilar keng qo'llaydi. Chunki, bunday hollarda odatda tashqi foydalanuvchilarga korxonaning «Buxgalteriya balansi» va «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» shakllari taqdim etiladi va mazkur hisobotlardagi ma'lumotlar asosida pul oqimlarining holati o'rganiladi.

Tahliliy hisobotlar tuzishning murakkabligi va kun hamda mehnat talab qilishi; Bosh daftarlardagi kamchiliklarni aniqlash imkonining yo'qligi.

Xo'jalik su'yektlari faoliyatining pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzishda to'g'ri va egri usullarning qo'llanilishi bir-birini to'ldirib boradi hamda hisobot davrida korxonani pul mablag'lari oqimining harakati haqidagi real holatini ko'rsatib beradi.

To'g'ri va egri usullarining qo'llanilishi bir natijaga olib keladi va buxgalteriya hisobining xalqaro standarti bo'yicha Qo'mita ikki usulni ham tan oladi, ammo to'g'ri usulni qo'llanilishi tavsiya qiladi. To'g'ri va egri usullarning qo'llanish bilan tuzilgan pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlari orasidagi farq, faqat operatsion faoliyat natijasidagi pul oqimlarini aks ettirgan bo'limida o'z aksini topadi.

Investitsion va moliyaviy faoliyatdan pul oqimlari to'g'risidagi hisobot. Su'yektlar pul oqimlari netto-asosida (su'yektning naqd pulning tushum va to'lovi orasidagi farq) aks ettirilgan hodisalardan tashqari, investitsion va moliyaviy faoliyatdan kelib chiqadigan asosiy yalpi tushumlar va pul mablag'larining yalpi to'lovlari bo'yicha alohida hisobot beradilar.

Pul mablag'larining chet el valutasidagi harakati. Chet el valutasini muomalalaridan kelib chiqadigan pul oqimlari muomala amalga oshirilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki kursi bo'yicha milliy valutada ko'rsatilishi kerak. Chet el korxonasi shu'basining pul oqimlari harakati muomala amalga oshirilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki kursi bo'yicha milliy valutaga almashtirilishi kerak. Valutalarning kursi o'zgarishlardan kelib chiqadigan realizatsiya qilinmagan foyda va zararlar pul oqimlariga kirmaydi.

Favquloddagi moddalar bilan bog'liq bo'lgan pul oqimlarining harakati. Favqulodda moddalar bilan bog'liq bo'lgan pul oqimlari, moddalarning xarakteriga ko'ra operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatdan vujudga keladigan pul oqimlari sifatida klassifikatsiyalanadi. Favquloddagi moddalarni tushuntirish va ularni hozirgi va kelajakdagi pul oqimlari harakatiga ta'sirini aniqlash uchun

favquloddagi moddalar bilan bog'liq pul oqimlar «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda» operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatlar alohida ko'rsatiladi.

5.7. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish tartibi

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning «Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari» (010-satr) moddasida yuklab yuborilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar uchun hisobot davrida korxonaning bankdagi hisob-kitob schyotiga va kassasiga kelib tushgan pul «material, tovar va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari» (020-satr) moddasida materiallar, tovarlar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari summasi ko'rsatiladi.

«Xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari» (030-satr) moddasida xodimlarga to'langan mehnat haqi, mukofotlar, maqsadli davlat fondlariga to'lanmalar, byudjetga to'langan daromad solig'i, kasaba uyushmasiga ajratmalar, aliment to'lovlari, turar joy fondiga to'lovlar, xodimlarga berilgan bank kreditlari bo'yicha to'lovlar va shunga o'xshash kassadan va bankdagi schyotlardan to'lanadigan boshqa pul mablag'lari ko'rsatiladi.

«Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari» (040-satr) moddasida olingan royalti, turli rag'batlantirishlar va boshqa daromadlar, savdo korxonalarini bilan tuziladigan bitimlar bo'yicha olingan komission yig'implar aks ettiriladi.

«Jami operatsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi» (050-satr) moddasida plus, minus, alomatlariga qarab yuqoridagi satrlarning yig'indisi aks ettiriladi.

Asosiy vositalarni xarid qilish va sotish moddasi bo'yicha (060-satr) korxonalar «Chiqim» ustunida mahsulot yetkazib beruvchilarga to'langan asosiy vositalarni xarid qilganlik uchun pul mablag'lari summasini, «Kirim» ustunida esa-asosiy vositalarni sotishdan kelib tushgan mablag'lar summasini ko'rsatadilar.

Nomoddiy aktivlarni xarid qilish va sotish moddasi bo'yicha (070-satr) korxonalar «Chiqim» ustunida nomoddiy aktivlarni xarid qilganlik uchun mol yetkazib beruvchiga to'langan pul mablag'lari summasini, «Kirim» ustunida esa-nomoddiy aktivlarni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari summasi ko'rsatiladi.

Uzoq muddatli va qisqa muddatli investitsiyalarni xarid qilish va sotish moddasi bo'yicha (080-satr) «Chiqim» ustunida qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar boshqa dastaklarini xarid qilish uchun to'langan foizlar ko'rsatiladi, «Kirim» ustunida esa qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar boshqa dastaklarini sotish natijasida kelib tushgan pul mablag'lari summasi ko'rsatiladi.

Investitsiya faoliyatining boshqa pul tushumlari va to'lovlari moddasining (090-satr) «Chiqim» ustunida boshqa investitsion faoliyat uchun to'langan pul mablag'lari summasi, «kirim» ustunida esa olingan pul mablag'lari summasi aks ettiriladi.

«Jami: investitsiya faoliyatiga oid sof pul oqimi/chiqimi» moddasi bo'yicha (100-satr), «kirim» ustunida «+» va «chiqim» ustuni bo'yicha «-» belgisining ta'sirini hisobga olgan holda (060,070,080,090-satrlarni) jamlash natijasi ko'rsatiladi.

«Olingan va to'langan foizlar» (110-satr) moddasining «Kirim» xonasida olingan, «Chiqim» xonasida to'langan foizlar summasi aks ettiriladi.

«Olingan va to'langan dividendlar» moddasi bo'yicha (120-satr) «Kirim» ustunida olingan dividendlar summolari, «Chiqim» ustunida esa to'langan dividendlar summolari aks ettiriladi.

Aksiyalarni chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari (130-satr) moddasida xususiy kapital bilan bog'liq hisobot davrida chiqarilgan (sotilgan) aksiyalar yoki boshqa instrumentlar bo'yicha aksionerlardan kelib tushgan pul mablag'lari summasi aks ettiriladi.

«Xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to'lovlari» (140-satr) moddasida keyinchalik tarqatish yoki bekor qilish uchun korxonaga qaytarib olgan xususiy aksiya egalariga to'langan pul mablag'lari summasi ko'rsatiladi.

«Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlarni bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari» (150-satr.) moddasining «Kirim» xonasida hisobot davrida tushgan kredit va qarzlarni, «Chiqim» xonasida to'langan kreditlar va qarzlarni ko'rsatiladi.

«Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari» (160-satr.) moddasining «Chiqim» xonasida ijara (lizing)ga beruvchiga to'langan summa, «Kirim» xonasida – ijara (lizing)ga oluvchidan tushgan pul mablag'lari summasi ko'rsatiladi.

«Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari» (170-satr.) moddasining «Chiqim» xonasida boshqa moliyaviy faoliyat bo'yicha to'langan, «Kirim» xonasida olingan pul mablag'lari ko'rsatiladi.

«Jami: moliyaviy faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi» (180-satr.) moddasida 110, 120, 130, 140, 150, 160, 170- satrlarning plus summalarini jamlab «Kirim» xonasida, minus summalarini jamlab «Chiqim» xonasida aks ettiriladi.

«To'langan daromad (foyda) solig'i» (190-satr.) moddasida to'langan daromad (foyda) solig'i summasi aks ettiriladi.

«To'langan boshqa soliqlar» (200-satr.) moddasida daromad (foyda) solig'idan boshqa to'langan soliqlar, boj va ularga tenglashtirilgan yig'im va ajratmalar summasi ko'rsatiladi.

«Jami to'langan soliqlar» (210-satr.) moddasida 190 va 200 satrlar summasi aks ettiriladi.

«Jami moliyaviy – xo'jalik faoliyatining sof pul kirimi / chiqimi» (220-satr.) moddasida 050, 100, 180, 210-satrlarning plus summalarini jamlab «Kirim» xonasida, minus summalarini jamlab «Chiqim» xonasida ko'rsatiladi.

«Yil boshidagi pul mablag'lari» (230-satr.) moddasida korxonaga balansining 320-satr 3-xonasida ko'rsatilgan pul mablag'larini xisobga oluvchi schyotlarning (5000, 5100, 5200, 5500, 5600,5700) qoldiq summolari aks ettiriladi.

«Yil oxiridagi pul mablag'lari» (240-satr.) moddasida korxonaga balansining 320-satr 4-xonasida ko'rsatilgan pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlarning (5000, 5100, 5200, 5500, 5600, 5700) qoldiq summolari aks ettiriladi.

«Chet el valutasidagi pul mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumot» bo'limida hisobot davrida korxonaning valuta mablag'larini harakati ko'rsatiladi.

Valuta mablag'lari muomalalari sodir bo'lgan paytda, valuta mablag'larining qoldiqlari esa hisobot davrining oxirgi sanasiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki belgilagan kurs bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy valutasida aks ettiriladi.

«Yil boshiga qoldiq» (250-satr) moddasida korxonaning valuta schyoti va kassasida hisobot davri boshiga qolgan valuta mablag'lari summalari ko'rsatiladi.

«Jami valuta mablag'larining tushumi» (260-satr) moddasida 261, 262, 263, 264-satrlarda ko'rsatilgan valuta mablag'larining hisobot davridagi umumiy tushumi ko'rsatiladi.

«Jami sarflangan valuta mablag'lari» (270-satr) moddasida 271 dan 273-gacha satrlarda ko'rsatilgan korxonada tomonidan turli maqsadlarga sarflangan valuta mablag'larining umumiy summasi ko'rsatiladi.

«Yil oxiridagi qoldiq» (280-satr) moddasida 250, 260, 270 satrlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadigan hisobot yil oxiriga qolgan korxonaning valuta schyotlarida va kassasida qolgan valuta mablag'lari summasi ko'rsatiladi.

5.8. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarini izoh va tushuntirish xatlarida yoritish

Xo'jalik yurituvchi su'yektlar moliyaviy hisobotlarining izohlari va tushuntirishlarida quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatishi lozim:

-xo'jalik yurituvchi su'yektning moliyaviy hisoboti va hisob siyosati asoslari uchun turli asosiy muomalalar va hodisalarni tanlagani va qo'llanilgani to'g'risida ma'lumot taqdim etish;

-BHMA talab qilgan hech bir moliyaviy hisobotda aks ettirilmagan axborotni yoritish;

-moliyaviy hisobotlarda aks ettirilmagan, lekin moliyaviy hisobotni aniq va haqqoniy taqdim etish uchun qo'shimcha tahlil axborotlarini taqdim etish.

Yuqorida aytib o'tilgan axborotlardan tashqari, moliyaviy hisobotda batafsilroq ma'lumotlar ham beriladi. 1-BHMAga asosan, moliyaviy hisobotlar foydalanuvchilarga pul mablag'lari harakati oqimini taxmin qilishga yordam beradigan, korxonaning mulki va ixtiyoridagi resurslari to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim:

-korxonaning nazorati ostida bo'lgan aktivlar haqida;

-korxonaning passivlari haqida;

-korxonaning taqsimlanmagan daromadi, korxonaning bir davrdan boshqa davrga o'tishdagi iqtisodiy imkoniyatlari va majburiyatlaridagi o'zgarishlar haqida;

-pul mablag'larining harakati haqida.

Foizlar va dividendlarni to'lash va olish bilan bog'liq pul oqimlari. Foizlar va dividendlar to'lash va olish bilan bog'liq bo'lgan pul mablag'larining harakati alohida ochib beriladi. Ular su'yektning xo'jalik faoliyati turiga bir hisobot davridan keyingisiga bir maromda operatsion, investitsion yoki moliyaviy faoliyat kabi tasniflanadi. Hisobot davri davomida to'lanadigan foizlarning umumiy summasi ularni xarajat sifatida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda tan olinishi yoki olinmasligiga qaramasdan pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda ochib beriladi. Moliyaviy muassasalarda to'lanadigan va olinadigan foizlar hamda dividendlar pul mablag'larining harakati sifatida klassifikatsiyalanadi.

Boshqa korxonalar uchun esa to'lanadigan va olinadigan foizlar hamda dividendlarni operatsion faoliyatdan pul oqimlari sifatida tasniflash mumkin, chunki

ular sof foyda yoki zararni aniqlashda ishtirok etadilar. Lekin ular moliyaviy va investitsion faoliyatdan pul oqimlari sifatida ham tasniflanishi mumkin. Bunga sabab, ular olingan moliyaviy resurslar uchun to'lov yoki investitsiyalardan daromad hisoblanadi.

Shubalar va boshqa kompaniyalarni sotish va sotib olish. Shubalarni va boshqa kompaniyalarni sotish va sotib olishdan vujudga kelgan pul oqimlari investitsion faoliyat kabi klassifikatsiyalanadilar va alohida ochib beriladi.

5.9. Pul oqimlarini bashoratlash va uni amalga oshirish bosqichlari

Korxonalarda pul mablag'lari oqimini ratsional boshqarish uchun korxonaning kelgusidagi pul mablag'lari oqimini bashoratlash muhim hisoblanadi. Bunda korxonaning moliyaviy menejeri tomonidan pul mablag'larining kirimi va chiqimiga oid manbalari yig'ilishi hamda o'rganilishi lozim. Odatda ko'pchilik ko'rsatkichlarni katta aniqlik darajasida bashoratlash birmuncha murakkab jarayondir. Ayrim hollarda rejalashtirilgan davrdagi pul mablag'lari byudjetini tashkil topishi, bashorat qilingan pul mablag'lari oqimiga mos keladi.

Korxonalar kelgusida foydasini maksimal darajaga yetkazib o'z faoliyatini ratsional ravishda yuritish uchun har qanday sharoitda ham pul oqimini bashorat qilishning optimal usullarini tanlashi lozim. Pul oqimlari bashorati mavjud tushumlar manbalari va pul vositalarining sarflashning yo'nalishlarini aniqlashdan iboratdir. Shundan kelib chiqib ko'plab ko'rsatkichlarni yuqori aniqlik bilan oldindan aytib berish juda mushkul. Pul oqimlarini rejalashtirish mavjud naqd pul vositalarining bashorat qilinayotgan davrdagi byudjetini tashkil qilishga, oqimning eng muhim parametrlarini hisobga olishga, xususan, sotish hajmi, tushumdagi naqd pulga sotilgan mahsulotlar ulushi, kreditorlik qarzlari bashorati va boshqalarni o'rganishga imkon beradi. Bashorat qilish aniq bir davrga qarab, ya'ni yillik, choraklik va oylik ko'rinishida amalga oshiriladi. Bunda korxonalar moliyaviy menejeridan iqtisodiy strategiyani to'g'ri tanlay bilishni, pul oqimlari hisobini aniq va to'g'ri yuritishni talab etadi. Korxonaning moliyaviy menejeri korxonalar pul oqimlarini bashorat qilishda quyidagi uslubdan foydalanishi maqsadga muvofiq.

Pul oqimlarini bashorat qilish uslubi quyidagi operatsiyalarni o'z ichiga oladi:

- hisobot davriga pul tushumlarining bashorati;
- pul mablag'larining chiqib ketishini bashorat qilish;
- sof pul oqimlarining hisob-kitobi (pul mablag'larining yetishmasligi va ortiqchaligi);
- qisqa muddatli moliyalashtirishda umumiy ehtiyojni oldindan aniqlash.

Pul oqimini bashoratlash jarayonining birinchi bosqichi kelib tushishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari kiriminin hajmini hisoblashni o'z ichiga oladi. Agar korxonalar tushumni aniqlash uslubiyatini tovarlar jo'natish tartibi bo'yicha o'zgartirib turadigan bo'lsa, ma'lum qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Bunda pul mablag'lari kirimida asosiy manba tovarlar sotish hisoblanadi. Shuning uchun ham amaliyotda ko'pchilik korxonalar o'rtacha davr oralig'ida xaridorlardan jo'natilgan tovarlar qiymatini to'lashni talab qiladilar. Ushbu holatlardan kelib chiqib sotilgan

mahsulotlarning qaysi qismi ushbu davrdagi tushumga, qaysi qismi esa keyingi davrdagi tushumga kiritilishini hisoblash mumkin bo'ladi.

Pul oqimini bashoratlashning ikkinchi bosqichida esa pul mablag'larining chiqimi o'rganiladi. Uning asosiy tarkibiy elementi kreditorlik qarzlarni qoplash bo'lib hisoblanadi. Bizga ma'lumki, odatda korxonalar o'zining schyotini o'z vaqtida to'lasada, lekin ba'zi bir holatlarda korxonalar to'lov muddatini o'tkazib yuborishi mumkin. To'lovni kechikish jarayoni kreditorlik qarzlarni cho'zish deb nomlanadi. Muddati o'tgan kreditorlik qarzlari ushbu holatda qisqa muddatli moliyalashtirishning qo'shimcha manbalari sifatida ishtirok etadi.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanish sharoitida tovarlar (ish, xizmatlar) to'lovining turli xil tizimlariga amal qilinadi. Jumladan, to'lovni amalga oshirish vaqtida davrni hisobga olgan holda to'lov hajmi differensiallashtiriladi. Bunday tizimdan foydalanishda korxonalar uchun muddati o'tgan kreditorlik qarzlari moliyalashtirishning muhim manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Pul manbalari ishlatilishining boshqa xil yo'nalishlari tarkibiga mehnat haqi to'lovlari, kapital qo'yilmalar, soliqlarni to'lanilishi, foizlar va dividendlarni to'lash kabilar kiradi.

Pul oqimini bashoratlash uchinchi bosqichi mantiqan oldingi ikkita bosqichning davomi bo'lib hisoblanadi. Ya'ni sof pul oqimini bashoratlashni hisoblashda pul mablag'lari kirimi va chiqimining bashoratlarini solishtirish yo'li orqali o'rganiladi.

Pul oqimini bashoratlashning to'rtinchi bosqichida esa qisqa muddatli moliyalashtirishda mutloq talabni hisoblash hamda pul oqimini bashoratlashda har bir davr boshi uchun bankning qisqa muddatli ssudalari hajmini aniqlash o'rganiladi. Hisob-kitoblarda korxonaning sug'urta zaxirasini tashkil etish, rejalashtirilmagan, ammo korxonalar uchun maqbul bo'lgan investitsiyaga mablag' sarflash uchun ixtiyoriy minimumni hisob-kitob schyotida inobatga olish tavsiya etiladi.

Pul oqimini bashoratlashda ushbu to'rtta bosqichni qo'llash hisobiga korxonaning pulga talabi o'rganiladi. Bugungi kunda amaliyotda ko'pchilik korxonalarning rahbarlari pul oqimini o'rganmasligi natijasida pulga bo'lgan talab to'g'risida hech qanday ma'lumotga ega bo'lmaydilar. Bunday ko'rguliklarga barham berish uchun yuqoridagi pul oqimlarini bashoratlashning bosqichlaridan foydalanish ijobiy samara beradi.

Xulosa

Pul oqimlari harakati tug'risidagi hisobotni tuzishning uslubiy ko'rsatmalari talabidan kelib chiqqan holda bevosita korxonaning investitsion va moliyaviy faoliyatlariga bog'liq bo'lgan holatlardan tashqari barcha to'lanadigan soliqlar va ularning majburiy to'lovlari joriy faoliyat bo'yicha pul oqimlarida ko'rsatilishiga mos bo'lishi lozim.

Har xil faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi bosh korxonalar albatta har bir faoliyat turlari bo'yicha alohida hisob olib borishi va shunga mos ravishda har bir faoliyat turlari bo'yicha soliqlarni hisoblashga majburdir.

Nazorat va muhokama qilish savollari:

1. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning mazmuni va ahamiyatini tushuntirib bering.

2. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning me'yoriy asoslari qaysi qonuniy hujjatlarga asoslanadi?
3. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda korxonada faoliyati turlarining aks ettirilishini izohlab bering.
4. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish bosqichlarini tushuntirib bering.
5. Pul oqimlari harakatini to'g'ri va egri usullarda aniqlash metodikasini tushuntirib bering.
6. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish usullarini izohlab bering.
7. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish tartibini tushuntirib bering.
8. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarini izoh va tushuntirish xatlarida yoritish tartibini tushuntirib bering.
9. Pul oqimlarini bashoratlash va uni amalga oshirish bosqichlarini tushuntirib bering.
10. Chet el valutasidagi pul oqimlari hisobotda qanday tartibda aks ettiriladi?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев А., Қаюмов И. Бухгалтерия хисоби.: 2-қисм. -Т.: Минхож, 2002.
2. Астахов В.П. Теория бух. учёта Учебное пособие. -М.: ИКЦ МарТ Ростов н/Д, 2004.
3. Байда Т.П. Теория бухгалтерского учёта задачи и ситуации. Учебное пособие -М.:Ф и С, 2004.
4. [http:// www. accounting. rut gars. Edu](http://www.accounting.rutgars.edu)
5. [http:// www. accounting web. com/](http://www.accountingweb.com/)

6-bob. Xususiy kapital to'g'risida kapital to'g'risidagi hisobot

6.1. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot mazmuni va ahamiyati

Korxonalar o'z faoliyatlarini uzluksiz davom ettirishlari uchun mehnat vositalari, predmetlari va ishchi kuchlariga ega bo'lishi lozim. Ular bilan ta'minlash uchun korxonada mablag'lar mavjud bo'lishi zarur. Ushbu mablag'lar bilan ta'minlash manbai o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

O'z mablag'lari manbai keng qamrovli tushuncha bo'lib, u bir qancha ko'rsatkichlar majmuidan iboratdir:

1. Ustav kapitali.
2. Rezerv kapitali.
3. Qo'shilgan capital.
4. Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar).
5. Maqsadli tushum va fondler.
6. Kelgusi davr sarflari va to'lovlar uchun rezervlar.

O'z mablag'lar manbaining asosini, xususiy kapital tashkil etadi. Xususiy kapital ham kapital ham o'z navbatida bir qancha ko'rsatkichlar majmuidan tashkil topgan bo'lib, uning shakllanishishi ushbu omillar asosida belgilanadi, ya'ni:

- ustav kapitali;
- rezerv kapitali;
- qo'shilgan kapital;
- taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunning 14-moddasida «Xususiy kapital-ustav kapitali, qo'shilgan va rezerv kapitalidan hamda taqsimlanilmagan foydadan tarkib topadi» deb ko'rsatilgan. O'z mablag'lar manbai tarkibiga kiruvchi ayrim ko'rsatkichlar (maqsadli tushum va fondlar, kelgusi davr sarflari va to'lovlar uchun rezervlar, kelgusi davr daromadlari) mohiyatiga ko'ra xususiy kapital ko'rsatkichlari bilan bir xildir. Shu sababli, xususiy kapital hisobi ular bilan birga olib boriladi va ularni mablag'larining manbai sifatida qarashi inkor qilinmaydi.

Xususiy kapitalning shakllanishi—xo'jalik jarayonini yuritish maqsadida jalb qilingan xususiy mablag'lar, uning faoliyati davomida erishilgan sof foydasi xamda inflyasiya ta'sirida yuzaga kelgan tafovut summalari natijasida jamlangan mablag'lari asosida tartibga solinadi. Shuningdek, bu mablag'lar manbai aksariyat hollarda xo'jalik faoliyatining dastlabki bosqichlaridan yuzaga keladi.

N.To'xliyev va A. O'lmasov—«Kapital—(nem.-asosiy mulk, lot —eng muhim, asosiy, bosh) o'z egasiga daromad keltiruvchi mablag' va vosita; Yangi qiymat keltiriradigan, ya'ni o'zini-o'zi ko'paytiruvchi qiymat deb izohlaydi.⁸

Shu nuqtai nazardan i.f.n. prof. A.Sotivoldiyevning ta'kidlashicha;- «Aksionerlik jamiyati deb, jismoniy va yuridik shaxslarning ustav kapitalida tutgan ulushi, taqsimlangan aksiyalar qismiga yoki o'z mulkiy hissasiga ko'ra javob

⁸ Тыхлиев Н. Ылмасов А. Ишбилармонлар лу'лати.-Т.: Комуслар бош тащририят.1993-44 бет.

beruvchi uyushmalar yig'indisiga aytiladi».⁹ Xuddi shunday ta'rifni mamlakatlar iqtisodchilari tomonidan ham bildirdi.

Xususan Erik Xelfert:-«Kapital–fond, korxonaga aksionerlik mulki sifatida (ustav fondi) yoki boshqa uzoq muddatli moliyalashtirish asosida tashkil etilgan mablag'lar»¹⁰ deb aytiladi. Ushbu ta'rifda «Ustav fondi» jumlasining kiritilganligi kapital mazmunan aksionerlik va ustav fondini aks ettirishini bildiradi. Shu bilan birgalikda, rivojlangan mamlakatlar amaliyotida aksionerlik kapitali degan atamaga ta'rif berishda «Ustav fond», «Ustav kapital», jumllarini ham keltiradilar. Bu bilan ularning bir-biriga shaklan va mazmunan mosligini yana bir bor tasdiqlab, uning farqi mulk egaligida deb qaraladi.

E.Xelfertning fikricha:-«Aksionerlik kapital, ustav kapital, ustav fond - oddiy va imtiyozli aksiyalarning sotilishidan kelgan pul tushumining balansda aks etgan miqdori hamda hamkor shaxs va firmaning mulkdagi ulushidan iborat»¹¹ dir. Ushbu ta'rif prof. A.S. Sotivoldiyev tomonidan berilgan ta'rif bilan mazmunan bir xildir».

«Xususiy kapital to'g'risida»gi hisobot sir saqlanmaydi va shunga ko'ra ta'sisчилarni jalb qilish maqsadida korxonalar turli xil axborot vositalari orqali ommaga xususiy kapitalini oshkor etadi.

Bu hisobot shakli yig'ma tarzda ham tuzilishi mumkin, chunki ayrim korxonalar va tashkilotlar shubha korxonalariga ega bo'lib, ular bosh tashkilot sifatida ularning ma'lumotlariga ham asoslanadilar.

6.2 . Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlari va ularning mazmuni

Xo'jalikning xususiy kapitallari uning moliyaviy salohiyatining asosiy qismi bo'lib, u ustav, qo'shilgan va rezerv kapitallarini va taqsimlanmagan foydani o'z ichiga oladi.

№21 BHMAga muvofiq grantlar, subsidiyalar va qaytarib berilmaydigan yordamlar ham korxonaning xususiy kapitaliga taalluqli bo'lib, moliya-xo'jalik faoliyatini moliyalashtirish manbai hisoblanadi.

Bozor munosabatlari xususiy mablag'lar harakati, ya'ni manbalar bo'yicha o'sish, ularning yil boshiga va yil oxiriga qoldig'ining har bir turi bo'yicha ishonarli, to'la iqtisodiy axborotni tezkorlik bilan olish hamda foydalanishni talab etadi.

Xususiy kapital ko'rsatkichlari korxonalar faoliyati bilan bevosita qiziqtiruvchilar tomonidan tartibga solinib nazorat qilinsa, o'z mablag'lar manbaining qolgan tarkibiy qismlarida tashqi su'yektlarning (bilvosita qiziquvchilarning) ishtiroki nazarda tutiladi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning asosiy ko'rsatkichlaridan biri ustav kapital hisoblanadi va uning qiymati korxonaning ustavida belgilanadi.

Ustav kapitali ta'sis hujjatlarida belgilangan hissalarining (pul ifodasidagi) yig'indisidir. Ustav kapitaliga hissa shaklida qo'shiladigan moddiy va nomoddiy

⁹ Сотиволдиев А.С ва бош=алар. Бухгалтерский учет в условиях рыночной экономики. Т.: 2000.-113 б.

¹⁰ Хелферт Э. Техника финансового анализа. -М.: Юнити, 1996 г. -377 стр.

¹¹ Ыша жойда. 263-бет.

aktivlar ta'rischilar kelishuviga yoki yuridik shaxs ijrochi organining qaroriga ko'ra baholanadi va hisobga olinadi.

Ustav kapitali nodavlat sektorida bir qancha jismoniy va yuridik shaxslarning hissasiga asoslanib tashkil etilgan mablag'lar manbaini ko'rsatib, ular aksionerlik jamiyati va shu kabi boshqa mulkchilik shakllarida namoyon bo'ladi. Shu bilan birgalikda ustav fondi atamasi ham mavjud.

Ustav fondi davlat sektoriga qarashli korxonalar va tashkilotlar uchun qo'llaniladigan atama bo'lib, unda byudjet tomonidan ajratilgan mulk ko'rsatiladi.

Xususiy kapital tarkibida ustav kapitali bilan tenglashtiriladigan aksionerlik kapitali atamasi ham mavjuddir. Ammo ustav kapitali bilan aksionerlik kapitalining o'xshashlik tomonlari bilan birgalikda quyidagi farqlar ham mavjud:

aksionerlik kapitali faqat aksionerlarning mulkdagi hissasini ko'rsatsa, ustav kapitali barcha sarmoyadorlar summasini belgilaydi;

ustav kapitali aksionerlik kapitalidan mazmuni va ko'lami bo'yicha farq qiladi;

aksionerlik kapitali faqat aksiya chiqarish va joylashtirish bilan ham shakllantiriladi;

ustav kapitalini foyda hisobiga o'stirish mumkin bo'lsa, aksionerlik kapitalini qayta oshirish yo'llari bilan ko'paytirish mumkin;

aksionerlik kapitali – aksionerlik jamiyatlari (ochiq turdagi aksionerlik jamiyati, yopiq turdagi aksionerlik jamiyati)ni tashkil etishdagi mablag'lar manbaini shakllantirsa, ustav kapitali-ham xususiy va aralash korxonalarda qo'llaniladi.

Xususiy kapital tarkibida qo'shilgan va zaxira kapitali, shuningdek taqsimlanmagan foyda ham alohida ko'rsatkich sifatida hisobga olinadi.

Qo'shilgan kapital aksiyalarni nominal qimatidan baland narxlarda dastlabki sotishdan olinadigan emissiya daromadini aks ettiradi.

Zaxira kapitali esa mol-mulknii qayta baholash chog'ida hosil bo'ladigan inflyatsiya zaxiralarini, shuningdek, tekinga olingan mol-mulk qiymatini aks ettiradi.

Taqsimlanmagan foyda foydaning jamg'arilayotganini ifodalaydi va mulkdorlarning qaroriga binoan ustav kapitaliga qo'shilishi mumkin.

Korxonaning ustav faoliyatini amalga oshirish, jamoada ishlab chiqarishni va ijtimoiy sohani rivojlantirish maqsadida ustav kapitali, zaxira kapitali va qo'shilgan kapital yaratiladi. Taqsimlanmagan foyda esa korxonalar faoliyati natijasida vujudga keladi. Ularni tekshirishdan maqsad korxonaning barqaror faoliyat qilishi, raqobatbardoshligi va ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishini ta'minlashdan iborat.

Maqsadli tushum va fondlar, ya'ni «Grantlar, subsidiyalar va qaytarilmaydigan yordamlarni xususiy kapital sifatida aks ettirish uchun quyidagi shart sharoitlar asos bo'ladi:

-ma'lum shartlar bajarilganida qaytarib bermaslik;

-subsidiyalar va grantlarni jalb qilish uchun xarajatlar qilinmaydi, demak, ular daromad hisoblanmaydi (mos kelish tamoyildan kelib chiqib).

Ta'kidlash joizki, subsidiyalar va grantlar turli nodavlat tashkilotlar va fondlar tomonidan korxonalariga ma'lum dasturlarni amalga oshirishlari uchun beriladi. Shuningdek, Davlat tomonidan berilgan yordam (subsidiya) bu iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida va ular tomonidan belgilangan shartlarni bajarganda davlat

(hukumat) tomonidan pul hamda moddiy ko'rinishda tekinga berilgan yordamdir. Xususiy kapital tarkibida kelgusi davr sarflari va to'lovlar uchun rezervlar ham hisobga olinadi hamda ular xarajatlar va to'lovlarni bir tekisda ishlab chiqarishga kiritish masqadida, belgilangan tartibda rezerv qilingan summalar va ularning harakati haqida axborotlarni o'zida umumlashtiradi. Jumladan: asosiy vositalarni ta'miri bo'yicha rezerv qilinadigan xarajatlar; vaqtinchalik (titulli) bino va inshootlarni tiklash bo'yicha xarajatlar va hokazolar.

Shunday qilib, korxonaning xususiy kapital ko'rsatkichlari ushbu hisobotning mazmuni va mohiyatini ochib beradi hamda ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun zarur ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

6.3. Ustav kapitalining shakllanishi va uning xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish tartibi

Korxonaning ustav kapitalining tarkibi uning ta'sis hujjatlari va tashkiliy huquqiy shakliga bog'liqdir. Ustav kapitalini shakllantirish tartibi korxonaning tashkiliy-huquqiy shakliga muvofiq O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ta'sis hujjatlari asosida tartibga solinadi.

Ustav kapitali ro'yxatdan o'tkazilgan miqdorda aks ettiriladi va undan oshib ketishi mumkin emas. Korxonaning ustav kapitalini ko'payishi yoki kamayishi faqat ta'sischilarning qarori asosida ta'sis hujjatlariga o'zgarishlar kiritilgandan so'ng amalga oshiriladi.

Aksiyadorlik jamiyati davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin uning ustav kapitali emissiya prospektida ro'yxatga olingan summada ko'rsatiladi. Korxonaning aksiyadorlik kapitali hisobda ro'yxatdan o'tgan, lekin emissiyasi tugallanmagan miqdorda hisobga olinishi sababli e'lon qilingan (chiqarishga ruxsat berilgan) chiqarilgan (aksiyadorlar tomonidan obuna amalga oshirilgan) va muomaladagi oddiy aksiyalarning har qaysi emissiyasini alohida hisobga olish zarur.

Aksiyadorlik jamiyatlari o'z ustav kapitalini muomalaga qo'shimcha aksiyalar chiqarish yoki muomaladagi aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan oshirish mumkin. Aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitali miqdori aksiyalar nominal qiymatining pasayishi yoki ularning sonini kamaytirish, shuningdek, jamiyat tomonidan keyinchalik qoplash uchun aksiyalarning bir qismini sotib olinishi natijasida kamayishi mumkin.

Aksiyalarning likvidliligini oshirish maqsadida ularni maydalash natijalari aksiyadorlar kapitalining hajmiga ta'sir ko'rsatmay, faqatgina yangi muomaladagi aksiyalarning nominal qiymati va miqdorini ko'paytirish sababli ushbu operatsiyalarga buxgalteriya yozuvlari qilinmaydi.

Aksiyadorlarga korxonada ustav kapitalidagi ulushining qaytarilishi aksiyadorlik jamiyatining sotib olingan xususiy aksiyalari sifatida ko'rsatiladi va ushbu summa shu nomdagi kontrpassiv schyotda hisobga olinadi.

Korxonada ro'yxatdan o'tgandan keyin uning ustav kapitali ta'sis hujjatlarida belgilangan pay va ulushlaridan tashkil topadi.

Ustav kapitalining shakllanishidagi o'ziga xos xususiyatlar ularning hisobini yuritishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham «Xususiy kapital

to'g'risidagi hisobot» ko'rsatkichlarining ustav kapitaliga tegishli ustunlari ushbu xususiyatlarni e'tiborga olgan holda tuzilgan.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda ustav kapitalining yil boshiga qoldig'i (010-satr). Ushbu ko'rsatkich buxgalteriya hisobining 8300 «Ustav kapitali (fondi)ning hisobvaraqlari»ning joriy yilning 1-yanvariga bo'lgan kredit qoldig'i ma'lumotlari asosida aniqlanadi.

Navbatdagi ko'rsatkich xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari (100-satr)da korxonalar ustav kapitali qiymatining o'zgarishi natijasida boshqa manbalardan qo'yilgan mablag'lar summasini ko'rsatadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ustav kapitalining yil oxiridagi qoldig'i (110-satr), yil boshidagi qoldiq summasiga (010-satr) xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari (100-satr)ni qo'shish orqali aniqlanadi.

Xususiy kapitalning ko'payishi (+), yoki kamayishi (-) (120-satr)ning ustav kapitalining ta'siridagi o'zgarishini ko'rsatadi. Bunda ustav kapitali summasining ko'payishi yoki kamayishi hisobiga xususiy kapital qanchaga o'sgan yoki kamayganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish mumkin.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning ustav kapitaliga oid ustunlarini to'ldirishdan oldin ularning o'zgarishining buxgalteriya hisobi schyotlaridagi aks ettirilishi tekshirilishi lozim. Buning uchun tekshirish schyotlarning o'zaro bog'lanishi asosida amalga oshiriladi. Bunda dastlab ustav kapitalining o'zgargan summasiga ustav kapitalini hisobga oluvchi 8300-«Ustav kapitali (fondi)ning hisobvaraqlari» bilan 4610-«Ta'sischi'larning ustav kapitali (fondi)ga badallar bo'yicha qarzlari» hisobvarag'ining bog'lanishi tekshirilishi lozim. Shundan so'ng ta'sischi'larning ustav kapitaliga badallar bo'yicha qarzlarni to'lashini tekshiriladi. Ma'lumotlarning to'g'riligini ishonch hosil qilingandan so'ng ularni xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning ustav kapitaliga tegishli ustunlaridagi ko'rsatkichlarini to'ldirish uchun foydalaniladi.

Ammo qonunchilikka muvofiq korxonalarda ustav kapitali har doim ham o'zgartirilavermaydi.

6.4. Qo'shilgan kapital bilan bog'liq muomalalarni «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda» aks ettirish tartibi

Korxonalar o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida qo'shimcha kapital vujudga keladi. Qo'shimcha kapital aksiyadorlik jamiyatlari, xorijiy firmalar va qo'shma korxonalarda shakllantiriladi.

Korxonada **qo'shilgan kapital** quyidagi operatsiyalar natijasida vujudga kelishi mumkin:

a) emissiya daromadni yuzaga keltiruvchi nominal qiymatdan yuqori bahoda aksiyalar birlamchi sotilishida;

b) kursdagi farqni keltirib chiqaruvchi xorijiy investitsiyali korxonalar ustav kapitalini shakllantirish paytida.

Emissiya daromadi deb aksiyadorlik jamiyatlarida chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatidan yuqori bahoda sotilishi natijasida olingan daromadga aytiladi. Emissiya daromadi aksiyalarni sotish jarayonida vujudga keladi. Demak, emissiya

daromadi faqat aksiyadorlik jamiyatlarida o'z aksiyalarini birlamchi sotilishi natijasida olinadi. Boshqa korxonalarda emissiya daromadi olinmaydi. Xorijiy investitsiyali korxonalar-qo'shma korxonalar va 100 % chet el kapitali asosida tashkil qilingan xorijiy firmalar ustav kapitalini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan kursdagi farqlarni qo'shimcha kapital sifatida tan oladi.

Ustav kapitalini shakllantirish uchun berilgan valuta va valuta qimmatliklari, ustav kapitaliga ulushlarni kiritish sanasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha baholanadi. Valuta va valuta qimmatliklarini va boshqa mulklarni baholash ro'yxatdan o'tkazish sanasidagi ta'sis hujjatlarida belgilangan baholardan farq qilishi mumkin. Bunda vujudga keladigan kurs farqlari 8420-«Ustav kapitalini shakllantirishda kurs farqi» schyotida hisobga olinadi. Baholardagi ijobiy kurs farqlari 8420-«Ustav kapitalini shakllantirishda kurs farqi» schyotining kreditida, salbiy kurs farqlari esa mazkur schyotning debetida aks ettiriladi. Kurs farqlarini bu tartibda hisobdan chiqarilishi ta'sis hujjatlarida oldindan kelishilgan, ustav kapitalidagi ta'sischilar ulushining o'zgarishlariga imkon beradi.

Ustav kapitalini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan kursdagi farqlar qo'shma korxonalar va boshqa xorijiy investitsiyali korxonalarda amalga oshiriladi.

Qo'shimcha kapitalga oid ma'lumotlarni «Xususiy kapital to'risidagi hisobot»da aks ettirish uchun quyidagi ko'rsatkichlar belgilangan:

- qimmatli qog'ozlar emissiya;
- xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari;
- yil oxiridagi qoldiq;
- xususiy kapitalning ko'payishi (+), yoki kamayishi (-).

Aksiyadorlik jamiyatlari qaroriga muvofiq qimmatli qog'ozlarni emissiya qiladi, ya'ni chiqaradi va ularni aksionerlar o'rtasida joylashtiradi. Aksiyalarni nominal qiymatidan yuqori qiymatda sotish natijasida vujudga kelgan qiymatni 020-satrdan, ya'ni qimmatli qog'ozlar emissiyasi ko'rsatkichida aks ettiriladi. Ushbu ko'rsatkichni to'ldirishdan oldin uning to'g'riligiga ishonch hosil qilish lozim. Buning uchun 8410-«Emissiya daromadi», 4610-«Ta'sischilarni ustav kapitaliga badallar bo'yicha qarzlari» va 5110-«Hisob-kitob» schyoti ma'lumotlari o'zaro tekshirilishi lozim. Ularning to'g'riligiga ishonch hosil qilingandan so'ng 8410-«Emissiya daromadi» schyotining kredit qoldig'idagi summa «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot»ning «Qimmatli qog'ozlar emissiyasi» ko'rsatkichining «Qo'shilgan kapital» ustuni (020-satr)ga yozib qo'yiladi.

Ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo'lgan valuta kursi farqlari (040-satrdan) buxgalteriya hisobida 8420-«Ustav kapitalini shakllantirish chog'ida valuta kurslaridagi farq» hisobvarag'ida aks ettiriladigan, ta'sis hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish sanasida va mablag'lar ustav sarmoyasiga haqiqatda kiritilgan sanada Markaziy bank kurslari o'rtasida yuzaga keladigan, korxonaning ustav sarmoyasini shakllantirish chog'ida hisobot davri uchun kurslardagi farq aks ettiriladi. Ushbu ko'rsatkichni to'ldirishdan oldin buxgalteriya hisobi schyotlari ma'lumotlari, shuningdek, ustav kapitalining ro'yxatdan o'tgan va to'langan vaqtdagi chet el valutasining kursi hamda ular o'rtasidagi farq summalar tekshirilishi lozim. Shundan so'ng ushbu ma'lumotlar hisobotning «qo'shimcha kapital» ustuniga yozib qo'yiladi.

Hisobotning «Xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari» ko'rsatkichi (100-satr)da qo'shimcha kapitalni shakllantirish uchun yo'naltirilgan boshqa mablag'lar ko'rsatiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, «Yil oxiridagi qoldiq (110-satr) va xususiy kapitalning ko'payishi (+) yoki kamayishi(-)» (120-satr) ko'rsatkichlarini umumiy tartibda aniqlanadi.

6.5. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda rezerv kapitaliga oid ko'rsatkichlarni kiritish qoidalari

Korxonalar tashkil bo'lish jarayonida o'z ustavlarida shakllantiriladigan turli jamg'armalar to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiradilar. Respublikamizda amal qilinayotgan qonunlarga muvofiq korxonalarda rezerv kapitali tashkil qilinishi lozim. Uning miqdori jamiyat ustav kapitalining 15 %dan kam bo'lmasligi kerak va uning miqdori ustavda ko'rsatilishi lozim. Rezerv kapitali har yili sof foydadan ajratmalar o'tkazish yo'li bilan jamiyat ustavida belgilangan miqdorga yetguncha tashkil etiladi. Rezerv kapitali korxonalar ko'rgan zararni qoplash, imtiyozli aksiyalar uchun dividend to'lash, aksiyadorlar talabiga ko'ra aksiyalarni qayta sotib olish uchun ishlatiladi. Shu bilan birgalikda rezerv kapitali hisobvaraqlari uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashda yuzaga keladigan inflyatsion rezervlarga muvofiq foyda hisobidan tashkil qilinadigan rezerv hisobi uchun mo'ljallangan.

Rezerv kapitali asosan tashkil topadi:

- mulkni qayta baholash kapitalida;
- rezerv kapitali;
- tekinga olingan mulk.

Mulklarni qayta baholash natijasida rezerv kapitali shakllantiriladi. Agar qayta baholash natijasida mulkning qiymati kamaysa, kamaygan summa o'sha mulkning navbatdagi qiymati oshishi hisobiga to'ldiriladi va shu mulkning avvalgi qayta baholashdagi qiymatidan oshgan arzonlashtirilgan summa xarajat sifatida tan olinadi.

Mulkni qayta baholash bo'yicha jamlangan summa ta'sischi o'rtasida taqsimlanishi mumkin va u chiqib ketayotgan ta'sischi ulush sifatida beriladi.

Rezerv kapitali taqsimlanmagan hisobidan shakllantiriladi va ushbu mablag' korxonalar zararini va bank manbai bo'lmagan maqsadlar uchun sarflanadi.

Korxonalar o'z faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida mulklarni tekin olish hollari ham uchrab turadi. Tekinga olingan mulklar qiymati soliqqa tortish maqsadida umumiy korxonalar umumiy daromadiga qo'shiladi. Tekinga olingan mulklarni soliqqa tortish tartibi O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda rezerv kapitaliga oid quyidagi ma'lumotlar keltirilishi lozim:

- uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash;
- rezerv kapitaliga ajratmalar;
- tekinga olingan mulk;
- xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari.

«Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash» moddasi bo'yicha (030-satr) hisobot yilining birinchi kuni holati bo'yicha har yili qonun hujjatlarida belgilangan

tartibda o'tkaziladigan asosiy fondlarni qayta baholashdan tashqari, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash summasi aks ettiriladi.

Ushbu ko'rsatkichni to'ldirish uchun yilning berilgan kuniga o'tkazilgan uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashning hisob-kitobi va ularning buxgalteriya hisobi aktlarida aks ettirishlari lozim. Buning uchun 8510-«Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» va uzoq muddatli aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar (0100, 0400 va b.q.)ning o'zaro bog'lanishi tekshiriladi.

Rezerv kapitaliga ajratmalar moddasi bo'yicha (050-satr) ta'sis hujjatlariga ko'ra qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobot yili uchun rezerv kapitaliga ajratmalar summasi aks ettiriladi.

Ushbu rezerv summasi korxonaga ta'sisshularining kelishuviga muvofiq qabul qilingan qarorda alohida ta'kidlanadi. Foyda hisobidan ajratiladi. Ushbu ma'lumotlarni hisobotga kiritishdan oldin ushbu qaror ma'lumotlari bilan 8710-«Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi» schyotining hamda 8520-«Rezerv kapitali» schyoti ma'lumotlari o'zaro taqqoslanadi. Shundan keyin ushbu ma'lumotlar hisobotga kiritiladi.

Tekinga olingan mulk to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobotda aks ettirishdan oldin ularning har biri to'g'risidagi ma'lumotlar tekshirilishi hamda bajarilishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda tekin olingan mulkni «Qabul-qilish topshirish dalolatnoma» va «Baholash haqidagi hujjatlar» va buxgalteriya hisobining 8530-«Tekin olingan mulk» va ularni hisobga oluvchi schyotlarning ma'lumotlari o'zaro taqqoslangan holda tekshiriladi. Zarur ma'lumotlarning aniqligiga ishonch hosil qilgandan so'ng ushbu ma'lumotlar hisobga kiritiladi.

Xususiy kapital rivojlanishining boshqa manbalari ko'rsatgichida rezerv kapitalining boshqa manbalar hisobidan shakllantirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirildi.

6.6. Taqsimlanmagan foyda to'g'risidagi ma'lumotlarning shakllanishi va ularni hisobda aks ettirish tartibi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida taqsimlanmagan foyda korxonaning barqaror rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. Chunki u korxonada sodir bo'ladigan har xil moliyaviy risklardan himoyalash manbai hisoblanadi.

Taqsimlanmagan foyda xususiy kapitalda muhim manba hisoblanadi. Korxonaga uni to'la ishlatishi ham mumkin. Bu bir jihatdan ijobiy hol deb qaraladi, ya'ni yaratilgan qiymat yoki iqtisodiy naf to'liq ishlab chiqarishni rivojlantirishga yoki dividend uchun to'langan deb hisoblanadi. Ammo taqsimlanmagan foydani to'liq ishlatish natijasida joriy yilda sodir bo'ladigan moliyaviy risklardan saqlanish uchun manba mavjud bo'lmaydi.

Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) summasining boshqa shakllaridagi ko'rsatichlari bilan o'zaro bog'liqligini alohida ahamiyatga ega. Chunki bu holat sof foydani dastlabki nazoratini yo'lga qo'yish imkonini beradi. Chunki, buxgalteriya balansidagi asosiy moddalar albatta boshqa moliyaviy hisobot shakllarida yoki ilovalardagi o'zgarish talablariga va ifodasiga ega bo'lishi zarur.

«Taqsimlanilmagan foyda (qoplanilmagan zarar)» schyotlarida aks etgan qiymatni to'g'ri o'qish va uning realligini ta'minlash, buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu ma'noda, uning qoldiq qiymatini to'g'ri baholash, xususiy kapital hisobida ahamiyatli deb qaraladi va «Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)»-schyotlari bo'yicha qoldiqli qiymat aktivlar ortishi yoki passivlarning kamayishini to'g'ri ifoda etishi kerak. Bu esa, korxonada daromad bazasining dastlabki hisobini to'g'ri yuritish zarurligini belgilaydi.

«Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» schyotini ishlatish ikki xil tabiatga ega, ya'ni: agar davr oxiriga taqsimlanmagan foyda summasi mavjud bo'lsa korxonalarda ushbu summa ustav kapitaliga va boshqa xususiy kapital moddalariga kiritish mumkin. Zarar summasi esa, uni kamaytirishga yo'naltiriladi.

Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)ni moliyaviy hisobotda aks ettirish va baholashning o'ziga xos jihatlaridan yana biri buxgalteriya balansida ushbu schyotga faqat bitta qatorning ajratilganligidir. Bu foyda ham, zarar ham bir qatorda turli ishorada aks ettirishni anglatadi. Lekin, aktivlar qatoriga kiritilgan va sotish ob'yekti bo'lgan zarar summasini manfiy ishorada, chegiriluvchi qator sifatida passivda aks ettirilishi uni yo'q qilmaydi. Aksincha, o'zlik mablag'lari manbaini zarar summasiga doimiy tafovutlash imkonini beradi.

«Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» schyoti foydani taqsimlanmagan, zararni manbalanmagan qismini hisobga oluvchi schyot hisoblanadi. U moliyaviy hisobotda aks etuvchi va foyda(zarar)ni zaxiradagi qiymatini belgilovchi qatorda aks ettiriladi. Ya'ni, buxgalteriya balansining alohida satrda ushbu schyot qoldig'i o'z aksini topadi.

«Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» schyotida joriy va o'tgan davrlarga tegishli bo'lgan foyda (zarar)ning qoldiq summalari aks etadi. Taqsimlanmagan foyda korxonani erkin tasarrufida bo'lgan va uning belgilovida hal etiladigan modda hisoblanadi. U bevosita iste'mol va jamg'ariladigan keyingi qoldiq summani xarakterlaydi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda taqsimlanmagan foyda to'g'risidagi ma'lumotlarning aks ettirish jarayonida eng avvalo uning haqiqiylikini tekshirish lozim. Buning uchun amalga oshiriladigan hisob ishlarini bir necha bosqichda amalga oshirish lozim.

Birinchi bosqichda hisobot davrining taqsimlanmagan foyda summasining to'g'riligi tekshirilishi lozim. Buning uchun 8710-«Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda» schyotining aylanmasining to'g'riligi va uning ma'lumotlarini «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»ning hisobot davrining sof foydasi (zarari) (270-satr) bilan hamda 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schyoti ma'lumotlari bilan taqqoslash lozim. Ikkinchi bosqichda esa «Buxgalteriya balansini»ning «Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» moddasi bilan bog'lanishi tekshirilishi zarur. Buning uchun 8710-«Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda» schyoti kredit qoldig'i bilan 8720-«Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schyotining qoldig'i summalari yig'indisining buxgalteriya balansining 450-satridagi «Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» summasi bilan taqqoslanadi. Ushbu summalarning tenglamasi ma'lumotlarning to'g'riligini

anglatadi. Shundan so'ng 8710-schyot ma'lumotlari 060-«Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari)» satriga yoziladi.

6.7. Sotib olingan xususiy aksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobotda aks ettirilishi

Aksiyadorlik jamiyatlari o'zining chiqargan aksiyalarini sotib olishi va uni qaytadan sotishi mumkin. Xususiy aksiyalarni quyidagi maqsadlarda vaqtinchalik sotib olishi mumkin:

aksiyalar kursining barqarorligini ta'minlash uchun;

aksiyalarga to'lanadigan dividend summasini oshirish uchun;

aksiyalarni korxonada ishchi va xizmatchilariga sotish uchun;

aksiyalarni boshqa yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan sotib olinishini nazorat qilish maqsadida;

aksiyadorlik jamiyati faoliyatining alohida aksionerlar tomonidan nazorat qilish va kuchli ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik uchun.

Sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati aksiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitali miqdorini kamaytiradi va balansda ustav kapitali summasidan chegiriladigan summa sifatida ko'rsatiladi. Emitent tomonidan sotib olingan xususiy aksiyalarning qiymati haqiqiy sotib olish bahosida aks ettiriladi.

Sotib olingan xususiy aksiyalarni sotib olish bahosidan yuqori bahoda qaytadan sotganda o'rtadagi farq summasi «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari» agarda sotib olingan xususiy aksiya sotib olish bahosidan past bahoda qayta sotilsa o'rtadagi farq summasi «Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar» sifatida ko'rsatiladi.

Nominal qiymatidan past bahoda sotib olingan xususiy aksiyalarni bekor qilishda ushbu qiymatlar o'rtasidagi farq «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari» sifatida aks ettiriladi. Agar bekor qilingan sotib olingan xususiy aksiyalarning qiymati ularning nominal qiymatdan yuqori bo'lsa, unda farq «Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar» sifatida tan olinadi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning sotib olingan xususiy aksiyalar ustunida aniqlanishi uncha murakkab bo'lmagan quyidagicha ko'rsatkichlar belgilangan:

yil boshiga qoldiq;

xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari;

yil oxiridagi qoldiq.

Hisobotning yil boshiga sotib olingan xususiy aksiyalar qoldig'ini aniqlash uchun 8610-«Sotib olingan xususiy aksiyalar-oddiy» va 8620-«Sotib olingan xususiy aksiyalar-imtiyozli» schyotlarining yil oxiriga qoldiq summasiga asoslaniladi. Shu bilan birgalikda hisobot yilining 1-yanvariga tuzilgan buxgalteriya balansi passividagi «sotib olingan xususiy aksiyalar» moddasi (440-satr) ma'lumotlari bilan solishtiriladi. Buxgalteriya hisobining 8600-«Sotib olingan xususiy aksiyalar» schyoti bilan buxgalteriya balansi passivining xuddi shu nomdagi moddasi bilan taqqoslanadi. Ikkala summa bir-biriga mos kelishi lozim. Shundan so'ng ushbu ma'lumotlar hisobotga kiritiladi.

Xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari ko'rsatkichida sotib olingan xususiy aksiyalarni sotilishi yoki sotib olinishi natijasida ko'payishi yoki kamayishi ko'rsatiladi.

Yil oxiridagi qoldiq summasini aniqlashda buxgalteriya hisobining 8600 «Sotib olingan xususiy aksiyalar» schyoti va buxgalteriya balansi passivining «Sotib olingan xususiy aksiyalar» moddasi ma'lumotlarini taqqoslash yo'li bilan tekshiriladi. Agar ular o'rtasida tafovut bo'lmasa, unda ushbu ma'lumotlar hisobga kiritiladi.

Sotib olingan xususiy aksiyalar summasining yil boshiga va oxiriga bo'lgan qoldiq summalari o'rtasidagi farq summasi «Xususiy kapitalning ko'payishi (+) yoki kamayishi (-)» ko'rsatkichini to'ldirish uchun (120-satr) asos bo'ladi.

Shunday qilib, sotib olingan xususiy aksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy kapitalning asosini tashkil qiluvchi oddiy va imtiyozli aksiyalarni boshqarish jarayonini ifodalaydi.

6.8. Xususiy kapital to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirish qoidalari

Korxonalar faoliyatining barqaror rivojlanishida maqsadli tushumlar alohida ahamiyatga ega. Maqsadli tushumlar tarkibi quyidagilardan iborat:

- grantlar;
- subsidiyalar;
- a'zolik badallari;
- maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari;
- boshqa maqsadli tushumlar.

Maqsadli tushumlarni korxonaning xususiy kapitali tarkibiga kiritish uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

- a) mablag'larning belgilangan maqsadlar uchun ishlatilishi;
- b) mablag'larni jalb qilish uchun xarajatlarning mavjud emasligi;
- v) belgilangan shartlar bajarilganda berilgan mablag'larning qaytarilmasligi.

Grant ijtimoiy xususiyatga ega maqsadlar, iqtisodiyotni rivojlantirish, ilmiy-texnik va innovatsion dasturlarni bajarish uchun hukumat, nodavlat, xorijiy hamda xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar tomonidan ko'rsatiladigan bepul, gumanitar yoki moddiy-texnik mablag'lar tushuniladi. Grant mablag'lari qat'iy ravishda belgilangan maqsadlarga ishlatiladi.

Chet el valutasida olingan grant summasi xo'jalik muomalalari amalga oshirilgan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining kursi bo'yicha milliy valutaga o'tkaziladi.

Grant (subsidiya) xo'jalik yurituvchi su'yektlarga belgilangan shartlarni bajarganlarida iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida davlat yoki xalqaro xorijiy tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan pul yoki natura ko'rinishidagi yordam tushuniladi. Shu bilan birgalikda subsidiya va grantlar turli nodavlat, xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar tomonidan ma'lum dasturlarni amalga oshirish uchun korxonalariga taqdim etilishi mumkin.

A'zolik badallari ta'sis hujjatlarida jamiyat a'zolarining to'lashi ko'rsatilgan summa bo'lib, undan yig'ilgan mablag'lar korxonani rivojlantirish va boshqa turli maqsadlar uchun sarflanadi.

A'zolik badallari summalari ularni to'lash tartibi va yig'ilgan barcha summalarining qaysi maqsadlar uchun sarflanishi ta'sis hujjatlarida belgilab beriladi.

Korxonalarining rivojlanishini ta'minlash maqsadida hukumat qarori bilan ma'lum davrga ularni soliq to'lashdan ozod qilinadi. Soliq to'lashdan ozod qilinishi natijasida bo'shagan mablag'lar aniq belgilangan maqsadlar uchun ishlatiladi. Ushbu mablag'lar boshqa maqsadlar uchun ishlatilganda jarima va jazo choralari qo'llaniladi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda yuqoridagi maqsadga tushumlarning barchasi «maqsadli tushumlar» ustunida ko'rsatiladi.

Umuman maqsadli tushumlar ustunida maqsadli tadbirlarni amalga oshirish uchun byudjetdan, maxsus jamg'armalar, boshqa korxonalar, jismoniy shaxslardan grantlar, subsidiyalar, a'zolik badallari ko'rinishida tekinga olingan aktivlar va boshqa maqsadli tushumlar, shuningdek o'z kapitalini shakllantirishning boshqa manbalari ko'rsatiladi. Ushbu ustunda quyidagi ko'rsatkichlarning to'ldirilishi belgilangan:

yil boshiga qoldiq;

maqsadli foylanish uchun olingan mablag'lar;

xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari;

yil oxiriga qoldiq.

Yil boshiga qoldiq summasini aniqlash uchun buxgalteriya hisobining 8800-«Grantlar, subsidiyalar va beg'araz yordamlar schyoti»ning joriy yilning boshiga qolgan qoldiq summasi olinadi. Ushbu ma'lumotni hisobotda ko'rsatishdan oldin uni buxgalteriya balansining passividagi «maqsadli tushumlar» moddasi (460-satr) bilan solishtirish maqsadga muvofiqdir. Ikkala summaning bir-biriga mosligi tekshirilgandan so'ng, uni hisobotga kiritiladi. Maqsadli foydalanish uchun olingan mablag'lar ko'rsatkichini aks ettirish uchun ma'lumotlar buxgalteriya hisobining 8800-«Grantlar, subsidiyalar va beg'araz» yordamlar schyotining yil davomidagi aylanmasining yig'indisi olinadi. Ushbu ma'lumotlarning to'g'riligi va aniqligiga ishonch hosil qilish uchun ushbu ma'lumotlarni yutilgan grantlar, berilgan subsidiyalar va beg'araz yordamlarni olishda asos bo'lgan hujjat ma'lumotlari bilan taqqoslaniladi. Shuningdek, ushbu mablag'larning kelib tushishi ularni hisobga oluvchi schyotlarning ma'lumotlari asosida tekshiriladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalarida grantlar, subsidiyalar, a'zolik badallari va soliq imtiyozlaridan tashqari kelib tushgan mablag'lar ko'rsatiladi.

Yil oxiriga qoldiq summasini aniqlash uchun 8800-«Grantlar, subsidiyalar va beg'araz yordamlar» schyotining yil oxiriga bo'lgan summasi olinadi. Ushbu ma'lumotning to'g'riligini tekshirish uchun yangi yilning birinchi kuniga tuzilgan balans passividagi «maqsadli tushumlar» moddasida ko'rsatilgan summa bilan taqqoslanadi. Shuningdek, ushbu schyotning yil boshiga qoldig'i va hisobot davridagi aylanmasi ma'lumotlari tekshirib ko'riladi. Shundan so'ng ushbu ma'lumotlar hisobotda aks ettiriladi.

Maqsadli tushumlar hisobiga xususiy kapitalning ko'payishi (+) yoki kamayishi (-) hisobotning 120-satrida ko'rsatiladi. Ushbu summani aniqlash uchun hisobotning yuqoridagi ko'rsatkichlari summalari asos bo'lib xizmat qiladi.

6.9. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari izoh va tushuntirish xatlarida ochib berish

Yillik moliyaviy hisobotga ilova qilinadigan izoh va tushuntirish xatlari tashqi foydalanuvchilar uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki moliyaviy hisobotda korxonada faoliyatining barcha sohalari to'g'risida to'liq ma'lumotlar berish imkoniyati mavjud emas. Shuning uchun izoh va tushuntirish xatlarida asosiy ko'rsatkichlarning mazmuni to'g'risida kengroq ma'lumotlar beriladi.

Xususiy kapital to'g'risidagi ma'lumotlarni izoh va tushuntirish xatlarida yoritish alohida mohiyatga ega. Chunki ushbu hisob ko'rsatkichlari asosida qo'shimcha ma'lumotlarsiz aniq xulosaga kelish imkoniyati mavjud emas. Ushbu hisobot shaklida juda ko'pchilik qatorlar to'ldirilishi belgilanmagan.

Tushuntirish xatida qimmatli qog'ozlar emissiyasi ko'rsatkichini ochib berishda, joriy yilda emissiya qilingan qimmatli qog'ozlar va ularning joylashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning qanchasi korxonada ishchi va xodimlari o'rtasida joylashtirilganligi hamda qancha imtiyozli va oddiy aksiyalar ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi. Bu ma'lumotlar korxonada qimmatli qog'ozlar emissiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar olish uchun yetarli bo'ladi.

Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash to'g'risidagi ma'lumotlarni izoh xatida keltirishda eng avvalo baholashda qanday usuldan foydalanilganligi yoritishi lozim. Shundan so'ng uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash natijalari ochib beriladi.

Ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo'lgan valuta kursi farqlari moddasini ochib berishda eng avvalo xorijiy valutada ustav kapitalini shakllantirish uchun kelib tushadigan summa va ularning kelib tushish sanalari to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, haqiqatda kelib tushgan mablag'lar hamda ulardan olingan kursdagi farq summalarini haqidagi ma'lumotlarning izoh xatlarida keltirilishi ushbu ma'lumotlarni to'ldiradi.

Rezerv kapitaliga ajratmalar moddasini ochib berishda korxonada ustavida belgilangan ajratma hajmini va uning bajarilishi, shuningdek taqsimlanmagan foyda hisobidan ajratilgan summalar hamda ularning foydalanishi haqidagi ma'lumotlarning ochib berilishi tashqi foydalanuvchilar uchun ahamiyatli hisoblanadi.

Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi to'g'risidagi ma'lumotlar va ushbu mablag'larning qaysi maqsadlar uchun ishlatilishi to'g'risidagi ma'lumotlar izoh xatida o'z aksini topadi. Tekinga olingan mol-mulk va uning tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar korxonaga joriy yilda kelib tushgan ushbu mablag'lar va ularning kelib tushish manbalari, sabablari hamda ularning qaysi maqsadlar uchun ishlatilishi to'g'risidagi axborotlarni tushuntirish va izoh xatlarida keltirishni talab qiladi.

Maqsadli foydalanish uchun mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlar korxonaning moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib, tushuntirish va izoh xatlarida quyidagi masalalar ochib berilishi lozim:

maxsus foydalanish uchun olingan mablag'larning tartibi;

sotib olingan grantlarning maqsadi va vazifalari hamda ularning qiymati, sarflanadigan ob'yektlari ulardan korxonani rivojlantirish uchun olinadigan naflar;

subsidiya berishdan ko'zlangan maqsad va korxonaning rivojlanishiga ta'siri hamda kelgusida moliyaviy natijalarga ta'siri;

a'zolik badallarini to'lash tartibi, uning maqsadi va korxonaning rivojlanishiga ta'siri:

maqsadli soliq imtiyozlarini berishdan ko'zlangan maqsad va unga erishishda korxonada oldiga qo'yilgan vazifalar hamda joriy yilda bu sohada bajarilgan ishlar.

To'langan dividendlarning qaysi maqsadlar, ya'ni imtiyozli aksiyalar va oddiy aksiyalar uchun yo'naltirilgan mablag'lari to'g'risidagi ma'lumotlar ochib beriladi. Shuningdek, taqsimlanmagan foydaning dividendlar to'lash uchun ajratilgan qismi va oxirgi yillardagi o'sish yoki kamayish tendensiyalari ochib berilishi lozim.

Xususiy kapital shakllanishidagi boshqa manbalar to'g'risidagi ma'lumotlarni ochib berishda har bir manba va uning shakllanishi hamda maqsadini yoritish zarur.

Izoh va tushuntirish xatlarida xususiy kapital to'g'risida yuqoridagi ma'lumotlarning ochib berilishi tashqi foydalanuvchilar uchun yetarli ma'lumotlar majmuini shakllantiradi.

Xulosa

Taqsimlanmagan foyda xususiy kapitalda muhim manba hisoblanadi. Korxonada uni to'la ishlatishi ham mumkin. Bu bir jihatdan ijobiy hol deb qaraladi, ya'ni yaratilgan qiymat yoki iqtisodiy naf to'liq ishlab chiqarishni rivojlantirishga yoki dividend uchun to'langan deb hisoblanadi. Ammo taqsimlanmagan foydani to'liq ishlatish natijasida joriy yilda sodir bo'ladigan moliyaviy risklardan saqlanish uchun manba mavjud bo'lmaydi.

Grant (subsidiya) xo'jalik yurituvchi su'yektlarga belgilangan shartlarni bajarganlarida iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida davlat yoki xalqaro xorijiy tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan pul yoki natura ko'rinishidagi yordam tushuniladi.

Sotib olingan xususiy aksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy kapitalning asosini tashkil qiluvchi oddiy va imtiyozli aksiyalarni boshqarish jarayonini ifodalaydi.

Xususiy kapital shakllanishidagi boshqa manbalar to'g'risidagi ma'lumotlarni ochib berishda har bir manba va uning shakllanishi hamda maqsadini yoritish zarur.

Nazorat va muhokama qilish savollar

1. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot mazmuni va ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlari nimalardan iborat?
3. Ustav kapitalining shakllanishi va uning xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish tartibini izohlab bering.
4. Qo'shilgan kapital bilan bog'liq muomalalarni «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda» aks ettirish tartibini izohlab bering.
5. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda rezerv kapitaliga oid ko'rsatkichlarni kiritishda qanday qoidalarga amal qilish lozim?
6. Taqsimlanmagan foyda to'g'risidagi ma'lumotlarning shakllanishi va ularni hisobda aks ettirish tartibini tushuntirib bering.
7. Sotib olingan xususiy aksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar hisobotda qanday tartibda aks ettiriladi?

8. Xususiy kapital to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirishda qanday qoidalar qo'llaniladi?
9. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini izoh va tushuntirish xatlarida ochib berish tartibini tushuntirib bering.
10. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni boshqa hisobot shakllaridan farqli jihatlari nimalardan iborat.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Абдуллаев А., Қаюмов И. Бухгалтерия ҳисоби.: 2-қисм. -Т.: Минхож, 2002.
2. Астахов В.П. Теория бух. учёта Учебное пособие. -М.: ИКЦ МарТ Ростов н/Д, 2004.
3. Байда Т.П. Теория бухгалтерского учёта задачи и ситуации. Учебное пособие -М.:Ф и С, 2004.
4. [http:// www. accounting. rut gars. Edu](http://www.accounting.rutgars.edu)

7-bob. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot

7.1. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning mazmuni va mohiyati

Mamlakatimiz iqtisodiyotida eksport va import operatsiyalarini amalga oshiradigan, yirik ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar, o'z shuba, qaram korxonalariga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi su'yektlarning ko'payishi, korporativ boshqaruv va uning asosidagi operatsiyalarning amalda keng joriy etilishi, buxgalteriya hisobi va tahlil borasida ilg'or xorijiy usullarning qo'llanilishi, buxgalteriya hisoboti ma'lumotlarini umumlashtirish hamda hisobot shakllarining respublika va xorijiy foydalanuvchilarga aniq va tushunarli bo'lishini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar hisobot shakllarini konsolidatsiyalashgan (umumlashtirilgan) hisobot shaklida tuzish va taqdim etish masalalarini to'g'ri tashkil qilishning naqadar dolzarb ekanligini ifodalaydi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslangan holda ta'kidlash mumkinki, har bir mamlakat iqtisodiy rivojida tashqi iqtisodiy faoliyat o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar, korporatsiya va konsernlarda olib borilayotgan buxgalteriya hisobini hisobotlarda umumlashtirilgan holda aks ettirish va mazkur hisobot shakllarini mavjud qonunchilik hamda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida mamlakatimiz iqtisodiy salohiyati va o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda rivojlantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Konsolidatsiyalashgan hisobotlarni tuzuvchi korxonalar quyi korxonalarining barchasi bo'yicha hisobot ma'lumotlari umumlashtirilib, ularning ma'lumotlari birgina konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda o'z aksini topadi.

Milliy ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi, korxonalar salohiyatining yuqori natijaviyligi ko'p jihatdan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining miqdoriy o'sishiga emas, balki ulardan olinadigan samarani oshirishga, ya'ni konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda aks ettirilgan mablag'larning har bir so'miga to'g'ri keladigan mahsulot hajmini ko'paytirishga, ayniqsa eksport hajmini kengaytirishga bog'liqdir.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot - (konsolidatsiya inglizcha consolidate - birlashtirmoq, mustahkamlamoq) hisobot sanasidagi moliyaviy ahvolni va xo'jalik yurituvchi jamiyatlar guruhining hisobot davri uchun moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi umumlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi hisoblanadi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot alohida moliyaviy hisobotlar, ya'ni xo'jalik yurituvchi jamiyatlar guruhi har bir a'zosining umumlashtirish lozim bo'lgan hisobotlarini umumlashtirish asosida tuziladi.

Bosh va shuba korxonalar guruhi hisobotining tavsifi mantiqan Bosh va shuba korxonalar guruhi mazmuni va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot maqsadidan kelib chiqadi. Chunki, konsernni mavjudligini aniqlovchi xususiyat Bosh korxonaning Bosh va shuba korxonalar guruhi jamiyatlarini muayyan darajada nazorat qilish imkoniyati hisoblanadi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning maqsadi Bosh va shuba korxonalar guruhi mulkiy va moliyaviy holati, shuningdek, uning faoliyati natijalarini alohida mustaqil iqtisodiy birlik, konsern misolida ko'rsatish hisoblanadi.

Ushbu maqsadga muvofiq konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tarkibi oddiy jamiyat hisobotiga muvofiq kelishi lozim. Shuning uchun u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

konsolidatsiyalashgan balans;
moliyaviy natijalar to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan hisobot;
pul oqimlari to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan hisobot; tushuntirish xati va izohlar.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning bunday tarkibi BHXSda ham belgilab qo'yilgan. Shuni ta'kidlash joizki, umlashtirilgan moliyaviy hisobot tarkibi muayyan mamlakatlar hususiyatlaridan kelib chiqqan holda ajratilishi mumkin. Masalan, Germaniyada AQShdan farqli o'laroq pul oqimlari to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan hisobot asosiy tarkibiy qism hisoblanmaydi.

Respublikamizda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda moliyaviy hisobot shakllarining barcha turlari to'ldiriladi.

Bosh va shuba korxonalari guruhi hisobotining tarkibi Yevropa mamlakatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning umumiy qoidalarini aniqlaydigan YeIHning 7-yo'riqnomasiga muvofiq, o'z ichiga buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni oladi hamda konsern moliyaviy holati to'g'risidagi hisobot bilan to'ldiriladi. Bunda bosh korxonalar tashabbus tarzida pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni qo'shimcha tuzishi, shuningdek, konsern moliyaviy hisobotini o'zaro bog'liq korxonalar boshqaruvi rahbariyatining ma'ruzasi bilan to'ldirilishi mumkin.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzishda birlashtirish ob'yektlari yoki birlashtirish doirasi ya'ni Bosh va shuba korxonalari guruhi hisobotiga kiritilishi lozim bo'lgan jamiyatlarni aniqlash ancha murakkab hisoblanadi.

Dastlab konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot 1866-yilda Cotton Oil Trust kompaniyasi tomonidan tayyorlangan edi. AQShdagi Price Waterhouse auditorlik firmasi vakili, ingliz buxgalteri Artur Dikinson umumlashtirish muallifi hisoblanadi. U mazkur kompaniya bosh buxgalteri V.Filbert bilan birgalikda o'zaro hamkorlik qiluvchi kompaniyalar yaxlitligiga doir iqtisodiy nazariyadan foydalangan holda umumlashtirish tartibini ishlab chiqdi.

Yevropa mamlakatlarida umumlashtirish g'oyalari kechroq rivojlandi. Bu borada Gollandiya ancha ilg'or bo'lib chiqdi Mueller So firmasining konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti haqidagi dastlabki ma'lumot 1926-yilda qayd etilgan.

Germaniyada 30-yillargacha konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot deyarli qo'llanilmagan. Faqat 1965-yilga kelib, hisob yuritishda umumlashtirish majburiy deb e'lon qilindi. Ayni paytda u inglizcha-amerikacha amaliyotdan farq qilar edi va bu tafovut 1985 yilda YeIHning 7-sonli yo'riqnomasi bilan bartaraf etildi.

Fransiyada 1983-yilgacha umumlashtirish haqida maxsus qonun yo'q edi, shu tufayli konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ayrim hollarda tuzilar edi. Biroq iqtisodiy jarayonlar taqozosi bilan 1983-yilga kelib qimmatli qog'ozlar birjasida ro'yxatdan barcha o'tgan kompaniyalarning 75%i ixtiyoriy ravishda umlashtirilgan moliyaviy hisobot tuzdi.

Yevropaning boshqa mamlakatlarida bu boradagi dastlabki ishlar 80-yillarda boshlangan.

Yaponiyada «Buxgalteriya hisoboti bo'yicha nizam» 1977-yilda Moliya vazirligi tomonidan chiqarilgan bo'lib, uning tamoyillari ingliz-amerika maktabining ta'limotiga asoslangan. Korxonalarni samarali boshqarishda xalqaro tajribani qo'llash zarurati umumlashtirish nazariyasini amaliyotga joriy etishni taqozo etdi. Shu maqsadda qator xalqaro tashkilotlar qoshida maxsus qo'mitalar tashkil etildi. Shulardan eng nufuzlisi BMT qoshida 1973-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari qo'mitasidir (IASC), dastlab unga 13 ta mamlakat: AqSh, Angliya, Germaniya, Fransiya kabi davlatlar a'zo bo'lib kirdilar. qo'mita ustavida uning vazifalari quyidagicha belgilangan:

moliyaviy hisobot tuzish va taqdim etishda qo'llanilishi lozim bo'lgan buxgalteriya hisobining standartlarini shakllantirish va nashr etish, ularning butun dunyoda qabul qilinishini rag'batlantirish va joriy etilishini kuzatish;

moliyaviy hisobot tuzishga tegishli bo'lgan buxgalteriya hisobi yo'riqnomalari, standartlari va jarayonlarini takomillashtirish hamda uyg'unlashtirish.

Hozirgi kunga kelib, IASC 40dan ortiq standartlarni ishlab chiqqan. Ushbu standartlar (BXXS) tavsiya xususiyatiga ega bo'lib, yuridik jihatdan ularga amal qilish majburiy emas.

70-yillarning o'rtalarida qo'mita umumlashtirish jarayonini tadqiq etishga kirishdi. O'tgan davr mobaynida ushbu muammoga bag'ishlangan 5ta standartni e'lon qildi. Masalan, 14-standart "Segmentlar bo'yicha moliyaviy hisobot", 27-standart "Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot va shuba korxonalariga investitsiyalar hisobini yuritish", 21-standart "Chet el valutasini qayta hisoblash tufayli vujudga kelgan o'zgarishlar hisobini yuritish", 22-standart "Biznes kombinatsiyalari hisobini yuritish" 25-standart "Investitsiyalar hisobini yuritish", shuningdek, 28-standart "Uyushgan kompaniyalarda investitsiyalar hisobini yuritish".

Bu sohada Yevropa Hamjamiyati doirasida ham keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda 1983-yilda mashhur yettinchi direktiva "Hisob yuritish va konsolidatsiyalashgan hisobot" qabul qilindi va u konsolidatsiyalashgan hisobot tarixida muhim bosqich bo'lib qoldi.

Hamjamiyat a'zolariga 1988-yilga kelib, hisob yuritish va hisobotga doir milliy qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish, 1990-yilgacha esa, ushbu direktivani bajarish bo'yicha uslubiy va metodologik tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari topshirildi.

Yettinchi direktiva amalda BXXSni sharhlaydi, konsolidatsiyalashgan hisobot tuzishga doir ko'plab masalalarni tartibga soladi. Chunonchi, u konsolidatsiyalashgan hisobot tuzishning tamoyillari va qo'llanilishi mumkin bo'lgan usullarini belgilaydi, uni tuzishga majbur jamiyatlarni, umumlashtirilishi lozim bo'lgan yoki bo'lmagan jamiyatlarini aniqlaydi. Xususan Yettinchi direktivada konsolidatsiyalashgan hisobotning quyidagi tarkibi ko'zda tutilgan: balans, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, tushuntirish xati, korxonaning moliyaviy holati to'g'risidagi hisobot va auditorlik xulosasi. Konsolidatsiyalashgan hisobot nashr etilishi talab qilinadi.

Asosiy jamiyat konsolidatsiyalashgan hisobotni tuzishga, Yettinchi direktivaga ko'ra, quyidagi hollarda majburdir:

-u ovoz berish huquqiga ega aksiyalarning yoki boshqa jamiyat kapitalining katta qismiga ega bo'lsa;

-rahbariyatning, boshqaruvning yoki taftish komissiyasining asosiy qismini tayinlash va chaqirib olish huquqiga ega bo'lsa va ayni paytda ushbu jamiyat ta'sischisi bo'lsa;

-boshqa jamiyatga uning ta'sis hujjatlariga yoki maxsus shartnomalarga muvofiq hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish huquqiga ega bo'lsa;

-biror jamiyatning ta'sischisi bo'lgan holda boshqa ta'sischilar bilan kelishib, muayyan qarorlarni qabul qilishda ovozlarining aksariyatiga ega bo'lsa.

7.2. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot va jamlanma hisobotning umumiy jixatlari va tub farqlari

Ma'lumki, sobiq Ittifoq davrida jamlanma buxgalteriya va statistik hisobot tuzishda umumlashtirishning ikkita: fabrika-zavod va sohaviy umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Amaliyotda asosan fabrika-zavod usuli qo'llanilar edi. Iqtisodchi olim S.Shenkovning ta'kidlashicha, bunda «Sanoat birlashmalari hisoboti ishlab chiqarish su'yektlari hisobotini arifmetik tarzda jamlash, vazirliklar hisoboti esa bevosita vazirlikka qaraydigan ishlab chiqarish birlashmalari va korxonalari hisobotlarini arifmetik tarzda umumlashtirish yo'li bilan tuzilgan» .

Mazkur usulga ko'ra, ayrim ko'rsatkichlar jamlanma axborotlar bo'yicha o'rt va nisbiy kattaliklarni aniqlash orqali belgilangan, masalan, tovar mahsulotining 1 so'miga nisbatan, xarajatlarga ko'ra o'rtacha daromad va shu kabi. Jamlanma tannarx ko'rsatkichlari sohaviy umumlashtirish usuli orqali hisoblangan.

Jamlanma hisobotning quyidagi turlari mavjud edi:

-ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi to'g'risidagi hisobot;

-ishlab chiqarilgan mahsulot sifati haqidagi hisobot;

-mehnat resurslari to'g'risidagi hisobot;

-ishlab chiqarish vositalari harakati va ulardan foydalanish to'g'risidagi hisobot;

-yangi texnikani joriy etishga oid hisobot;

-ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxiga oid hisobot.

Birlashmalar, bosh boshqarmalar va vazirliklarning hisobotlari ularga qarashli birlashmalar va kornalar faoliyatining umumiy natijalarini ifodalay edi. Hisobga olingan ko'rsatkichlar tizimi bevosita xalq xo'jaligini yuksalashtirish bilan bog'liq bo'lib, bosh va shuba korxonalari guruhining amaldagi moliyaviy faoliyati natijalarini baholashga yo'naltirilmagan edi.

Jamlanma hisobotning kamchiliklariga nafaqat hisobot shakllarining hajmi kattaligini, axborotlar texnologiyasining nomukamalligini, balki unda ko'pgina ko'rsatkichlarning takrorlanishi kiritish mumkin.

Umumlashtirishning fabrika-zavod usuli qo'llanilganda, jamlanma hisobotning aksariyat ko'rsatkichlari alohida korxonalar hisobotlari ko'rsatkichlarining to'plamidan iborat bo'ladi.

Korxonalar o'rtasidagi muomalalarni e'tiborga olmagan holda hisobotning bir turdagi ko'rsatkichlarini jamlanishi ikki xil hisob paydo bo'lishiga, xo'jalik mablag'lari qiymatining, hisobot foydasi hajmining o'sishiga olib kelar edi. Shu sababli jamlanma hisobotdan foydalanishda moliyaviy va mulkiy holatni, shuningdek, birlashma faoliyatining amaldagi samarasini baholab bo'lmas edi.

Mulkchilikning aksionerlik shakli va xususiylashtirish, moliya bozorlarining shakllanishi korxonalarining bosh va shuba korxonalari guruhiga birlashishida muhim omil bo'ldi. Birlashish natijasida bir necha jamiyatlar Bosh va shuba korxonalari guruhlari - konsernlar, konsorsiumlar, xolding kompaniyalari paydo bo'lgach, «hisobot tuzishga nisbatan yangi, alohida shartlar qo'yila boshlandi». Yangi tuzilma hisoblangan bosh va shuba korxonalari guruhi hisobotini tuzishning nazariy va amaliy asoslarini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etdi. Hisobotning ushbu turi umumlashtirilgan (buxgalteriya) hisoboti deya yuritilib, ko'p vaqtdan buyon g'arb olimlari tomonidan tadqiq kilinmoqda, ko'p jihatlar ishlab chiqilgan. qayd etilganidek, mamlakatimizdagi birlashmalar va vazirliklarning jamlanma hisobotlari va hozirgi ma'nodagi konsolidatsiyalashgan hisobot bir-biridan farq qiladi. Y'tmishda bizning mamlakatimizda umumlashtirish muammolari batafsil o'rganilmagan, zero bu hol mavjud tizimning iqtisodiy va siyosiy-huquqiy talablariga mos kelmas edi.

Shunday qilib, rejali iqtisodiyotga xos bo'lgan jamlanma hisobot bilan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot o'rtasidagi farq birinchidan, ularning maqsadli yo'naltirilishida bo'lsa, ikkinchidan hisobotlarni tuzish usullari va ko'rsatkichlar tarkibiga bog'liq. O'xshash jihatlari shundaki, hisobotning har ikkala turi o'zaro bog'liq tashkilotlarning yaxlit hisobotidir.

Bosh korxonaning o'z faoliyati haqidagi buxgalteriya hisoboti va shuba korxonalar bilan birgalikdagi umumlashtirilgan moliyaviy hisobot o'ziga xos qoidalar bo'yicha tuziladigan ikki xil hisobot shaklidir.

Ikkinchidan, jamlanma hisobot nafaqat shuba, balki qaram korxonalar ma'lumotlarini ham qamrab oladi. Shu sababli bosh korxonalar o'z hisobotidan tashqari nafaqat o'zining, balki shuba va qaram jamiyatlar ma'lumotlarini qamrab oladigan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar tuzishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, jamlanma hisobotning boshqa ayrim kamchiliklari ham bor. Masalan, biror jamiyatni shuba korxonalari guruhiga kiritish, umumlashtirish uslubiyotini tavsiflash va shu kabilarning mezoni juda yuzaki tushuniladi.

Ayni paytda Bosh va shuba korxonalari guruhi hisobotiga nisbatan «konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot» atamasining maqsadga muvofiqligi:

-konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzishda aniqlik va qisqalik ta'minlanadi;

-ushbu atama amaliyotda keng qo'llanilmoqda va noaniqlikka olib kelmaydi;

-bunday nom xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan atamaga mos keladi.

7.3. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning huquqiy va me'yoriy asoslari

O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunining 17-moddasida shunday deyiladi:

1. “Shuba korxonalari, filiallari va vakolatxonalari bo’lgan korxonalar konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzadi.

2. Shuba korxonalariga qo’shilgan hissalar bosh korxonaning moliyaviy hisobotida uning moliyaviy qo’yilmalari sifatida aks ettiriladi.

3. Yuridik shaxslar o’z filiallari, vakolatxonalari va boshqa tarkibiy bo’linmalarini mustaqil balansga ajratishlari mumkin bo’lib, ularning balanslari va boshqa hisobot shakllarini o’zlarining konsolidatsiyalashgan hisobotiga kiritishlari shart.

4. Konsolidatsiyalashgan hisobotga bosh korxonalar, uning shuba korxonalari, filiallari va vakolatxonalarining moliyaviy hisobotlari ilova qilinadi.

5. Konsolidatsiyalashgan hisobot buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq tuziladi.

6. Ushbu moddaning talablari vazirliklar, idoralar va byudjet tashkilotlarining jamlama moliyaviy hisobotiga nisbatan tatbiq etilmaydi.”¹²

7. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shuba korxonalari, filiallari va vakolatxonalari bo’lgan xo’jalik yurituvchi su’yektlar moliya-xo’jalik faoliyatini buxgalteriya hisobini umumlashgan ma’lumotlarini aks ettirishda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning o’rni nihoyatda kattadir.

Shuba korxonalari, filiallari va vakolatxonalari bo’lgan korxonalar konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti, shuba korxonalariga qo’shilgan bosh korxonalar ulushini hisobotlarda aks ettirilish tartibi, yuridik shaxslar o’z filiallari, vakolatxonalari va tarkibiy bo’linmalarini mustaqil balansga ajratish va ularni bitta umumlashgan hisobotda aks ettirilishi, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarga asos bo’luvchi buxgalteriya hujjatlari, konsolidatsiyalashgan hisobotlarni tuzish va uning usullari, ma’lumotlarni jamlash, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish, shuba xo’jalik jamiyatlariga investitsiyalarni bosh jamiyatning alohida moliyaviy hisobotida hisobga olish tartibini belgilab beruvchi O’zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to’g’risida»gi Qonuni, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 25-iyundagi 227-sonli “Statistika va moliya hisobotini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori, «Hisob yuritish siyosati va moliyaviy hisobot» nomli 1-son BHMA, «Konsolidatsiyalashgan moliyaviy xisobotlar va shuba xo’jalik jamiyatlariga sarmoyalarni hisobga olish» nomli 8-son BHMA, «Xo’jalik yurituvchi su’yektlar moliyaviy-xo’jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo’llash bo’yicha yo’riqnoma» nomli 21-son BHMA kabi me’yoriy huquqiy hujjatlar tashkil etadi va bu me’yoriy huquqiy hujjatlar asosida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzish, taqdim etish tartibi va qoidalari amalga oshiriladi.

«Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar va shuba xo’jalik jamiyatlariga sarmoyalarni hisobga olish» nomli 8-son BHMA hamda buxgalteriya hisobi va auditning milliy standartlarini ishlab chiqilishi buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini umumlashtirib ko’rsatishda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, ularni tuzish va foydalanuvchilarga taqdim etishning yangicha tartibini belgilab berdi.

¹² Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни. 17-модда, 1996 йил 30 август.

Respublikamiz iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi jarayonida buxgalteriya hisobi va hisobotini isloh qilish respublikamizda mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda, xalqaro standartlar doirasida tashkil etish va yuritishni talab etadi. Buxgalteriya hisobotlarini tuzishda, avvalo, hisob yuritish siyosatiga amal qilish lozim. Hisob yuritish siyosati deganda, xo'jalik yurituvchi su'yekt rahbarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tamoyil va me'yoriy qoidalariga mos ravishda yuritish va tuzish uchun qo'llaniladigan usullar majmui tushuniladi.¹

«Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar va shuba xo'jalik jamiyatlariga sarmoyalarni xisobga olish» nomli 8-son BHMA shuba korxonalari, filiallari va vakolatxonalari bo'lgan korxonalar buxgalteriya hisobining asosiy umumlashtiruvchi hujjati bo'lgan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish, taqdim etish tartibini belgilab beradi. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya xisobi to'g'risida»gi qonuni asosida ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini me'yoriy jihatidan tartibga solish tizimining elementi bo'lib hisoblanadi. Ushbu standartda shuba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalarni bosh jamiyatning alohida moliyaviy hisobotida hisobga olish tartibi ham ko'rib chiqilgan.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishdagi asosiy qoidalar ularda aks ettiriladigan xo'jalik mablag'larini aktivlar deb e'tirof etish paytini aniqlash, bu aktivlarga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan ularni qiymatini aniqlash, shuningdek, aktivlar yuzasidan amalga oshiriladigan operatsiyalarning qiymatidagi boshqa o'zgarishlarni aniqlash va hisobga olishdan iborat bo'ladi.

7.4. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish tamoyillari

Iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni doimiy ravishda modernizatsiyalash va texnologik jihatdan yangilab borish iqtisodiyotni isloh etishning strategik vazifalaridir. Bu strategik vazifalarni amalga oshirishda shuba korxonalari, filiallari va vakolatxonalari bo'lgan xo'jalik yurituvchi su'yektlar tomonidan buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar asosida umumlashtirishni yo'lga qo'yish va ularni to'g'ri tashkil etish hamda qoida va tamoyillarga muvofiq tuzishga to'g'ri keladi.

Bu esa ko'p jihatdan shuba korxonalari, filiallari va vakolatxonalari bo'lgan xo'jalik yurituvchi su'yektlarda quyi tashkilot va korxonalarining buxgalteriya hisobi va hisobotini to'g'ri tashkil qilish va yuritishga, ularning ma'lumotlarini belgilangan tartib va bosqichlar asosida to'g'ri hisobga olish hamda ularni to'g'ri umumlashtirishni optimal variantda tashkil etishga bog'liqdir. Buni shunday izohlash mumkinki, ushbu tizimda milliy standartlarning amaliyotga kiritilishi tegishli korxonalarda bu turdagi hisobot shakllarini tuzishning yangicha tartibini belgilab bermoqda.

¹ «Хисоб сиёсати ва молиявий ҳисобот» номли 1-сон БҲМС. //Солиқ тўловчининг журнали, №11, 1998. 3-банд.

Aynan mana shu o'zgarishlar korporativ va transmilliy korxonalarda moliyaviy hisobot tuzish borasida ham yangicha hisob yuritish tartibi yuzaga kelganligi bilan izohlanadi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish tamoyillari quyidagi qoidalarga asoslanadi:¹³

-ikki yoqlamali yozuv asosida yuritilgan hisob ma'lumotlarini konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda aks ettirish;

-konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni uzluksizligini ta'minlash;

-konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda hisob ob'ektlarini pul(so'm)da baholanishi;

-konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ma'lumotlarini aniqligi;

-konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda hisoblash tamoyili;

-konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda oldindan ko'ra bilish;

konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda mazmunning shakldan ustunligi;

-konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda ko'rsatkichlarning jipslanuvchanligi;

-konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning betarafligi;

-konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda daromadlarning to'g'ri aks ettirilganligi;

-konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda xarajatlarning to'g'ri ifodalanganligi;

-konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining haqiqiy baholanishi.

Ushbu qoidalar doirasida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Hisob tamoyillari va standartlari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishda asos bo'lish bilan birgalikda, Respublikada konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning yagonaligini ta'minlanishiga xizmat qiladi.

7.5. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning jahon amaliyotida qo'llaniladigan usullari

Umumlashtirish maqsadida bosh va shuba korxonalari guruhini bosh korxonaga qaram jamiyatlardan iborat yagona iqtisodiy tuzilma sifatida baholab, bosh korxonaga qaram barcha jamiyatlarning aktiv va passivlari, daromad va xarajatlari umumlashtirilishi lozim. Mazkur jamiyatlar qatoriga turli mamlakatlarda joylashgan, faoliyatning barcha huquqiy shakllaridagi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni har xil usullar hamda turli hisobot muddatidan foydalangan holda tuzadigan jamiyatlar va korxonalar kiradi.

Bosh korxonaning bosh va shuba korxonalari guruhning qolgan jamiyatlariga muayyan darajada ta'sir qilishi konsern mavjudligining asosiy belgisi hisoblanar ekan, xalqaro amaliyotda ushbu ta'sir quyidagi uchta turli darajaga bo'linadi:

1) hal qiluvchi ta'sir,

¹³Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни, 6-модда, 1996 йил 30 август

2) hamkorlikdagi ta'sir,

3) ahamiyatli ta'sir.

Ta'sir (nazorat) - jamiyatning moliyaviy va tezkor faoliyatini moliyaviy yoki nomoliyaviy xususiyatga ega iqtisodiy foyda olish maqsadida boshqarish imkoniyatidir.

Hal qiluvchi ta'sir - bu iqtisodiy siyosatni aniqlash imkonini beradigan va shuba korxonasi, bosh korxonadan boshqaruv qarorlari so'zsiz qabul qilinishini ta'minlaydigan nazoratdir.

Ahamiyatli ta'sir moliyaviy va rasmiy qarorlarni hal etishda ishtirok etish imkonini beradi, biroq, hal qiluvchi ta'sirdan farqli ravishda ularni aniqlamaydi.

BHXSga ko'ra, bosh va shuba korxonalarini guruhining jamiyatlari uchta alohida jamiyatga bo'linadi: shuba, birgalikda nazorat qilinadigan va qaram jamiyatlar. Shunday qilib, shuba va qaram jamiyatlar bosh va shuba korxonalarini guruhi (konsern, korporativ oila) a'zolari hisoblanadi. Qaram jamiyatlar birlashish maqsadlariga qarab, bevosita qaram va qo'shma (hamkorlikda nazorat qilinadigan) jamiyatlarga bo'linadi.

Yuqorida bosh va shuba korxonalarini guruhi jamiyatlarining ularga bosh korxonadan ta'siri darajasidan qat'iy nazar bo'linishini ta'kidlagan edik. Biroq, bunda muayyan jamiyatga ta'sir darajasini aniqlaydigan mezonlar yoki belgilar aniqlanmagan edi. quyida BHXS tarkibidagi ob'yektiv belgilar tahlil qilinadi. Mazkur belgilarga muvofiq hal qiluvchi, hamkorlikdagi va ahamiyatli ta'sir o'rtasidagi bo'linishni keltirish mumkin.

Agar bosh korxonadan shuba aksionerlik korxonasi ovozlarning yarmidan ko'piga yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etilgan shuba jamiyati ustav kapitalining yarmidan ko'piga ega bo'lsa umumiy holatda hal qiluvchi ta'sirning mavjudligi taxmin qilinadi. Chunki, shunday vaziyatlar bo'ladiki, ovozlar yoki kapitaldagi ulushning ko'pligiga qaramasdan bosh korxonadan shuba jamiyatiga (masalan, uning Nizomida cheklanish qayd etilgan bo'lsa) hal qiluvchi ta'sir ko'rsata olmaydi. IAS (BHXS) qoidalariga muvofiq, bunday jamiyatlar birlashtirilayotganda shuba jamiyati hisoblanmaydi. Ayni paytda, teskari holat ham paydo bo'lishi mumkin. Bunda Bosh korxonadan shuba jamiyatda ovozlarning yarmidan kamiga ega bo'ladi ya'ni:

-aslida boshqa aksiyadorlar bilan shartnoma asosida ovozlarning yarmidan ko'piga ega bo'lsa;

-ushbu jamiyatga shartnoma (g'arbda "Hukmronlik to'g'risida shartnomalar" deb nomlangan) asosida yoki Nizom qoidasiga muvofiq hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'lsa;

-boshqaruv a'zolarining aksariyat qismini tayinlash yoki chaqirish imkoniga ega bo'lsa;

-ko'pchilik qaroriga ta'sir qilish ya'ni Boshqaruv va shunga o'xshash organ yig'ilishida o'z siyosatini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lsa.

Bunday holatlarda Bosh korxonadan aslida hal qiluvchi ta'sir qilishni amalga oshirgani sababli bu jamiyatlar shuba jamiyatlari sifatida ko'rib chiqiladi.

Amaliyotda, ishtirok etish tizimi tarmoqlarga bo'linishi ya'ni bunda bitta Shuba jamiyati o'z navbatida boshqa jamiyatlarga ega bo'lish holatlari uchraydi.

Shuningdek, o'ziga xos kichik korxonalar ham paydo bo'ladi. Ushbu korxonalar shuba, qaram yoki hamkorlikda nazorat qilinadigan bo'lishi. Muayyan kichik korxonalar qaysi turga kirishini aniqlash uchun quyidagi qoidaga amal qilish kerak: bosh korxonalar ovozlarning foizini yoki nabira kompaniya kapitalidagi ulushini aniqlashda kompaniya ovozlari (ulushi) uning shuba kompaniyalariga tegishli ovozlarning ulushi bilan qo'shilishini hisobga olish lozim.

Yuqorida ko'rib chiqilgan barcha turdagi: Shuba, hamkorlikda nazorat qilinadigan va qaram jamiyatlar alohida ko'zda tutilgan usullar yordamida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotga kiritiladi.

Odatda, jamiyatlar ikkita katta Bosh va shuba korxonalari guruhiga bo'linadi: birlashtirishning tashqi doirasi jamiyati va ichki doirasi jamiyati.

Bosh va shuba korxonalari guruhi ichki doirasiga yaqin bo'lgan dastlabki tuzilma Shuba jamiyatlari hisoblanadi. Chunki asosiy jamiyat ularga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish orqali to'liq nazorat qiladi. Iqtisodiy nuqtai-nazardan qaraganda mazkur jamiyatlar konsernning tashkiliy qismini hosil qiladi. Aynan shu sababli, shuba jamiyatlarining moliyaviy hisoboti konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotga to'liq umumlashtirish usuli yordamida kiritiladi, ya'ni ulardan to'liq hajmda foydalaniladi. Bunda umumlashtirish jarayonlariga quyidagilar kiradi: kapitalni umumlashtirish, «majburiyatlarni» (debitorlik, kreditorlik qarzlarni va rezervlarni) umumlashtirish, «oraliq natijalarni» chiqarib tashlash, daromad va xarajatlarni umumlashtirish. Ushbu holatda shuba jamiyatlari birinchi ichki doira-to'liq umumlashtirish doirasini ifoda etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Shuba jamiyatlarini to'liq birlashtirishda shuba jamiyatining 100 %dan kamroq kapitaliga ega bo'lgan ozchilik ulushi moddasini alohida aks ettirish muhimdir. Ozchilik ulushi (boshqa ishtirokchilar ulushi) deganda bosh va shuba korxonalari guruhi shuba jamiyatlarining kapitali yoki aktivlari hajmida, shuningdek, uning tarkibiga kirmaydigan jamiyatlarga tegishli va ularning foizli ishtirokidan qat'iy-nazar ko'zda tutilgan daromadlari yoki xarajatlari tushuniladi. Ushbu bandni o'z mablag'i sifatida (Birlik nazariyasini qo'llagan holda) yoki qarz kapitali sifatida (Manfaatlar nazariyasini qo'llagan holda) ko'rib chiqish mumkin.

Ikkinchi tuzilma yoki ichki birlashtirishning ikkinchi doirasida Bosh korxonaning ta'sir darajasi qo'shma jamiyatda shuba jamiyatiga nisbatan kamroq bo'lib, u jamiyatning ishtirok ulushi bilan aniqlanadi. Demak, bosh va shuba korxonalari guruhiga hamkorlikda nazorat qilinayotgan (qo'shma) jamiyatdagi asosiy jamiyat ishtirok etish ulushining ma'lum bir qismigina tegishlidir. Shuning uchun, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotga hamkorlikda nazorat qilinayotgan jamiyatlar moliyaviy hisoboti mutanosib birlashtirish usuli orqali kiritiladi. Bu usul shuba jamiyatlarini to'liq umumlashtirish usuliga o'xshash, faqat uning quyidagi o'ziga xos xususiyati mavjud:

-qo'shma jamiyat yoki hamkorlik faoliyatining aktiv va majburiyatlari, barcha xarajatlari hamda daromadlari kiritiladi;

-kapitalni umumlashtirish uchun sotib olish usuli qo'llaniladi, ayni paytda birlashtirish usulidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi;

-ozchilik ulushi hisobga olinmaydi va aks ettirilmaydi (bu balans bahosi va yangi qiymat usullarini bir-biriga mos kelishiga olib keladi).

Bosh va shuba korxonalari guruhi qo'shma jamiyati va jamiyatlari o'rtasidagi muomalalar bosh korxonaning ishtirok etish ulushiga mutanosib ravishda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotdan chiqariladi.

7.5.1-jadval

Ishtirok ulushi 30 % bo'lganda hamkorlikda nazorat qilinadigan jamiyatlarni mutanosib ravishda birlashtirish, ming so'mda

Birinci yil (30% ishtirok)	Bosh korxonona	Shuba korxonona			Yig'ma balans	Umumlashtirish		Konso-lidatsiy alashg anbalans
		Buxgal-teriya ma'lumot-	0%	Bozor bahosi		Debet	Kredit	
1	2	3		4	5	6	7	8
Aktiv								
firma bahosi						57900(2)		57900
Aylanmadan tashqari aktivlar	60000	45000	13500	15300	73500	1800(2)		75300
Ishtirok qiymati	75000				75000		75000(1)	
Aylanma	45000	75000		23400	67500	900(2)		68400
Og'ishish						57000(1)	57000(2)	
Jami aktiv	180000	120000			216000			198900
Passiv								
Ustav kapitali	60000	60000			78000	18000(1)		60000
Boshqa	120000	60000		18900	138000		900(2)	138900
Jami passiv	180000	120000			216000	132900	132900	198900

Mutanosib ravishda birlashtirishning birinchi bosqichida ishtirok qiymati (75000 ming so'm) va shuba jamiyatining kapitalidagi tegishli ulush (18000 ming) o'rtasidagi farq aniqlanadi. Bu farq (57000 ming so'm) birlamchi og'ishish sifatida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 1610 Materiallar qiymatidagi og'ishish 57000 ming so'm,

8300 Ustav kapitali hisobi schyotlari 18000 ming so'm

Kredit Ustav kapitaliga badallar bo'yicha ta'sisчилarning qarzi hisobi schyoti 75000 ming so'm

Ikkinchi bosqichda ushbu og'ishish oborotdan tashqari aktivlar bo'limidagi foydalanilmagan rezervlarni - 18000 ming so'm va va aylanma aktivlar bo'limidagi 900 ming so'mni hisobga olish evaziga kamayadi. Boshqa majburiyatlar bo'limida rezervlar 900 ming so'mni tashkil etadi. qolgan summa konsolidatsiyalashgan balansning aktiv qismida aks ettirilgan firma bahosidan iborat bo'ladi. Bu holatda quyidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

Debet 0480 Firma bahosi 57900 ming so'm

Oborotdan tashqari aktivlar 18000 ming so'm
Aylanma aktivlar 900 ming so'm
Kredit 1610 Materiallar qiymatidagi og'ishish 75000 ming so'm
Boshqa majburiyatlar 900 ming so'm

Yuqoridan ko'rinib turibdiki, mutanosib ravishda birlashtirish usulida Bosh va shuba korxonalari guruhi kapitalining hajmi ozchilik ulushi hisobga olinmagan holatda to'liq umumlashtirishdagi kapitalning hajmiga to'g'ri keladi.

Ichki doiraning uchinchi - *Equity* usuli bilan umumlashtirish doirasini Bosh korxonalar iqtisodiy siyosatiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadigan qaram jamiyatlar ifoda etadi. Iqtisodiy jihatdan mazkur jamiyatlar bevosita Bosh va shuba korxonalari guruhi tarkibiga kiradi hamda ularda moliyaviy mablag'larning ishtirok etishi ko'proq ahamiyatga ega. Shuning sababli bunday jamiyatlarni birlashtirish uchun xalqaro tajribada keng qo'llanilayotgan Equity kapitaldagi ulushlar) usulidan foydalaniladi. Bunga muvofiq, konsern moliyaviy hisobotiga yakka tartibdagi ko'rsatkichlardan aktiv va majburiyatlar, daromad va xarajatlar kiritilmaydi. Unda faqatgina qaram jamiyatlarda ishtirok etish qiymati va ushbu qiymatning mazkur jamiyatlarni Bosh korxonalar ulushiga to'g'ri keladigan daromadlari yoki xarajatlari summasini o'zgarishi hamda firma bahosini hisobdan chiqarish summasini o'zgarishi aks ettiriladi.

Tashqi doirani konsentrik konsepsiyaga binoan boshqa jamiyatlar tashkil qiladi. Ularga asosiy jamiyat hal qiluvchi, hamkorlikdagi va ahamiyatli ta'sir ko'rsatmaydi. Bunday jamiyatlarda investitsiyalar iqtisodiy jihatdan kapital sarflashni anglatadi. Shu sababli, ushbu jamiyatlar konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda sotib olish qiymati bo'yicha uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar sifatida aks ettiriladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ayrim hollarda hamkorlikda nazorat qilinayotgan jamiyatlar muayyan sabablarga konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotga kiritilmasa, unda uslubidan foydalaniladi. Equity uslubi agarda qaram jamiyatdagi ulush faqat sotish maqsadida xarid qilingan bo'lsa qaram jamiyat asosiy jamiyat (investor) tomonidan unga ta'sir ko'rsatishni qiyinlashtiradigan cheklanishlar sharoitida faoliyat qo'llanilmaydi.

Mazkur usulning asosiy xususiyati shundan ibortaki, to'liq va mos ravishda umumlashtirish usulidan farqli ravishda, alohida jamiyatning moliyaviy hisobotidagi aktiv va majburiyatlar, daromad va xarajatlar Bosh va shuba korxonalari guruhi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotga kiritilmaydi. Unda faqat ishtirok qiymati qaram jamiyatining o'z kapitalida, Bosh kompaniyaning ishtirok ulushiga mos ravishda aks ettiriladi. Equity qiymatini aniqlash uchun ikki usul qo'llanilishi mumkin:

- balans qiymat usuli;
- mos qiymat usuli.

Balans qiymati usuli qo'llanilganda Equity qiymati birlamchi umumlashtirishdagi qaram jamiyatga katta ta'sir ko'rsatayotgan jamiyat balansida ifodalangan qiymatga ko'ra, ya'ni sotib olish qiymatiga muvofiq belgilanadi.

Mos qiymat usuli ishlatilganda birinchi yilda qaram jamiyatda ishtirok qiymati bo'yicha emas, ta'sir ko'rsatuvchi jamiyatni qaram jamiyatni o'z mablag'i ulushiga mossummada aks etadi. Bunda o'z mablag'i deganda, o'z balans mablag'i emas,

balki yangi qiymat usuliga ko'ra kapitalni umumlashtirishda aktiv va majburiyatlar qayta baholangandan so'ng aniqlanadigan miqdori tushuniladi.

Keyingi davrda umumlashtirilgan moliyaviy hisobotdagi Equity qiymati tegishli qaram jamiyatining o'z mablag'i miqdori o'zgarishiga qarab ko'payadi. O'z mablag'ining bunday ko'payishi yoki kamayishi Bosh va shuba korxonalar guruhining moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotida alohida aks ettiriladi. Bizningcha bu maqsadda qaram jamiyatlarda ishtirok etishdan moliyaviy natija deb atalgan moddani qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Misol. A bosh kompaniya 2007-yilning 1-yanvarida ovoz berish huquqini beruvchi aksiyalarning 40 %ini 10.000.000 so'mga sotib oldi.

V jamiyati aktiv va majburiyatlarining bozor bahosi sotib olingan vaqtda quyidagicha bo'ladi:

Ko'rsatkichlar	Balans qiymati	Bozor qiymati	Foydalanilmayotgan rezervlar
Aylanmadan tashqari aktivlar			
Yer uchastkalari	5.000.0	7.00	5.000.000
Uskunalar	7.000.0	9.00	7.000.000
Avlanma aktivlar	16.000.		
Ustav kapitali	10.000.		
Rezervlar	8.000.0		
Majburiyatlar	10.000.		

Birinchi yilda balans qiymati usuli. Bunda sotib olish va qaram jamiyatning o'z mablag'i mos ulushi o'rtasidagi farqni aniqlash birinchi bosqich sanaladi:

Xarid qiymati	10.000.	
(-) qaram jamiyatning o'z mablag'i mos ulushi (+) $0,4 * (10.000.000 + 8.000.000)$		7.200.000
Og'ishish	2.800.0	

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, og'ishish 2.800.000 so'mni tashkil etgan. Shu bilan birga, uning muayyan qismini chetlashish summasini kamaytiradigan va alohida hisoblanadigan foydalanilmagan rezervlar tashkil qiladi:

Og'ishish	2.800.000
(-) Yer uchastkalari» moddasida foydalanilmagan rezervlarining mos ulushi $(0,4 * 2.000.000)$	800.000
(-) qaram jamiyat o'z kapitalining mos ulushi (+) $0,4 * 2.000.000$	800.000
Firma bahosi	1.200.000

"Bu yerda qolgan qiymat firma bahosini ifodalaydi.

Qaram jamiyatdagi ishtirokning balans qiymati quyidagicha aniqlanadi:

sotib olish qiymati	10.0	
(+) Hisobot vili daromadining mos ulushi	3.60	
(-) Firma bahosining hisobdan chiqarilishi (q) $1.200.000 * 0,25$	300.000	

(-) «Uskunalar» moddasi bo'yicha foydalanilmagan rezervlarning hisobdan chiqarilishi (2.800.000*0.20)		160.000
Balans qiymati (Equity)	13.1	
qaram jamiyatda ishtirok etish, shu jumladan		13.140.00
Ishtirok qiymatini balans qiymatidan og'ishishi (2.800.000-300.000)		2.500.000

Shunday qilib, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan balans qiymati 13.140.000 so'mni tashkil etadi. Odatda, u og'ishish summasini ko'rsatish orqali quyidagicha aks etadi:

Shu bilan birga 2.500.000 so'm dastlabki og'ishish (2.800.000) hamda foydalanilmagan zaxiralar va firma bahosini hisobdan chiqarish o'rtasidagi farq hisoblanadi. Foydalanilmayotgan rezervlar va firma bahosini amortizatsiya qilish moliyaviy natijalar to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan hisobotda quyidagi buxgalteriya yozuvlari yordamida aks ettiriladi:

Debet qaram jamiyatlarda ishtirokining moliyaviy natijasi 460.000 so'm

Kredit 0630 «qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar» 4.000.000 so'm

qaram jamiyatlarning hisobot yili foydasidagi mos ulushi quyidagi buxgalteriya yozuvlari orqali rasmiylashtiriladi:

Debet 0630 «qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar» 3.600.000 so'm

Kredit qaram jamiyatlarda ishtirokning moliyaviy natijasi 3.600.000 so'm

Natijada, Bosh va shuba korxonalarini guruhining moliyaviy natijalar to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan hisobotining «Qaram jamiyatlarda ishtirok etishning moliyaviy natijalari» moddasida 140.000 so'm miqdoridagi summa aks ettiriladi.

7.6. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish oldidan amalga oshiriladigan hisob ishlari

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzishdan oldin yuqorida ko'rib o'tilgan usullarga tayangan holda amalga oshiriladigan hisob ishlari bajariladi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashdan oldin bosh jamiyat va unga qarashli barcha shuba jamiyatlar moliyaviy hisobotlari aktivlarning bir xil moddalarini, majburiyatlarni, o'z mablag'i, daromadlari va xarajatlarini satrma-satr umumlashtirish uchun tayyorlanishi lozim.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot jamlangan hisobotdan farqli o'laroq, yagona jamiyat moliyaviy axborotidan iborat bo'lishi uchun uni tayyorlashdan oldin jamiyat ichki hisob-kitoblari va operatsiyalariga tegishli ma'lumotlar chiqarib tashlanishi lozim.

Bosh jamiyat va shuba jamiyatlarining bir-birlaridagi ulushlar qiymati har birining o'z moliyaviy hisobotlarida aks ettirilganligi bilan konsolidatsiyalashgan

moliyaviy hisobotda o'z aktivlari va sarmoyasini ikki marotaba ko'rsatmaslik uchun shuba jamiyatlariga bosh jamiyat investitsiyalarining balans qiymati va har bir shuba jamiyatning bosh jamiyat sarmoyasidagi ulushi, bosh va shuba jamiyatlar o'rtasida o'zaro hisob-kitob qilish hisobvaraqlari bo'yicha saldo hamda daromadlar, xarajatlar, dividendlar bo'yicha guruh ichidagi operatsiyalar konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish oldidan chiqarib tashlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, daromadlar, xarajatlar, dividendlar bo'yicha guruh ichidagi operatsiyalar natijasida vujudga keladigan amalga oshmagan foyda va zararlar, qoplanishi mumkin bo'lmagan zararlar konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda o'z aksini topishi uchun chiqarib tashlanmaydi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish oldidan shuba jamiyat sof daromadida shuba jamiyat xo'jalik faoliyatining sof daromatlari (zararlari) hamda sof aktivlarining bosh jamiyatning bevosita yoki bilvosita shuba jamiyatlardagi ishtiroki ulushiga to'g'ri kelmaydigan kamchilik ishtirokining bosh jamiyatga tegishli sof daromad miqdorini aniqlash hamda kamchilik ishtiroki ta'sirida guruhning daromadini kamaytiradigan ulushni aniqlash lozim. Kamchilikning ulushi konsolidatsiyalashgan balansda majburiyatlar va o'z sarmoyasidan alohida ko'rsatilishi, shuningdek, guruhlar daromadida kamchilik ulushi ham alohida ko'rsatilishi uchun ma'lumotlar umumlashtirishdan oldin tayyorlanishi lozim.

Agar biror shuba jamiyatning moliyaviy hisoboti (masalan O'zbekistondan tashqarida joylashgan shuba jamiyatning moliyaviy hisoboti) konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzilgan hisobot davri uchun tuzilgan bo'lib, lekin konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning hisobot vaqtidan farq qiladigan hisobot sanasida tuzilgan bo'lsa, bunday shuba jamiyat o'sha hisobot vaqti uchun oraliq moliyaviy hisobot tuzishi lozim.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar o'xshash operatsiyalar va moliyaviy-xo'jalik faoliyatining boshqa voqealari uchun yagona hisob siyosatidan foydalanish asosida tayyorlanishi hamda yagona hisob siyosatidan kelib chiqib, guruh jamiyatlari hisobotlari umumlashtirish uchun tayyorlanishi lozim. Agar guruh ishtirokchilaridan biri o'xshash operatsiyalar bo'yicha konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish chog'ida qabul qilingan hisob siyosatidan farq qiladigan hisob siyosatidan foydalangan taqdirda, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzishdan oldin bu moliyaviy hisobotlarga tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

7.7. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish bosqichlari

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot asosiy, shuba, hamkorlikda nazorat qilinadigan va qaram jamiyatlar hisobotlarining ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, moliyaviy hisobot korxonalar mulkiy va moliyaviy holati, shuningdek, faoliyat natijalarini bir butun ifoda etilgan holda tuzilishi kerak. Bu murakkab vazifa Bosh va shuba korxonalari guruhi jamiyatlari hisobotlari ma'lumotlarini birinchidan, bosqichma-bosqich birlashtirish yordamida, ikkinchidan, jamiyat shaklidan qat'iy nazar o'z usuli yordamida hal etiladi. Uchinchidan, har bir usul maxsus birlashtirish tartibidan tashkil topadi.

Bizningcha, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzishni quyidagi uchta asosiy bosqichga ajratish maqsadga muvofiq:

I bosqich: O'tish hisobotini tuzish;

II bosqich: Konsolidatsiyalashgan balans va moliyaviy natijalar to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan hisobotni gorizontal jamlash natijasida jamlangan ma'lumotlarga ega bo'lish;

III bosqich: Bevosita umumlashtirish.

Birinchi va ikkinchi bosqich bevosita umumlashtirishga tayyorgarlik ko'rishni amalga oshiradi.

Birinchi bosqichni zarurligi shunga bog'liqki, aksariyat hollarda ya'ni hisob siyosatida Bosh va shuba korxonalari guruhining barcha jamiyatlari uchun yagona bo'lgan talablarga qaramasdan, ularning hisoboti turli muddatlarda va turli valutada tuzilishi, o'z tuzilmasi va bandlarini baholash bo'yicha (Masalan, Bosh va shuba korxonalari guruhining xorijiy jamiyatlari mavjud bo'lsa) bir-biridan farq qilishi mumkin. Bunday hisobotlarni ushbu farqlarni hisobga olmasdan umumlashtirish qonunchilikka nomuvofiqdir. Mazkur vaziyatda bosh va shuba korxonalari guruhining muayyan jamiyati hisobotini o'tish hisobotini tuzish yordamida birlashtirishga tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

O'tish hisobotining maqsadi - Bosh va shuba korxonalari guruhi jamiyatlarining hisob yuritish siyosatidan chetga chiqqan hisobotini o'zgartirish va uni asosiy jamiyatning hisob siyosati yagona talablariga muvofiqlashtirishdir.

Ikkinchi bosqichda birlashtirilayotgan jamiyatlar hisoboti gorizontal ravishda jamlanadi. Natijada har bir bandi birlashtirilayotgan jamiyatlar hisobotining tegishli pozitsiyalari summasini ifoda etadigan umumiy balans paydo bo'ladi. Ushbu bosqichda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish tartibi va unga Bosh va shuba korxonalari guruhining birlashtirilishi lozim bo'lgan barcha jamiyatlari rioya qilishi ustidan alohida nazorat qilish zarur. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu bosqich faqat shuba va hamkorlikda nazorat qilinayotgan jamiyatlarga tegishli. Bundan tashqari, Shuba jamiyatining ma'lumotlari to'liq jamlansa, hamkorlikda nazorat qilinayotgan jamiyatlar ma'lumotlari faqat Bosh va shuba korxonalari guruhining ishtirok etish hajmiga mutanosib ravishda jamlanadi.

Uchinchi bosqich balans va moliyaviy natijalar to'g'ristdagi umumlashtirilgan hisobot tuzishni o'z ichiga oladigan bevosita birlashtirishni ifodalaydi. Uning maqsadi Bosh va shuba korxonalari guruhi jamiyatlari to'grisidagi axborotni yagona iqtisodiy tuzilma sifatida taqdim etishdir. Buning uchun bosh va shuba korxonalari guruhi ichidagi muomalalar va ularning natijalarini istisno qilishga yo'naltirilgan birlashtirishning aniq tartibi ishlab chiqilgan. Birlashtirish tartibi shuba va hamkorlikda nazorat qilinadigan jamiyatlar uchun bir xil bo'lib, qaram jamiyatlar hisoboti ma'lumotlarini kiritishdan ancha farq qiladi. Birinchisiga quyidagilar kiradi:

1. Kapitalni umumlashtirish.
2. Majburiyatlarni (debitorlik, kreditorlik qarzlari) umlashtirish.
3. Oraliq majburiyatlarni istisno qilish.
4. Daromad va xarajatlarni umumlashtirish.
5. Birlik nazariyasiga rioya qilish bilan bog'liq ba'zi bir husiyatlarni umumlashtirish.

Dastlabki uchta tartib konsolidatsiyalashgan balansni tuzishga, to'rtinchisi esa moliyaviy natijalar hisobotiga taalluqli. Beshinchi tartib barchasiga tegishlidir.

7.8. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish uslubiyoti

Kapitalni umumlashtirish - bu balansning «O'z mablag'larining manbasi» bo'limida takroriy qo'shish natijasida konsolidatsiyalashgan balansda yuzaga keladigan takrorlashlarni chiqarib tashlashdir. Bunday takroriy hisoblashlar har doim yuzaga keladi, chunki birinchidan bosh korxonaning Shuba jamiyati kapitalidagi ishtirok etish ulushi balansga tushadi, ikkinchidan, aynan shu kapital. Shuba jamiyatining noto'g'ri hisoblangan xususiy kapitali konsolidatsiyalashgan hisobot davomida to'g'irlanadi.

Ma'lumki, jamiyat balansida o'ziga nisbatan debitorlik yoki kreditorlik qarzini ko'rsata olmaydi. Shuning uchun bosh va shuba korxonalari guruhi balansiga faqat "uchinchiga" ya'ni uning tarkibiga kirmaydigan tashkilotlarga nisbatan ma'lumotlar kiritilishi mumkin. Bu vazifani majburiyatlarni umumlashtirish orqali amalga oshirish mumkin. Umumlashtirish jarayonida Bosh va shuba korxonalari guruhi jamiyatlarining bir-biriga nisbatan qarzdorlik xususiyatiga ega barcha munosabatlari, shuningdek, ularning natijalari istisno qilinishi kerak. Aks holda konsernning mulkiy holati noto'g'ri taqdim etilishi mumkin. Majburiyatlarni umumlashtirilishi, birinchi navbatda konsern jamiyatlarining bir-biriga nisbatan debitorlik, kreditorlik va boshqa qarzdorligi, avans to'lovlari, qimmatli qog'ozlarga xarajatlar, kelgusi davrlar xarajatlari, shuningdek bosh va shuba korxonalari guruhi ichidagi munosabatlar natijasida tashkil etilgan zaxiralarga taalluqlidir. Ushbu pozitsiyalarning barchasi bir-biri bilan qayta hisoblashib, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotga kiritiladi.

"Oraliq natijalarni" istisno qilish zaruratini quyidagi tarzda tushuntirish mumkin: Bosh va shuba korxonalari guruhi jamiyatlaridan biri boshqasiga masalan, mulk ob'yektini sotib, bu jamiyat sotilgan ob'yektdan daromad oladi, ikkinchisi esa sotib olish bo'yicha xarajat qiladi va bu xarajat sotib olingan mulk ob'yekti uchun dastlabki baho hisoblanadi. Biroq, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning Birlilik nazariyasiga muvofiq, ayrim jamiyatlar Bosh va shuba korxonalari guruhi korxonalarining mustaqil bo'lmagan bo'linmasi hisoblansa, ob'yektni sotish amalga oshirilmaydi. Bu muomala mahsulot ish yoki xizmatlar "uchinchi tomonga" - Bosh va shuba korxonalari guruhi tarkibiga kirmaydigan tashkilotlarga sotilsagina amalga oshiriladi. Natijada, bosh va shuba korxonalari guruhining bir jamiyatining boshqasidan sotib olingan aktivlarning qiymati amalga oshirilmagan yoki oraliq natija miqdori sifatida oshgan pasaygan hisoblanadi hamda buxgalteriya yozuvlarida Bosh va shuba korxonalari guruhi daromadlari va xarajatlari hisobi tegishli ravishda kamayishi (xarajat qilingan holda) yoki ko'payishi (oraliq daromad olingan holda) zarur.

Daromad va xarajatlarni umumlashtirish - bu Bosh va shuba korxonalari guruhi ichidagi muomalalar natijasida ular o'rtasidagi qayta hisoblash orqali yuzaga kelgan daromadlar va xarajatlarni istisno qilishdir. Bu holatda, konsern jamiyati o'z ichidagi muomalalardan daromad olishi yoki xarajat qilishi mumkin emas. Jamiyatning moliyaviy natijalar to'g'risidagi umlashtirilgan hisobotiga faqat konsern tarkibiga

kirmaydigan uchinchi tashkilotlar bilan bo'lgan muomalalardan olingan natijalar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilishi kerak.

Konsolidatsiyalashgan hisobotni tuzishning birinchi bosqichi bo'lgan o'tish hisoboti. Yuqorida Bosh va shuba korxonolari guruhi jamiyatlari hisobotini umumlashtirish uchun tayyorlash jarayonida ayrim hollarda bosh korxonalar talablariga javob beradigan o'tish hisobotini tuzish zarurati asoslangan edi.

O'tish hisobotini tuzishni bir qancha tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Ushbu ajratish paytida quyidagi o'zgarishlar bo'lishi mumkin:

-balans va hisobot tuzilmasida moliyaviy natijalar to'g'risida;

-hisobot moddalarini tarkibida;

-hisobot moddalarini baholashda;

-hisobot moddalarini bir valutadan boshqasiga qayta hisoblashda.

O'tish hisobotini tuzishda **dastlabki bosqich** Bosh va shuba korxonolari guruhining asosiy va birlashtirilayotgan jamiyatlari hisoboti tarkibi va tuzilmasini o'rganish hamda taqqoslash hisoblanadi. Ko'pincha, bu holatda Bosh va shuba korxonolari moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotini guruhlash amalga oshiriladi. Ammo, birlashtirilayotgan jamiyatlar asosiy jamiyat bilan bir hududda joylashgan bo'lsa va hisobotni tuzishning yagona usullaridan foydalansa, odatda bunga zarurat tug'ilmaydi. Biroq, chet el jamiyatlarining o'z qoidalarini bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisoboti asosiy jamiyat talablariga bizningcha, ikkinchi bosqichda moliyaviy hisobot bandlari va mazmunini asosiy jamiyat tomonidan qabul qilingan hisob usullariga mos kelishini qayta ko'rib chiqish lozim. Bunda asosiy e'tiborni ba'zi hisobot moddalarini qiymatini aniq aks ettirish masalasiga qaratish zarur. Agar Bosh va shuba korxonolari guruhining xorijiy va mahalliy jamiyatlari qo'llayotgan hisob yuritish siyosati Bosh korxonalar hisob siyosatidan farq qilsa tegishli o'zgartirishlar qilish lozim.

Birlashtirilayotgan xorijiy jamiyatlar balanslarini asosiy jamiyat valutasida qayta hisoblash o'tish hisobotini tuzishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Shu sababli mazkur masala o'tish hisobotini tuzishda eng murakkab sanaladi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ayrim korxonalar moliyaviy hisoboti kabi bitta valutada ya'ni bosh korxonalar joylashgan mamlakat valutasida tuzilishi kerak. Shuning uchun xorijiy shuba jamiyati moliyaviy hisoboti ham ushbu valutada konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzilguniga qadar qayta hisoblanishi lozim.

Umuman olganda bu jarayonda ikkita holatni tahlil qilish maqsadga muvofiq:

-hisobot davrida valutada ifoda etilgan kundalik muomalalarni qayta hisoblash;

-hisobot davri uchun valutada tuzilgan hisobotni qayta hisoblash.

O'tish hisobotini tuzishda ikkinchi holat e'tiborga olinadi. Hamkor va shuba korxonalar guruhi hisobotini tuzishda valutani hisoblashning asosiy maqsadi qayta hisoblash mazmuni va bo'yicha to'g'ri yo'lini tanlashdan iborat.

Valutalar o'rtasidagi yagona va doimiy almashtirish kurslari bo'lsa, birlashtirilayotgan jamiyatlar moliyaviy hisobotni qayta hisoblash oson bo'lar edi. Biroq amaliyotda kurslar turli xil bo'lib, mazmuni bo'yicha: rasmiy, erkin bozori kurslari va hokozolar, davri bo'yicha esa: tarixiy, hisobot davri kurslari va hisobot davri uchun o'rtacha kurslar. Aynan ushbu kurslardan biror-birini tanlash va ularni

moliyaviy hisobotning barcha moddalariga nisbatan qo'llashda muammo paydo bo'ladi.

Keyingi paytlarda "funksional valuta" nomli konsepsiyaga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Hisobot moddalarini ushbu valuta yordamida qayta hisoblash tartibi BHXSning 21-sonli «Valuta kursi o'zgarishining ta'siri» nomli standartida belgilab qo'yilgan. Mazkur standartga muvofiq, Bosh korxonaning bog'liq shuba jamiyatlarining moliyaviy hisoboti hisobot davrida o'zgartirilgan kurslar bo'yicha, bog'liq jamiyatlar hisoboti esa muomalani amalga oshirish muddati kursi bo'yicha qayta hisoblanadi.

«Funksional valuta» konsepsiyasi qo'llanilayotgan jamiyatlarni mustaqil va mustaqil bo'lmagan jamiyatlarga bo'lish tushunchalarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Ularni ajratishning asosiy mezonini Bosh korxonada pul oqimlari to'g'risidagi hisobotga kurslar o'zgarishining ta'siri hisoblanadi. Agarda bu ta'sir sezilarli bo'lsa, jamiyatlar "mustaqil bo'lmagan", sezilarli bo'lmasa "mustaqil" deyiladi.

21-sonli BHXSga muvofiq, mustaqil jamiyatlarga quyidagilar kiritiladi:

- o'z faoliyatini Bosh korxonadan mustaqil ravishda amalga oshiradigan;
- bosh korxonada bilan muomalalarni ahamiyatsiz darajada o'tkazadigan;
- o'zini-o'zi moliyalashtirish yoki kredit mablag'laridan foydalanish (bosh korxonaning emas) asosida faoliyat yuritadigan;

Xarajatlarni asosiy jamiyatning valutasida emas, mahalliy valutada to'laydigan.

Jamiyatlar o'z muomalalarini amalga oshiradigan valuta ularning funksional valutasida hisoblanadi. Bunday jamiyatlarning hisoboti hisobot davri uchun o'zgartirilgan kursni qo'llagan holda qayta hisoblanadi. Xususiyl kapitalning ayrim tashkiliyl moddalari tarixiy kurs bo'yicha qayta hisoblanadi, bunda hisobot davri kursi bo'yicha qayta hisoblangan xususiyl kalital to'g'risidagi hisobot moddalarida yuzaga kelgan kurs farqlari hisobotning alohida bandida aks ettirilishi lozim. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot moddalari muomala amalga oshirilgan paytda odatdagi kurs bo'yicha qayta hisoblanishi zarur.

«Funksional valuta» konsepsiyasiga binoan, hisobot davri kurslarini qo'llashda yuzaga keladigan kurs farqlari balans aktivi va passivi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi hamda xususiyl kapital to'g'risidagi hisobotning "Ustav kapitalini shakllanishida paydo bo'ladigan kurs farqlari" bandida aks ettiriladi.

Mazkur konsepsiyada "mustaqil bo'lmagan" jamiyatlar Bosh korxonaning tarkibiy qismlari sifatida ko'rib chiqiladi. Shuning uchun, ularning muomalalari kompaniyaning xorijiy valutadagi-muomalasi sifatida tan olinadi. Bosh korxonada valuta kursi bunday jamiyatlarning funksional valutasida hisoblanadi.

Ularning hisoboti quyidagi tartibda qayta hisoblanadi:

- pul mablag'lari - hisobot davriga kurs bo'yicha;
- pul mablag'laridan tashqari moddalar (hisobotda sotib olish yoki tayyorlash qiymati bo'yicha aks ettiriladigan)
- hisobot davriga kurs bo'yicha qayta hisoblanadi.

7.9. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini izoh va tushuntirish xatlarida ochib berish

Konsolidatsiyalashgan balans va moliyaviy natijalar to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan hisobot ichki va tashqi foydalanuvchilar tahlil uchun foydalanadigan muayyan miqdordagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Biroq, moliyaviy hisobotning mavhum-matematik tabiatga ega raqamlarining o'zi ko'pgina muhim savollarga javob bera olmaydi. Shuning uchun konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning asosiy shakllari bilan bir qatorda izoh va tushuntirish xatlari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Izoh va tushuntirish xatlari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning asosiy matni (shakli)ga kiritilgan va kiritilmagan turli aspektlarga keng tushuntirish berish, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda ko'rsatilgan raqamlarni foydalanuvchilar tomonidan tushunishga yordam beradigan ma'lumotlar bayonini ifodalash maqsadida, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzuvchilar tomonidan foydalanuvchilarga hisobotlar to'liq bo'lishi uchun taqdim qilinadi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarining izohlari tushuntirish xati ko'rinishida muntazam ravishda tartibga solinadi. Tushuntirish xatlaridagi ma'lumotlar moliyaviy hisobotning qaysi bandiga tegishli bo'lsa, o'sha band ko'rsatilgan holda berilishi lozim.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar o'xshash operatsiyalar va moliyaviy-xo'jalik faoliyatining boshqa voqealari uchun yagona hisob siyosatidan foydalanish asosida tayyorlanadi. Yagona hisob siyosatiga muvofiq tayyorlangan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda joylashgan izoh va tushuntirish xatlarining dastlabkisida hisob siyosati ochib beriladi. Dastlabki tushuntirish xatida hisob siyosatini keltirilishi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda keltirilgan raqamlarni aniq tushunishga asos bo'ladi. Chunki, hisobotda buxgalteriya hisobining qaysi tamoyili, yoki usuli, yoki hisobga olish qoidalari asosida raqamlar keltirilganligi yuzasidan aynan dastlabki tushuntirish xatidagi hisob siyosatiga muvofiq aniqlik kiritish mumkin bo'ladi. Misol sifatida keltirib o'tish mumkinki, asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiya summasi raqamlarda ko'rganda tushunarli bo'lmasligi mumkin, lekin hisob siyosatiga muvofiq asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning qaysi usulidan foydalanganligiga qarab, raqamlarni aniq tushunish hamda ushbu amortizatsiya ajratmalarining xarajatlarga, daromadlarga, soliqlarga ta'siri bo'yicha ham asosga ega bo'lish mumkin.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning birinchi tushuntirish xatida buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari hamda buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar talablari qo'llaniladi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni ochib berish daromadni tan olish va xarajatlarni joriy va kelgusi davrlarda aktivlarga taqsimlashga tegishli tamoyillarga muvofiq ravishda muhim xulosalar qiilishni talab etadi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni izoh va tushuntirish xatlarida ochib berish:

- mavjud muqobilliklardan ma'qulini tanlash;

-ushbu soha uchun muhim bo'lgan tamoyil va usullardan foydalanish masalalariga tegishli bo'lgan buxgalteriya hisobining tamoyil va usullarini o'z ichiga olishi lozim.

Turli xo'jalik yurituvchi su'yektlar tomonidan o'z hisob siyosatlari va moliyaviy hisobotlarining muhim qismlarida turli izohlardan foydalaniladi. Bunga sabab, moliyaviy hisobotda ko'rsatilgan summalarni tushuntirish zarur bo'lgan va foydalanuvchiga muhim bo'lgan hisobga tegishli barcha siyosat turlarini ochib berish lozimligidir.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarda bo'ladigan boshqa tushuntirish xatlarida hisobvaraqlar, tovar-moddiy zaxiralar, asosiy vositalar, pul mablag'lari, qarz majburiyatlari, kapitaldagi ulush hamda har bir buxgalteriya hisobining milliy standartining «Ochib berish» bo'limida keltirilgan eng kamida aniq keltirilishi zaruriy ma'lumotlar o'z aksini topadi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tarkibidagi hisobot shakllarida ayrim ma'lumotlarni hisobot moddalari bo'yicha batafsil yoritish masalasini har bir moddalarga batafsil tushuntirish berilgan tushuntirish xatlari, yoki qavs ichida yozuvlar asosida keltirilgan izohlar bilan aniqlik kiritish asosida hal etiladi.

Bundan tashqari, umumlashtirishda shuba va boshqa jamiyatlarni sotib olish yoki sotishda bosh korxonaning mulkiy va moliyaviy holati, o'tgan davrlarda moliyaviy natijalarga ta'sir etgan omillar to'g'risida ma'lumotlar aks ettirilishi lozim. Shu bilan birga, agar shuba jamiyati konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotga qo'shilmagan bo'lsa yoki muayyan jamiyat odatdagi vaziyatlarda ko'zda tutilmagan usullar yordamida umumlashtirilgan bo'lsa, uning sabablari asoslanishi talab qilinadi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlardagi ma'lumotlarga izoh sifatida tushuntirish xatlari bilan birga boshqa ma'lumotlar: ijroiya organi raisi yoki ish boshqaruvchisining xati, moliya hisobotlari va ichki nazorat uchun uning mas'ulligi xususida ma'muriyatning bayonoti, asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar, moliyaviy ma'lumotlarni ochib beradigan, tushuntirishlarga yo'ldosh bo'ladigan chizmalar, jadval va grafiklar ham foydalanuvchilarga taqdim etilishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, "mustaqil bo'lmagan" jamiyatlarning moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisobotini hisoblash uchun turli kurslardan foydalaniladi. Jumladan, hisobotning balans muayyan moddalari bilan bog'liq moddalari mazkur balans moddalari hisobga olinadigan kurs bo'yicha qayta hisoblanadi. Qolgan barcha moddalar esa muomala amalga oshirilgan paytdagi kurs bo'yicha yoki soddalashtirish maqsadida hafta, oy, chorak yoki yil uchun o'rtacha kurs bo'yicha qayta hisoblanadi. Qayta hisoblash paytida paydo bo'ladigan kurs farqlari "mustaqil" jamiyatlardan farqli ravishda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettirilishi lozim.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
2. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot va jamlanma hisobotning umumiy jihatlari va tub farqlari nimalardan iborat?

3. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning huquqiy va me'yoriy asoslari qaysi me'yoriy hujjatlarga asoslanadi?
4. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning tuzish tamoyillarini sanab bering?
5. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning jahon amaliyotida usullar qo'llaniladi?
6. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish oldidan qanday Hisob ishlari amalga oshiriladi?
7. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish bosqichlarini tushuntirib bering.
8. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish metodikasini izohlab bering.
9. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini izoh va tushuntirish xatlarida ochib berish tartibi qanday?
10. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni takomillashtirish bilan bog'liq muammolarni izohlab bering.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев А., Қаюмов И. Бухгалтерия ҳисоби.: 2-қисм. -Т.: Минхож, 2002.
2. Астахов В.П. Теория бух. учёта Учебное пособие. -М.: ИКЦ МарТ Ростов н/Д, 2004
3. Байда Т.П. Теория бухгалтерского учёта задачи и ситуации. Учебное пособие. -М.:Ф и С, 2004
4. Гусева Г.Н.,Шейна Г.Н. Основы бух. Учёта:теория ,практика ,тестү. Учебное пособие - М.:Ф и С, 2004
5. Гусева Т.М.,Шейна Г.Н Бух. учёт : 2000 тестов и ответов. Учеб. Пос. - М.:ТК Велби, Проспект, 2004
6. [http:// www. accounting. rut gars. Edu](http://www.accounting.rutgars.edu)

8 bob. Hisob siyosati va buxgalteriya hisoboti

8.1. Hisob siyosatining buxgalteriya hisobi va hisoboti bilan bog'liqligi

Xo'jalik yurituvchi su'yektlarning hisob siyosatiga bo'lgan ehtiyoji faqat bozor iqtisodiyoti sharoitidagina vujudga keladi. Chunki bozor iqtisodiyotida davlat erkin faoliyat olib borayotgan barcha xo'jalik su'yektlariga bir xil hisob yuritishning tizimini yozib berishi bir tomondan mumkin bo'lmasa, ikkinchi tomondan esa, har bir tadbirkor faoliyatiga alohida hisob tizimini yozib berish imkoniyati ham yo'q. Shuning uchun ham u yoki bu operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish qoidalari va tamoyillarini ishlab chiqish har bir xo'jalik yurituvchi su'yektning vazifasi hisoblanadi. Faqat tegishli davlat organlari hisob siyosatini shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishlari zarur.

Jahon tajribasi bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir mamlakat buxgalteriya hisobining asosiy qoida va tamoyillarini markazdan tartibga solishi, ya'ni tegishli qonuniy, me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalarni ishlab chiqishi, ushbu hujjatlar asosida esa har bir xo'jalik su'yekti o'zining boshqaruv va tashkiliy-texnologik xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni aniqlashtirishi zarur bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobining davlat tomonidan markazlashtirilgan holda tartibga solinishining asosiy maqsadi bozordagi barcha ishtirokchilarning manfaatlarini birday himoya qilish va kafolatlash, shuningdek, hisob va audit sohasida faoliyat ko'rsatayotgan professional buxgalterlar hamda auditorlar manfaatini himoya qilishni kafolatlash hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobini tartibga solish investorlar, kreditorlar, mol yuboruvchilar va boshqa buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanuvchilar uchun ham xuddi yuqoridagidek ahamiyat kasb etadi.

Buxgalteriya hisobini markazlashgan holda tartibga solish muammolaridan biri moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilar manfaatini himoya qilish bilan bog'liqdir. Chunki xo'jalik yurituvchi su'yektlarning moliyaviy hisoboti ma'lumotlaridan foydalanuvchilar barcha ma'lumotlarga bo'lgan talabi mazmuni va hajmi jihatidan turlicha bo'lib, hatto ular bir-biridan keskin farq qilishi hamda zid bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham buxgalteriya hisobini markazlashtirilgan holda tartibga solishda asosiy e'tibor shunday guruh foydalanuvchilarining manfaatiga qaratiladiki, ularning manfaati hal qiluvchi hisoblanadi.

Mulkdorlar, kreditorlar va boshqa buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanuvchilarning manfaatlarini to'laroq qondirish uchun buxgalteriya hisobini markazlashtirilgan holda tartibga solish jarayonida emas, balki xo'jalik su'yektlarining hisob siyosatini shakllantirishi jarayonida e'tiborga olinishi zarur. Sababi moliyaviy hisobotlarni ochib berish jarayonida tashqi foydalanuvchilar uchun zarur ma'lumotlar yoritiladi.

Hisob siyosatining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Birinchi marta hisob siyosatini xalqaro miqyosda tan olish 1973-yilda tashkil topgan hisobning xalqaro standartlari komiteti tomonidan ishlab chiqilgan va unga «Hisob siyosatini ochib berish» nomli 1-standartida ta'rif berilgan edi. Ushbu ta'rif tobora rivojlantirilib borilmoqda.

1997-yilda «Moliyaviy hisobotlarni taqdim qilish» nomli standart qayta ishlanib, u buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarining uchtasini: moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartining (MHXS) 1- «Hisob siyosatini ochib berish», MHXS 5-«Moliyaviy hisobotlarda ochib beriladigan ma'lumotlar», MHXS 13-«O'isqa muddatli aktivlar va majburiyatlarni taqdim qilish»¹⁴ o'zida mujassam etgan.

Hozirgi paytda ushbu standart moliyaviy hisobotlar xalqaro standartining birinchisi hisoblanadi.

Shunday qilib, buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarining keyingi (BHXS va MHXS bir xil tushuncha va 1998-yildan keyingi nashrlarda MHXS deb atalmoqda) 1-«Moliyaviy hisobotlarni taqdim qilish» standartida hisob siyosatiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Hisob siyosati – bu kompaniya moliyaviy hisobotlarini tayyorlash va taqdim qilish uchun qabul qilingan aniq tamoyillar, asoslar, shartlar, qoida va amaliyotdir».

Respublikamizda ishlab chiqarilgan buxgalteriya hisobining milliy standartlarining 1- «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» deb ataladi va unda hisob siyosatiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Ushbu standartda hisob yuritish siyosati deganda, xo'jalik yurituvchi su'yekt rahbari tomonidan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot, ularning qoida va asoslariga mos usullarning qo'llanilishi tushuniladi».

Yuqoridagi ikki ta'rifni taqqoslaydigan bo'lsak, ularning quyidagi farqlarini ko'rsak bo'ladi.

1. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartida kompaniya moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim qilish uchun qabul qilingan bo'lsa, buxgalteriya hisobining milliy standartida korxonalar rahbari tomonidan qabul qilinadi. Masalalarning bunday qo'yilishi, eng avvalo, buxgalteriya hisobining xalqaro standartida tavsiya ko'rinishida ekanligidan, ya'ni uning asosida buxgalteriya hisobining milliy standarti ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan.

2. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim qilish uchun qabul qilingan aniq tamoyillar, asoslar, shartlar, qoida va amaliyot bo'lsa, buxgalteriya hisobining milliy standartida esa, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot, ularning qoidalariga va asoslariga mos usullarning qo'llanilishi tushuniladi. Albatta, buxgalteriya hisobining xalqaro standartida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim qilishga keng qamrovli yondoshishni ko'rish mumkin. Chunki ushbu standartlarni ishlab chiqishda, asosan, rivojlangan mamlakatlar kompaniyalarida tuziladigan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim qilishda qo'llaniladigan shart-sharoitlar va ularning boshqa mamlakatlarning buxgalteriya hisobotini tuzishidagi talablari ham inobatga olingan.

Buxgalteriya hisobining milliy standartida esa, mamlakatimizda qabul qilingan qonuniy va me'yoriy hujjatlar, shuningdek, respublika iqtisodiyoti rivojining o'ziga xos xususiyatlari ham asos qilib olingan. Shu bilan birgalikda BHMA va BHXSda keltirilgan talablar, shart- sharoitlar aniq mamlakatdagi qonuniy hamda me'yoriy asoslardan kelib chiqib aniqlashtirilgan.

¹⁴ Международные стандарты финансовой отчетности... -издание на русском языке АСКЕРИ -АССА, 1998. с. 62.

Hisob siyosati buxgalteriya hisoboti bilan uzviy bog'liq bo'lib, uni ishlab chiqarishdan ko'zlangan asosiy maqsad ham korxonaning faoliyatini hisobotda aniq va ob'yektiv aks ettirishdan iboratdir.

8.2. Hisob siyosatining buxgalteriya hisobotiga ta'sirining iqtisodchilar tomonidan o'rganilishi

O'zbekistonlik iqtisodchilarning ilmiy-tadqiqot ishlari, maqolalari, o'quv darslik va qo'llanmalarini chuqur o'rganish jarayonida hisob siyosati tushunchasi bo'yicha turlicha fikrlash hamda iqtisodiy ta'riflar berilganligi kuzatildi. Ayniqsa, A.K.Ibragimov, A.X.Pardayev, A.B.Xasanov, R.O.Xolbekov, M.Ismoilova, M.Yu.Raximov, X.A.Ortiqovlarning ilmiy-tadqiqot ishlari va maqolalarida hisob siyosati tushunchasi nazariy hamda amaliy ahamiyatga molik tarzda yoritib berilgan.

So'zimizning isboti sifatida ayrim iqtisodchi olimlarning bayon qilgan fikrlarini keltiramiz.

A.K.Ibragimov fikricha, «Hisob siyosati- bu tanlangan korxonada uning xo'jalik faoliyatini yuritishga to'liq javob beradigan buxgalteriya hisobini yuritish usullari yig'indisidir»¹⁵, A.X.Pardayevning fikriga ko'ra, «Korxonada hisob siyosati-bu korxonaning o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan va umumiy qoidalardan kelib chiqqan holda belgilangan hamda e'lon qilinadigan buxgalteriya hisobining shakl va uslublari to'plamidir»¹⁶, R.O.Xolbekov «Korxonada hisob siyosati deganda, buxgalteriya hisobining hukumat tomonidan qabul qilingan qonun, tartib, nizom, farmonlaridan foydalanib hamda korxonaning o'ziga xos texnologik xususiyatlarini inobatga olib tashkil qilinishi tushuniladi»¹⁷, X.A.Ortiqov «Hisob tartibi-bu xo'jalik su'yektlari faoliyatini tartibga soluvchi qonuniy va me'yoriy hujjatlarda yagona va majburiy bo'lgan, shuningdek, ularda ruxsat etilgan buxgalteriya hisobining alternativ usullari va shakllaridan korxonada tanlab olgan va e'lon qilgan buxgalteriya hisobining tizimidir»,¹⁸ deb ta'riflashgan. Albatta, barcha olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'rinlidir.

Rossiyalik iqtisodchi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida hisob siyosati keng o'rganilgan.

«Hisob siyosati» atamasi rus tilida chop etilayotgan iqtisodiy adabiyotlarda 80-yillarning oxirlarida ingliz tilidagi «accounting policy» so'z birikmasini rus tiliga tarjima qilish orqali kirib keldi¹⁹ deb yozadi A.S. Bakayev va L.Z. Shneydman. Ular «Hisob siyosatini xo'jalik yuritish sharoitlariga mos keladigan buxgalteriya hisobini yuritish usullarining yig'indisi»²⁰ deb ta'riflash mumkinligini aytishsa, A.N. Seleznova va I.P. Skobelova esa, «Hisob siyosati deganda, buxgalteriya hisobi standartlarida ruxsat etilgan usullari yig'masidan yoki ushbu davrda amalda bo'lgan

¹⁵ Ибрагимов А. Жаҳон ҳисоб стандартларини яқлаштириш. // Иқтисод ва ҳисобот. 1993. 5-сон.

¹⁶ Пардаев А. Учетной политика. // Ж. Экономика и статистика. 1997. № 5.

¹⁷ Холбеков Р. Корхона ҳисоб сиёсатига таъсир этувчи омиллар. // Ж. Бозор, пул ва кредит. 2002, 4-сон.

¹⁸ Ортиқов А.Х. Яна корхоналар ҳисоб тартиби муаммолари ҳақида. // Ж. Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. 1999, 3-сон.

¹⁹ Бакаев А.С., Шнайдемман Л.З. Учетная политика предприятия. // Ж. «Бухгалтерский учет». 1994. с. 7.

²⁰ Там же. с. 8.

me'yoriy hujjatlarda buxgalteriya hisobining uslubiy, texnik va tashkiliy jihatlarini tartibga soluvchi tamoyil va qoidalar yig'masidan korxonalar tanlab olganlari tushuniladi»²¹, deb ta'rif beradi.

M.S.Yerjanov, S.M.Yerjanovalar «Hisob siyosati - bu korxonalar tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni ochib berish uchun qabul qilingan usullar yig'indisidir»²², deb hisoblaydi. S.A. Nikolayeva «Korxonaning hisob siyosati, ushbu davrda amalda bo'lgan me'yoriy asoslarga binoan buxgalteriya hisobini yuritishning uslubiy va tashkiliy asoslarini tartibga soluvchi tamoyillar va qoidalar yig'indisini ifodalaydi»²³, deb yozadi.

A.A. Yefremova «Hisob siyosatini shakllantirish jarayoni umumiy tan olingan standartlarda buxgalteriya hisobini yuritish uchun ruxsat etilgan bir necha usullardan birini aniq tanlashni o'z ichiga oladi. Agar standartlar alohida masalalar bo'yicha hisob yuritish usullarini belgilanmagan bo'lsa, hisob siyosatini shakllantirishda qonunchilik talablaridan kelib chiqqan holda tashkilot individual usullarini ishlab chiqishi lozim bo'ladi»²⁴ deb hisoblaydi.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, «Hisob siyosati» tushunchasi olimlar va mutaxassislar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Albatta, bu o'z navbatida «Hisob siyosati» va uni shakllantirishga bo'lgan qiziqish tobora ortayotganligi, shuningdek, buxgalteriya hisobining xo'jaliklar iqtisodiyoti samaradorligini oshirishdagi o'rni hamda ahamiyatiga alohida e'tibor berilayotganligini bildiradi.

Hisob siyosatining iqtisodchilar tomonidan turlicha talqin qilinishiga qaramasdan, ularning barchasida buxgalteriya hisobining standartlarida ruxsat etilgan muqobil usullardan korxonalar faoliyatiga mos keluvchi usulini tanlashi zarurligi uqtiriladi. Iqtisodiy adabiyotlarda berilgan ta'riflarni har tomonlama chuqur tahlil qilish va hisob siyosatiga bag'ishlangan adabiyotlarni o'rganish uning mazmuni hamda mohiyatini anglab yetish orqali unga quyidagi ta'rifni berish imkoniyatini yaratdi.

Hisob siyosati xo'jalik yurituvchi su'yektlarda buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi qonuniy va me'yoriy hujjatlarda ruxsat etilgan usullardan tanlab olingan hamda muqobil usullar ko'zda tutilmagan yoki mutlaqo mavjud bo'lmagan hollarda esa, qonunchilikka zid bo'lmagan usullarni ishlab chiqish tushuniladi. Chunki buxgalteriya hisobida barcha operatsiyalar bo'yicha qonuniy va me'yoriy hujjatlarda muqobil usullar ko'zda tutilmaganligi, ba'zi masalalar bo'yicha yagona usullarga ruxsat berilishi, ayrim masalalar bo'yicha hisob yuritish usuli mutlaqo mavjud bo'lmasligi mumkin.

Bunday hollarda hisob siyosatini shakllantirish jarayonida yagona usullar hisob siyosatiga kiritiladi va mutlaqo mavjud bo'lmagan operatsiyalar bo'yicha esa, kasbiy mahoratdan kelib chiqqan holda amaldagi qonuniy va me'yoriy hujjatlarga zid

²¹ Селезнова А.Н., Скобелова И.П. Учетная политика-95. Специальная литература. Спб. 1995. с.8.

²² Ержанов М.С., Ержанова С.М. Учетная политика на Казахстанском предприятии. И.Д. «БИКО» 1997. с. 5.

²³ Николаева С.А. Доходы и расходы организации: практика, теория, перспективы.-М.: «Аналитика-Пресс», 2000.

²⁴ Ефремова А.А. Учетная политика предприятия.- М.: Книжный мир, 2000.

bo'lmagan usullarni ishlab chiqish hamda xo'jalik yurituvchi su'yektning hisob siyosatida rasmiylashtirilishi zarur bo'ladi.

Hisob siyosatini iqtisodchilar tomonidan alohida e'tibor bilan o'rganilishi va tadqiq qilinishi uning korxonada faoliyati natijalarini hisobotda to'g'ri va aniq aks ettirish imkoniyatini vujudga keltiradi.

8.3. Hisob siyosatining jihatlari va ularda yoritiladigan masalalar

Iqtisodiy adabiyotlarda hisob siyosatining jihatlari turlicha talqin qilinadi. Masalan: R.A.Alborov²⁵, A.S.Bakayev, L.Z.Shneydman²⁶, N.N.Seleznova, I.P.Skobelova²⁷, T.A. Dubrovina, V.A.Suxov, A.D.Sheremet²⁸, A.P.Xabarova²⁹, O.B.Bobojonov, N.Yu.Jo'rayev, M.M.Tulaxodjayeva kabi iqtisodchi olimlar hisob siyosatining jihatlari uchga, ya'ni uslubiy, texnik va tashkiliy jihatlarga bo'lishadi.

S.A.Nikolayeva esa, hisob siyosati jihatlari ikkiga - uslubiy va tashkiliy-texnik jihatlarga bo'ladi³⁰. A.A.Yefremova³¹ va L.R.Simirnova³² hisob siyosatini quyidagi jihatlarga bo'ladi: uslubiy, tashkiliy-texnik va soliq. M.I.Kuter³³ hisob siyosatini faqat ikki - uslubiy va tashkiliy jihatlardan iborat, deb hisoblaydi. Yu.M.Itkin va I.F.Yegoricheva³⁴ hisob siyosatini to'rt jihatga bo'ladi: uslubiy, texnik, tashkiliy va soliq.

Ba'zi olimlar, masalan: M.S. Yerjanov³⁵, N.P. Kondrakov³⁶ va Z.V.Kiryanova³⁷lar esa, hisob siyosatini hech qanday jihatlarga bo'lmasdan yoritadilar.

Xo'jalikning hisob siyosati to'liq yoritilishida uning jihatlari to'g'ri va aniq talqin qilish alohida ahamiyatga ega. Chunki buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilishda asosiy vazifani hisob siyosati bajaradi.

Agar hisob siyosatining jihatlari aniq belgilangan bo'lsa va ular to'g'ri shakllantirilsa, buxgalteriya hisobi o'ziga yuklatilgan vazifani muvaffaqiyatli bajara oladi.

²⁵ Алборов Р.А. Выбор учетной политика предприятия. -М.: АО «ДИС»., 1995.

²⁶ Бакаев А.С., Шнайман Л.З. Учетная политика предприятия. //Ж. «Бухгалтерский учет». 1994.

²⁷ Селезнева Н.Н., Скобелова И.П.. Учетная политика -95. СПб -М.: «Специальная литература». 1995.

²⁸ Дубровина Т.А., Сухов В.А., Шеремет А.Д. Аудиторская деятельность в страховании -М.: Инфра-М., 1997.

²⁹ Хабарова Л.П. Учетная политика фирмы при проведении коммерческих операций -М.: АО «Бизнес-школа». «Ител-Синтез», 1993.

³⁰ Николаева С.А. Учетная политика предприятия. -М.: «Инфра-М»., 1995.

³¹ Ефремова А.А. Учетная политика предприятия. -М.: Книжный мир., 2000.

³² Смирнова Л.Р. Банковский учет. -М.: «Финансы и статистика». 2000.

³³ Кутер М.И. Теория и принципы бухгалтерского учета -М.: «Финансы и статистика», 2000.

³⁴ Иткин Ю.М и Егорычева И.Ф. Учетная политика предприятия в Узбекистане -Т.: Ассоциация бухгалтеров и аудиторов Узбекистан. 2000.

³⁵ Ержанов М.С., Ержанова С.М Учетная политика на Казахстанском предприятии. Алматы. «ВИКО». 1997.

³⁶ Кондраков Н.П. Бухгалтерский учет: Учебное пособие. -М.: ИНФРА-М. 1996. 513 с.

³⁷ Кирьянова З.В. Теория бухгалтерского учета. -М.: «Финансы и статистика», 2000.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi su'yektlar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishga nafaqat zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, xom ashyo va materiallarni tejash, balki, hisob siyosatini optimal darajada shakllantirish orqali ham erishiladi. Chunki hisob siyosatini shakllantirish jarayonida amaldagi qonuniy va me'yoriy hujjatlarda ruxsat etilgan bir qancha muqobil variantlarni korxonada faoliyatiga ta'siri nuqtai nazardan tahlil qilinadi hamda ularning eng yuqori iqtisodiy samara beradigan variantlari tanlab olinadi. Shuningdek, qonuniy hujjatlarda xo'jalik su'yektlariga berilgan turli yengilliklardan foydalanish tartibi ham hisob siyosatida rasmiylashtirilishi zarur.

Fikrimizcha, hisob siyosatining uslubiy jihatda qaysi masalalar aks ettirilishi zarur, degan masalaga javob berish uchun hisob siyosatining qolgan jihatlarida qaysi masalalarning yoritilishiga iqtisodchi olimlarning qanday yondoshishlarini tahlil qilish lozim, deb hisoblaymiz. Chunki tahlil qilinayotgan iqtisodiy adabiyotlarning ko'pchiligida bir masala bir muallifning zarur deb hisoblansa, xuddi shu masalani boshqa bir iqtisodchi hisob siyosatining boshqa jihatida aks ettirilishi zarur, deb hisoblaydi.

Masalan: N.I.Seleznyova, I.P. Skoboleva materiallarni tayyorlash va sotib olish jarayonini hisobda aks ettirish tartibini hisob siyosatining uslubiy jihatida aks ettirish zarur deb hisoblasa³⁸, aksincha A.S.Bakayev, A.Z.Shneydman esa, uni hisob siyosatining texnik jihatida aks ettirishni maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqlaydi³⁹. Shuningdek, boshqa masalalarda ham xuddi shunday qarama-qarshi fikrlarni uchratish mumkin. Ammo hisob siyosatining texnik jihatida «Ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqish», «Majburiyat va mulkni inventarizatsiya qilish», «Ichki ishlab chiqarish hisoboti» kabi masalalarning yoritilishi bo'yicha barcha iqtisodchilar yakdil fikrni bildirishgan hamda ushbu masalalar hisob siyosatining texnik jihatida yoritilishi zarur, deb hisoblaydilar.

Shuningdek, «Birinchi hisobot yilining davomiyligi», «Yarim fabrikatlar harakatining hisobi», «Muomala xarajatlarini taqsimlash», «Korxonada foydasining yil davomida foydalanilishini belgilash», «Buxgalteriya hisobi, boshqaruv va soliq hisobining o'zaro bog'liqligi», «Buxgalteriya hisobotini tuzish va tasdiqlash», «Buxgalteriya hisobotlarining shakllanishi», «Balansni reformatsiya qilish», «Aksiyadorlik jamiyatining foydasini taqsimlash», «hisobot shakllarini to'ldirish», «Buxgalteriya hisobida hujjatlar aylanishi» va «Hisob siyosatini rasmiylashtirish va ochib berish tartibi» kabi masalalarda ham ko'pchilik iqtisodchilar yakdil ravishda hisob siyosatining texnik jihatida aks ettirilishini maqsadga muvofiq emas, deb hisoblaydilar.

Hisob siyosatining tashkiliy jihatida aks ettiriladigan masalalarning ko'pchiligi bo'yicha barcha iqtisodchilar ijobiy fikrni, ya'ni ularning tashkiliy jihatda yoritilishi tarafdorlaridir.

Hisob siyosatining uslubiy, texnik va tashkiliy jihatlariga qanday masalalarni kiritish va ularning buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilishda qanday vazifani

³⁸ Селезнева Н.И., Скоблева И.П. Учетная политика-95. Специальная литература. -М.: СП. 1995. с. 47.

³⁹ А.С Бакаев, Шнейдман А.З. Учетная политика предприятия. Бухгалтерский учет 1994. с. 8.

bajarishi zarurligini belgilash masalasiga ancha oydinlik kiritadi. Shuning uchun ham, eng avvalo, hisob siyosatining uslubiy, texnik va tashkiliy jihatlari oldiga qo'yiladigan vazifalarni aniq belgilash zarur.

Iqtisodiy adabiyotlarni tahlil qilish va to'plangan tajribalarni o'rganish hisob siyosatining uslubiy jihati oldiga quyidagi vazifalar mavjudligini ko'rsatdi:

-xo'jalikda sodir bo'ladigan operatsiyalarni pulda ifodalashning turli variantlarini aniqlash;

-turli muqobil variantlarni xo'jalikning moliyaviy faoliyatiga va ishlab chiqarish jarayonining samaradorligiga ta'siri nuqtai nazaridan tahlil qilish;

-ma'qul muqobil variantlaridan (har bir sohada) birini tanlash va ularni rasmiylashtirish.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun hisob siyosatining uslubiy jihatida rasmiylashtirilishi zarur bo'lgan barcha operatsiyalar pulda ifodalanishida qo'llaniladigan barcha muqobil variantlar tahlil qilinishi zarur. Chunki ushbu masalalarni yechish jarayonida qabul qilingan variant bevosita xo'jalikning moliyaviy holatiga va ishlab chiqarish jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Masalan: Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash usullaridan birini tanlash bevosita xarajatlar summasiga ta'sir ko'rsatadi. Bu moliyaviy natijada o'z aksini topish bilan birgalikda, asosiy vositalarning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga ham ta'sir qiladi. Ushbu ko'rsatkich esa korxonalar bilan hamkorlik qilish istagini bildirgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'rganiladigan asosiy ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Umuman, biz olib borgan tadqiqotlar natijasida hisob siyosatining uslubiy jihatidan aks ettirilgan masalalar bevosita xo'jalikning moliyaviy holatiga ta'sir etuvchi masalalar bo'lib, ularni hisob siyosatida rasmiylashtirishdan oldin, har tomonlama chuqur tahlil qilish talab qilinadi.

Demak, yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkin:

-hisob siyosatining uslubiy jihatida aks ettiriladigan masalalarning muqobil variantlari mavjud bo'lishi lozim;

-ushbu muqobil variantlarning har biri xo'jalikning moliyaviy holatiga turlicha ta'sir qilishi sababli, ularning optimal variantini belgilash zarur;

-har xil variantlari mavjud bo'lgan, ammo xo'jalikning moliyaviy holatiga ta'sir qilmaydigan masalalar hisob siyosatining uslubiy jihatiga ta'sir etmasligini hisobga olib, ularni uslubiy masalalar tarkibiga kiritmaslik lozim.

Hisob siyosatining texnik jihatida aks ettiriladigan masalalar xo'jalikda buxgalteriya hisobini yuritish uchun zarur sharoit yaratishi lozim. Ammo hisob siyosatining texnik jihatining uslubiy jihatdan asosiy farqi shundan iboratki, unda rasmiylashtirilishi zarur bo'lgan masalalarda birdaniga bir necha masalalar o'z yechimini topishi zarur.

Masalan: Uslubiy jihatda asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash usuli tanlanganda asosiy vositalarning alohida guruhlari bo'yicha amortizatsiya hisoblash usuli tanlanadiki, ya'ni bitta masala yechiladi. Endi hisob siyosatining texnik jihatida <ishchi schyotlar rejasida> esa, kompleks masalalar o'z yechimini topadi.

Masalan: - birinchi va ikkinchi tartibli schyotlar aniqlanadi: aktiv, kapital, majburiyatlar, daromad va xarajat, foyda va zararlarni hisobga olish tartibi

belgilanadi. Buxgalteriya hisobi schyotlarining o'zaro bog'lanishi namunaviy schyotlar rejasidan kelib chiqqan holda har bir xo'jalikning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ishlab chiqiladi.

Hisob siyosatining tashkiliy jihatidan uslubiy va texnik jihatlarining vazifalarini bajarilishi uchun sharoit yaratishi zarur. Ammo hisob siyosatining tashkiliy jihatida rasmiylashtirilishi zarur bo'lgan masalalar ko'p jihatdan xo'jalikning hajmiga (katta, kichikligiga), uning qaysi tarmoqqa tegishliligiga, tashkiliy-texnologik xususiyatlari va boshqa omillariga bog'liq. Hisob siyosatining tashkiliy jihatini optimal shakllantirish xo'jaliklarda buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, hozirgi sharoitda hisob siyosatining xo'jalik yurituvchi su'yektlarda buxgalteriya hisobini tashkil qilishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlagan holda, bu sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ko'lami yetarli darajada emasligini tan olish zarur.

Hisob siyosatining xo'jalik yurituvchi su'yektlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishda qo'llanilmayotganligining eng asosiy sabablaridan biri, uning nazariy asoslarining yetarli darajada tadqiq qilinmaganligidan dalolat berdi.

Yuqoridagi hisob siyosatining uslubiy, texnik va tashkiliy jihatlarini chegaralash, ularda qamrab olinadigan masalalar, ularning mazmuni to'g'risida faqat nazariy nuqtai nazardan iqtisodchilarning fikr - mulohazalari, tavsiya hamda takliflari tahlil qilindi, shuningdek, ularga muallif o'z munosabatini bildirdi.

Buxgalteriya hisobotlarini tuzishda hisob siyosatining uslubiy, texnik va tashkiliy jihatlarini hamda ular qamrab oladigan masalalar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir jihatda yoritiladigan masalalar hisobot uchun zarur ma'lumotlarni shakllantirishda o'ziga xos vazifalarni bajaradi.

8.4. Hisob siyosatining uslubiy jihatida buxgalteriya hisobotini tuzish uchun zarur ma'lumotlarning shakllantirilishi

Buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlarida buxgalteriya hisobi hisobotning barcha elementlari: aktiv; kapital; majburiyatlar; daromad va xarajat; foyda va zararlarning hisobot davri boshiga, davr mobaynidagi harakati va hisobot davri oxiriga bo'lgan holatini o'zida aks ettirishi zarurligi ta'kidlangan. Ushbu elementlarning birinchi uchtasi buxgalteriya balansida qolgan to'rttasi esa, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda o'z aksini topadi. Hisob siyosatining uslubiy jihati hisobot elementlarining qaysilari uchun zarurligi ta'kidlangan savol tug'ilishi tabiiydir.

Su'yektlarining faoliyatini tahlil qilish hisob siyosatining uslubiy jihatida xarajatlarni hisobga olishning quyidagi masalalarini yoritish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tadbirkorlik su'yektlarida amortizatsiya hisoblashning 4 xil usulini qo'llash imkoniyatiga ega.

Amortizatsiya hisoblash usullarini tanlashda chet el tajribasini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki ularda amortizatsiya summasi bilan asosiy vositalarni saqlash xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor beriladi.

**Hisob siyosatining uslubiy jihatida yoritiladigan xarajat bilan bog'liq
asosiy masalalar**

№	Ko'ritiladigan masalalar	Muqobil variantlar
	Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash tartibi	To'g'ri chiziqli usul Ishlab chiqarish usuli Sonlar yig'indisi usuli Ikkilamchi usul
	Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash tartibi	To'g'ri chiziqli usul Ishlab chiqarish usuli Sonlar yig'indisi usuli Ikkilamchi usul
	Ishlab chiqarish zaxiralarini baholash	O'rtacha tortilgan qiymat usulida FIFO usulida
	Asosiy vositalarni ta'mirlashni moliyalashtirish tartibi	Bevosita xarajat sifatida tan olish usuli Ta'mirlash fondi hisobidan qoplash usuli
	Kelgusi davr xarajatlarini qoplash muddati	Har bir kelgusi davr xarajatini qoplash hisob-kitoblarga va boshqa asoslar bilan belgilanadi
	Kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun zaxiralar	Har bir davr sarf va to'lovlari uchun zaxiralar alohida hisoblanadi

Amortizatsiya hisoblashning tezlashtirilgan usullarini joriy qilishdan ko'zlangan maqsad baho siyosati bilan bog'liqdir. Chunki amortizatsiya hisoblashning tezlashtirilgan usulini qo'llaganda asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiya summaları birinchi yillarda ko'p bo'lib, keyingi yillarda kamayib boradi. Aksincha, birinchi yillarda ta'mirlash xarajatlari kam bo'lib, keyingi yillarda ularning summasi ortib boradi. Amortizatsiya hisoblashning ushbu usuli «Sonlar yig'indisi» usuli deb ataladi va 1966 yilda AQShlik olim T. Xadjes tomonidan taklif etilgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, amortizatsiya hisoblashning ushbu usuli qator afzalliklarga ega.

Respublikamizda buxgalteriya hisobining 4-«Tovar-moddiy zaxiralar» milliy standartida ishlab chiqarish zaxiralarini baholashda ikkita, o'rtacha qiymat va FIFO usullariga ruxsat etilgan. Unga qadar ishlab chiqarish zaxiralarni faqat o'rtacha qiymat usulida baholash qo'llab kelindi.

Fikrimizcha, ishlab chiqarish zaxiralarining ishlab chiqarishga sarflangan qismini aniqlashda o'rtacha qiymat qo'llaniladigan bo'lsa, ancha murakkab hisob-kitoblar amalga oshirilishi talab qilinadi. FIFO usuli qo'llanilganda esa, kelib tushayotgan ishlab chiqarish zaxiralari ketma-ket ishlab chiqarishga sarflash uchun berilganda xarajat sifatida tan olinadi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda asosiy vositalar alohida ahamiyatga ega. Chunki ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari traktorlar, mashinalar va boshqa asbob-uskunalar yordamida bajariladi. Ularning uzluksiz ishlashini ta'minlashda asosiy vositalarning o'z vaqtida ta'mirlanishi alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun asosiy vositalarni ta'mirlashni moliyalashtirish tartibini hisob siyosatida aks ettirish zarur. Amaldagi me'yoriy hujjatlarda asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlarini qoplashning 2-usuliga ruxsat etilgan. Ulardan biri ta'mirlash

xarajatlarini bevosita ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibida aks ettirish va ikkinchisi asosiy vositalarni ta'mirlashni moliyalashtirish uchun maxsus ta'mirlash fondini tuzish hamda ushbu fond hisobidan xarajatlarni qoplash. Ammo ta'mirlash fondini tuzish uchun kamida oxirgi uch yilda sarflangan ta'mirlash xarajatlarini tahlil qilish va ushbu ma'lumotlar asosida joriy yil uchun ta'mirlash fondining qiymati aniqlanadi. Yil davomida belgilangan normalar asosida unga ajratma qilinadi. Ta'mirlash xarajatlari sodir bo'lganda ushbu fond hisobidan qoplanadi. Yil oxirida ta'mirlash fondining foydalanilmay qolgan qismi joriy yilning foydasini oshiradi va 9390-«Boshqa operatsion daromadlar» schyotida hisobga olinadi. Demak, 2- usulda ham joriy yilning ta'mirlash xarajatlari qiymati bir xil summada bo'ladi. Faqat 1-usulda ta'mirlash xarajatlarining haqiqiy summasi ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida hisobga olinadi. 2- usulda esa, ta'mirlash xarajatlarining me'yoriy summasi ishlab chiqarish xarajatlari sifatida tan olinadi va ta'mirlash xarajatlarining haqiqiy summasi korrektyrovka qilinadi.

Kelgusi davr xarajatlarini hisobdan o'chirishda xarajatlarning vujudga kelish manbalarini o'rganish natijasida, moliyaviy natijalarga ta'siri nuqtai nazaridan ularni buxgalteriya hisobi schyotlari rejasining tegishli schyotlarida hisobga olishni hisob siyosatida ko'rsatib o'tilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'tkaziladigan xarajatlar me'yori kelgusi davr xarajatlarining qaysi muddatga tegishli ekanligiga bog'liq: ikki yil davomida foydalanishga mo'ljallangan bo'lsa, har yili qiymatining 50 % hisobidan chiqariladi; uch yilga mo'ljallangan bo'lsa, birinchi yili uning 34 %, keyingi ikki yilda esa, 33foizi hisobdan chiqariladi.

Buxgalteriya hisobining 21-«Xo'jalik yurituvchi su'yektlarning moliyaviy faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlarining rejasini va uni qo'llash bo'yicha ko'rsatma (yo'riqnoma)» milliy standartida kelgusi davr xarajatlarini ularning qaysi davrlarga tegishliligiga qarab ikkiga: joriy yilning kelgusi davr xarajatlari va kelgusi yillarning xarajatlariga bo'linadi. Ushbu milliy standartda kelgusi davr xarajatlarini bunday tartibda hisobga olinishida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga asoslanilgan.

Kelgusi davr xarajatlarini hisobot davrining xarajatlari sifatida tan olishda muddatlarini belgilashga qarab, ularni ikki quyidagi guruhga ajratish mumkin:

-birinchi guruhga kiruvchi kelgusi davr xarajatlarining xarajat sifatida tan olish muddatlari aniq. Shuning uchun ham bunday xarajatlarni tan olish muddati aniq bo'lgan kelgusi davr xarajatlari, deb atash mumkin. Bunday kelgusi davr xarajatlariga: kelgusi yil uchun ilmiy-texnika adabiyotlariga, jurnal va gazetalarga yozilish; oldindan to'langan ijara haqlari; oldindan to'langan kafolatlangan xizmat haqlari va boshqa shunga o'xshash xarajat sifatida tan olish muddatlari aniq bo'lgan kelgusi davr xarajatlarini olib borish mumkin;

-ikkinchi guruhga kiruvchi kelgusi davr xarajatlarini xarajat sifatida tan olish muddatini aniq belgilash imkoniyati mavjud emas. Ushbu xarajatlarni xarajat sifatida tan olish muddatlari aniq bo'lmagan kelgusi davr xarajatlari deb atash mumkin. Shuning uchun ham kelgusi davr xarajatlarini xarajat sifatida tan olish usullarini hisob siyosatining uslubiy jihatida aks ettirish alohida ahamiyatga ega. Chunki ushbu xarajatlarni yillar va davrlar bo'yicha asossiz taqsimlash ularning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir qiladi, ya'ni asossiz ravishda foyda summasi hisobotda

ortadi yoki kamayadi. Shuning uchun ham hisob siyosatining uslubiy jihatida ushbu masalalarning yechimini to'g'ri belgilash buxgalteriya hisobini tashkil qilishga bevosita ta'sir qiladi.

Ma'lumki, mamlakatimizda 1998-yil 1-yanvardan boshlab daromadlarni tan olishda Hisoblash tamoyili amal qilmoqda. Hisoblash tamoyilining o'zida daromadlarni tan olishning quyidagi usullari mavjud:

- berish payti (sotish paytida)da tan olingan daromad;
- berish paytidan keyin tan olingan daromad;
- berish paytigacha tan olingan daromad.

Daromadlar- korxonaning odatdagi faoliyati natijasida iqtisodiy resurslarning yoxud aktivlarning kelishi yoki o'sishi orqali yoxud majburiyatlarning qisqarishi orqali o'sishidir⁴⁰.

Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlarni hisobga olishdagi asosiy masala ularni tan olish paytini aniqlash hisoblanadi. Buxgalteriya hisobining milliy standartida tan olishni moddaning korxonaga moliyaviy hisobotlariga kiritilishi jarayoni deb ta'riflaydi. Tan olish ko'rsatilgan summani hisobotning yakuniy ko'rsatkichlarida aks ettirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining 2-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standartida daromad va xarajat moddalarini tan olish mezonlari ko'rsatilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

a) modda o'lchash uchun tegishli asosga ega va ishlatilgan summani oqilona baholashni amalga oshirish imkoni mavjud;

b) kelgusi iqtisodiy manfaatlarning olinishi yoki chiqib ketishiga, ishlatilgan moddalar uchun bunday manfaatlar olinishi yoki berilishi ehtimolining mavjudligidir.

Shunday qilib, daromadlar, odatda, shartnomaning bajarilishi amalga oshirilganda va tushumni o'lchash hamda olish imkoni mavjudligi to'g'risida qat'iy ishonch hosil bo'lganda tan olinadi.

Buxgalteriya hisobotlarini tuzish jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan hisob siyosatining uslubiy jihatlariga bog'liq. Chunki uslubiy jihatdan hisobotlarning asosiy ko'rsatkichlarini shakllantirish masalasi hal qilinadi. Masalan, uzoq muddatli aktivlarning qoldiq qiymatining aniqlanishi yoki moliyaviy natijalarning shakllanishiga uslubiy jihatdan qabul qilingan amortizatsiya hisoblash usullariga bog'liq va hokazo.

8.5. Hisobotni tuzishda hisob siyosatining texnik jihatining vazifalari

Hisob siyosatining texnik va tashkiliy jihatlarida aks ettiriladigan masalalarning yechimini to'g'ri belgilash buxgalteriya hisobini tashkil qilish uchun zaruriy texnik va tashkiliy asoslarini vujudga keltiradi. Shuning uchun ham hisob siyosatining umumiy qoidasi va shartlari su'yektning faoliyatidan, xodimlarning

⁴⁰ Тулаходжаева М.М. ва бошқалар. Молиявий ҳисоб. Ёқув Ҷўлланма-Т: 2000. Корана Корпорацияси. 29 б.

malaka darajasidan va boshqaruv texnikalari bilan qurollanish darajasidan kelib chiqqan holda uning xususiyatiga moslashtiriladi⁴¹.

Fikrimizcha, hisob siyosatining texnik jihatida aks ettiriladigan masalalarning yechimini to'g'ri belgilash uchun quyidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratilishi zarur:

- moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun zarur ma'lumotlarni aniqlash;
- su'yektlarning statistik va boshqa davlat organlariga taqdim qilinadigan hisobotlari uchun zarur ma'lumotlar tarkibini belgilash;
- xo'jalikni boshqarish uchun zarur ma'lumotlar tarkibini aniqlash;
- su'yektlarning istiqboldagi rivojlanishini belgilash uchun zarur ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish.


Umuman olganda, birinchi va ikkinchi masala uchun zarur ma'lumotlar to'plamini shakllantirish ko'p jihatdan hisob siyosatining uslubiy jihatidagi masalalarning yechimiga ham bog'liq. Chunki unda buxgalteriya hisobini yuritishda tanlab olingan asosiy usullar yig'masi keltiriladi.

Su'yektlarning moliyaviy, statistik va soliq hisobotlari uchun ma'lumotlarning shakllanishini chizmada quyidagicha aks ettirish mumkin.

Ammo moliyaviy, statistik va soliq hisobotlari uchun zarur ma'lumotlarning shakllanishi har doim ham yuqoridagi chizmadagidek bo'lavermaydi. Chunki ushbu chizmada kichik va o'rta hajmdagi su'yektlarda sodir bo'ladigan xo'jalik operatsiyalari asosida tuziladigan hisobotlar uchun zarur ma'lumotlarning shakllanishi inobatga olingan.

8.5.1-chizma.

Davlat tomonidan belgilangan hisobotlar uchun zarur ma'lumotlarning shakllanishi



Tabiiyki, buxgalteriya hisobi ham ushbu xo'jaliklarda sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarining mazmuni, turi va hajmini e'tiborga olgan holda turli darajada tashkil qilinishi mumkin. Shu nuqtai nazardan O. Bobojonov va D.Matyaqubovlarning quyidagi fikrlari o'rinlidir.

⁴¹ Bobojonov O., Matyaqubov D. Xo'jalik kirituvchi sub'ektlarning boshqaruv hisobini kritika bilan tahlil qilish. //Xalqaro-ilmiy -amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent: TMI, 2002 yil 15 mart. 246b.(108 b).

«Hisob siyosatini tuzish jarayonini me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshirishdan tashqari soliq rejasi bilan chambarchas bog'langan holda olib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki uni tuzishga quyidagi omillar ta'sir qiladi;

-su'yektning huquqiy va tashkiliy tuzilishi;

-hajmi;

-faoliyatining hududi⁴².

Korxonalarining hajmi ko'proq hisob siyosatining uslubiy jihatlariga nisbatan texnikaviy va tashkiliy jihatlariga ko'proq ta'sir qiladi. Chunki sodir bo'lgan operatsiyalarni aks ettiruvchi dastlabki hujjatlar, ularni qayta ishlashda qo'llaniladigan hisob registrlari va hisobga oluvchi buxgalteriya hisobi ishchi schyotlari rejasi ham turlicha tartibda bo'ladi. Shu nuqtai nazardan buxgalteriya hisobini tashkil qilishga bag'ishlangan ilmiy maqolalar va iqtisodiy adabiyotlarda buxgalteriya hisobini yuritishda ularning hajmi, ixtisoslashuvi, mahsulot turlari va qayta ishlash sohasining rivojlanish darajasidan kelib chiqish maqsadga muvofiq⁴³, deb hisoblaydi.

Hisob siyosatining texnik jihatida aks ettiriladigan asosiy masalalar nafaqat moliyaviy, statistik va soliq hisobotlarini, balki xo'jalikni samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarini shakllantirishi bilan bog'liq masalalarga ham qaratilishi zarur.

Ma'lumki, tadbirkorlik su'yektlari o'zlarining istiqboldagi rivojlanishini belgilashlari uchun nafaqat buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan, balki boshqa iqtisodiy ma'lumotlardan ham foydalaniladi. Bunda buxgalteriya hisobi fermer xo'jaligi faoliyati haqida haqiqiy axborotlar berish bilan ishtirok etadilar. Bu yerda buxgalteriya hisobi o'z vazifalarini to'g'ri va aniq bajarishi uchun, eng avvalo, iqtisodiy ko'rsatkichlarning taqqoslash imkoniyatini vujudga keltirishi zarur. Chunki fermer xo'jaligi istiqboldagi rivojlanishini belgilab olish uchun o'tgan yillardagi faoliyatini tahlil qiladi.

Shu nuqtai nazardan xo'jalikda yetishtirilayotgan mahsulotlarning rentabellik darajasi tahlil qilinadi. Iqtisodiy o'sishga erishish uchun qanday yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish va ularning sifatini yaxshilash uchun yana qancha xarajatlar qilinishi hamda ulardan kutiladigan daromadlar tahlil qilinadi. Shuning uchun ham yuqoridagi uchinchi va to'rtinchi masalaning yechimini topishda buxgalteriya hisobining texnik jihatida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash uchun zarur ma'lumotlarni shakllantirishda ishchi schyotlar rejasi, buxgalteriya hisobining shakllari hamda hisob registrlarini tanlash, hujjatlarning rekvizitlarini takomillashtirish, hujjatlar aylanishi, shuningdek, boshqa ularning tarkibiy qismlarida hisobga olinishi lozim.

«Korxonalar barcha sintetik schyotlar yig'indisidan o'z faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda moliya-xo'jalik muomalalarini aks ettirish uchun zarur sintetik schyotlarni tanlaydi. Korxonalar sintetik schyotlarga qo'shimcha subschyotlarni kiritishi, aniqlashi va chiqarishi, shuningdek, subschyotlarga

⁴² Бобожонов О., Матякубов Д. Хяжалик юритувчи субъектларнинг бошқарув ҳисобини юритишда ҳисоб сиёсатининг ярни. //Халқаро-илмий –амалий конференция материаллари. –Тошкент: ТМИ. 2002 йил 15 март. 246-бет.

⁴³ Ёша ерда. 109 –бет.

qo'shimcha analitik hisoblarni belgilash huquqiga ega»⁴⁴. Bundan tashqari tadbirkorlik su'yektlari analitik hisob ob'yektlarini aniqlaydi.


Hisob siyosatining texnik jihatidagi asosiy masalalardan biri buxgalteriya hisobida hujjatlar aylanishi hisoblanadi. hozirgi kunda ushbu masalaning dolzarbligi tadbirkorlik su'yektlari uchun hujjatlar aylanishining umumiy tartibi ishlab chiqilgan. Shuning uchun ham ular yirik korxonalarda qo'llaniladigan hujjatlar shaklidan foydalanadilar.

Bizningcha, hisob siyosatida hujjatlar aylanishini rasmiylashtirishda xo'jalik yurituvchi su'yektlarda tuziladigan dastlabki hujjatlar va ularning harakati o'rganilishi zarur.

Fikrimizcha, hujjatlar aylanishini hisob siyosatida to'g'ri rasmiylashtirish uchun ularni quyidagi ketma-ketlikda tahlil qilish zarur:

8.5.2-chizma

Dastlabki hujjatlar tuzish tartibi va ularning harakati



Dastlabki hisob barcha axborotlarning eng asosiy manbai hisoblanadi. Buxgalteriya hisobining eng oxirgi mahsulotining sifati bevosita dastlabki hisobning qanchalik to'g'ri tashkil qilinganligiga bog'liq.

Shu nuqtai nazardan qozog'istonlik iqtisodchilar S.J.Jaqipbekov va D.S.Jaqipbekovalar «Buxgalteriya hisobida maxsus hujjatlashtirish» standartini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun vaqt yetdi. Shuningdek, amaldagi yo'riqnomalar va inventarizatsiya bo'yicha tavsiya ko'rinishidagi materiallarni buxgalteriya hisobining maxsus standarti sifatida rasmiylashtirishni talab qiladi. Shuningdek, dastlabki buxgalteriya hisobi bo'yicha maxsus standart ishlab chiqish zarur»⁴⁵, deb hisoblaydilar.

Albatta, ushbu standartlarni ishlab chiqish zaruriyatini vaqt ko'rsatadi. Ammo ushbu fikrlar dastlabki hisob nafaqat bizning mamlakatimizda balki barcha MDH davlatlarida ham ancha dolzarb muammo ekanligidan dalolat beradi.

Buxgalteriya hisobining 19-«Inventarizatsiyani tashkil qilish va o'tkazish» milliy standartida korxonalar mulki va majburiyatini inventarizatsiya qilishning

⁴⁴ Селезнова Н.Н., Скобелева И.П. Учетная политика. -М., с. 47.

⁴⁵ Жакипбеков С.Ж., Жакипбекова Д.С. Первичный учет на уровень требований потребителей XXI век: БУ и А в Республика Казахстан, материалы международ. Конференции. С. 137-142.

tartibi belgilangan. Xo'jalik yurituvchi su'yektlarning mulki va majburiyatlarini quyidagi hollarda rejadan tashqari inventarizatsiya qilishlari mumkin:

- asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralarni qayta baholaganda;
- moddiy javobgar shaxslar almashganda;
- o'g'rilik va xizmat lavozimini suiste'mol qilish hollari sodir bo'lganda;
- tabiiy ofat, yong'in, avariya yoki boshqa favqulodda holatlar sodir bo'lganda;
- xo'jalik yurituvchi su'yekt tugatilganda.

Inventarizatsiyani tashkil qilish va o'tkazishning me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartib-qoidalari yirik korxonalar uchun qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Ammo ushbu tartib-qoidalarni kichik tadbirkorlik su'yektlarida qo'llash ancha qiyinchilik tug'dirishi bilan birgalikda, ko'pchilik hollarda unga ehtiyoj ham sezilmaydi.

Yuqorida ko'rilgan masalalar fermer xo'jaligi hisob siyosatining tarkibiy qismi hisoblangan texnikaviy jihatning muhim masalalari hisoblanadi. Ushbu masalalarning to'g'ri va ob'yektiv yechimni ishlab chiqish bevosita hisob siyosatining tashkiliy jihatidagi masalalar yechimiga ta'sir ko'rsatadi.

Hisob siyosatining texnik jihatidagi masalalar hisobotni tuzish uchun zarur ma'lumotlarni shakllantirish uchun texnik shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Bu o'z navbatida, ma'lumotlarning aniqligi va to'g'riligini hamda o'z vaqtidaligini kafolatlaydi.

Xulosa

Hisob siyosatining texnik jihatida aks ettiriladigan asosiy masalalar nafaqat moliyaviy, statistik va soliq hisobotlarini, balki xo'jalikni samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarini shakllantirishi bilan bog'liq masalalarga ham qaratilishi zarur.

Ma'lumki, tadbirkorlik su'yektlari o'zlarining istiqboldagi rivojlanishini belgilashlari uchun nafaqat buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan, balki boshqa iqtisodiy ma'lumotlardan ham foydalaniladi. Bu yerda buxgalteriya hisobi o'z vazifalarini to'g'ri va aniq bajarishi uchun, eng avvalo, iqtisodiy ko'rsatkichlarning taqqoslash imkoniyatini vujudga keltirishi zarur.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Hisob siyosatini moliyaviy hisobotni shakllantirishdagi ahamiyati nimalardan iborat?
2. Hisob siyosatini shakllantirishda qaysi me'yoriy hujjatlarga asoslaniladi?
3. Hisob siyosatini shakllantirishda xalqaro standart talablari nimalardan iborat?
4. Hisob siyosatini shakllantirishda milliy standart talablari nimalardan iborat?
5. Hisob siyosatini uslubiy jihatlarini izohlab bering.
6. Hisob siyosatining texnik jihatlarini deganda nimalarni tushunasiz?
7. Hisob siyosatining tashkiliy jihati deganda nimalarni tushunasiz?
8. Hisob siyosatida xarajatlar qanday usullar yordamida aks ettiriladi?
9. Qanday hisoblash tamoyillarini bilasiz?
10. Hujjatlar aylanishini hisob siyosatida belgilab beriladigan tartib-qoidalarini izohlab bering.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Бакаев А.С., Шнейдман А.З. Учетная политика предприятия. 1994 г. стр-8.
2. Ержанов М.С., Ержанова С.М. Учетная политика на Казахстанском предприятии. Алматы, «Бико» 1997 г.
3. Кирьянова З.В. Теория бухгалтерского учёта. -М.: «Финансы и статистика», 2000 г.
4. Селезнова Н.И., Скоблева И.П. Учетная политика-95. -М.: 1995 г. Тулаходжаева М.М. ва бошқалар. Молиявий ҳисоб. Ўқув қўлланма.-Т.: 2000, Корана корпорацияси, 29-б.
6. [http:// www. accounting web. com/](http://www.accounting web. com/)

Glossariy

Asosiy vositalar - uzoq vaqt mobaynida (bir yildan ortiq) o'zgarmas shaklda ishlaydigan, qiymati birlik uchun belgilangan limitdan yuqori, o'z qiymatini qismlab yo'qotadigan moddiy-ashyoviy boyliklar.

Aksionerlik kapitali – aksionerlik jamiyatlari (ochiq turdagi aksionerlik jamiyati, yopiq turdagi aksionerlik jamiyati)ni tashkil etishdagi mablag'lar manbaini shakllantirsa.

Balans-brutto-tartibga soluvchi moddalarni o'z ichiga oluvchi balansdir.

Balans-netto-qiymatidan tartibga soluvchi moddalar summasi chegirilgan balans bo'lib, buni “tozalash” deyiladi.

Davr xarajatlari – korxonada faoliyati ma'lum davri mobaynida foydalanadigan mahsulot va xizmatlarga sarflangan hamda aynan o'sha davrda aks ettiriladigan xarajatlardir.

Debitorlar – xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar, bo'nak to'lovlari, xodimlar bilan hisob-kitoblar, shuba korxonalar bilan hisob-kitoblar, uyushgan korxonalar bilan hisob-kitoblar, ta'sischi va boshqa debitorlar bilan hisob-kitoblar.

Zaxiralar va sarflar - ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, qayta sotiladigan tovarlar, bo'lajak davrlar xarajatlari.

Investitsion faoliyat - bu pul ekvivalentlariga kirmaydigan uzoq muddatli aktivlarni va boshqa investitsiyalarni sotib olish va sotish, to'lanadigan kreditlarning berilishi va olinishi.

Inventarizatsiya-korxonada mol-mulkini ro'yxat qilish va ma'lumotlarni buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtirishdir.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot - bu (konsolidatsiya inglizcha consolidate - birlashtirmoq, mustahkamlamoq) hisobot sanasidagi moliyaviy ahvolni va xo'jalik yurituvchi jamiyatlar guruhining hisobot davri uchun moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi umumlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi hisoblanadi.

Moliyaviy faoliyat - bu faoliyat natijasida tashkilotning xususiy kapitalining va qarzlarning hajmida va tuzilishida o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Moliyaviy natijalar – bu xo'jalik yurituvchi su'yektning ma'lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o'ziga qarashli mablag'ning oshishi yoki kamayishidir.

Nomoddiy aktivlar - yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan, binolar, inshootlar, aqliy mulk, tovar zaxiralari, ixtirolar, “nou-xau” va boshqalardan foydalanishga doir mulkiy huquqlar.

Pul mablag'lari – kassadagi, valuta mablag'lari, qisqa muddatli qo'yilmalar, qayta sotib olingan o'z aksiyalari.

Sarmoya qo'yilmalari - xo'jalik yoki pudrat usulida amalga oshirilayotgan tugallanmagan qurilish qiymati, shuningdek, asosiy podani tashkil etish, geologiya-qidiruv ishlariga sarflar va korxonalariga bo'nak ko'rinishida mana shu maqsadda berilgan bo'naklar va mablag'lar summasi.

To'g'ri xarajatlari – sotilgan mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan va qayd qilinishi bevosita daromadni tan olish bilan chambarchas bog'liq xarajatlari.

Taqsimlangan xarajatlari – ma'lum vaqtlarda amalga oshiriladigan va daromad olish uchun xizmat qiladigan davrlarga muntazam taqsimlanadigan xarajatlardir.

Uzoq muddatli investitsiyalar-korxonaning boshqa korxonalar ustav fondiga bir yildan ortiq muddatga qo'yilgan omonatlari. Bundan tashqari bu bo'limda sotib olingan aksiyalar, boshqa korxonalar berilgan qarzlari alohida moddalar bilan ko'rsatiladi.

Favqulodda holatlar bo'yicha foyda va zararlar - bu korxonada xo'jalik faoliyatida juda ham kam sodir bo'ladigan, u uchun odatiy va korxonada qabul qilinadigan, boshqaruv qarorlari natijasiga bog'liq bo'lmaydigan, foyda va zarardir.

Xarajatlar – korxonada aktivlari (resurslari)ning biron-bir maqsad uchun sarflanishi yoki asosiy faoliyat bilan bog'liq majburiyatlarni qabul qilishni o'zida mujassamlashtiradi.

Hisob siyosati- tanlangan korxonada uning xo'jalik faoliyatini yuritishga to'liq javob beradigan buxgalteriya hisobini yuritish usullari yig'indisidir

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Qonunlar, Farmonlar, Qarorlar va Prezident I.A. Karimov asarlari

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. - Т, Ўзбекистон, 2003.
2. “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни.- Т.1996 йил 30 август.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Бозор ислохотларини чуқурлаштириш ва иқтисодий янада эркинлаштириш соҳасидаги устивор йўналишлар амалга оширилишини жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони. 2005 йил 14 июн.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тадбиркорлик субъектларини ҳуқуқий ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги фармони. 2005 йил 14 июн.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тадбиркорлик субъектлари томонидан тақдим этиладиган ҳисобот тизимини такомиллаштиришг ва унинг ноқонуний талаб этганлик учун жавобгарликни кучайтириш тўғрисида” ги қарори 2005 йил 15 июн.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тадбиркорлик субъектларини текширишни янада қисқартириш ва унинг тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори 2005 йил 5 октябр.
7. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз.–Т. Ўзбекистон. 2001.
8. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. – Т.: Ўзбекистон. 2002.
9. Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маъмурий дунё билан ҳамкорлик йўли. – Т.Ўзбекистон. 2003.
10. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир.-Т. Ўзбекистон, 2005.
11. Каримов И.А. “Ўзбекистон демократик тараққиётининг янги босқичида” Т.: Ўзбекистон 2005.
12. Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йилда мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2005 йилда иқтисодий ислохотларни чуқурлаштиришнинг асосий йўналишларига бағишланган мажлисдаги маъруза. Халқ сўзи, 2005 й. 19 январ.
13. Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йилда мамлакатни ижтимоий-истисодий ривожлантириш яқунлари ва 2003 йилда истисодий ислохотларни чуқурлаштиришнинг асосий йўналишларига бағишланган мажлисдаги маъруза. Халқ сўзи, 2003 йил 18 феврал.

II. Mahalliy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

14. Хошимов Б. Бухгалтерия ҳисоби назарияси. Дарслик.-Т.: 2004й
15. Каримов А .ва бошқалар. Дарслик. «Шарқ» НМАКБТ. Тошкент. 2004
16. Умарова М. Бухгалтерия ҳисоби: Дарслик (Тўртинчи тўлдирилган нашр) - Т.: "УАЖБНТ" Маркази, 2004.

17. Бобожонов О., Жуманиёзов К. Молиявий ҳисоб бўйича амалий машғулотлар, ўқув кўлланма. 2-нашри. Тошкент. “Адабиёт жамғармаси”, 2004.
18. Вахидов С., Махамადиев А.. Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари. Тошкент, 1-ТошТИ босмаҳонаси, 2004.
19. Бобожонов А., Жуманиёзов К. Молиявий ҳисоб. Т., «Молия» нашриёти, 2002
20. Тулаходжаева М.М. Ўзбекистон Республикасида молиявий назорат тизими, Т.: Иқтисод ва ҳуқуқ дунёси, 1998.

III. MDH va Evropa davlatlaridagi darsliklar va o'quv qo'llanmalar

21. Епифанов О.В., Лабораторный практикум по бухгалтерскому учету. Сквозная задача: Учебник.- Практическое пособие. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006
22. Куттер М.И., Теория бухгалтерского учета: Учебник.- 3-е изд., Перераб и доп.-М.: Финансы и статистика, 2006
23. Федорова Г.В. Информационные технологии бухгалтерского учета, анализа и аудита.- М.: «Омега-Л» 2006.
24. Швецкая В.М., Теория бухгалтерского учета: Учебник. М.:Издательско-торговая корпорация . «Дашков и К», 2006
25. Бородин В.А., Амаглобели Н.Д. Теория бухгалтерского учета.- М.: «Инити-ДАНА», 2005.
26. Кондраков Н.П. Бухгалтерский учет: Учебник- М: ИНФРА, 2004.
27. Кутер М.И. Теория бухгалтерского учета: Учебник. 3-е изд., перераб и доп. М.: финансу и статистика, 2004.
28. Кутер М.И. Теория бухгалтерского учета: Учебник. 2-е изд., перер. и доп. М.: финансу и статистика, 2003.

IV. Mahalliy, MDH va Evropa davlatlari monografiya, jurnallaridagi ilmiy maqolalar

29. Холбеков Р. Ишлаб чиқариш ҳисобини ташкил қилиш тамойиллари ва услубиёти. монография, “Фан”, Тошкент, 2005.
30. Жуманиёзов К. Бозор иқтисодиёти шароитида хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий барқарорлигини таъминлаш муаммолари. Абдулла Қодирий номидаги “Халқ мероси” нашриёти, Тошкент, 2004.
31. Илҳомов Ш.И., Худойкулов А. Аналитик ҳисоб кўрсаткичларини Бош китоб кўрсаткичлари ва баланс моддалари билан солиштириш. Журнал. Рынок ценных бумаг и биржевое дело. Т.: – 2004. № 3, 41-42 бетлар.
32. Тулаходжаева М.М. Письмо- представление – дополнительный вид доказательства. НТВ, № 13, 30.03.2004.
33. Жўраев Н. Баҳонинг узгариши натижасида бухгалтерия ҳисобида юзага келадиган муаммолар ва уларни бартараф этиш. Мақола “Бизнес-Осиё” журнали, 2003.
34. Илҳомов Ш.И. Инвестицион лойиҳаларнинг олдиндан назорат қилинишини ташкил этиш. Журнал. Рынок ценных бумаг.–2002. №6, стр. 28.
35. Илхамов Ш.И. Бухгалтерский учет инвестиций в нематериальные активы. // Иқтисодиёт ва таълим журнали. Т.:–2003. 1-сон., 97 бет.

Ү. Foydalanilgan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari

36. Болибеков Б.О. “Савдо тижорат корхоналарида бухгалтерия ҳисоби ва аудитни халқаро стандартлар асосида ташкил этишни такомиллаштириш”. Т.: 2005.
37. Жўраев О.Т. “Молия инвестициялар ва улардан олинган молиявий натижаларнинг бухгалтерия ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш”. Т.: 2005.
38. Абдувахидов Ф.Т. Кичик тадбиркорлик субъектларида ҳисоб сиёсатини шакллантириш. Дисс. И.ф.н. Т.: ЎБМА, 2005.
39. Мухамедходжаев А.Р. Бозор муносабатларига ўтиш даврида товарларни сотиш, молиявий натижаларнинг ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш. Дисс. И.ф.н. Т.: ЎБМА, 2003.
40. Тошназаров С.Н. Хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналарда молиявий бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш. Дисс. И.ф.н. Т.: ЎБМА, 2005.
41. Файзиева У.Т. Юк ташувчи автотранспорт корхоналарида молиявий натижаларнинг ҳисоби ва аудиторлик текширувини такомиллаштириш. Дисс. И.ф.н. Т.: ЎБМА, 2002.

ҮІ. Foydalanilgan magistrlik dissertatsiyalari va bitiruv malakaviy ishlari

42. Закирова Н.А. Акционерлик жамиятларида кредит муомалалари ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш. Магистрлик диссертация. ТДИУ, 2003.
43. Наимов Н.К. Молиявий натижалар ва фойдани шакллантиришда аудиторлик текшируви услубини такомиллаштириш. Магистрлик диссертация. ТДИУ, 2003.
44. Худойбердиев Ш.А. Корхона молиявий ҳолати аудити услубини такомиллаштириш. Магистрлик диссертация. ТДИУ, 2005.
45. Абдуллаев С.И. Молиявий қўйилмалар ҳисоби ва аудити. Битирув малакавий иши. ТДИУ, 2003.
46. Арифжанов А.А. Ишлаб чиқариш харажатлари ҳисоби ва аудити. Битирув малакавий иши. ТДИУ, 2004

ҮІІ. Mahalliy va xalqaro anjumanlar materiallari

47. Иқтисодий ислохотлар амалда: муаммолар ва ечимлар. Магистратура талабалари илмий-амалий анжуманининг маърузалар тўплами. Т.: ТДИУ, 2005.
48. Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашуви ва иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида таркибий ўзгаришларни амалга ошириш истиқболлари. Университет ёш олимлари, иқтидорли талабалари ва Магистратура тингловчилари илмий-амалий анжуманининг маърузалар тўплами. Т.: ТДИУ, 2005.
49. Ўқув жараёнида ахборот ва илғор педагогик технологияларни қўллаш йўллари. Услубий қўлланма. –Т.: ТДИУ, 2005.
50. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида ташқи иқтисодий фаолиятнинг роли. Халқаро илмий амалий анжуман, ТДИУ 2005.

51. “Хозирги шароитда бухгалтерия ҳисоби, таҳлил ва аудитнинг услубияти ва усулларини такомиллаштириш” мавзуидаги республика илмий-амалий анжумани. Тошкент, ТДИУ, 28 май 2004.
52. Тулаходжаева М.М. Письмо–представление руководства хозяйствующего субъекта – клиента. Ҳозирги шароитда бухгалтерия ҳисоби, таҳлил ва аудитнинг услубияти ва усулларини такомиллаштириш. Республика илмий-амалий анжуман материаллари.- Т.:2004. ТДИУ. 4-6 б
53. Иқтисодий ислохотлар амалда: муаммолар ва ечимлар. Магистратура талабаларининг биринчи республика илмий конференцияси маърузалар тўплами. Т.: ТДИУ, 2003.

ҮШ. Ме’орий ҳужжатлар

54. Маҳсулот (иш ва хизмат)ларни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларини шакллантириш таркиби тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарорлари. 1999 йил 5 февраль.
55. “Молиявий ҳисобот шакллари ва уларнинг тўлдирилиши бўйича қоидаларни тасдиқлаш тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Молия Вазирлигининг Буйруғи. 2002 йил 27 декабр.
56. Бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари. (№1-23).

IX. Pedagogik va axborot texnologiyalar bo'yicha o'quv adabiyotlar, uslubiy ko'rsatmalar

57. Голиш Л. Технологии обучения в экономическом образовании. Введение в технологизацию обучения в экономическом вузе. ТГЭУ, 2005.
58. Назарова Ф.М. Технологии обучения в экономическом образовании. Образовательная технология по учебному предмету “Лизинговые операции”. ТГЭУ, 2005.
59. Ўқув жараёнида илғор педагогик ва ахборот технологияларини қўллаш йўллари. Услубий қўлланма. Тошкент, ТДИУ. – 2005 (1-қисм).
60. Ўқув жараёнида илғор педагогик ва ахборот технологияларини қўллаш йўллари. Услубий қўлланма. Тошкент, ТДИУ. – 2005 (2-қисм).
61. Ахборот технологиялари асосида дарсларни ташкил қилиш йўллари. Услубий қўлланма. Тошкент, ТДИУ – 2005.
62. Иқтисодий масалаларни шахсий компьютерларда ечиш технологиялари. Услубий қўлланма. Тошкент, ТДИУ – 2005.

X. Statistik to'plamlar, internet yangiliklari, veb-saytlar

63. 2004 йилдаги Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ривожининг асосий кўрсаткичлари – Т.: 2005.
64. 2003 йилдаги Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ривожининг асосий кўрсаткичлари – Т.: 2004.
65. Интернетдан фойдаланиш ва ахборот манбалари. Услубий қўлланма. ТДИУ. Ахборот технологиялари ва масофавий ўқитиш маркази, 2005.
66. IPS “Norma”.
67. IPS “Pravo”.
68. www.uza.uz- (Natsionalnaya informatsionnaya agentstvo)
69. www.cer.uz- (tsentr ekonomicheskogo issledovaniya)
70. www.pravo.eastink.uz- (sbornik ekonomicheskix zakonodatelstv)

71. www.apb.org.uk- (Auditing Practices Board)
72. www.nao.gov.uk - (UK National Audit Office)
73. www.iaa.org.uk - (The Institute of Internal Auditors-United Kingdom)
74. www.iasc.org.uk - (International Accounting Standards Committee)
75. www.aicpa.org - (American Institute of Certified Public Accountants)
76. www.referat.uz- sbornik referatov.
77. www.gov.uz – (novosti pravitelstva Uzbekistana).
78. www.gov.Mj. (O'z.R moliya vazirligi).

Mundarija

KIRISH	5
1-bob. O'zbekistonda va xalqaro amaliyotda moliyaviy hisobotning mazmuni va ahamiyati	7
1.1. Moliyaviy hisobot to'g'risida tushuncha, uning mohiyati va ahamiyati	7
1.2. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar va ularni qiziqtiruvchi ma'lumotlar	11
1.3. Moliyaviy hisobotning tarkibi va tuzilishi	12
1.4. Moliyaviy hisobotni tuzish tamoyillari	15
1.5. Moliyaviy hisobotni tuzish oldidan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar	17
1.6. Moliyaviy hisobotni taqdim qilish tartibi	21
1.7. Xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan moliyaviy hisobotlar tarkibi va tuzilishi	23
1.8. Moliyaviy va statistik hisobotlarning umumiy jihatlari va tub farqlari	24
2-bob. Buxgalteriya balansi	27
2.1. Buxgalteriya balansining mazmuni va mohiyati	27
2.2. Buxgalteriya balansining turlari va ularga qo'yiladigan talablar	28
2.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya balansining rivojlantirilishi	30
2.4. Buxgalteriya balansi bo'limlari va moddalarining tavsifi	32
2.5. Buxgalteriya balansi moddalari bilan moliyaviy hisobotning boshqa shakllari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik	33
2.6. Buxgalteriya balansini tuzishdan oldin amalga oshiriladigan hisob ishlari	35
2.7. Buxgalteriya balansining uzoq muddatli aktivlar bo'limini tuzish qoidalari	37
2.8. Balansning joriy aktivlar qismini tuzish tartibi	39
2.9. O'z mablag'larining manbalari bo'limini tuzish qoidalari	43
2.10. Balans passivining majburiyatlar bo'limini tuzish tartibi	44
3-bob. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot	48
3.1. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning mazmuni va mohiyati	48
3.2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning huquqiy va me'yoriy asoslari	49
3.3. Xalqaro amaliyotda moliyaviy natijalarni shakllantirish qoidalari	51
3.4. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarining tavsifi	53
3.5. Xalqaro amaliyotda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda daromad, xarajat, foyda va zararlarni kiritish usullari	56
4-bob. Asosiy vositalarning harakati to'g'risidagi hisobot	69
4.1. Asosiy vositalarning harakati to'g'risidagi hisobotning mazmuni va ahamiyati	69
4.2. Asosiy vositalarning harakati to'g'risidagi hisobotning me'yoriy asoslari	70
4.3. Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot agregatlari va ularning mazmuni	72
4.4. Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobotni tuzish oldidan o'tkaziladigan hisob ishlari	74
4.5. Asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga kiritish tartibi	76
4.6. Asosiy vositalarning yig'ilgan amortizatsiya (eskirish) miqdori va qoldiq qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarning hisobotga kiritish tartibi	79
5-bob. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot	83
5.1. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning mazmuni va ahamiyati	83
5.2. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning me'yoriy asoslari	84
5.3. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda korxonada faoliyati turlarining aks ettirilishi	86
5.4. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish bosqichlari	87
5.5. Pul oqimlari harakatini to'g'ri va egri usularda aniqlash metodikasi	89
5.6. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish usullari	91
5.7. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish tartibi	93
5.8. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarini izoh va tushuntirish xatlarida yoritish	95
5.9. Pul oqimlarini bashoratlash va uni amalga oshirish bosqichlari	96
6-bob. Xususiy kapital to'g'risida kapital to'g'risidagi hisobot	99
6.1. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot mazmuni va ahamiyati	99

6.2 . Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlari va ularning mazmuni.....	100
6.3. Ustav kapitalining shakllanishi va uning xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish tartibi	102
6.4. Qo'shilgan kapital bilan bog'liq muomalalarni «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda» aks ettirish tartibi.....	103
6.5. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda rezerv kapitaliga oid ko'rsatkichlarni kiritish qoidalari	105
6.6. Taqsimlanmagan foyda to'g'risidagi ma'lumotlarning shakllanishi va ularni hisobda aks ettirish tartibi	106
6.7. Sotib olingan xususiy aksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobotda aks ettirilishi.....	108
6.8. Xususiy kapital to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirish qoidalari.....	109
6.9. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari izoh va tushuntirish xatlarida ochib berish	111
7-bob. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot.....	114
7.1. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning mazmuni va mohiyati	114
7.2. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot va jamlanma hisobotning umumiy jihatlari va tub farqlari ..	117
7.3. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning huquqiy va me'yoriy asoslari	118
7.4. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish tamoyillari.....	120
7.5. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning jahon amaliyotida qo'llaniladigan usullari	121
7.6. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish oldidan amalga oshiriladigan hisob ishlari	127
7.7. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish bosqichlari.....	128
7.8. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish uslubiyoti	130
7.9. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini izoh va tushuntirish xatlarida ochib berish	133
8 bob. Hisob siyosati va buxgalteriya hisoboti.....	136
8.1. Hisob siyosatining buxgalteriya hisobi va hisoboti bilan bog'liqligi	136
8.2. Hisob siyosatining buxgalteriya hisobotiga ta'sirining iqtisodchilar tomonidan o'rganilishi.....	138
8.3. Hisob siyosatining jihatlari va ularda yoritiladigan masalalar	140
8.4. Hisob siyosatining uslubiy jihatida buxgalteriya hisobotini tuzish uchun zarur ma'lumotlarning shakllantirilishi	143
8.5. Hisobotni tuzishda hisob siyosatining texnik jihatining vazifalari.....	146
Glossariy.....	152
Foydalanilgan adabiyotlar.....	154

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	5
Глава 1. Сущность и значение финансовой отчетности в Узбекистане и в мировой практике	7
1.1. Понятие финансовой отчетности, ее сущность и значение.....	7
1.2. Пользователи финансовой отчетности и данные, интересующие их.....	11
1.3. Содержание и структура финансовой отчетности.....	12
1.4. Принципы составления финансовой отчетности.....	15
1.5. Предварительные расчеты при составлении финансовой отчетности	17
1.6. Порядок предоставления финансовой отчетности.....	21
1.7. Содержание и структура финансовых отчетов, используемых в мировой практике.....	23
1.8. Общие черты и различия финансовых и статистических отчетов	24
Глава 2. Бухгалтерский баланс	27
2.1. Сущность и значение бухгалтерского баланса	27
2.2. Виды бухгалтерского баланса и требования, предъявляемые к ним	28
2.3. Совершенствование бухгалтерского баланса в условиях рыночной экономики	30
2.4. Характеристика разделов и статей бухгалтерского баланса	32
2.5. Взаимосвязь между статьями бухгалтерского баланса и другими видами финансовой отчетности.....	33
2.6. Предварительные расчетные работы перед составлением бухгалтерского баланса	35
2.7. Правила составления раздела долгосрочных активов бухгалтерского баланса	37
2.8. Порядок составления раздела текущих активов бухгалтерского баланса	39
2.9. Правила составления раздела источников собственных средств.....	43
2.10. Порядок составления раздела обязательств пассива бухгалтерского баланса	44
Глава 3. Отчет о финансовых результатах	48
3.1. Сущность и значение отчета о финансовых результатах.....	48
3.2. Правовые и нормативные основы отчета о финансовых результатах.....	49
3.3. Правила формирования финансовых результатов в мировой практике	51
3.4. Характеристика показателей отчета о финансовых результатах	53
3.5. Методы признания доходов, расходов, прибылей и убытков в отчете о финансовых результатах	56
Глава 4. Отчет о движении основных средств	69
4.1. Сущность и значение отчета о движении основных средств.....	69
4.2. Нормативные основы отчета о движении основных средств.....	70
4.3. Показатели отчета о движении основных средств и их значение.....	72
4.4. Учетные работы перед составлением отчета о движении основных средств	74
4.5. Правила включения данных о первичной (восстановительной) стоимости в бухгалтерский учет	76
4.6. Порядок включения в отчет данных о накопленной сумме амортизации (износа) и остаточной стоимости.....	79
Глава 5. Отчет о денежных потоках	83
5.1. сущность и значение отчета о денежных потоках.....	83
5.2. нормативные основы отчета о денежных потоках.....	84
5.3. отражение видов деятельности предприятия в отчете о денежных потоках.....	86
5.4. этапы составления отчета о денежных потоках.....	87
5.5. методика определения движения денежных потоков с использованием прямых и косвенных методов.....	89
5.6. методы составления отчета о денежных потоках.....	91
5.7. порядок составления отчета о денежных потоках.....	93
5.8. отражение показателей отчета о денежных потоках в пояснениях, примечаниях и расчетах.....	95
5.9. прогнозирование денежных потоков и этапы его осуществления.....	96
Глава 6. Отчет о собственном капитале	99
6.1. Сущность и значение отчета о собственном капитале.....	99
6.2. Показатели отчета о собственном капитале и их значение.....	100
6.3. Формирование уставного капитала и порядок его отражение в отчете о собственном капитале.....	102
6.4. Порядок отражения операций, связанных с добавленным капиталом в отчете «о собственном капитале»	103
6.5. Правила включения показателей, касающихся к резервного капитала в отчете о собственном капитале...	105
6.6. Формирование данных о нераспределенной прибыли и порядок их отражения в бухгалтерском учете.....	106
6.7. Отражение в отчетности данных о выкупленных собственных акциях.....	108
6.8. Правила отражение данных о собственном капитале	109

6.9. Раскрытие данных отчета о собственном капитале в пояснениях, примечаниях и расчетах.....	111
Глава 7. Консолидированная финансовая отчетность.....	114
7.1. Сущность и значение консолидированной финансовой отчетности.....	114
7.2. Общие черты и отличия консолидированной финансовой отчетности и обобщенной отчетности.....	117
7.3. Правовые и нормативные основы консолидированной финансовой отчетности	118
7.4. Принципы составления консолидированной финансовой отчетности.....	120
7.5. Международные методы, применяемые при составлении консолидированной финансовой отчетности.....	121
7.6. Расчетные работы перед составлением консолидированной финансовой отчетности.....	127
7.7. Этапы составления консолидированной финансовой отчетности.....	128
7.8. Методика составления консолидированной финансовой отчетности.....	130
7.9. Раскрытие показателей консолидированной финансовой отчетности в пояснениях, примечаниях и расчетах.....	133
Глава 8. Учетная политика и бухгалтерская отчетность	136
8.1. Взаимосвязь учетной политики с бухгалтерским учетом и отчетностью.....	136
8.2. Изучение влияния учетной политики на бухгалтерскую отчетность учеными-экономистами.....	138
8.3. Особенности учетной политики и вопросы, раскрываемые в ней.....	140
8.4. Формирование необходимой информации для составления бухгалтерской отчетности в методическом аспекте учетной политики.....	143
8.5. Задачи технического аспекта учетной политики при составлении отчетности.....	146
Глоссарий	152
Список используемой литературы.....	154

Contents

Introduction.....	5
Chapter - 1. The essence and importance of the financial statement in Uzbekistan and world practice	
1.1. The conception of the financial statement, its essence and importance.....	7
1.2. The users of the financial statement and informations in their interest	11
1.3. The essence and structure of the financial statement.....	12
1.4. The principles of making of the financial statement	15
1.5. The prior accounts by making of the financial statement.....	17
1.6. The order of providing of the financial statement	21
1.7. The contents and structure of the financial statement, which is used in world practice.....	23
1.8. General features and difference of the financial and statistical statements.....	24
Chapter - 2. Balance sheet	
2.1. The essence and importance of the balance sheet	27
2.2. The forms of the balance sheet and requirements (to the forms)	28
2.3. Improving the balance sheet in conditions of market economy.....	30
2.4. The characteristic of the sections and items of the balance sheet	32
2.5. Interconnectivity between the items of the balance sheet and other kinds of the financial statement.....	33
2.6. The prior calculations before making balance sheet.....	35
2.7. The rule of making section long-term assets of the balance sheet	37
2.8. The order of making section of the current assets of the balance sheet.....	39
2.9. The rule of making section of the sources of owned assets.....	43
2.10. The order of making section of liability of the balance sheet.....	44
Chapter - 3. The report of financial results	
3.1. The essence and importance of the report of financial results.....	48
3.2. The legal regulation of base of the report of financial results.....	49
3.3. The rule of formation of the financial results in world practice.....	51
3.4. The characteristic of the activities of the report of financial results.....	53
3.5. The methods of the acknowledgment of the incomes, expenceses, profits and losses in the report of financial results.....	56
Chapter - 4. The report about the fixed assets flow	
4.1. The essence and importance of the report about the fixed assets flow	69
4.2. Normative bases of the report about the fixed assets flow	70
4.3. Parameters of the report about the fixed assets flow and their importance	72
4.4. Accounting works before preparing of the report about the fixed assets flow	74
4.5. The rule of inclusion of the data about initial cost in accounting	76
4.6. Order of inclusion in the report of the datas about saved sum of amortization and residual cost.....	79
Chapter 5. The report of money flows	
5.1. Thee essence and importance of the report of money flows	83
5.2. Normative bases of the report of money flows	84
5.3. Show of forms of enterprise activity in the report of money flows	86
5.4. The stages of preparing report of money flows	87
5.5. The principle of determination of money flows with utilization of direct and indirect methods.....	89

5.6. The methods of preparing of the report of money flows	91
5.7. The order of preparing of the report of money flows	93
5.8. Show of parameters of the report about money flows in the explanations, notes and accounts	95
5.9. Forecasting of money flows and stages of its realization	96

Chapter - 6. The report of private capital

6.1. The essence and importance of the report of private capital.....	99
6.2. Parameters of the report of private capital and their importance	100
6.3. Formation of the authorized capital and the order of its show in the report of private capital	102
6.4. Order of show of the operations connected with the added capital in the report of private capital	103
6.5. Rule of inclusion of parameters concerning to the reserve capital in the report of private capital.....	105
6.6. Formation of the datas about retained income and the order of their show in accounting.....	106
6.7. Show in the reporting of the bought out private stocks	108
6.8. The rule of show of the datas of private capital	109
6.9. Datas disclosure of the report of private capital in the explanatories, notes and accounts.....	111

Chapter - 7. The consolidated financial reporting

7.1. The essence and importance of the consolidated financial reporting	114
7.2. General features and differences of the consolidated financial reporting and generalized reporting	117
7.3. Legal and normative bases of the consolidated financial reporting.....	118
7.4. Principles of preparing of the consolidated financial reporting	120
7.5. International methods used at preparing of the consolidated financial reporting	121
7.6. Settlement works before preparing of the consolidated financial reporting.....	127
7.7. Stages of preparing of the consolidated financial reporting.....	128
7.8. Principles of preparing of the consolidated financial reporting.....	130
7.9. Disclosing of the parameters of the consolidated financial reporting in the explanatories, notes and accounts	138

Chapter 8. Account policy and accounting report

8.1. Interrelation of account policy with accounting and reporting.....	136
8.2. Studiing of influence of account policy to accounting report by the scientists - economists .	138
8.3. Feature of account policy and questions, revealed in it	140
8.4. Formation of the necessary information for preparing of the accounting report in methodical aspect of account policy	143
8.5. The tasks of technical aspect of account policy at preparing of the reporting	146

Glossary	152
-----------------------	------------

The list of the used literature

.....	154
-------	------------